

MADANIYATSHUNOSLIK
FANIDAN
O'QUV - USLUBIY
MAJMUA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI

MADANIYATSHUNOSLIK

FANIDAN DAVOLASH, TIBBIY PEDAGOGIKA VA OHI FAKULTETI I
KURS TALABALARI UCHUN
O'QUV - USLUBIY MAJMUA

Tuzuvchi:

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti
Tursunov Q.S.

Dots. Tursunov Q.S. “Madaniyatshunoslik” fanidan o’quv-uslubiy majmua
(bakalavriat bosqichi talabalari uchun). -Buxoro, BuxDavTI - 2020.

I. ANNOTASIYA

«Madaniyatshunoslik» fanidan o'quv-uslubiy majmua 1-ijtimoiy-gumanitar fanlar bloki turkumiga kiradi, davlat ta'lim standartlari va namunaviy o'quv dasturi asosida tuzilgan.

O'quv-uslubiy majmua Buxoro davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida tayyorlangan bo'lib, talabalarga ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil o'rganishlarida yordam beradi. O'quv-uslubiy majmua «Madaniyatshunoslik» fani bo'yicha bakalavriat bosqichi talabalari, kollej o'qituvchilari, tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

O'quv-uslubiy majmuada fan bo'yicha namunaviy dastur, ishchi dastur, reyting nizomi, mustaqil ishlar nizomi, ta'lim texnologiyasi, qo'shicha va tushuntiruvchi matnlar, glossariy, mundarija berilgan.

2.NAMUNAVIY DASTUR

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Руйхатга олинди
№ БД-1.05
2011 йил “ 8 ” 11

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта
махсус таълим вазирлигининг 2011 йил
17 сентябрдаги 392-сон буйруғи билан
тасдиқланган

TAJRIBA-SINOV

MADANIYATSHUNOSLIK FANIDAN NAMUNAVIY DASTUR
(bakalavr yo`nalishi uchun)

TOSHKENT – 2011

Kirish

Jahon oliy ta'lim tizimidagi “Madaniyatshunoslik” fanining respublikamiz oliy ta'lim muassasalari o`quv jarayonlariga kiritilishi, eng avvalo, bo`lg`usi mutaxassislarni jahon madaniyati va sivilizatsiyasi yutuqlari bilan tanishtirishni, ularga gumanitar bilimlar berishni chuqurlashtirishni nazarda tutadi. “Madaniyatshunoslik” fanini talabalarga o`qitishning ahamiyati katta. Chunki jamiyat taraqqiyotida va shaxs kamolotida fan bilimlarining o`rni va roli o`ta muhim ahamiyatga ega. Zero, insoniyat to`qnash kelgan barcha muammolar va to`siqlarning echimi madaniyatga borib taqalmoqda. Demak, inson hayoti, uning madaniyati bilan bog`liq muammolarni bugun hal qilmasdan turib kelajak taraqqiyotini ta'minlab bo`lmaydi. “Madaniyatshunoslik” fani talabalarda keng mushohada madaniyatini shakllantirib, ularni ziyolilik ruhida tarbiyalaydi hamda buyuk maqsadlar bilan yashashga da'vat etadi.

O`quv fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o`qitishdan maqsad - talabalarni jahon madaniyati, birinchi navbatda, Sharq madaniyati yodgorliklari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy merosi – betakror obidalari, mutafakkirlar asarlarida jamlangan ma'naviy mulki, xalqimizning barhayot udum, an'ana, turmush va fikr tarzini ifodalovchi ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirishga qaratilgan. Ikkinchidan, tarixiy haqiqatni qaror toptirish, ajdodlar merosini o`rganish va o`rgatish asosida, yurt istiqboli – yosh avlodni milliy fidoyilik ruhida tarbiyalash, ularda o`zlikni anglash, Vatan tuyg`usi, ona yurt g`ururi – sharqona qadriyatlar asosida milliy mafkurani shakllantirish.

Fanning vazifasi:

- insonning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini hamda kishilarning ma'naviy turmushiga va madaniyatga oid barcha jarayonlarni tadqiq qiladi;
- talabalarning turli tarixiy davrlar madaniyatlari va ijtimoiy guruhlarning urf-odatlari, turmush tarzi to`g`risidagi bilimlar bilan boyitadi. ijtimoiy turmush voqeliklarini yagona mazmun asosida anglashga yordam beradi. Ko`plab betakror va mustaqil madaniyatlardan tashkil topgan jahon sivilizatsiyasining birligi va xilma-xilligini ko`rsatadi;
- talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, ularga yangi ma'lumotlar berish bilan birga, yoshlarda madaniyat voqeliklari bilan munosabatda bo`lish malakasini hosil qiladi;
- talabalarga jahon madaniyati va uning tarkibiy qismi bo`lgan O`zbekiston madaniyatining rivojlanish tarixi, xususiyatlari, o`zaro aloqadorligi muammolari va istiqbollari to`g`risida bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish, milliy madaniyat va o`zga millatlar madaniyati, qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda, madaniyat yodgorliklariga ijobiy munosabatda bo`lishida, ma'naviy jihatdan rivojlanishga ko`maklashadi.

Fan bo`yicha talabalarning bilim, ko`nikma va malakasiga qo`yiladigan talablar

“Madaniyatshunoslik” fanini o`rganish jaryonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- talaba bashariyat tomonidan asrlar davomida yaratgan madaniyat, uning taraqqiyoti qonuniyatlari va tamoyilari haqida, madaniy jarayonlarning takomil bosqichlari va hozirgi holati haqida chuqur bilim va malakaga ega bo'lishi, bu bilimlar orqali o'zining madaniy tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lish talab etiladi.

- talaba umuminsoniy va milliy qadriyatlar to'g'risida chuqur ilmiy-nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashi lozim.

- talabalardan jahon madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston xalqining dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini bilishi, undan faxrlanish ko'nikmasi va tuyg'usini o'z ongida mujassamlashtirishlari, ajdodlar merosini saqlash, o'rganish, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishlari, eng muhimi bunga munosib voris bo'lish ruhida bilim, malakalarga ega bo'lish kerak.

- talaba istiqlol davri madaniy tiklanish va yuksalish jarayoniga oid Prezident Islom Karimovning nazariy- metodologik va amaliy g'oyalarining mazmun-mohiyatini, uning madaniy-falsafiy hamda ilmiy ifodasini chuqur anglab etishi, xalqimiz tomonidan yaratilgan madaniyat durdonalarini qadrlash, uning o'ziga xos qadriyatlarini puxta egallash va shu bilim, ko'nikmalar orqali begona ta'sirlarga murosasiz munosabatda bo'lishlikni talab etadi.

“Madaniyatshunoslik” fani bo'yicha tizimli bilimlarga ega bo'lishi; fan haqida umumiy tushuncha - tasavvur va bilimga ega bo'lishi, zamonaviy ilmiy asoslarda - ulardan hayotiy va kasbiy faoliyatida foydalana olishi; ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish va foydalanish usullariga ega bo'lishi; kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qilishni bilishi zarur.

“MADANIYATSHUNOSLIK” FANI BO'YICHA O'QUV DASTURI

“Madaniyatshunoslik” fanining predmeti va vazifalari

“Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Prezident Islom Karimov ma'naviyat, milliy qadriyatlar to'g'risida. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida. Madaniyatning sohalar bo'yicha tasnifi: iqtisodiy madaniyat va uning turlari. Siyosiy madaniyat-insonlarning siyosiy manfaatlari, e'tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi huquqiy g'oyalar majmui. Kasb mahorati madaniyati – aniq mehnat turi bilan bog'liq nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar yig'indisi. Pedagogik mahorat madaniyati – ilmiy bilimlar va axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga etkazishdan, ekologik madaniyat – inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlardan iborat. Madaniyatning ko'rinishlar bo'yicha tasnifi. Hukmron madaniyat. Qishloq madaniyati. Shahar madaniyati. O'rganish bo'lib qolgan madaniyat. Madaniyatning paydo bo'lish darajasiga ko'ra turlari: yuksak madaniyat, xalq madaniyati, ommaviy madaniyat. Madaniyatshunoslikning axloqshunoslik fani bilan bog'liqligi. Madaniyatning kelib chiqishi haqidagi Forobiyning qarashlari. “Madaniyatshunoslik” fanining predmeti, uning mohiyati va rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari hamda ijtimoiy vazifalari. “Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi. Madaniyat falsafasi. Madaniyat sotsiologiyasi. Madaniyat tarixi. “Madaniyatshunoslik” fanining tarbiyaviy ahamiyati. Madaniyatga berilgan ta'riflar. «Madaniyat» tushunchasining ayrim talqinlari. Madaniyat mustaqilligi. Jamiyat va madaniyat. Madaniyat —

jamiyat mahsuli, ijtimoiy hayotning muhim mulki. Jamiyat, madaniyat va shaxs munosabatlari. Madaniyatning umumiy xususiyatlari. Madaniyat va etnos. Xalq – etnik umumiylikning bosh shakli. Etnos – umumiy til va madaniyatni shakllantiruvchi omil. Madaniyat va shaxs. Shaxsning madaniyat bilan o`zaro munosabati. Ziyolilik va madaniyatlilik. Tarbiyalilik va madaniyatlilik.

Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari

Madaniyatning turlari-moddiy va ma'naviy madaniyat, ularning o`zaro bog`liqligi. Insoniyat taraqqiyotida moddiy hayot bilan ma'naviy hayot uyg`unligi. Ma'naviy faoliyat moddiy madaniyat mahsuli sifatida. Ma'lum bir davrga xos axloqiy mezonlar – din, san'at, huquq, siyosatning ma'naviy madaniyat shakllanishidagi roli. Moddiy madaniyat takomilida “buyuk industrial inqilob”ning roli. Axborot jamiyati madaniyati va uning turli ko`rinishlari: internet, kabel televideniyesi, videodisk, ularning insoniyat madaniy hayoti darajasiga ijobiy ta'siri. Moddiy madaniyatning ko`rinishlari. Moddiy madaniyat tarixiy jarayon sifatida. Ma'naviy madaniyatning turli shakllari. Madaniyatning asosiy vazifalari: olamni o`zlashtirish va qayta o`zgartirish vazifasi. Himoya-moslashuv vazifasi. Signifikativ vazifa. Axborotlarni yaratish va yig`ish vazifasi. Kommunikativ vazifa. Shaxs kamolotida madaniy omillarning ahamiyati.

Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros

Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o`zgarib borishi. “Buyuk ipak yo`li” madaniyati- O`rta Osiyo madaniyatining uzviy bir qismi. Bu madaniyat Eron, Hindiston, O`rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o`zgartirishga sabab bo`lgani. Me'morchilikka oid o`tmishdagi va bugungi inshootlar, ularning tarixi, farqlari, o`z davri uchun noyob hodisa ekani – madaniy taraqqiyotning muhim belgisi. Madaniy meros – insoniyatning o`tmish bilan chambarchas bog`liqligi natijasi. Madaniy merosning mexanizmi. Ma'naviy merosning uzviyligi. O`tmishdan kelajakka o`tish jarayonida merosning mazmunan o`zgarishi.

Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari

Milliy o`zlikni anglash va milliy madaniyat munosabatlari. Sovet tuzumi davrida O`zbekistonda xalq an'alariga tazyiqlar va buning salbiy oqibatlar. Jamiyatning moddiy va ma'naviy rivoji – har tomonlama rivojlanish uchun omil. Milliy axloq va yagona millat, yagona Vatan tuyg`usi. Mustaqil O`zbekiston sharoitida milliy madaniyat rivojlanishi uchun omillar va milliy madaniyatning bugungi jahon madaniyati qatoridan o`rin olayotgani hamda dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotgani.

Jahon madaniyati bosqichlari

Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o`z ichiga qamrab olgani. Madaniyat universalligi tushunchasi. Madaniyatning universalligi, geografik o`rnidan qat'iy nazar, hamma madaniyatga mansub qadriyatlar, qoida, an'ana va xususiyatlar, mezonlar, ijtimoiy qurilishiga xos hodisa. Madaniyatning tarixiy bosqichlari. Skiflar madaniyati. Skiflar madaniyatining O`rta Osiyoda, xususan, Turonzaminda shakllangani, Gerodotning bu haqdagi dalillari. “Amudaryo xazinasi“- dunyo madaniyati tarixida muhim voqea. Ibtidoiy fikrlash

bosqichida tasviriy san'atdagi ramziy timsollar. O`rta Osiyoning jahon madaniyatiga qo`shgan hissasi. Kaltaminor madaniyati. Kaltaminor madaniyatining Janubiy Sibirdagi Afanasev madaniyati bilan Turkmanistondagi Anov madaniyatiga ta'siri.

Ibtidoiy madaniyat

Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari, ular o`rtasidagi umumiylik va farqlar. Antik madaniyat va qadimiy madaniyat, ular o`rtasidagi farqlar. Arxaik davrdagi insonning fikrlash tarzi. Dunyoqarash va tafakkurning shakllanishiga tabiatdagi hodisalar, tabiiy o`zgarishlar ta'sir ko`rsatishi, dunyoqarash, tafakkur bilan tabiat doimo bir - biriga ta'sir o`tkazib borishi. Tafakkur va dunyoqarash madaniy jarayonni belgilovchi muhim omillardir. Ibtidoiy odam va olam munosabatida ikki yo`l. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko`rinishlari: animizm, fetishizm va h.k. Ilk badiiy tafakkur namunalari: shumerlar va ularning mifologiyasi, xalq og`zaki ijodi. Shumerlarda fan. Yozuv madaniyati. Yozuv bosqichlari va turlari. Yozuv – insoniyatning beqiyos tafakkuri mahsuli sifatida. Yozuv ashyolari. Kitob va kitobchilik – madaniyatning oliy ko`rinishlaridan biri. Sharqda kitob namunalari: loy taxtachalar, mum surtilgan taxtachalar, papirus, teri, qog`oz. Ossuriya shohi Ashshurbannipalning kutubxonasi. Bobilliklarning kitobat san'ati. Xetlarning sopol taxtachalari.

Qadimgi davr madaniyati

Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida. Misrda ilk hayot izlari. Misrliklar-ilk kalendar ijodkorlari. Misrning “qizil” va “qora” mamlakatga bo`linishi va buning sabablari. Misr piramidalari – dunyoning etti mo`jizasidan biri. Evropa va Misr olimlarining robot yordamida Xeops piramidasi ustida o`tkazgan tadqiqotlari (2002 yil). Qadimgi Misrda falsafiy maktablarning shakllanishi. Misr sivilizatsiyasi – eng uzoq davom etgan sivilizatsiyadir. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davri: Egey yoki Kri.- miken davri. Gomer davri madaniyati. Arxaik davr madaniyati. Klassik davr. Ellinistik davr. Qadimgi Rim madaniyati. Qadimgi Rim madaniyatining uch davri: shohlik davri, respublika davri, imperiya davri. Rimda fan va maorif. Rim she'riyati. Rim teatr san'ati, haykaltaroshlik. Imperiya davrida Rim shaharlari. Imperiya davrida shaharlarda kommunikatsiya vositalari –tosh ko`prik, vodoprovodlar, kanalizatsiya. Rimda fan va maorif. Xitoy — sivilizatsiya ilk bor paydo bo`lgan to`rt mamlakatning biri. Xitoyliklar qog`oz, choy, chinni, porox, soyabon, muzqaymoq, ipak va gugurtning ixtirochilari. Xitoyda g`or ibodatxonalar. Xitoy arxitekturasi. Xitoyda falsafiy va diniy oqimlar. Xitoy madaniyatidan qolgan eng noyob yodgorlik — alifbo. VII–XIII asrlarda Xitoyda rassomchilik. Samo ibodatxonasi. Xitoy arxitekturasi Yaponiya, Koreya, Janubi–Sharqiy Osiyo mamlakatlari arxitekturasi kuchli ta'sir etgani. Hindiston – qadimgi sivilizatsiya o`lkalaridan biri. Hindiston olamga bergan eposlar va ijodkorlar. Vedalar va ularning Sharq madaniyati tarixidagi o`rni. Qadimgi Hindistonning matematika, astronomiya, tibbiyot sohasida erishgan katta muvaffaqiyatlari. Hindiston madaniyati tarixi bosqichlari: Xoropp madaniyati. Veda davri. Guptalar imperiyasi. Boburiylar sulolasi madaniyati. Hind madaniyatidagi buddaviylikning dunyo diniy madaniyatiga ta'siri. Vizantiya madaniyati. Vizantiya davlati hududida chorvachilik, qishloq xo`jaligi.

Vizantiya davlati - so`nggi antik davrning barham topishi va o`rta asr jamiyatining tug`ilishi chegarasida. Masihiylik aqidalarining Vizantiya madaniyati tarixida paydo bo`lishi. Vizantiyada madaniy hayot. Shoirlar Grigoriy Nazianzin, shoir Roman Sladkopevets, Feofilakt Simokatta. Kandak janri va Vizantiya adabiyotida bu janrning o`rni. Vizantiya madaniyatining turli bosqichlarida sharqona va g`arbona elementlar.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati

Oltoy, Janubiy Sibir, Mo`g`uliston, O`rta Osiyo hududlarida ibtidoiy hayot tarzi. Farg`onaning tosh davriga oid madaniy yodgorliklari. Qovunchi madaniyati. O`zbekistonning azaliy o`troq aholisi ijodi –me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at. O`zbekistonning janubiy hududlarida qadimgi davr me'morchiligi va san'ati. Termizdagi me'morchilik yodgorliklari, tasviriy va amaliy san'at namunalari. Madaniy jarayonning bu ko`rinishlariga ijtimoiy – siyosiy jarayonlar asosiy sabab bo`lgani. Kushonlar davrida Termiz (Termed), Chingiztepa, Qoratepadagi budda ibodatxonalar. Dalvarzintepadagi Chag`oniyon shahri me'morchiligi. Xorazm, Baqtriyadagi inshootlarda foydalanilgan kvadrat shakldagi g`ishtning qurilish materiallari takomillashuviga xizmat qilgani va me'morchilikning yangi bosqichga ko`tarilgani. Harbiy me'morchilik. Qo`yqirilgan qal`adagi inshoot (mil. av. III asr). Qo`yqirilgan qal`adagi dafn odatlari. Qadimiy yozma manbalarda O`rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to`g`risidagi ma'lumotlar. Milodiy I asrga oid Xan yilnomasida “Avesto” davri madaniyati. Zardushtiylik ta'limoti. Xitoy sayyohining hozirgi O`zbekiston to`g`risidagi ma'lumotlari. Buddaviylik madaniyati. Buddaviylikning Baqtriya davlatiga kirib kelishi.

XVI – XIX asr birinchi yarmida mintaq xalqlari madaniyati

Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. Jo`ybor xonlari va ularning mamlakat ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi roli. Bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur. Tabiiy fanlar. Matematika, astronomiya, geografiyaning rivojlanishi. Tibbiyot. XVI asrda Movarounnahrda adabiy hayot. Tarixiy asarlar. She'riyat. Shayboniy hukumdorlarining she'riyatga munosabati. Xiva xonligida adabiy hayot. Abdulg`ozi Bahodirxon. Uning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlari, bu asarlarning taxlili va madaniyat tarixidagi o`rni. Dostonchilik. Munis va Ogohiyning tarixiy asarlari. Qo`qon xonligidagi adabiy hayot. Mashrab, Xuvaydo, Abdulkarim Fazliy Namangoniylar ijodi. Amir Umarxon va uning Qo`qon adabiy muhiti shakllanishidagi roli. XVII-XIX asr o`rtalarida Buxorodagi adabiy hayot.

Sayid Nasafiy, Mutribiy, Turdi Firog`iy, Mulla Mastiy Oxundiy, Mujrim Obidlar ijodiy faoliyati. Badiiy madaniyat. Uning har bir xonlikda o`ziga xos xususiyati. Badiiy madaniyat markazlari. Me'morchilik. Amaliy bezak san'ati. Uning taraqqiyotidagi o`ziga xosliklar. Minatyura san'atining rivojlanishi. Tarixiy asarlarga ishlangan minatyuralar. Kitobat san'ati. Musiqa. O`tmish an'analariga sadoqat, vorisiylik. Darvesh Ali Changiy ijodi. Teatr. Masxarabozlar teatri, qiziqchilar teatri, qo`g`irchoq teatri va uning namoyandalari. Raqs san'ati va uning hududiy xususiyatlari. Buxoro shashmaqomi.

Dunyoviy va diniy madaniyat

O`rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o`zgarishlar. Iudaizm va Tavrot. Bibliyaning tarkibiga kiruvchi kitoblar. Eski Ahdda olamning ibtidosi to`g`risidagi chuqur mushohadalar, odamlar o`rtasidagi munosabatlar, axloqiy mezonlar, ma'naviy qadriyatlar va boshqa ko`plab falsafiy g`oyalar, axloqiy o`gitlar. Iudaizm - mustaqil diniy tizim. Masihiylik ta'limoti Sharqning falsafiy tafakkuri mahsuli sifatida. Katolik jamoati va pravoslavlar jamoati. Islomiy madaniyat. Islomda ilm o`rganish tashviqi va targ`iboti. Turkiy qavmlar yashaydigan o`lkalarda islomning yakdilikka chorlovchi g`oyalari. Islom va ilmiy bilimlar rivoji. Al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi. Tasavvuf va madaniyat. Tavhid e'tiqodi. Muruvvat va Futuvvat muvofiqligi. Futuvvatning zohiriy va botiniy ruknlari.

Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti

Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy manbalar: O`rxun – Enasoy yodgorliklari, yunon muarrixlarining asarlari, qadimgi Xitoy yilnomalari. V-VII asrlar boshida Markaziy Osiyoda ijtimoiy - siyosiy voqealar. Milodiy V asr va VI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy va madaniy hayotning yunon muarrixlari asarlarida va Xitoy yilnomalarida yoritilishi. Oltoy madaniyati. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda va ikkinchi ming yillik boshlarida hozirgi O`zbekiston va Pomir hududlarida Oqdengiz irqiga o`xshash dolixotsefal irqqa mansub odamlar qoldiqlari. Markaziy Osiyo madaniyatining o`ziga xosligi. M.av. III–II asrlarda Tangri tog`idan Farg`onaga ko`chish. Yozuv madaniyati-ko`k turk xoqonligi davridan bugungacha etib kelgan eng noyob madaniy yodgorlik. Uyg`onish – Sharq va g`arb xalqlarining madaniyati tarixida keskin burilishlar davri. O`rta Osiyoda Uyg`onishning uch davri. Har bir bosqichda Uyg`onishning asosiy belgilari. Alisher Navoiy va Uyg`onish davri. “Xamsa” dostoni – Uyg`onishning eng yorqin mahsuli sifatida. Uyg`onish davrining ideali. Uyg`onish davri dostonlari qahramonlarining romantik qiyofada tasvirlanishi.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr)

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. Obodonchilik ishlari. Hunarmandchilik va uning turlari, taraqqiyoti. Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati. Me'morchilik. Shaharsozlik. Ulug`bek rasadxonasi. Saroy va bog`lar qurilishi. Samarqand registoni. Temuriylar davrida tasviriy san'at va uning turlari rivoji. Naqqoshlik, xattotlik san'ati. Samarqand miniatyura maktabi va uning xususiyatlari. Badiiy hunarmandchilik va uning turli shakllari. Kulolchilik sohasidagi yangiliklar. Samarqand- ilm-fan markazi. Mirzo Ulug`bek davrida Samarqandda ilm-fan rivoji. “Ziji jadidi Ko`ragoniy” asari. Adabiyotning rivojlanishi. O`zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi madaniy yuksalishning ahamiyati. XIV-XV asrlardagi ma'naviy-madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning xizmatlari. Movarounnahrda tibbiyot, falsafa, tarix ilmi. Kitobat san'ati. Musiqa san'ati. Hozirgi zamon fanida bu davr temuriylar davri
Renessansi deb atalishi va uning ahamiyati.

Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar)

Madaniy hodisalar va jarayonlarning an'anaviy xususiyatga ega ekanligi. San'atda supermatizm oqimi. Modern madaniyati. Modern tushunchasining san'atga falsafa va fanga aloqadorligi. Simvolizm estetikasi. Postmodernizm - hozirgi falsafa, san'at va fanning asosiy yo'nalishi sifatida. Postrukturalizm postmodernizmning falsafiy asosi. Postmodernizmning madaniyatga tadbiq qilinishi. Madaniy taraqqiyotda inson omili. Insonning industrial madaniyatga munosabati. Ommaviy madaniyat. Ommaviy madaniyatning salbiy va xatarli oqibatlari.

Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat

O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosati. Hunarmandchilik. Teatr. Xivadagi kutubxona. Kitobat san'ati. Tasviriy san'at. Fan. Musiqa san'ati. An'anaviy qo'shiqchilik san'ati. Me'morchilik. Xalq me'morchiligi. Amaliy san'at. Qiziqchilik. Davriy matbuot. Mustabid sovet davlati davrida O'zbekiston madaniyati. Sovet davlatining madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshuvi. Klublar, kutubxonalar, muzeylar kabi muassasalar faoliyatining siyosatlashtirilishi. Adabiyot. Teatr san'ati. Me'morchilik. Amaliy bezak san'ati. Musiqiy san'at. Kino san'ati. Radio. Televidenie.

Mustaqillik va madaniy taraqqiyot. Mustaqillik arafasida madaniyatimiz ahvoli.

O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi muassasalar va jamoat tuzilmalari. Ularning huquqiy-ma'naviy asoslari shakllanishi. Ma'naviy madaniyat va uning muhim jabhasi – musiqa san'ati. Milliy qo'shiqchilik ko'rik-tanlovlari. Muzeylar. Ularning xalqimiz ma'naviy salohiyatini oshirishdagi ahamiyati. Madaniy merosga munosabat. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi. Qo'qon adabiyot muzeyi. Muzey qo'riqxonalar. Buxoro muzey-shahar. «Baxouddin Naqshband tarixiy muzeyi». O'zbekiston kino san'ati muzeyi. Muzeylarning bugungi asosiy vazifasi. Xiva "Ichon-qal'a" yodgorliklar majmuasi. "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi". Uning YuNESKO Umumjahon madaniy va tabiiy meros ob'ektlari ro'yxatiga kiritilishi. «Boysun bahori» ochiq folklor festivali. "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlarimizga atab o'rnatilgan obidalar. Xunarmandchilik. «Xunarmand» Respublika ijodiy uyushmasi. Tarixiy obidalarni tiklash. Toshkent – islom madaniyati poytaxti. Milliy-madaniy markazlar va ularning roli. Adabiyot. Me'morchilik. Monumental san'at. Uning taraqqiyotidagi yangi davr. Amaliy bezak san'ati. Tasviriy san'at. An'anaviy musiqa sa'ati. Nomoddiy madaniyat va san'at durdonalari. Teatr. Teatrlashtirilgan maydon tomoshalari. Kino va televideniening bugungi taraqqiyoti. Sport. Madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro hamkorliklarning kengayib borishi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari

1. Madaniyat va sivilizatsiya. Madaniyatning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni.
2. Sharq uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Islomiy qadriyatlar va hozirgi zamon.
4. O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonidan madaniy merosga munosabat.

5. An'anaviy madaniyatning dunyo madaniyatida tutgan o'rnini. Modernizm va postmodernizm madaniyati (XVI-XXI asrlar). Madaniy va ma'naviy meros.
6. Axloqiy, Ekologik, Huquqiy, muomala madaniyati.
7. Madaniyat, demokratiya, siyosat va erkinlik.
8. Qadimgi Misr, Qadimgi Yunon, Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hindiston, Qadimgi Mesopotamiya madaniyati.
9. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati
10. Axloqiy, Huquqiy, Muomala madaniyati

АХБОРОТ - УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТ

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston, 2011y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent.: O'zbekiston, 1999 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent.: Sharq. 1999 y.
4. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. (Prezident Islom Karimovning Nezavisimaya gazeta muxbirining savollariga javoblari). –Toshkent.: O'zbekiston, 2005 y.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –Toshkent.: O'zbekiston, 2000 y. 11-jild.
6. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. –Toshkent.: O'zbekiston, 2003 y.
7. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. –Toshkent.: O'zbekiston, 2005 y.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch – Toshkent.: Ma'naviyat 2008 9.
9. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. Toshkent.: O'zbekiston, 2009 y.
10. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Toshkent.: O'zbekiston, 2010 y.
11. Karimov. I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. Toshkent.: O'zbekiston, 2010 y.
12. Karimov. I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent.: O'zbekiston, 2011 y.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Akramov Sh. va boshqalar. O'zbekistonning madaniy obidalari. –Toshkent.: O'zbekiston, 1993 y.
2. Madaniyat va ma'naviyat muammolari. -Toshkent.: Meros, 1994 y.
3. Xayrullaev M. O'zbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixidan. -Toshkent.: O'zbekiston, 1995 y.
4. Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o'zgarishlari. Toshkent.: 2004 y.
5. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent.: "Farg'ona", 1998 y.
6. Axmedova E, Gubaydullin R.. Kulturalogiya. Mirovaya kultura. Tashkent.: -2001 g. Akademiya xudojestv Uzbekistana.
7. Abdullaev M., Umarov E., Ochildiev A., Madaniyatshunoslik asoslari. -Toshkent.: Turon-iqbol, 2006 y.

8. Ochildiev A. Madaniyat falsafasi. -Toshkent.: Muxarrir, 2010y.
9. Bekmurodov M, Yusupova N. Madaniyat sotsiologiyasi. Toshkent.: Yangi asr avlodi. -2010 y.
10. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik. Universitet,Toshkent.: - 2011y.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. –T.: Yozuvchi, 1996 y.
2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent.: O`zbekiston, 1998 y.
3. Boboiev X. va boshqalar. Madaniyatshunoslik asoslari. -Toshkent.: 2001 y.
4. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. – Toshkent.: 2002 y.
5. Quranboev Q., Abdurahmonov M, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch asarini o`qitish bo'yicha o`quv-uslubiy qo`llanma. Universitet, Toshkent.: -2010y.
6. Rahmonov N., B.Matboboev. O`zbekistonning ko`hna turkiy–run yozuvlari. – Toshkent.: 2006 y.

Elektron ta'lim resurslari:

1. “Xalq so`zi” gazetasi –www info XS.Uz.
2. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor.uz.
3. “Ma'rifat” jurnali - www ma'rifat – inform.
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - www rzult academy freenet uz.
5. “Moziydan sado” jurnali - www moziy dostlink. Net
6. www.mfa.uz.
7. www.press-servise.uz.
8. www.literature.uz.
9. www. Ziyonet.uz. __

“Madaniyatshunoslik” fanidan ma’ruza mavzularining soatlar bo’yicha taqsimoti

| № | Мавзулар номи | Маъруза |
|----------|---|----------------|
| 1. | “Madaniyatshunoslik” fanining predmeti va vazifalari Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari | 2 |
| 2. | Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari | 2 |
| 3. | Jahon madaniyati bosqichlari. Ibtidoiy madaniyat | 2 |
| 4. | Qadimgi davr madaniyati.Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati | 2 |
| 5. | XVI – XIX asr birinchi yarmida mintaqaxalqlari madaniyati | 2 |
| 6. | Dunyoviy va diniy madaniyat | 2 |
| 7. | Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr) | 2 |
| 8. | Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar). Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat | 2 |

| | | |
|----|---|----|
| 9. | Mustaqillik va madaniy taraqqiyot Mustaqillik arafasida madaniyatimiz ahvoli. | 2 |
| | | 18 |

“Madaniyatshunoslik” fanidan seminar mashg’uloti mavzularining soatlar bo’yicha taqsimoti

| | | |
|----|--|----|
| 1. | Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari | 2 |
| 2 | Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari | 2 |
| 3 | Jahon madaniyati bosqichlari. Ibtidoiy madaniyat | 2 |
| 4 | Qadimgi davr madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati | 2 |
| 5 | XVI-XIX asr birinchi yarmida mintaqa xalqlari madaniyati | 2 |
| 6 | Dunyoviy va diniy madaniyat | 2 |
| 7. | Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti | 2 |
| 8 | Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi -XV asr) | 2 |
| 9 | Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar). Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat Mustaqillik va madaniy taraqqiyot | 2 |
| | | 18 |

3.ISHCHI DASTUR
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI

MADANIYATSHUNOSLIK
FANI BO'YICHA ISHCHI DASTUR

Ta'lim shifri - 510000 «Sog'liqni saqlash»

Ta'lim yo'nalishi:

5510100 – Davolash ishi

5111000 – Mutaxassislik ta'limi (5510100 – Davolash ishi)

5510200 - Педагогика

5510700 – Oliy hamshiralik ishi

Soat hajmi 68

Shu jumladan:

Ma'ruza 18

Amaliy mashg'ulot 18

Mustaqil ish 32

Oliy hamshiralik ishi

Soat hajmi 62

Shu jumladan:

Ma'ruza 18

Amaliy mashg'ulot 18

Mustaqil ish 26

Tuzuvchilar:

Axmedova Z.A. – f.f.n., dots.

Taqrizchilar:

Huseynova A.A. – f.f.d., prof.

Kafedra mudiri:

Tursunov Q.S. – s.f.n., dots.

FMUK rahbari :

Huseynova A.A. – f.f.d., prof.

Ushbu ishchi dastur namunaviy o'quv dasturi va o'quv reja asosida
_____ yo'nalish bo'yicha tuzilgan va Buxoro davlat tibbiyot instituti
markaziy uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Bayonnoma № _____ « ____ » _____ 2020 y.

I. Fan bo'yicha o'quv dasturining tarkibi:

Kirish

Jahon oliy ta'lim tizimidagi "Madaniyatshunoslik" fanining respublikamiz oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlariga kiritilishi, eng avvalo, bo'lg'usi mutaxassislarni jahon madaniyati va sivilizatsiyasi yutuqlari bilan tanishtirishni, ularga gumanitar bilimlar berishni chuqurlashtirishni nazarda tutadi. "Madaniyatshunoslik" fanini talabalarga o'qitishning ahamiyati katta. Chunki jamiyat taraqqiyotida va shaxs kamolotida fan bilimlarining o'рни va roli o'ta muhim ahamiyatga ega. Zero, insoniyat to'qnash kelgan barcha muammolar va to'siqlarning echimi madaniyatga borib taqalmoqda. Demak, inson hayoti, uning madaniyati bilan bog'liq muammolarni bugun hal qilmasdan turib kelajak taraqqiyotini ta'minlab bo'lmaydi. "Madaniyatshunoslik" fani talabalarda keng mushohada madaniyatini shakllantirib, ularni ziyolilik ruhida tarbiyalaydi hamda buyuk maqsadlar bilan yashashga da'vat etadi.

1.1.Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni jahon madaniyati, birinchi navbatda, Sharq madaniyati yodgorliklari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy merosi – betakror obidalari, mutafakkirlar asarlarida jamlangan ma'naviy mulki, xalqimizning barhayot udum, an'ana, turmush va fikr tarzini ifodalovchi ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirishga qaratilgan. Ikkinchidan, tarixiy haqiqatni qaror toptirish, ajdodlar merosini o'rganish va o'rgatish asosida, yurt istiqboli – yosh avlodni milliy fidoyilik ruhida tarbiyalash, ularda o'zlikni anglash, Vatan tuyg'usi, ona yurt g'ururi – sharqona qadriyatlar asosida milliy mafkurani shakllantirish.

Fanning vazifasi – insonning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini hamda kishilarning ma'naviy turmushiga va madaniyatga oid barcha jarayonlarni tadqiq qiladi:

- talabalarning turli tarixiy davrlar madaniyatlari va ijtimoiy guruhlarning urf-odatlarini, turmush tarzi to'g'risidagi bilimlar bilan boyitadi. ijtimoiy turmush voqealarini yagona mazmun asosida anglashga yordam beradi. Ko'plab betakror va mustaqil madaniyatlardan tashkil topgan jahon sivilizatsiyasining birligi va xilma-xilligini ko'rsatadi;

- talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, ularga yangi ma'lumotlar berish bilan birga, yoshlarda madaniyat voqealarini bilan munosabatda bo'lish malakasini hosil qiladi;

- talabalarga jahon madaniyati va uning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston madaniyatining rivojlanish tarixi, xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi muammolari va istiqbollari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, milliy madaniyat va o'zga millatlar madaniyati, qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda, madaniyat yodgorliklariga ijobiy munosabatda bo'lishida, ma'naviy jihatdan rivojlanishga ko'maklashadi.

1.2.Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Ko'rsatilgan maqsad va vazifalar asosida estetika fani o'tilgandan keyin talaba quyidagilarni **bilishi shart:**

-istiqlol davri madaniy tiklanish va yuksalish jarayoniga oid Prezident Islom Karimovning nazariy-metodologik va amaliy g'oyalarining mazmun-mohiyatini, uning madaniy-falsafiy hamda ilmiy ifodasini chuqur anglab etishi, xalqimiz tomonidan yaratilgan madaniyat durdonalarini qadrlash, uning o'ziga xos qadriyatlarini puxta egallash va shu bilim, ko'nikmalar orqali begona ta'sirlarga murosasiz munosabatda bo'lishlikni talab etadi. "Madaniyatshunoslik" fani bo'yicha tizimli bilimlarga ega bo'lishi; fan haqida umumiy tushuncha - tasavvur va bilimga ega bo'lishi, zamonaviy ilmiy asoslarda - ulardan hayotiy va kasbiy faoliyatida foydalana olishi; ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish va foydalanish usullariga ega bo'lishi; kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qilishni.

Talaba bajara olishi kerak:

- bashariyat tomonidan asrlar davomida yaratgan madaniyat, uning taraqqiyoti qonuniyatlari va tamoyilari haqida, madaniy jarayonlarning takomil bosqichlari va hozirgi holati haqida chuqur bilim va malakaga ega bo'lishi, bu bilimlar orqali o'zining madaniy tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish;

Talaba quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

-jahon madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston xalqining dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini bilishi, undan faxrlanish ko'nikmasi va tuyg'usini o'z ongida mujassamlashtirishlari, ajdodlar merosini saqlash, o'rganish, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishlari, eng muhimi bunga munosib voris bo'lish ruhida bilim, malakalarga;

-umuminsoniy va milliy qadriyatlar to'g'risida chuqur ilmiy-nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarga.

II.Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Madaniyatshunoslik fani, eng avvalo, talaba yoshlarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradigan, Prezident Islom Karimov asarlarini qunt bilan o'qish va o'zlashtirish, ma'naviy-madaniy sohadagi masala va muammolar bo'yicha erkin fikr yurita olish qobiliyatini o'stiradigan yangi pedagogik texnologiyalar asosiga qurilgan.

Fanni o'zlashtirish mobaynida interfaol usullarning turli shakllaridan, zamonaviy elektron texnika vositalaridan, ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlar mustaqillik yillarida bunyod etilgan obidalar, ta'mirlangan ziyoratgohlar, muzeylarga tashrif uyushtirish, ma'naviy meros va madaniy hayotga aloqador joylarga chiqish shaklida tashkil etiladi.

«Zaif xalka» usuli

Guruhdagi talabalar doira xosil kilib utirishadi. Talabalarga navbat bilan mavzu yuzasidan tez va kiska javoblar talab kilinadigan savollar beriladi. Savolga javob bera olmagan talaba uyindan chikadi. Eng oxirida kolgan talaba kup savollarga to'g'ri javob bergan buladi.

2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4.Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi

"Miya shturmi" usuli.

Usulning asosiy koidalari:

-fikrlarni tuzishga xalakit beradigan xech kanakangi ogoxlantirish ishlari va kritikalar bulmasligi

-agar fikr kanchalik gayritabiiy bulsa, shuncha yaxshiligini inobatga olish

-kuprok takliflar olishga harakat qilish

-fikrlarni kombinatsiyalash va rivojlantirish

-keng asoslab bermay, kiska ta'rif berish

-guruhning fikrlarini aytadigan va kayta ishlaydiganlarga bo'lish

Ushbu metod talabalarga uz fikrlarini asoslash, himoya qilish, mustakil fikrlash qobiliyatini oshirish

2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4.Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi

“Stol ustida ruchka” usuli.

Butun guruhga topshirik beriladi Xar bir talaba uz variantini yozadi va yonidagi talabaga uzatadi, ruchkani stol urtasiga kuyadi. Assistent talabalarni tekshiradi va talabalar to'g'ri javoblarni uz daftarlariga kuchiradilar. Bunda talabalarning nazariy bilimlari sinaladi.

2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4.Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi

“Aylanma stol” usuli.

Bu usulda mavzuga oid yozilgan savollar yozma usulda tarkatiladi, har bir talaba o'z javob variantini yozib, keyingi talabaga uzatadi, shu usulda xamma uz javobini yozadi, shundan sung javoblar assitent tomonidan tekshiriladi, noto'g'ri javoblar uchiriladi va to'g'ri javoblar xisoblanadi va talaba baxolanadi

2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4.Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi

“Ari uyasi”usuli

Muammo butun guruh bilan, yoki ikkita kichik guruhlar bilan tahlil kilinadi .Vazifa turli xil bo'lishi mumkin yoki birta butun guruhga .10-15 minut davomida guruhlar muammoni yechib ,xamkorlariga eshittiradilar .Eng yaxshi variant ajratib olinadi .

2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi

III. O'quv soatlari miqdori

| Soat hajmi | O'quv yuklama miqdorining auditoriya mashg'ulotlari bo'yicha taqsimlanishi (soat) | | | Mustaqil ish |
|------------|---|---------|-------------------|--------------|
| | Jami | Ma'ruza | Amaliy mashg'ulot | |
| 68 | 36 | 18 | 18 | 32 |

OXI uchun

| Soat hajmi | O'quv yuklama miqdorining auditoriya mashg'ulotlari bo'yicha taqsimlanishi (soat) | | | Mustaqil ish |
|------------|---|---------|-------------------|--------------|
| | Jami | Ma'ruza | Amaliy mashg'ulot | |
| 62 | 36 | 18 | 18 | 26 |

IV. Ma'ruzalar

4.1. Ma'ruza mashg'ulotlarining tematik rejasi

| № | Ma'ruza mavzulari | Soat |
|----|---|--------|
| 1. | “Madaniyatshunoslik” fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari | 2 soat |
| 2. | Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros. Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari | 2 soat |
| 3. | Jahon madaniyati bosqichlari. Ibtidoiy madaniyat | 2 soat |
| 4. | Qadimgi davr madaniyati. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi | 2 soat |
| 5. | XVI – XIX asr birinchi yarmida mintaqa xalqlari madaniyati. | 2 soat |
| 6. | Dunyoviy va diniy madaniyat. | 2 soat |
| 7. | Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr) | 2 soat |
| 8. | Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar). Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat | 2 soat |
| 9. | Mustaqillik va madaniy taraqqiyot Mustaqillik arafasida madaniyatimiz ahvoli. | 2 soat |

4.2. Ma'ruza materiallarining mazmuni

Mavzu 1. “Madaniyatshunoslik” fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari

“Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Prezident Islom Karimov ma'naviyat, milliy qadriyatlar to'g'risida. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida. Madaniyatning sohalar bo'yicha tasnifi: iqtisodiy madaniyat va uning turlari. Siyosiy madaniyat-insonlarning siyosiy manfaatlarini, e'tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi huquqiy g'oyalarni majmui. Kasb mahorati madaniyati – aniq mehnat turi bilan bog'liq nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar yig'indisi. Pedagogik mahorat madaniyati – ilmiy bilimlar va axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga etkazishdan, ekologik madaniyat – inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlardan iborat. Madaniyatning ko'rinishlari bo'yicha tasnifi. Hukmron madaniyat. Qishloq madaniyati. Shahar madaniyati.

O`rganish bo`lib qolgan madaniyat. Madaniyatning paydo bo`lish darajasiga ko`ra turlari: yuksak madaniyat, xalq madaniyati, ommaviy madaniyat. Madaniyatshunoslikning axloqshunoslik fani bilan bog`liqligi. Madaniyatning kelib chiqishi haqidagi Forobiyning qarashlari. “Madaniyatshunoslik” fanining predmeti, uning mohiyati va rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari hamda ijtimoiy vazifalari.

“Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi. Madaniyat falsafasi. Madaniyat sotsiologiyasi. Madaniyat tarixi. “Madaniyatshunoslik” fanining tarbiyaviy ahamiyati. Madaniyatga berilgan ta`riflar. «Madaniyat» tushunchasining ayrim talqinlari. Madaniyat mustaqilligi. Jamiyat va madaniyat. Madaniyat — jamiyat mahsuli, ijtimoiy hayotning muhim mulki. Jamiyat, madaniyat va shaxs munosabatlari. Madaniyatning umumiy xususiyatlari. Madaniyat va etnos. Xalq – etnik umumiylikning bosh shakli. Etnos – umumiy til va madaniyatni shakllantiruvchi omil. Madaniyat va shaxs. Shaxsning madaniyat bilan o`zaro munosabati. Ziyolilik va madaniyatlilik. Tarbiyalilik va madaniyatlilik. Madaniyatning turlari-moddiy va ma`naviy madaniyat, ularning o`zaro bog`liqligi. Insoniyat taraqqiyotida moddiy hayot bilan ma`naviy hayot uyg`unligi. Ma`naviy faoliyat moddiy madaniyat mahsuli sifatida.

Ma'lum bir davrga xos axloqiy mezonlar – din, san'at, huquq, siyosatning ma'naviy madaniyat shakllanishidagi roli. Moddiy madaniyat takomilida “buyuk industrial inqilob”ning roli. Axborot jamiyati madaniyati va uning turli ko`rinishlari: internet, kabel televideniyesi, videodisk, ularning insoniyat madaniy hayoti darajasiga ijobiy ta`siri. Moddiy madaniyatning ko`rinishlari. Moddiy madaniyat tarixiy jarayon sifatida. Ma'naviy madaniyatning turli shakllari. Madaniyatning asosiy vazifalari: olamni o`zlashtirish va qayta o`zgartirish vazifasi. Himoya-moslashuv vazifasi. Signifikativ vazifa. Axborotlarni yaratish va yig`ish vazifasi. Kommunikativ vazifa. Shaxs kamolotida madaniy omillarning ahamiyati. **Adabiyotlar:** A – 5-10; Q – 3

Mavzu 2. Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros. Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari

Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o`zgarib borishi. “Buyuk ipak yo`li” madaniyati- O`rta Osiyo madaniyatining uzviy bir qismi. Bu madaniyat Eron, Hindiston, O`rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o`zgartirishga sabab bo`lgani. Me'morchilikka oid o`tmishdagi va bugungi inshootlar, ularning tarixi, farqlari, o`z davri uchun noyob hodisa ekani – madaniy taraqqiyotning muhim belgisi. Madaniy meros – insoniyatning o`tmish bilan chambarchas bog`liqligi natijasi. Madaniy merosning mexanizmi. Ma'naviy merosning uzviyligi. O`tmishdan kelajakka o`tish jarayonida merosning mazmunan o`zgarishi.

Milliy o`zlikni anglash va milliy madaniyat munosabatlari. Sovet tuzumi davrida O`zbekistonda xalq an'analariga tazyiqlar va buning salbiy oqibatlar. Jamiyatning moddiy va ma'naviy rivoji – har tomonlama rivojlanish uchun omil. Milliy axloq va yagona millat, yagona Vatan tuyg`usi. Mustaqil O`zbekiston sharoitida milliy madaniyat rivojlanishi uchun omillar va milliy madaniyatning bugungi jahon madaniyati qatoridan o`rin olayotgani hamda dunyo hamjamiyati tomonidan e`tirof etilayotgani. **Adabiyotlar:** A - 1-4, 7,10; Q – 3,6

Mavzu 3. **Jahon madaniyati bosqichlari. Ibtidoiy madaniyat**

Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o'z ichiga qamrab olgani. Madaniyat universalligi tushunchasi. Madaniyatning universalligi, geografik o'rnidan qat'iy nazar, hamma madaniyatga mansub qadriyatlar, qoida, an'ana va xususiyatlar, mezonlar, ijtimoiy qurilishiga xos hodisa. Madaniyatning tarixiy bosqichlari. Skiflar madaniyati. Skiflar madaniyatining O'rta Osiyoda, xususan, Turonzaminda shakllangani, Gerodotning bu haqdagi dalillari. “Amudaryo xazinasi”- dunyo madaniyati tarixida muhim voqea. Ibtidoiy fikrlash bosqichida tasviriy san'atdagi ramziy timsollar. O'rta Osiyoning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi. Kaltaminor madaniyati. Kaltaminor madaniyatining Janubiy Sibirdagi Afanasev madaniyati bilan Turkmanistondagi Anov madaniyatiga ta'siri. Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlar. Antik madaniyat va qadimiy madaniyat, ular o'rtasidagi farqlar. Arxaik davrdagi insonning fikrlash tarzi. Dunyoqarash va tafakkurning shakllanishiga tabiatdagi hodisalar, tabiiy o'zgarishlar ta'sir ko'rsatishi, dunyoqarash, tafakkur bilan tabiat doimo bir - biriga ta'sir o'tkazib borishi. Tafakkur va dunyoqarash madaniy jarayonni belgilovchi muhim omillardir. Ibtidoiy odam va olam munosabatida ikki yo'l. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko'rinishlari: animizm, fetishizm va h.k. Ilk badiiy tafakkur namunalari: shumerlar va ularning mifologiyasi, xalq og'zaki ijodi. Shumerlarda fan. Yozuv madaniyati. Yozuv bosqichlari va turlari. Yozuv – insoniyatning beqiyos tafakkuri mahsuli sifatida. Yozuv ashyolari. Kitob va kitobchilik – madaniyatning oliy ko'rinishlaridan biri. Sharqda kitob namunalari: loy taxtachalar, mum surtilgan taxtachalar, papirus, teri, qog'oz. Ossuriya shohi Ashshurbannipalning kutubxonasi. Bobilliklarning kitobat san'ati. Xetlarning sopol taxtachalari. **Adabiyotlar:** A - 5,6,7,10; Q – 3,6

МаЪ3у 4. Qadimgi davr madaniyati. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati

Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida. Misrda ilk hayot izlari. Misrlıklar-ilk kalendar ijodkorlari. Misrning “qizil” va “qora” mamlakatga bo'linishi va buning sabablari. Misr piramidaları – dunyoning etti mo'jizasidan biri. Evropa va Misr olimlarining robot yordamida Xeops piramidasi ustida o'tkazgan tadqiqotlari (2002 yil). Qadimgi Misrda falsafiy maktablarning shakllanishi. Misr sivilizatsiyasi – eng uzoq davom etgan sivilizatsiyadir.

Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davri: Egey yoki Kri.- miken davri. Gomer davri madaniyati. Arxaik davr madaniyati. Klassik davr. Ellinistik davr. Qadimgi Rim madaniyati. Qadimgi Rim madaniyatining uch davri: shohlik davri, respublika davri, imperiya davri. Rimda fan va maorif. Rim she'riyati. Rim teatr san'ati, haykaltaroshlik. Imperiya davrida Rim shaharlari. Imperiya davrida shaharlarda kommunikatsiya vositalari –tosh ko'prik, vodoprovodlar, kanalizatsiya. Rimda fan va maorif.

Xitoy — sivilizatsiya ilk bor paydo bo'lgan to'rt mamlakatning biri. Xitoyliklar qog'oz, choy, chinni, porox, soyabon, muzqaymoq, ipak va gugurtning ixtirochilari. Xitoyda g'or ibodatxonalar. Xitoy arxitekturasi. Xitoyda falsafiy va diniy oqimlar. Xitoy madaniyatidan qolgan eng noyob yodgorlik — alifbo. VII–XIII asrlarda

Xitoyda rassomchilik. Samo ibodatxonasi. Xitoy arxitekturasining Yaponiya, Koreya, Janubi–Sharqiy Osiyo mamlakatlari arxitekturasiga kuchli ta'sir etgani.

Hindiston – qadimgi sivilizatsiya o'lkalaridan biri. Hindiston olamga bergan eposlar va ijodkorlar. Vedalar va ularning Sharq madaniyati tarixidagi o'rnini. Qadimgi Hindistonning matematika, astronomiya, tibbiyot sohasida erishgan katta muvaffaqiyatlari. Hindiston madaniyati tarixi bosqichlari: Xoropp madaniyati. Veda davri. Guptalar imperiyasi. Boburiylar sulolasi madaniyati. Hind madaniyatidagi buddaviylikning dunyo diniy madaniyatiga ta'siri. Vizantiya madaniyati. Vizantiya davlati hududida chorvachilik, qishloq xo'jaligi. Vizantiya davlati - so'nggi antik davrning barham topishi va o'rta asr jamiyatining tug'ilishi chegarasida. Masihiylik aqidalarining Vizantiya madaniyati tarixida paydo bo'lishi. Vizantiyada madaniy hayot. Shoirlar Grigoriy Nazianzin, shoir Roman Sladkopevets, Feofilakt Simokatta. Kandak janri va Vizantiya adabiyotida bu janrning o'rnini. Vizantiya madaniyatining turli bosqichlarida sharqona va g'arbona elementlar. Oltoy, Janubiy Sibir, Mo'g'uliston, O'rta Osiyo hududlarida ibtidoiy hayot tarzi. Farg'onaning tosh davriga oid madaniy yodgorliklari. Qovunchi madaniyati. O'zbekistonning azaliy o'troq aholisi ijodi –me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at. O'zbekistonning janubiy hududlarida qadimgi davr me'morchiligi va san'ati. Termizdagi me'morchilik yodgorliklari, tasviriy va amaliy san'at namunalari. Madaniy jarayonning bu ko'rinishlariga ijtimoiy – siyosiy jarayonlar asosiy sabab bo'lgani. Kushonlar davrida Termiz (Termed), Chingiztepa, Qoratepadagi budda ibodatxonalari. Dalvarzintepadagi Chag'oniyon shahri me'morchiligi. Xorazm, Baqtriya davrida inshootlarda foydalanilgan kvadrat shakldagi g'ishtning qurilish materiallari takomillashuviga xizmat qilgani va me'morchilikning yangi bosqichga ko'tarilgani. Harbiy me'morchilik. Qo'yqirilgan qal'adagi inshoot (mil. av. III asr). Qo'yqirilgan qal'adagi dafn odatlari. Qadimiy yozma manbalarda O'rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to'g'risidagi ma'lumotlar. Milodiy I asrga oid Xan yilnomasida “Avesto” davri madaniyati. Zardushtiylik ta'limoti. Xitoy sayyohining hozirgi O'zbekiston to'g'risidagi ma'lumotlari. Buddaviylik madaniyati. Buddaviylikning Baqtriya davlatiga kirib kelishi.

Adabiyotlar: A – 1-3,5,6,7,10; Q – 1-3,6

Маъруза 5. XVI – XIX asr birinchi yarmida mintaqalar madaniyati

Movarounnahr davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. Jo'ybor xonlari va ularning mamlakat ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi roli. Bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur. Tabiiy fanlar. Matematika, astronomiya, geografiyaning rivojlanishi. Tibbiyot. XVI asrda Movarounnahr davridagi adabiy hayot. Tarixiy asarlar. She'riyat. Shayboniy hukumdorlarining she'riyatga munosabati. Xiva xonligida adabiy hayot. Abdulg'oz Bahodirxon. Uning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlari, bu asarlarning taxlili va madaniyat tarixidagi o'rnini. Dostonchilik. Munis va Ogohiyning tarixiy asarlari. Qo'qon xonligidagi adabiy hayot. Mashrab, Xuvaydo, Abdulkarim Fazliy Namangoniylar ijodi. Amir Umarxon va uning Qo'qon adabiy muhiti shakllanishidagi roli. XVII-XIX asr o'rtalarida Buxorodagi adabiy hayot. Sayid Nasafiy, Mutribiy, Turdi Firog'iy, Mulla Mastiy Oxundiy, Muja'rim Obidlar ijodiy faoliyati. Badiiy madaniyat. Uning har bir xonlikda o'ziga xos

xususiyati. Badiiy madaniyat markazlari. Me'morchilik. Amaliy bezak san'ati. Uning taraqqiyotidagi o'ziga xosliklar. Minatyura san'atining rivojlanishi. Tarixiy asarlarga ishlangan minatyuralar. Kitobat san'ati. Musiqa. O'tmish an'alariga sadoqat, vorisiylik. Darvesh Ali Changiy ijodi. Teatr. Masxarabozlar teatri, qiziqchilar teatri, qo'g'irchoq teatri va uning namoyandalari. Raqs san'ati va uning hududiy xususiyatlari. Buxoro shashmaqomi.

Adabiyotlar: A – 1-3,5,6,7,10; Q – 3,6

MAVZY 6. Dunyoviy va diniy madaniyat

O'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o'zgarishlar. Iudaizm va Tavrot. Bibliyaning tarkibiga kiruvchi kitoblar. Eski Ahdda olamning ibtidosi to'g'risidagi chuqur mushohadalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, axloqiy mezonlar, ma'naviy qadriyatlar va boshqa ko'plab falsafiy g'oyalari, axloqiy o'gitlar. Iudaizm - mustaqil diniy tizim. Masihiylik ta'limoti Sharqning falsafiy tafakkuri mahsuli sifatida. Katolik jamoati va pravoslavlar jamoati. Islomiy madaniyat. Islomda ilm o'rganish tashviqi va targ'iboti. Turkiy qavmlar yashaydigan o'lkalarda islomning yakdilikka chorlovchi g'oyalari. Islom va ilmiy bilimlar rivoji. Al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi. Tasavvuf va madaniyat. Tavhid e'tiqodi. Muruvvat va Futuvvat muvofiqligi. Futuvvatning zohiriy va botiniy ruknlari. **Adabiyotlar:** A – 5,6,7,10; Q – 1,3,6

MAVZY 7. Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr)

Qadimgi O'rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o'rganishda asosiy manbalar: O'rxun – Enasoy yodgorliklari, yunon muarrixlarining asarlari, qadimgi Xitoy yilnomalari. V-VII asrlar boshida Markaziy Osiyoda ijtimoiy - siyosiy voqealar. Milodiy V asr va VI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy va madaniy hayotning yunon muarrixlari asarlarida va Xitoy yilnomalarida yoritilishi. Oltoy madaniyati. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda va ikkinchi ming yillik boshlarida hozirgi O'zbekiston va Pomir hududlarida Oqdengiz irqiga o'xshash dolixotsefal irqqa mansub odamlar qoldiqlari. Markaziy Osiyo madaniyatining o'ziga xosligi. M.av. III–II asrlarda Tangri tog'idan Farg'onaga ko'chish. Yozuv madaniyati-ko'k turk xoqonligi davridan bugungacha etib kelgan eng noyob madaniy yodgorlik.

Uyg'onish – Sharq va g'arb xalqlarining madaniyati tarixida keskin burilishlar davri. O'rta Osiyoda Uyg'onishning uch davri. Har bir bosqichda Uyg'onishning asosiy belgilari. Alisher Navoiy va Uyg'onish davri. "Xamsa" dostoni – Uyg'onishning eng yorqin mahsuli sifatida. Uyg'onish davrining ideali. Uyg'onish davri dostonlari qahramonlarining romantik qiyofada tasvirlanishi. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. Obodonchilik ishlari. Hunarmandchilik va uning turlari, taraqqiyoti. Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo'llarining ahamiyati. Me'morchilik. Shaharsozlik. Ulug'bek rasadxonasi. Saroy va bog'lar qurilishi. Samarqand registoni. Temuriylar davrida tasviriy san'at va uning turlari rivoji. Naqqoshlik, xattotlik san'ati. Samarqand miniatyura maktabi va uning xususiyatlari. Badiiy hunarmandchilik va uning turli shakllari. Kulolchilik sohasidagi yangiliklar. Samarqand- ilm-fan markazi. Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda ilm-fan rivoji.

“Ziji jadidi Ko`ragoniy” asari. Adabiyotning rivojlanishi. O`zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi madaniy yuksalishning ahamiyati. XIV-XV asrlardagi ma'naviy-madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning xizmatlari. Movarounnahrda tibbiyot, falsafa, tarix ilmi. Kitobat san'ati. Musiqa san'ati. Hozirgi zamon fanida bu davr temuriylar davri Renessansi deb atalishi va uning ahamiyati.

Adabiyotlar: A – 1-3,5,6,7,10; Q – 1-6

МаЪЗЫ 8. Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar).

Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat

Madaniy hodisalar va jarayonlarning an'anaviy xususiyatga ega ekanligi. San'atda supermatizm oqimi. Modern madaniyati. Modern tushunchasining san'atga falsafa va fanga aloqadorligi. Simvolizm estetikasi. Postmodernizm - hozirgi falsafa, san'at va fanning asosiy yo`nalishi sifatida. Postrukturalizm postmodernizmning falsafiy asosi. Postmodernizmning madaniyatga tadbiq qilinishi. Madaniy taraqqiyotda inson omili. Insonning industrial madaniyatga munosabati. Ommaviy madaniyat. Ommaviy madaniyatning salbiy va xatarli oqibatlari. O`rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosati. Hunarmandchilik. Teatr. Xivadagi kutubxonalar. Kitobat san'ati. Tasviriy san'at. Fan. Musiqa san'ati. An'anaviy qo`shiqchilik san'ati. Me'morchilik. Xalq me'morchiligi. Amaliy san'at. Qiziqchilik. Davriy matbuot. Mustabid sovet davlati davrida O`zbekiston madaniyati. Sovet davlatining madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshuvi. Klublar, kutubxonalar, muzeylar kabi muassasalar faoliyatining siyosatlashtirilishi. Adabiyot. Teatr san'ati. Me'morchilik. Amaliy bezak san'ati. Musiqiy san'at. Kino san'ati. Radio. Televidenie. **Adabiyotlar:** A - 2,4,7,10; Q – 3

МаЪЗЫ 9 Mustaqillik va madaniy taraqqiyot Mustaqillik arafasida madaniyatimiz ahvoli.

O`zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi muassasalar va jamoat tuzilmalari. Ularning huquqiy-ma'naviy asoslari shakllanishi. Ma'naviy madaniyat va uning muhim jabhasi – musiqa san'ati. Milliy qo`shiqchilik ko`rik-tanlovlari. Muzeylar. Ularning xalqimiz ma'naviy salohiyatini oshirishdagi ahamiyati. Madaniy merosga munosabat. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi. Qo`qon adabiyot muzeyi. Muzey qo`riqxonalar. Buxoro muzey-shahar. «Baxouddin Naqshband tarixiy muzeyi». O`zbekiston kino san'ati muzeyi. Muzeylarning bugungi asosiy vazifasi. Xiva “Ichon-qal'a” yodgorliklar majmuasi. “Samarqand -madaniyatlar chorrahasi”. Uning YuNESKO Umumjahon madaniy va tabiiy meros ob'ektlari ro`yxatiga kiritilishi. «Boysun bahori» ochiq folklor festivali. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlarimizga atab o`rnatilgan obidalar. Xunarmandchilik. «Xunarmand» Respublika ijodiy uyushmasi. Tarixiy obidalarni tiklash. Toshkent –islom madaniyati poytaxti. Milliy-madaniy markazlar va ularning roli. Adabiyot. Me'morchilik. Monumental san'at. Uning taraqqiyotidagi yangi davr. Amaliy bezak san'ati. Tasviriy san'at. An'anaviy musiqa sa'ati. Nomoddiy madaniyat va san'at durdonalari. Teatr. Teatrlashtirilgan maydon tomoshalari. Kino va televideniening bugungi taraqqiyoti. Sport. Madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro

hamkorliklarning kengayib borishi. **Adabiyotlar:** A - 2,4,7,10; Q –3

V. Seminar mashg'ulotlar

5.1. Seminar mashg'ulotlarning tematik rejalari

| № | Seminar mashg'ulotlari mavzu nomlari | Coat |
|----|---|--------|
| 1. | “Madaniyatshunoslik” fanining predmeti va vazifalari. <u>Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari</u> | 2 soat |
| 2. | Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros. Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari | 2 soat |
| 3. | Jahon madaniyati bosqichlari. Ibtidoiy madaniyat | 2 soat |
| 4. | Qadimgi davr madaniyati. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati | 2 soat |
| 5. | XVI – XIX asr birinchi yarmida mintaqqa xalqlari | 2 soat |
| 6. | Dunyoviy va diniy madaniyat. | 2 soat |
| 7. | Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr) | 2 soat |
| 8. | Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar). | 2 soat |
| 9. | Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat. | 2 soat |

5.2. Seminar mashg'ulotlar mavzulari mazmuni

Mavzu 1. Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari

“Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida.
“Madaniyatshunoslik” fanining predmeti, uning mohiyati va rivojlanish qonuniyatlari
“Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi.

Madaniyatning turlari-moddiy va ma'naviy madaniyat, ularning o`zaro bog`liqligi.

Madaniyatning asosiy vazifalari. **Foydalanilgan adabiyotlar** – 5-10

”Miya shturmi” usuli.

Usulning asosiy koidalari:

-fikrlarni tuzishga xalakit beradigan xech kanakangi ogoxlantirish ishlari va kritikalar bulmasligi

-agar fikr kanchalik gayritabiiy bulsa, shuncha yaxshiligini inobatga olish

-kuprok takliflar olishga harakat qilish

-fikrlarni kombinatsiyalash va rivojlantirish

-keng asoslab bermay, kiska ta`rif berish

-guruhning fikrlarini aytadigan va kayta ishlaydiganlarga bo`lish

Ushbu metod talabalarga uz fikrlarini asoslash, ximoya qilish, mustakil fikrlash kobiliyatini oshirish

2. Ko`rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4.Mavzular asosida berilgan ma`lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag`batlantiradi va umumiy baholaydi

Mavzu 2. Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros.

Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari

Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk.

Madaniy meros – insoniyatning o`tmish bilan chambarchas bog`liqligi natijasi.

Madaniy merosning mexanizmi. **Foydalanilgan adabiyotlar** – 1-4, 7,10

«Zaif xalka» usuli

Guruhdagi talabalar doira xosil kilib utirishadi. Talabalarga navbat bilan mavzu yuzasidan tez va kiska javoblar talab kilinadigan savollar beriladi. Savolga javob bera olmagan talaba uyindan chikadi. Eng oxirida kolgan talaba kup savollarga to`g`ri javob bergan buladi.

2. Ko`rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4. Mavzular asosida berilgan ma`lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag`batlantiradi va umumiy baholaydi

Mavzu 3. **Jahon madaniyati bosqichlari. Ibtidoiy madaniyat**

Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o`z ichiga qamrab olgani. Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari, ular o`rtasidagi umumiylik va farqlar.

Antik madaniyat va qadimiy madaniyat, ular o`rtasidagi farqlar.

Arxaik davrdagi insonning fikrlash tarzi. **Foydalanilgan adabiyotlar** – 5,6,7,10

“Stol ustida ruchka” usuli.

Butun guruhga topshirik beriladi Xar bir talaba uz variantini yozadi va yonidagi talabaga uzatadi, ruchkani stol urtasiga kuyadi. Assistent talabalarni tekshiradi va talabalar to`g`ri javoblarni uz daftarlariga kuchiradilar. Bunda talabalarning nazariy bilimlari sinaladi.

2. Ko`rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4. Mavzular asosida berilgan ma`lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag`batlantiradi va umumiy baholaydi

Mavzu 4. **Qadimgi davr madaniyati. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati**

Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida.

Qadimgi Misrda falsafiy maktablarning shakllanishi.

Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davri.

O`zbekistonning azaliy o`troq aholisi ijodi – me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at.

Qadimiy yozma manbalarda O`rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to`g`risidagi ma'lumotlar.

Foydalanilgan adabiyotlar – 1-3,5,6,7,10

“Ari uyasi” usuli

Muammo butun guruh bilan, yoki ikkita kichik guruhlar bilan tahlil kilinadi .Vazifa turli xil bo`lishi mumkin yoki birta butun guruhga .10-15 minut davomida guruhlar muammoni yechib ,xamkorlariga eshittiradilar .Eng yaxshi variant ajratib olinadi .

2. Ko`rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi

Mavzu 5. XVI-XIX asr birinchi yarmida mintaq xalqlari madaniyati

Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot.

XVI asrda Movarounnahrda adabiy hayot. Tarixiy asarlar.

Qo'qon xonligidagi adabiy hayot. Mashrab, Xuvaydo, Abdulkarim Fazliy Namangoniylar ijodi.

Badiiy madaniyat. Uning har bir xonlikda o'ziga xos xususiyati. Buxoro shashmaqomi.

Foydalanilgan adabiyotlar – 1-3,5,6,7,10

Miya shturmi" usuli.

Usulning asosiy koidalari:

-fikrlarni tuzishga xalakit beradigan xech kanakangi ogoxlantirish ishlari va kritikalar bulmasligi

-agar fikr kanchalik gayritabiiy bulsa, shuncha yaxshiligini inobatga olish

-kuprok takliflar olishga harakat qilish

-fikrlarni kombinatsiyalash va rivojlantirish

-keng asoslab bermay, kiska ta'rif berish

-guruhning fikrlarini aytadigan va kayta ishlaydiganlarga bo'lish

Ushbu metod talabalarga uz fikrlarini asoslash, himoya qilish, mustakil fikrlash qobiliyatini oshirish

2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4.Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi

Mavzu 6. Dunyoviy va diniy madaniyat

O`rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o`zgarishlar. Iudaizm va Tavrot.

Masihiylik ta'limoti Sharqning falsafiy tafakkuri mahsuli sifatida.

Islomiy madaniyat. Islomda ilm o`rganish tashviqi va targ`iboti.

Islom va ilmiy bilimlar rivoji. **Foydalanilgan adabiyotlar – 5,6,7,10**

«Zaif xalka» usuli

Guruhdagi talabalar doira xosil kilib utirishadi. Talabalarga navbat bilan mavzu yuzasidan tez va kiska javoblar talab kilinadigan savollar beriladi. Savolga javob bera olmagan talaba uyindan chikadi. Eng oxirida kolgan talaba kup savollarga to'g'ri javob bergan buladi.

2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4.Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi

Mavzu 7. Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi -XV asr)

Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy manbalar.

Alisher Navoiy va Uygʻonish davri. “Xamsa” dostoni – Uygʻonishning eng yorqin mahsuli sifatida.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati.

Oʻzbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi.

Foydalanilgan adabiyotlar –1-3,5,6,7,10

“Aylanma stol” usuli.

Bu usulda mavzuga oid yozilgan savollar yozma usulda tarkatiladi, har bir talaba oʻz javob variantini yozib, keyingi talabaga uzatadi, shu usulda xamma uz javobini yozadi, shundan sung javoblar assitent tomonidan tekshiriladi, notoʻgʻri javoblar uchiriladi va toʻgʻri javoblar xisoblanadi va talaba baxolanadi

2. Koʻrgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4. Mavzular asosida berilgan maʼlumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni ragʻbatlantiradi va umumiy baholaydi

Mavzu 8. **Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI**

asrlar)

Madaniy hodisalar va jarayonlarning anʼanaviy xususiyatga ega ekanligi.

Modern madaniyati. Modern tushunchasining sanʼatga falsafa va fanga aloqadorligi.

Oʻrta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi.

Mustabid sovet davlati davrida Oʻzbekiston madaniyati.

Foydalanilgan adabiyotlar – 2,4,7,10

“Ari uyasi” usuli

Muammo butun guruh bilan, yoki ikkita kichik guruhlar bilan tahlil kilinadi .Vazifa turli xil boʻlishi mumkin yoki birta butun guruhga .10-15 minut davomida guruhlar muammoni yechib ,xamkorlariga eshittiradilar .Eng yaxshi variant ajratib olinadi .

2. Koʻrgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4. Mavzular asosida berilgan maʼlumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni ragʻbatlantiradi va umumiy baholaydi

Mavzu 9. **Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat.**

Mustaqillik va madaniy taraqqiyot

Oʻzbekistonda madaniyat va sanʼat sohasidagi muassasalar va jamoat tuzilmalari.

Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi. Qoʻqon adabiyot muzeyi.

Muzey qoʻriqxonalar.

Buxoro muzey-shahar. «Baxouddin Naqshband tarixiy muzeyi».

Toshkent –islom madaniyati poytaxti. Milliy-madaniy markazlar va ularning roli.

Foydalanilgan adabiyotlar – 2,4,7,10

“Aylanma stol” usuli.

Bu usulda mavzuga oid yozilgan savollar yozma usulda tarkatiladi, har bir talaba oʻz javob variantini yozib, keyingi talabaga uzatadi, shu usulda xamma uz javobini yozadi, shundan sung javoblar assitent tomonidan tekshiriladi, notoʻgʻri javoblar uchiriladi va toʻgʻri javoblar xisoblanadi va talaba baxolanadi

2. Koʻrgazmali plakatlardan foydalanadi

3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi

4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi

VI. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- Ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k.

6.1. Talabalar mustaqil ishlarining tematik rejasi

| № | TMI mavzulari | Soat |
|----|--|------|
| 1. | Madaniyat va sivilizatsiya. Madaniyatning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni. | 4 |
| 2. | Sharq uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. | 4 |
| 3. | O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonidan madaniy merosga munosabat. | 4 |
| 4. | An'anaviy madaniyatning dunyo madaniyatida tutgan o'rni. | 4 |
| 5. | Axloqiy, Ekologik, Huquqiy, muomala madaniyati. | 4 |
| 6. | Madaniy va ma'naviy meros. | 4 |
| 7. | Qadimgi Misr, Yunon, Xitoy, Hindiston, Mesopotamiya madaniyati. | 4 |
| 8. | Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati | 4 |
| | | 32 |

OXI uchun

| № | TMI mavzulari | Soat |
|----|---|------|
| 1. | Madaniyat va sivilizatsiya. Madaniyatning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni. | 4 |
| 2. | Sharq uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. | 4 |
| 3. | O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonidan madaniy | 4 |
| 4. | An'anaviy madaniyatning dunyo madaniyatida tutgan o'rni. | 4 |
| 5. | Axloqiy, Ekologik, Huquqiy, muomala madaniyati. | 4 |
| 6. | Madaniy va ma'naviy meros. | 2 |
| 7. | Qadimgi Misr, Yunon, Xitoy, Hindiston, Mesopotamiya madaniyati. | 2 |
| 8. | Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati | 2 |
| | | 26 |

VII. Fan bo'yicha bilimlar, malaka va ko'nikmalarning reyting nazorati va baholash mezonlari

Talabanning tayyorgarlik darajasini belgilashda asosiy mezon sifatida uning joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarda olgan baholar reytingi hisobga olinadi. Fan uchun qo'yiladigan 100 ball quyidagi shaklda taqsimlanadi:

| № | Nazorat turi | Maksimal ball | Koeffitsienti | O'tish ball |
|----|---------------------------------------|---------------|---------------|-------------|
| 1. | Joriy nazorat TMI bilan birgalikda | 50 | 0,5 | 27,5 |
| 2. | Oraliq nazorat | 20 | 0,2 | 11,0 |
| 3. | Yakuniy nazorat | 30 | 0,3 | 16,5 |
| | JAMI | 100 | 1 | 55,0 |

Semestrlar bo'yicha ballar fan o'qitilishining davomiyligiga qarab taqsimlanadi.

VIII. Adabiyotlar

Asosiy :

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston, 2011y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent.: O'zbekiston,1999 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent.: Sharq. 1999 y.
4. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. (Prezident Islom Karimovning Nezavisimaya gazeta muxbirining savollariga javoblari). –Toshkent.: O'zbekiston, 2005 y.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –Toshkent.: O'zbekiston, 2000 y. 11-jild.
6. Karimov I.A Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. –Toshkent.: O'zbekiston, 2003 y.
7. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. –Toshkent.: O'zbekiston, 2005 y.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch – Toshkent.: Ma'naviyat 2008
9. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. Toshkent.:O'zbekiston, 2009 y.
10. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Toshkent.: O'zbekiston, 2010 y.
11. Karimov. I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi.Toshkent.: O'zbekiston, 2010 y.
12. Karimov. I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.Toshkent.:O'zbekiston, 2011 y .

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Akramov Sh. va boshqalar. O'zbekistonning madaniy obidalari.–Toshkent:O'zbekiston,1993y.
2. Madaniyat va ma'naviyat muammolari.-Toshkent.: Meros, 1994 y.
3. Xayrullaev M. O'zbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixidan.-Toshkent: O'zbekiston,1995 y.
4. Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o'zgarishlari. Toshkent.: 2004 y.
5. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent.: “Farg'ona”, 1998 y.

6. Axmedova E, Gubaydullin R.. Kulturalogiya. Mirovaya kultura. Tashkent.: -2001 g. Akademiya xudojestv Uzbekistana.
7. Abdullaev M., Umarov E, Ochildiev A., Madaniyatshunoslik asoslari. - Toshkent.: Turon-iqbol, 2006
8. Ochildiev A. Madaniyat falsafasi. - Toshkent.: Muxarrir, 2010y.
9. Bekmurodov M, Yusupova N. Madaniyat sotsiologiyasi. Toshkent.: Yangi asr avlodi. -2010 y.
10. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik. Universitet, Toshkent.: - 2011y.

Oo'shimcha:

1. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. –T.: Yozuvchi, 1996 y.
2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent.: O`zbekiston, 1998 y.
3. Boboev X. va boshqalar. Madaniyatshunoslik asoslari. -Toshkent.: 2001 y.
4. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. – Toshkent.: 2002 y.
5. Quranboev Q., Abdurahmonov M, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch asarini o`qitish bo`yicha o`quv-uslubiy qo`llanma. Universitet, Toshkent.: -2010y.
6. Rahmonov N., B. Matboboev. O`zbekistonning ko`hna turkiy–run yozuvlari.– Toshkent: 2006y.

Internet saytlari

Elektron ta'lim resurslari:

1. “Xalq so`zi” gazetasi –www info XS.Uz.
2. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor.uz.
3. “Ma'rifat” jurnali - www ma`rifat – inform.
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - www rzult academy freenet uz.
5. “Moziydan sado” jurnali - www moziy dostlink. Net
6. www.mfa.uz.
7. www.press-servise.uz.
8. www.literature.uz.
9. www. Ziyo net.uz. __

IX. MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARNING TARKIBIY QISMI VA ISHLANMALARI

1-mavzu : **“Madaniyatshunoslik” fanining predmeti va vazifalari** **Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari**

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|--|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-75 gasha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-axborotli ma'ruza. |
| <p>“Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida.</p> <p>“Madaniyatshunoslik” fanining predmeti, uning mohiyati va rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari hamda ijtimoiy vazifalari.</p> <p>“Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi.</p> <p>Madaniyatning turlari- moddiy va ma'naviy madaniyat, ularning o'zaro bog'liqligi.</p> | <p>“Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Prezident Islom Karimov ma'naviyat, milliy qadriyatlar to'g'risida. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida. Madaniyatning sohalar bo'yicha tasnifi: iqtisodiy madaniyat va uning turlari. “Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi. Madaniyat falsafasi. Madaniyat sotsiologiyasi. Madaniyat tarixi. “Madaniyatshunoslik” fanining tarbiyaviy ahamiyati. Madaniyatga berilgan ta'riflar. «Madaniyat» tushunchasining ayrim talqinlari. Madaniyat mustaqilligi. Jamiyat va madaniyat. Madaniyat — jamiyat mahsuli, ijtimoiy hayotning muhim mulki. Jamiyat, madaniyat va shaxs munosabatlari. Madaniyatning umumiy xususiyatlari. . Moddiy madaniyat tarixiy jarayon sifatida. Ma'naviy madaniyatning turli shakllari. Madaniyatning asosiy vazifalari: olamni o'zlashtirish va qayta o'zgartirish vazifasi. Himoyamoslashuv vazifasi. Signifikativ vazifa. Axborotlarni yaratish va yig'ish vazifasi. Kommunikativ vazifa. Shaxs kamolotida madaniy omillarning ahamiyati.</p> |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: | <p>“Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Prezident Islom Karimov ma'naviyat, milliy qadriyatlar to'g'risida. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida. Madaniyatning sohalar bo'yicha tasnifi: iqtisodiy madaniyat va uning turlari. “Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi. Madaniyat falsafasi. Madaniyat sotsiologiyasi. Madaniyat tarixi. “Madaniyatshunoslik” fanining tarbiyaviy ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.</p> |
| Ta'lim berish usullari | Kurgazmali, ma'ruza, suhbat |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

“Madaniyatshunoslik” fanining predmeti va vazifalari Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari
ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta’lim byeruvshi | Ta’lim oluvshilar |
|----------------------------------|--|--|
| Tayyorgarlik bosqishi (5 daqiqa) | 1. Mavzu bo’yisha o’quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma’ruzasi ushun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o’rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro’yhatini ishlab shiqish | |
| 1. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo’yisha savollar beradi. | Tinglaydilar Talabalar byerilgan savollarga javob beradilar |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko’rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar Tinglaydilar |
| 1- Yakun iy bosqish (10 daqiq a) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Mavzu bayoni :

Madaniyatshunoslik - inson faoliyati va jamiyat hayotining barcha sohalari o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikning o`ziga xos yo`nalishlari, ichki qonuniyatlarini va madaniyat rivojlanishining eng umumiy qonunlarini o`rganadi. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy qadriyatlardir.

Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insonning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini hamda kishilarning ma'naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi.

Madaniyatshunoslik fanining asosiy muammosi inson hisoblanadi, zero, madaniyat – bu inson yaratgan narsalardir. Madaniyatshunoslik insonning olam bilan faol munosabatini va bu munosabatlar uning hayot tarzida namoyon bo`lishini, shaxsning ijtimoiy va madaniy rolini madaniyatlar tipologiyasini o`rganadi. Inson faoliyatining jamiki mahsuli, u ma'naviy yoki moddiy boyliklar bo`lishidan qat'iy nazar madaniy boylik sifatida qaraladi. Madaniyatshunoslik - mana shu boyliklarni kishi va jamiyat eqtiyojlari nuqtai nazardan baholaydi, uning haqiqiy qimmatini ochib beradi.

Madaniyatshunoslikning tadqiqot ob'ekti – inson faoliyati jarayonida yaratilgan jamiki ma'naviy yoki moddiy boyliklar hisoblanadi. Madaniyat esa ana shu inson faoliyati va jamiyat hayotida barcha sohalari bilan chambarchas bog`liq. Uning izlanish ob'ekti ijtimoiy voqelik bo`lgan madaniyat va inson hayoti uslubi hisoblanadi. Unda madaniyatning vujudga kelishi, rivojlanishi, jamiyatda amal qilinishi bilan bog`liq masalalar, qadriyatlarining jamiyat hayoti va rivojlanishdagi o`rni, o`zaro aloqalari jarayonlari o`rganiladi.

Madaniyatshunoslikning tadqiqot manbai bo`lib:

-Inson yaratgan san'at sohasi; -Kishilarning muomala vositasi bo`lgan til; - Jamiyat boyligi va mezon bo`lmish bilim; -Ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tashkilotlar; -Jamiyatda sodir bo`luvchi demografik va etnik jarayonlar xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslikning tadqiqot usullariga tarixiy (retrospektiv) - tadrijiy (evolyutsion) yondashish, tahlil va umumlashtirish (analiz va sintez), kuzatish, suhbat, savol-javob kabilar kiradi.

Har bir ilm sohasining o`ziga xos tushunchalari, tadqiqot ob'ektlari va usullari mavjud, ular orqali biz ilm sohasining maqsadi, vazifalari va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini bilib olamiz. Madaniyatshunoslik fanini o`rganish uchun eng avvalo "madaniyat" atamasini anglab olish muhimdir.

Madaniyat atamasini ilmga tarixchi etnograf E.Teylor 1871 yili kiritgan. O`sha paytda madaniyatning 7 ta'rifi bo`lgan. 1950 yillarga kelib bu ta'rifning soni 150 dan oshadi. 1970 yillarga kelib esa u 250 taga etgan. Hozirgi kunda u yoki bu darajada keng tarqalgan madaniyatning ta'rifi – 500 dan oshadi. Bu rang-barang ta'riflar madaniyatning keng qamrovli, hayotning deyarli barcha, hatto bir- birlariga zid bo`lgan sohalarni ham ifodalovchi hodisa ekanligini ko`rsatadi.

Madaniyat so`zining ma'nosi "culture" (lotincha) so`zidan izlash keng tarqalgan. U tor ma'noda "ekib o`stirish", "ishlov berish" degan tushunchalarni anglatadi. "Madaniyat so`zi "ma'dan" so`zidan kelib chiqqan shuning uchun u "kon", "boylik" demakdir» degan fikrni bildiradi ba'zi tadqiqotchilar. Ba'zida esa «madaniyat» so`zi arab so`zidan olingan bo`lib, uning etimolik ma'nosi «sig`inadigan shahar Madina» nomidan kelib chiqqan deb talqin etiladi. Islom dinida ko`pincha madaniyatni din bilan bog`lab tushuntirishga harakat qilinadi. Rus faylasuflari N.Berdyayav, V. Rozanovlar esa "kultura" so`zini "kult"- diniy ibodat so`zidan kelib chiqqanligini qayd etadi.

Hozirgi paytda madaniyat, madaniy so`zlari qo`llanilmaydigan soha, faoliyat turi yo`q. Masalan: Davr madaniyati (ilm, fan, maorifning ahvoli haqida fikr yuritish); Axloqiy madaniyat (kishilarning so`zi, muomalasi, xulqi); Turmush madaniyati (kishilarning yashash tarzi); O`qish madaniyati (zarur kitobni topib o`qiy olish); Huquqiy madaniyat (o`zining huquq va burchlarini bilishi); Siyosiy madaniyat (ijtimoiy hayotga faol va mantiqiy qatnashish) va boshqalar.

Madaniyatning hodisa sifatidagi tavsifida juda ko`p izohlar mavjud «insoniyatni yashash usuli»; «ijtimoiy insonning to`laqonli faoliyati»; «inson tomonidan yaratilgan muhit»; «yaxlit sotsial organizm», «insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmui»; «sun'iy- ikkinchi tabiat»; «inson ijodiy faoliyati mahsuli»; «umuman jamiyat»; «jamiyatning ma'naviy holati»; «jamiyat sifati»; «shartli belgilar tizimi yig`indisi»; «me'yor va andozalar» hokazo.

Qadimgi Rimda «madaniyat» - tushunchasi «hayotni ma'naviy jihatdan yanada yaxshila shga va tozalashga qaratilgan g`amxo`rlik» degan ma'noda ham foydalanilgan. XVIII asrning oxirlarigacha «madaniyat» atamasi aqliy, axloqiy madaniyat tushunchasi bilan yonma-yon ishlatilgan. Yangi davr mutafakkirlarining qarashlarida madaniyat tushunchasi keng yoritilgan. Masalan, F.Bekon «Bilim—bu kuchdir. U bir

erda to`xtashni ham, xotirjamlikni ham bilmaydi, tinmay olg`a intilaveradi»,- deb insonning aql-zakovatini, ilmiy salohiyati va madaniy darajasini ulug`laydi.

I.Kant fikricha: «Odam «tabiat va erk» dunyosidan iborat. Unda tabiat in'om etgan jihatlardan tashqari axloqiy qarashlaridan kelib chiqadigan erkin harakat qilish imkoniyati ham mavjud. Madaniyat esa ana shu imkoniyatlardan foydalanish vositasi, quroli, o`z axloqiy burchini bajarish yo`lidir». Kant inson faoliyatiga axloqiy madaniyatni asos qilib oldi. «Ikki narsa ruhimizni doimo yangi va yanada kuchli hayrat hamda ehtirom bilan to`ldirib turadi, ular tepamizdagi yulduzli osmon va ichimizdagi axloqiy tartibotlardir (madaniyatdir)».

Gegel ta'limotida: «Din, falsafa, san'at, huquq, ma'naviy madaniyatning barchasi «ruh», «olam ruhi»ning qonuniy rivojlanishining bosqichlaridir». «Ruh», «ong»ning tarixiy rivojlanish bosqichlarida madaniyatlar bir-birlaridan farq qiladi. Odam jamiyat va umumjahon taraqqiyotiga qo`shilib madaniyatga aralashadi. Aql tashqi olamni o`z maqsadlariga shunday shijoat bilan bo`ysundiradiki, u odamning ushbu dunyo ustidan hokimligini ta'minlaydi.

Yaratilgan barcha narsalarda odam aqli, tafakkuri, ruh evolyutsiyasi orqali madaniyatning qudrati namoyon bo`ladi, tarix va madaniy xayot bir-birlari bilan chambarchas bog`liqlikda tashkil topadi, ma'naviy madaniyat ruh ijodiy kuchining aks etishi. Madaniyat orqali ruh o`zining yaratuvchanligini anglaydi, har bir kishi o`zining aqli-tafakkuri orqali jamiyat, umuminsoniy boyliklarni egallashga erishadi.

Hozirgi davrdagi madaniyatning ilmiy tushunchasi insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilishi davom etayotgan ma'naviyat, ruhiyatning o`ziga xosligini anglashi natijasida vujudga keldi. Mustaqillik ta'sirida madaniyat asta-sekin insoniyatdan tobora ko`proq mustaqil bo`lib boradi. Insonning esa madaniyatga tobe'ligi ortadi. Hozirgi postindustrial jamiyatlardagi ekologik, ma'naviy va axloqiy sohalardagi mavjud muammolar fikrimizning dalilidir. Shuning uchun rivojlanish qonunlarini tushunish va shu tushunchalar asosida madaniyatni boshqarishga o`rganish zaruriyat bo`lib qoladi.

Hozirgi zamon madaniyatshunoslik fanida «madaniyat» tushunchasi qo`llanishiga qarab quyidagicha o`rganiladi: a) individual-shaxs madaniyati; b) ruhiy madaniyat-milliy, sinfiy, tabaqaviy, kasbiy, oilaviy; v) makon va zamonda cheklangan muayyan tipdagi jamiyat madaniyati; g) insoniyat madaniyati.

Madaniyat nimada namoyon bo`lishidan qat'iy nazar muayyan qadriy o`lchovga ega bo`ladi. U kishilarning ishlab chiqarish, ijtimoiy va aqliy faoliyatini qamrab oladi. Madaniyatni ijodiy faoliyat va inson faoliyatining o`ziga xos uslubi sifatida ta'riflash kontseptsiyasi bir qator muhim masalalarda bir-birini to`ldiradi. Jamiyat nafaqat qayta qurishga, balki an'nalarni, madaniy yodgorliklarni saqlab qolishga ham muhtojdir. Jamiyatning amaliy va nazariy, moddiy va ma'naviy kabi har qanday faoliyati ijodiy soha bilan birga o`zida faoliyat ko`rsatish va madaniyatning o`zlashtirish aspektlarini mujassamlashtiradi. Ijodiy faoliyat ko`lami qancha katta bo`lsa, madaniyatning ishlab turishi funktsiyasi va kelgusi avlodlarga etkazib berish uchun zarur bo`lgan faoliyat ko`lami shuncha keng bo`ladi. Faoliyat maqsadli yo`naltirilgan aktivlikdir. Inson qanchalik faol harakat qilsa, shunchalik madaniyatning «chegaralari» yo`qolib boradi. Bu chegaralar vaqt, makon va qimmat o`lchovlariga ega.

Madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo`lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarining yig`indisi madaniyatda gavdalanadi.

Informatsion ta'rif madaniyatni «barcha irsiy bo`lmagan informatsiyalar yig`indisi», Madaniyat informatsiyalar ombori emas, u nihoyatda murakkab tashkil etilgan mexanizm, u informatsiyani doimiy ravishda eng foydali va qulay uslublarini ishlab chiqqan holda saqlaydi, yangi informatsiyalarni qabul qiladi, ularni qayta ma'lumotlarga aylantiradi, ularni belgilarini bir tizimdan boshqasiga o`tkazadi, deb izohlaydi.

K.Levi-Strosning fikriga ko`ra, «qaerda qoida bo`lsa, shu erdan madaniyat boshlanadi. Inson tabiatidagi barcha umumiylik tabiatga tegishli bo`ladi».

Madaniyatshunoslikda olib borilgan ilmiy izlanishlar va erishilgan yutuqlar nuqtai nazaridan kelib chiqib madaniyatning quyidagi xususiyatlarini alohida ko`rsatishimiz mumkin.

Madaniyat – uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig`indisi.

Madaniyat – ilm-fan, maorif, ma'rifat, huquq, siyosat va maishiy xizmat ko`rsatish darajasini aks ettiruvchi ijtimoiy taraqqiyot belgisi.

Madaniyat – kishilar va jamiyat rioya qiladigan shaxsiy, milliy, umuminsoniy, qadriyatlar majmui.

Madaniyat – kishining insoniy fazilatlari va ijodiy xislatlarining ifodasi.

Ushbu belgilarning negizida, “inson – jamiyat – tabiat” tizimi o`rtasidagi munosabatlar yotadi. Bu munosabatlar tizimida esa inson faoliyati asosiy ko`rsatkich hisoblanadi. Demak, inson faoliyatining mohiyatini, u yaratgan narsalarning ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishiga ko`ra qimmatini aniqlash va baholash madaniyatshunoslikning asosiy vazifasi xisoblanadi.

Madaniyatshunoslik fani muhim tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Insonda ziyolilik hissini tarbiyalash kursning diqqat markazida turadi. Kishi qanchalik ziyoli bo`lsa, degan edi D.S.Lixachev – u shunchalik ko`p tushunadi va o`zlashtiradi, uning dunyoqarashi va qabul qilish doirasi shunchalik kengayadi. Kishining madaniy saviyasi qanchalik tor bo`lsa, u hamma yangiliklarga va «juda eski»likka nisbatan shunchalik befarq bo`ladi. O`zining eski odatlari bilan yashaydi, dunyoqarashi tor bo`lib, hamma narsaga shubha bilan qaraydi.

O`tmishning madaniy qadriyatlarini va o`zga millatlar madaniyatni bilish, uni saqlash, ko`paytirish madaniy taraqqiyotning eng muhim vositalardan biri bo`lib hisoblanadi. Insoniyat madaniyatining rivojlanish tarixi bu nafaqat yangi, balki eski madaniy qimmatlarni izlab topish tarixidir. Shuningdek, o`zga madaniyatlarni bilish, ma'lum ma'noda gumanizm tarixi bilan qo`shilib ketadi. Bu boshqa xalqlarga nisbatan hurmat, to`g`ri ma'nodagi bardoshlilik, tinchlik tilash demakdir.

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo`lgan xususiyat – insonning madaniy hayotini tartibli tizimga solib yondashish hisoblanadi. Shuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o`zida mujassam qilgan holda namoyon bo`lishi bilan birga bilishning o`ta murakkab ob'ekti hamdir. Madaniyatshunoslikning fanlar

tizimidagi o`rnini belgilashda uning boshqa fanlar bilan aloqalarini uchga bo`lib o`rganish mumkin.

- 1.Umumiy fanlar bilan aloqasi;
- 2.Xususiy fanlar bilan aloqasi;
- 3.Boshqa fanlar bilan aloqasi.

Umumiy fanlar deganda falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik fanlari nazarda tutiladi. Xususiy fanlar esa ikkiga bo`linadi: a) tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik, pedagogika ya'ni, madaniyatshunoslikka yondosh fanlar. b) bevosita madaniyat yo`nalishlarini o`rganuvchi fan va nazariyalar, ya'ni madaniyat sotsiologiyasi, madaniyat iqtisodiyoti va boshqalar.

Madaniyatshunoslik ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi. Shu sababli u ijtimoiy fanlarning nafaqat usullaridan shu bilan birga ular erishgan ilmiy nazariy xulosalardan foydalanadi. Madaniyatshunoslik eng avvalo, “fanlarning fani” – falsafa bilan bog`liq. Falsafa - donishmandlik ilmidir. Donishmandlik esa madaniyatning cho`qqisi. Forobiy — madaniy jamiyat, madaniy shahar va mamlakatni donishmandlar boshqarishini, unda oqilu-fozil kishilar yashashini orzu qilgan edi. Gegel - inson dunyoni qanchalik ko`p bilsa, o`zligini ham shunchalar ko`p biladi, deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, hayot haqida, insonning olamdagi o`rni, umr ma'nosi haqida fikrlash, kishi tafakkurini o`stiradi, unda mushohada madaniyatini shakllantiradi. Falsafiy qarashlar madaniyatshunoslikka insonning jamiyat dagi, mehnatning madaniyatdagi o`rnini to`g`ri idrok etishga yordam beradi.

Madaniyatshunoslik sotsiologiya fani bilan ham bog`liq. Sotsiologiya — jamiyat va uning taraqqiyoti qonunlarini o`rganish bilan birga jamiyat tizimlarida, aholi qatlamlarida va boshqarishda sodir bo`ladigan o`zgarishlarni ham tadqiq etadi. Jamiyatning har bir qatlamlari va tashkilotlari, o`zining ichki belgilariga, rivojlanish qonunlariga ega. Sotsiologiyaning bu boradagi qarashlari madaniyatshunoslikka turli madaniy oqimlarning o`rnini to`g`ri anglashga, ijtimoiy madaniy jarayonlarda boshqarish qonunlarini yaratishga yordam beradi.

Madaniyatshunoslikning pedagogika bilan bog`liqligi shundaki, pedagogika — keng ma'noda tarbiya haqidagi fandır. Odamlardagi birinchi ijtimoiy ehtiyoj tarbiyaga yoki tarbiyalashga bo`lgan ehtiyojdir. Bu ehtiyojni hamma ham, ayniqsa, go`dakligi va bolaligida zarur narsa sifatida qabul qilavermaydi, shuningdek madaniyatni ham. Demak, tarbiya ham, madaniyat ham insoniyatning mavjudlik, barhayotlik, sharti sifatida jamiyatning ongli va madaniyatli qatlamlari tomonidan yaratiladi hamda yoshlarga singdiriladi. Tarbiya ob'ektida ijobiy fazilatlarni va ijodiy xislatlarni shakllantirish—pedagogikani ham, madaniyatshunoslikning ham vazifasi.

Madaniyatshunoslikning amaliyot bilan bog`liq yo`nalishi —«prikladnaya kulturologiya» xuddi shu joyda u pedagogika bilan hamkorlik qiladi, uning boy tarbiyaviy ta'sir usullaridan foydalanadi. Chunki, madaniyatshunoslikning bosh vazifasi o`ziga xos vositalar orqali yon-atrofni insoniylashtirish, ya'ni inson kamolotini oliy maqsad qilib qo`ygan muhitni shakllantirishdir. Madaniyatshunoslik o`z tadqiqot ob'ektlarini shunchaki o`rganib qolmaydi, uni inson va taraqqiyot manfaatlari nuqtai nazardan o`zgartirishi, insoniylashtirish yo`llarini ham ochib beradi.

Estetika go`zallik va xunuklik, ulug`vorlik va tubanlik kabi tushunchalar bilan birga kishilarga his-tuyg`ularini o`stirish, ularni ranglar, ohang va tovush rang-barangligini ilg`ashga o`rgatadi. Bu muammolar madaniyatshunoslikni ham qiziqtiradi. U yon-atrofdagi voqealarni bor ziddiyatlari bilan tadqiq etadi. Demak, mavjud ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni, ularning ichki qonuniyatlarini hisobga olgandagina madaniyatning davr talablarini, hayot ehtiyojlarini, shaxs istaklarini to`g`ri ilg`ab olish mumkin.

Adabiyotshunoslik bilan ham madaniyatshunoslik hamkorlik qiladi. Jahon adabiyotida yaratilgan obrazlar, inson hayotining rang-barang qirralari, ichki kechinmalari, shodligi-qayg`usi, sevinchi-o`kinchi, mehri, qahri xullas bor murakkabliklari bilan tasvirlangan yozma asarlar madaniyatshunoslikni ham ilmiy-nazariy jihatdan boyitadi. Adabiyot-hayot, davr ko`zgusi. Kishi, zamon, ijtimoiy hayot, davr bilan bog`liq ekan, u zamondoshlarning kimligini, ularning hayoti, orzuniyatlarini bilish uchun ham «ko`zgu»ga tez-tez nazar tashlab turishga majbur.

Madaniyat va madaniy jarayon umumtarixiy jarayonni tarkibiy qismi hisoblaniladi. Ushbu tarixiy-madaniy jarayonlarini madaniyatshunoslikning tarkibiy qismi bo`lmish madaniyat tarixi o`rganadi. Shu bilan birga madaniyatshunoslik fanining o`ziga ham tarixiy yondashish taqazo qilinadi.

Madaniyatshunoslikni iqtisod bilan aloqadorligi, madaniyatning ham iqtisodiy qonunlarga muvofiq rivojlanishining keng tan olinishi keyingi paytlarda “madaniyat iqtisodiyoti” degan ilm sohasini yuzaga keltiradi. Bozor munosabatlarini esa madaniy ijodiy sohaga keng kirib kelayotgani madaniyatshunoslikni iqtisodiy yo`nalishlarida ham nazariy izlanishlar o`tkazishga undamoqda.

Madaniyatshunoslik bilvosita tibbiyot, yurisprudentsiya, diplomatiya, matematika, statistika kabi sohalar bilan ham bog`liq.

Madaniyatshunoslik fanining quyidagi bo`limlari mavjud:

1. Madaniyat falsafasi – madaniyatdagi murakkab va ko`p maqsadli jarayonlarni tahlil qilishda yondashuvning eng umumiy tamoyillarini namoyon qilib, qiyosiy tahlil, tasniflashga asoslanadi. Madaniyatni falsafiy anglash, falsafiy asoslash bilan bog`liq materialistik, pozitivistik, ob'ektiv idealistik va boshqa ko`plab qarashlar mavjud. Ularning har birida insonning tabiat va ijtimoiy guruh (sotsium) olamidi jismoniy, ma'naviy va ruhiy hayot faoliyatining shakllanishi va rivojlanishini nazariy tushuntirish usullari va o`ziga xos tahliliy uslublari ishlab chiqilgan.

2. Madaniyatning tuzilish shakli (morfologiyasi) – insonga bog`liq bo`lmagan va jamiyatda mustaqil mavjud bo`lgan madaniyatning o`ziga xos shakli uning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Madaniyat rivoji jamiyatning ichki qonuniyatlariga o`zaro bog`liqdir, deb hisoblovchi madaniyat morfologiyasi taqqoslash, tahlil va boshqa uslublar asosida madaniyat rivojlanishining manbai va omillarini ochishga urinadi. Uning mavjudlik davri u yoki bu madaniyatning paydo bo`lishidan to inqirozigachadir.

3. Madaniyat sotsiologiyasi – biron bir jamiyatdagi mavjud madaniyatning aniq jarayonlarini o`rganish bilan shug`ullanadi; bu har xil sotsiologik axborotlarni to`plash, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog`liq bo`lgan madaniyat jarayonini

empirik (tajriba) tadqiq qilishda ma'lum madaniyat sharoitida kishilarning o`zaro munosabatlarida, sotsiomadaniyat toifalarida namoyon bo`ladi.

4. Madaniyat tarixi – har bir madaniyatni noyob va asl hodisa sifatida o`rganadi; shuningdek, turli madaniyatlarni o`zaro taqqoslaydi, ularni o`zaro munosabati va o`zaro ta'siri, zamon va makondagi ularning farqlarini madaniy taraqqiyotidagi o`ziga xos va umumiy tomonlarni tadqiq etadi.

5. Madaniyat ekologiyasi – zamonaviy inson hayot faoliyatining barcha sohalari: insonning individual hayotini, jamiyat hayoti, tabiat bilan o`zaro munosabatlarini qamrab oladi. Bu madaniyatshunoslik tadqiqotidagi eng yangi faol rivojlanayotgan sohalardan biri.

Madaniyat tushunchalari: -“Madaniy meros”, “Ma'naviyat”, “Ma'rifat”, “Madaniy taraqqiyot”, “Ilmiy texnik taraqqiyot”, “Ijod”, “Xalq madaniyati”, “Xalq san'ati”, “Milliy va umuminsoniy qadriyatlar”, “Axloqiy madaniyat”, “Siyosiy madaniyat”, “Tsivilizatsiya” va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatshunoslik talabalarga jahon madaniyati va uning tarkibiy qismi bo`lgan O`zbekiston madaniyatini rivojlanish tarixi, xususiyatlari, o`zaro aloqadorligi muammolari va istiqbollari to`g`risida bilim, ko`nikma va malakalarni berish bilan ayni paytda, milliy madaniyatga o`zi millatlar madaniyatlariga, qadriyatlariga ularni hurmat ruhida tarbiyalashda, madaniyat yodgorliklariga ijodiy munosabatda bo`lishlarida, ma'naviy jihatdan rivojlanishlarida ko`maklashadi.

Madaniyatshunoslik tinglovchilarni turli tarixiy davrlar madaniyatlari va sotsiol guruhlarining urf-odatlarini turmush tarzi to`g`risidagi bilimlar bilan boyitadi. Tarixiy va gumanitar bilimlarni tartibga keltiradi, ijtimoiy turmush voqeliklarini yagona mazmun asosida anglashga yordam beradi. Ko`plab betakror va mustaqil madaniyatlardan tashkil topgan jahon sivilizatsiyasining birligi va xilma-xilligini ko`rsatadi. Madaniyatshunoslik kusini o`rganish kishilarning fuqarolik va ma'naviy etuklikka erishishlarida, fikrlar va qadriyatlar plyuralizmini ko`ra bilishda fan taraqqiyotini to`g`ri baholash qobiliyatini hosil qilishda muhimdir.

O`tgan asrning so`nggi choragida ulkan ilmiy-texnik taraqqiyotga asos solindi. Shuning natijasi o`laroq hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida yuz minglab robotlar ishlamoqda: ko`plab sohalar avtomatlashtirilgan; biotexnologiya fani kashfiyotlari qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida tub burilish yasashi kutilmoqda; gen muhandisligi borasida erishilgan yutuqlar tufayli million-million insonlar hayotiga zomin bo`lgan irsiy kasalliklarni bartaraf etish imkoniyati tug`ilmoqda.

Xolbuki, bundan atigi chorak asr ilgari «kompyuter» atamasi ko`pchilikka noma'lum edi. Bugungi kunda esa kompyuter texnologiyalar va telekommunikatsiya tarmoqlari sohasida erishilgan muvaffaqiyatlardan inson aqli shoshadi. Misol uchun, 70-yillarning boshida INTELSAT yo`ldosh aloqa tizimi Antantika ortidan atigi 240 telefon so`zlashuvini qabul qilgan bo`lsa, bugun bu ko`rsatkich 120 mingtadan oshib ketdi. Birgina SVIRT halqaro moliya tizimi 200 ming kompyuter orqali 50 mamlakatning ikki ming bankini bog`lab turgani har qanday odamni xayratlantirishi tabiiy.

Dunyoni to'rt singari o'rab olgan INTERNET tizimi haqida gapirmasa ham bo'ladi. Bu tizim vositasida dunyoning istalgan nuqtasi bilan bog'lanish, kerakli ma'lumotlarni olish, zarur odamlar bilan muloqot qilish, xat yozishish mumkin. Bunday taraqqiyotni qirq-ellik yil oldin tasavvur ham qilib bo'lmasdi. Shu bois bugungi yoshlardan ota-bobosi yashagan davr haqida so'rasangiz, aksariyati «e, bu tosh davri-ku!» deb qo'ya qoladi.

Kishi jamiyatda, kishilar orasida yashar ekan, yon-atrof haqidagi ma'lum xabarlarga, ma'lumotlarga – axborotlarga doimo ehtiyoj sezadi. «Informatsiya – taraqqiyot yuragi» degan ekan bir donishmand. Informatsiya madaniy taraqqiyotning ham yuragidir. Hozirgi zamon kishisi radio, televidenie, ommaviy axborot vositalarisiz o'z hayotini tasavvur qila olmaydi. Biroq bu informatsiyalar ko'pincha kundalik ehtiyojlarni, yoki shunchaki qiziqishlarni qondirishga xizmat qiladi. To'g'ri, informatsiyalar kishining shakllanishida, ichki dunyosida ma'lum bir iz qoldirishi va madaniy o'zakka ta'sir o'tkazishi mumkin. Ammo ular mohiyatiga ko'ra kunaro, har bir daqiqada o'zgarib, bir-birini yo to'ldirib yoki butunlay inkor etib turgani sababli har doim ham madaniy o'zakda saqlanib qolavermaydi.

Ijtimoiy taraqqiyot faoliyat bilan madaniyatning o'zaro munosabatlarida o'zgarishlarga olib keladi. An'anaviy va industrial jamiyatlarda informatsion faoliyat mustaqil sohani tashkil etgan bo'lsa, «kompyuter inqilobi» sharoitida informatsiyalar, bilimlar ishlab chiqarilishi, yangi texnologiyalarni yaratish alohida turdagi faoliyat sifatida shakllandi, informatsiya qimmatbaho tovarga aylandi. Informatsion faoliyatdagi bilimlar sintezi tizimidagi murakkab o'zgarishlar muhim qaror topgan g'oyalar va qadriyatlarga ta'sir etmoqda. Ma'naviy madaniyat informatsiyalari zahiralari to'planishi oqibatida sivilizatsiya taraqqiyotida tashkilotchi va harakatga keltiruvchi faktorga aylandi. Buning oqibatida faoliyat va madaniyatning o'zaro munosabatlarida o'zgarishlar boshlandi. Agar dastlab madaniyat faoliyatning mazmuniga to'liq bog'liq bo'lgan bo'lsa, sivilizatsiya jarayonlari oqibatida madaniyatni tobora ko'proq ishtirokida shakllanishi kuzatilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida tarixiy inertsianing katta ta'sirini ham hisobga olish kerak. Inertsianing ta'sirida insoniyat bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan tamoman boshqa narsalar bilan mashg'ul bo'ladi. Chunki, jamoa tafakkuri qiyinchiliklar bilan qayta quriladi. Moddiy boyliklarni qisqa vaqt ichida yo'q qilish va yoki buzib tashlash mumkin, lekin ma'naviy qadriyatlardan tezda voz kechib uning yangisini qabul qilib bo'lmaydi.

Keyingi vaqtda ilmiy adabiyotda va ommaviy axborot vositalarida «globallashuv», «global dunyo» «iqtisodiy – moliyaviy globallashuv», «aksilgloballashuv harakatlari», «madaniy globallashuv» kabi iboralar ko'p qo'llaniladigan bo'lib qoldi. Bugungi kunda ko'pchilikning boshini qotirayotgan bu masalaning ma'no-mohiyati nimadan iborat va u madaniy taraqqiyotda qanday rol o'ynaydi?

XX asrning oxiri – XXI asrning boshida jahon taraqqiyotida yangi umumsayyoraviy tartib tamadduniy bosqich murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozorida tamoman yangicha vaziyat vujudga keldi. Atrof-muhit texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy

madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishi, xullas, jamiyat hayotining barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog`liqdir.

Mazkur jarayon global kommunikatsiya tarmog`ining vujudga kelishi imkon yaratgan informatsion inqilob, kapitalning internatsionallashuvi, jahon bozorida raqobatning kuchayishi, tabiiy zaxiralar taqchilligi va ularga egalik qilish uchun kurashning keskinlashuvi, ommaviy qirg`in qurollarining tarqalishi, umumsayyoraviy falokat xavfi kabi omillar bilan belgilanadi. Ana shu omillarning o`zaro bog`liqligi, bir-biri bilan tutashib ketishida globallashuv jarayonining ziddiyatli hamda murakkab mohiyati namoyon bo`ladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, bir tomondan, jahon halqlarining iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyotiga hamda sayyoramiz taqdiri uchun mas'uliyatni anglagan umumjamoaga aylanishga xizmat qilayotgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, dunyoning parchalanishi va jahon maydonida o`zaro keskinlikning kuchayishiga sabab bo`lmoqda.

Sovet Ittifoqi barbod bo`lgandan keyin AQSh dunyodagi eng qudratli davlat sifatida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohada globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchi va o`ziga xos sinov laboratoriyasiga aylanib qoldi. Amerika jamiyatining madaniy kadriyatlar o`zga mamlakatlar qabul qilishi uchun oson kechadi, qolaversa, ushbu davlat madaniy mahsulot ishlab chiqarish industriyasining (kino va videofilmlar, shou-biznes va h.z.) bozor sharoitiga moslashuvchanligi uning deyarli butun dunyoda sherik va hamkorlarini topishga imkon yaratadi. Hozirda turli mamlakatlarda namoyish etilayotgan kino hamda videofilmlarning to`rt dan uch qismi Amerika mahsuloti ekani ham shundan dalolat beradi.

Ma'lumki, ayrim rivojlangan mamlakatlar sanoat mahsulotlari, axborot va mafkuraviy ta'sir ko`rsatish vositalari orqali keng ko`lamdagi geosiyosat yuritish bilangina cheklanmay, o`z halqining tabiati, madaniyati, mafkurasiga xos jihatlarni muntazam ravishda dunyo halqlari turmush tarziga, ongu shuuriga, bir so`z bilan aytganda, ular hayotining barcha jabhalariga izchil singdirishga intilmoqda. Bu xol ayniqsa, endigina mustaqillikka erishgan mamlakatlar halqlarining milliy o`zligi, madaniyatining vorisiylik an'analari ham mentalitetiga putur etkazishi turgan gap. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «...ba'zan beozor bo`lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi» («Tafakkur», 1998 yil, 2-son, 6-bet).

Globallashuv jarayonini kengroq tasavvur etish uchun quyidagi ikki jihatiga to`xtalish lozim. Postindustrializm kontseptsiyasi asoschilaridan biri D.Bell o`tgan asrning 70-yillaridayoq vujudga kelayotgan yangi davrga (ilmiy adabiyotda u «informatsion» yoki «texnotron» davr deb ham ataladi) xos ayrim muhim belgilarga e'tibor qaratgan edi. Uning nazarida, asosiy ishlab chiqarish omili industrializmdan oldingi davrda – qo`l mehnati, industrializm davrida texnik ko`rilma bo`lgan bo`lsa, postindustrial bosqichda bilim, aqliy salohiyat hal etuvchi ahamiyat kasb etishi lozim edi. Bu davrda ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning miqdori emas, sifati, aniqroq aytganda, odamlarning turmush darajasi, ijodiy intellektual mehnati asosiy omilga

aylanishi zarur edi. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda yuksak aqliy salohiyatga ega bo'lgan olimlar, muxandis va mutaxassislar jamiyatning etakchi kuchi (elitasi), texnologik kashfiyot va ixtirolarning ijodkoriga aylanmog'i darkor. «Axborotga asoslangan demokratiya jamiyati» degan ijtimoiy –siyosiy tuzum ham shundan iborat emasmikan? Lekin bu jamiyat insoniyatni tashvishga solayotgan masalalar, xususan, elektron texnologiyalar keltirib chiqaradigan muammolarni hal etishga qodirmikan?

Ma'lumki, sanoat korxonalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi hamda avtomatlashtirish jarayonining kuchayishi ish joylarining keskin qisqarishiga olib keladi. Chunki bitta robot kamida to'rt ishchining vazifasini uddalaydi. Faqat dunyodagi birgina davlat - robotlashtirish sur'ati va sanoatda ko'llanadigan elektron ko'rilmalar soni buyicha jahonda etakchi o'rinni egallab kelayotgan Yaponiyada, mashhur firmalarning o'ziga xosligi hamda ijtimoiy totuvlik an'analari tufayli, shuningdek, yuzaga kelgan muammo bahamjihatlik bilan hal etilayotgani bois ishsizlik muammosining keskin tus olib ketmasligiga erishilmoqda.

AQSh va Ovrupaning taraqqiy etgan mamlakatlarida esa vaziyat boshqacharoq: ishsizlikning salbiy oqibatlaridan xavfsiragan ma'murlar bunda yangi texnologiyalarni joriy etish sur'atlarini sun'iy ravishda sekinlashtirishga majbur bo'lmoqda. Shunga qaramay mazkur davlatlarda ish joylarining qisqarib borayotganini kuzatish mumkin. Xususan, o'tgan asrning 80-90 yillarida AQSh po'lat eritish kompaniyalarida, ishlab chiqarish ko'lami o'zgarmagani holda, ishchilar soni olti barobar, «Jeneral Elektrik» kompaniyasida uch barobar kamaygan.

Elektron texnologiya bank-moliya sohasining kriminallashtirishiga ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. Turli bank muassasalari va yirik korporatsiyalarining kompyuter kodlarining buzib, million-million dollar miqdoridagi mablag'ni o'marayotgan firibgar «xakker»lar soni kun sayin ortib bormoqda. Bugungi kunda bank-moliya sohasiga ixtisoslashgan minglab mayda guruhlardan tashqari unga yaqin yirik jinoiy TMKlar narkotrafik, qurol-yaroq va hatto odam savdosi bilan shug'ullanmoqda.

Bunday jinoiy faoliyat insoniyat hayotiga qanchalik xavf solayotganini tasavvur etish uchun so'nggi o'ttiz yil mobaynida giyohvand moddalar savdosi qariyb ellik barobar oshganini eslashning o'zi kifoya. Birgina AQSh va Ovrupa mamlakatlarida har yili 120-150 milliard dollar miqdorida giyohvand moddalar (geroin, kokain, nasha va xokazo) sotilayotgani hech kimni befarq qoldirmaslik kerak.

Oq uy statistikasi xizmati ma'lumotiga ko'ra, 1998-99 yilar mobaynida AQShda giyohvand moddalar savdosi va uni iste'mol qilgani uchun bir yarim million kishi xibsga olingan («SShA. Kanada», 2000yil, 12-son, 65 bet). qolaversa, ko'plab soxta firma va offshor banklar (sarmoya kiritishda imtiyoz beradigan xududiy moliya muassasalari) esa jinoiy yo'llar bilan topilgan mablag'ni qonunlashtirishga, ya'ni daromadli sohalarga joylashtirish, uy-joy, qimmatbaho buyumlar sotib olish, ekstremistik, qo'poruvchi guruhlarni moliyaviy jihatdan ta'minlashga sarflamoqda. Sirasini aytganda, bu sohada globallashtirish jarayoni shu darajada kriminallashtirib ketganki, halqaro jinoiy guruhlar faoliyatiga chek qo'yishga hatto Interpoldek qudratli tashkilotning ham «tishi» o'tmayapti.

Xullas, postmodernizm asoschilari ilgari surgan g'oyalarning aksariyati bugungi kun voqeligiga zid kelmoqda: bilim, aqliy salohiyat tovar munosabatlari o'rni egallash o'rniga, o'zi tovarga aylanib bormoqda.

Bugungi hayotni Internetsiz tasavvur qilish qiyin hali aytganimizdek Internet «ikki dunyoni bir qadam» qilishga qodir. Undan har kim o'ziga kerakli axborotni olishi, o'tirgan joyida butun jahon bilan aloqa o'rnatishi mumkin. Bolalar uchun kompyuterdan zo'rroq ovunchoq yo'q. Qo'yib bersangiz ertadan kechgacha o'yin bilan andarmon bo'ladi. Holbuki bilib foydanilmasa «o'yinchoq» ashaddiy qurolga aylanishi mumkin.

Angliyalik o'qituvchi janob Boffi 20 yashar o'g'li Kollej talabasi Filipning Internet ishqibozi ekaniga quvongan. Yaxshida, yigitcha ko'cha sang'imaydi, har xil qalang'i-qasang'ilarga qo'shilmaydi, ichmaydi, chekmaydi. Shunaqa-ku, kunlarning birida ota-ona uning jasadini bog'dan topishadi. Politsiyachilarning sinchiklab tekshirishi shuni aniqlaydiki, yigitchani... Internet sayti o'ldirgan ekan! Ma'lum bo'lishicha, Filipp Internetning birinchi ham, oxirgi ham qurboni emas ekan.

Internetda odam o'zini qanday qilib «go'zal» va «oson» o'ldirishi kerakligini ipidan ignasigacha o'rgatadigan, shunga da'vat qiladigan 9000 ta sayt ishlab turar ekan! «O'zini o'zi o'ldirish usullari», «o'zimni o'zim qanday o'ldiray?», «Narigi dunyoga ketishning eng yaxshi yo'llari» deb nomlangan saytlarni izlab topish uchun esa «kaliti»ni bilgan odamga bir necha daqiqa kifoya! Kompyuter ekranida o'sha ondayoq bunday yozuv paydo bo'ladi: «Sen to'g'ri yo'l tanlading, do'stim! Bu dunyoda yashashimiz boshqalarga qarab qolgan. O'lim esa o'zimizga bog'liq. Biz o'zimizni o'ldirishimiz mumkin, o'lim biz uchun yagona, hayratomuz yo'ldir. Bir tasavvur qilib ko'r: hatto Xudo ham o'zini o'zi o'ldira olmaydi... sen esa bunga qodirsan. ..Faqat o'limgina bizga erk va quvonch ato etadi»..

So'ng o'z joniga qasd qilishning «go'zal» usullari – o'zini osish, otish, ko'p miqdorda uyqu dorisi ichish (avval spirtli ichimlik iste'mol qilib, keyin dori ichilsa tezroq ta'sir qiladi, sen shirin uyquga ketasan) qabilidagi «dono» tavsiyalab beriladi. Bunday kundalik xurujlar aql-zakovati to'liq shakllanib ulgurmagan o'smir va yoshlarga halokatli ta'sir ko'rsatishi muqarrar. Internet saytlari qurboniga aylanayotganlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida yil sayin ortib bormoqda.

Birgina Rossiyaning o'zida o'tgan yili 58 ming 200 kishi o'zini o'zi qurbon qilgan. Bular orasida «qotil» Internet qurbonlari ham oz emas. Ularning aksariyati arzimagan narsadan ranjigan yoki hayotda shunchaki omadi yurishmay turgan yoshlar bo'lgan. Shu tariqa Internet bir jihatdan odamlarning og'irini engil, uzog'ini yaqin qiladigan, jumlai jahon bilan bog'lab turadigan eng zamonaviy aloqa vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, badniyat kimsalar qo'lida begunoh insonlarni qurbon qiluvchi makkor va beshafqat qurol bo'lishi ham mumkin ekan. Tabiiyki globallashuv ommaviy axborot vositalariga ta'sir qilmay qolmaydi. Bugungi kunda televizor ko'chma ma'noda emas, tom ma'noda oynai jahonga aylandi. Parabolik antenna o'rnatgan odam yuzdan ortiq kanalni bemalol tomosha qilishi mumkin. Xohlasa – komediya ko'radi, xohlasa – tragediya, xohlasa – jangari film, xohlasa – erotik kino.. Bo'yi etib qolgan o'g'il yoki qiz o'sha tomoshalarni ota-onadan yashirib ko'rmaydi, deb kafolat berib bo'larmikan?

Hozir O'zbekistonda 800 dan ortiq ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatyapti. Qonun buyicha istagan yuridik yoki jismoniy shaxs gazeta va jurnal nashr etish, teleradiokanal ochish huquqiga ega. Bu ham mustaqillik mevasi, fikr rang-barangligining, so'z erkinligining belgisi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalariga oid qonun hujjatlarida, jumladan, «axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunda jamiyatning, shaxsning axborot borasidagi xavfsizligiga oid tushunchalarga alohida urg'u berilgan.

Qonunda «milliy o'zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an'analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga.. qarshi harakat tizimini barpo etish» ham ta'kidlangan. Qonun loyihasi muhokamasida ba'zi ekspertlar milliy an'analar va urf-odatlardan uzoqlashtirishga qarshi harakat deganda nima nazarda tutilayapti, bu – so'z erkinligini bug'ishga olib kelmaydimi, degan fikrni aytishgan edi. Aslida, bu tushunchaga bejiz urg'u berilmagan. Gap shundaki, ayrim chet el ommaviy axborot vositalari uchun odatiy hisoblangan shunday narsalar borki, ular bizning gazetxon yoki teletomoshabin uchun qadriyatlarimizni oyoqosti qiladigan, ma'naviyatni haqoratlaydigan tushunchalar bo'lishi mumkin.

Globalashuv butun dunyoda ro'y berayotgan, ortga qaytmaydigan jarayon. Lekin u biryoqlama bo'lmasligi kerak. Globalashuv – milliy o'zlikni yo'qotish degani emas. Dunyo sivilizatsiyasi turfa halqlarning o'ziga xos an'analari, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari bilan go'zal va boy xisoblanadi. Ularning har biri yashash va ravnaq topishga xaqli. Hozir globalashuv asosini g'arb andozalari tashkil etayapti. Qaysidir davlat yoki davlatlar, qaysidir xalq yoki xalqlar globalashuvini o'z mentalitetidan kelib chiqib o'zgalarga tiqishtirishi adolatdan emas. U holda bu jarayon bir tomondan foyda qilsa, ikkinchi tarafdin, jiddiy zarar keltirishi, asriy qadriyatlarimizga shikast etkazishi, xalq o'z ildizidan ayrilgan «omma»ga, millat o'z qiyofasini yo'qotgan «manqurt»ga aylanib qolishi ehtimoldan uzoq emas. Bunday xatolarga yo'l qo'ymaslikning chorasi bitta: - o'zgalar qadriyatini kamsitmagan holda o'z qadriyatlarimizni mahkam tutib, himoya qilishimiz, lozim bo'lsa, jumlai jahonga ko'rsatishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, globalashuv jarayoni odamzodga o'zaro axborot almashuv, aloqalarni mustahkamlash ishlab chiqarish sur'atini kengaytirish borasida katta imkoniyatlar berish bilan birga yillar, asrlar davomida etilib kelgan muammolarni yuzaga chiqara boshladi. Bugungi kunda texnik taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan insoniyat muammolar qoshida ojiz qolmoqda. Bu esa bashariyatni yana bir bor ogohlikka, aql idroki va salohiyatini faqat ezgulik yo'lida ishlatishga da'vat etadi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

- 1.Madaniyatshunoslik fanining predmeti va u nimani o'rganadi?
- 2.Madaniyatshunoslik ilmining asosiy yo'nalishlarini sanang?
- 3.“Madaniyat” atamasi fanda qachon paydo bo'lgan?
- 4.“Madaniyat”deganda qanday ma'no va hodisani tushunasiz?
- 5.Tabiat bilan madaniyat (ikkinchi tabiat)ni qanday farqli tomonlari mavjud?
- 6.Inson va jamiyat hayotida madaniyatning tutgan o'rnini tushuntiring?

7. Madaniyatning qanday tiplari mavjud?

8. Hozirgi zamon madaniyatshunoslik fani bilan bogʻliq bilimlarning ahamiyati nimada?

AMALIY MASHGʻULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

1-mavzu : *Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|--|---|
| Mashgʻulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-25 gacha |
| Mashgʻulot shakli | Kirish-ahborotli ma'ruza. |
| “Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida. “Madaniyatshunoslik” fanining predmeti, uning mohiyati va rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari hamda ijtimoiy vazifalari. “Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi. Madaniyatning turlari-moddiy va ma'naviy madaniyat, ularning oʻzaro bogʻliqligi. Axborot jamiyati madaniyati va uning turli koʻrinishlari. Madaniyatning asosiy vazifalari . | “Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Prezident Islom Karimov ma'naviyat, milliy qadriyatlar toʻgʻrisida. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida. Madaniyatning sohalar boʻyicha tasnifi: iqtisodiy madaniyat va uning turlari. “Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi. Madaniyat falsafasi. Madaniyat sotsiologiyasi. Madaniyat tarixi. “Madaniyatshunoslik” fanining tarbiyaviy ahamiyati. Madaniyatga berilgan ta'riflar. «Madaniyat» tushunchasining ayrim talqinlari. Madaniyat mustaqilligi. Jamiyat va madaniyat. Madaniyat — jamiyat mahsuli, ijtimoiy hayotning muhim mulki. Jamiyat, madaniyat va shaxs munosabatlari. Madaniyatning umumiy xususiyatlari. . Moddiy madaniyat tarixiy jarayon sifatida. Ma'naviy madaniyatning turli shakllari. Madaniyatning asosiy vazifalari: olamni oʻzlashtirish va qayta oʻzgartirish vazifasi. Himoya-moslashuv vazifasi. Signifikativ vazifa. Axborotlarni yaratish va yigʻish vazifasi. Kommunikativ vazifa. Shaxs kamolotida madaniy omillarning ahamiyati.. |
| Oʻquv mashgʻulotning maqsadi: | “Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Madaniyatning sohalar boʻyicha tasnifi: iqtisodiy madaniyat va uning turlari. “Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi. Madaniyat falsafasi. Madaniyat sotsiologiyasi. Madaniyat tarixi. “Madaniyatshunoslik” fanining tarbiyaviy ahamiyati. |

| | |
|--------------------------|---|
| | Madaniyatga berilgan ta'riflar. «Madaniyat» tushunchasining ayrim talqinlari. haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Ko'rgazmali, suhbat, aqliy hujum |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat:savol-javob. |

Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|--|---|--|
| Tayyorlov bosqishi(5daqiqqa) | 1. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tyekshiradi 3. Davomatni nazorat qiladi | |
| 1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqishi (10 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Talabalarni kishik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yisha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timyedialardan foydalanadi 4. Mavzular asosida byerilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va hulosalaydi, faol ishtirokshi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kishik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 3 yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi hulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Madaniyatshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi (integrasiyasi)

Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari mavzusi O'zbekiston tarixi, falsafa, sotsiologiya, etnografiya fanlari mavzulari bilan bog'liq.

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo'lgan xususiyat – insonning madaniy hayoti hodisasini tartibli tizimga solib yondashish hisoblanadi. SHuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o'zida mujassam qilgan holda namoyon bo'lishi bilan birga bilishning o'ta murakkab ob'ekti hamdir.

| Madaniyatshunoslikning fanlar tizimidagi o'rnini belgilashda uning boshqa fanlar bilan aloqalarini uchga bo'lib o'rganish mumkin. | | |
|---|--|---|
| 1.Umumiy fanlar bilan aloqalari; | 2.Xususiyy fanlar bilan aloqalari; | 3.Boshqa fanlar bilan aloqalari. |
| falsafa, sosiologiya, siyosatshunoslik | a) tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik, pedogogika ya'ni, madaniyatshunoslikka yondosh fanlar. b) bevosita madaniyat yo'nalishlarni o'rganuvchi fan va nazariyalar, ya'ni madaniyat sosiologiyasi, madaniyat iqtisodiyoti va boshqalar. | Iqtisod Tibbiyot Ekologiya Yurisprudensiya Diplomatiya Matematika Statistika va boshqalar |

Madaniyatshunoslik ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi. Shu sababli u ijtimoiy fanlarning nafaqat usullaridan shu bilan birga ular erishgan ilmiy nazariy xulosalardan foydalanadi.

Madaniyatshunoslik va iqtisod

| |
|--|
| Madaniyatshunoslikning iqtisod bilan aloqadorligi, madaniyatning ham iqtisodiy qonunlarga muvofiq rivojlanishining keng tan olinishi keyingi paytlarda “madaniyat iqtisodiyoti” degan ilm sohasini yuzaga keltiradi. |
| Bozor munosabatlarining esa madaniy ijodiy sohaga keng kirib kelayotgani madaniyatshunoslikni iqtisodiy yo'nalishlarini ham nazariy izlanishlar o'tkazishga undamoqda. |

Madaniyatshunoslik va falsafa

| |
|--|
| Madaniyatshunoslik eng avvalo, “Fanlarning fani” – falsafa bilan bog'liq. Falsafa - donishmandlik ilmidir. Donishmandlik esa madaniyat cho'qqisi. |
| Forobiy — madaniy jamiyat, madaniy shahar va mamlakatni donishmandlar boshqarishini, unda oqilu-fozil kishilar yashashini orzu qilgan edi. |
| Gegel' - inson dunyoni qanchalik ko'p bilsa, o'zligini ham shunchalar ko'p biladi, deb ta'kidlagan edi. |
| Hayot haqida, insonning olamdagi o'rnini, umr ma'nosi haqida fikrlash, kishi tafakkurini o'stiradi, unda mushohada madaniyatini shakllantiradi. Falsafiy qarashlar madaniyatshunoslikka insonning jamiyatdagi, mehnatning madaniyatdagi o'rnini to'g'ri idrok etishga yordam beradi. |
| Madaniyat falsafasi – madaniyatdagi murakkab va ko'p maqsadli jarayonlarni tahlil qilishda yondashuvning eng umumiy tamoyillarini namoyon qilib, qiyosiy tahlil, tasniflashga asoslanadi. |
| Madaniyatni falsafiy anglash, falsafiy asoslash bilan bog'liq materialistik, pozitivistik, ob'ektiv idealistik va boshqa ko'plab qarashlar mavjud. Ularning har |

birida insonning tabiat va ijtimoiy guruh (sosium) olamidi jismoniy, ma'naviy va ruhiy hayot faoliyatining shakllanishi va rivojlanishini nazariy tushuntirish usullari va o'ziga xos tahliliy uslublari ishlab chiqilgan.

Madaniyatshunoslik va sosiologiya

Madaniyatshunoslik sosiologiya fani bilan ham bog'liq. Sosiologiya — jamiyat va uning taraqqiyoti qonunlarini o'rganish bilan birga jamiyat tizimlarida, aholi qatlamlarida va boshqarishda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ham tadqiq etadi.

Jamiyatning har bir qatlamlari va tashkilotlari, o'zining ichki belgilariga, rivojlanish qonunlariga ega. Sosiologiyaning bu boradagi qarashlari madaniyatshunoslikka turli madaniy oqimlarning o'rnini to'g'ri anglashga, ijtimoiy madaniy jarayonlarda boshqarish qonunlarini yaratishga yordam beradi.

Madaniyat sosiologiyasi – biron bir jamiyatdagi mavjud madaniyatning aniq jarayonlarini o'rganish bilan shug'ullanadi; bu har xil sosiologik axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan madaniyat jarayonini empirik (tajriba) tadqiq qilishda ma'lum madaniyat sharoitida kishilarning o'zaro munosabatlarida, sosiomadaniyat toifalarida namoyon bo'ladi.

Madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik

Adabiyotshunoslik bilan ham madaniyatshunoslik hamkorlik qiladi. Jahon adabiyotining yaratilgan obrazlar, inson hayotining rang-barang qirralari, ichki kechinmalari, shodligi-qayg'usi, sevinchi-o'kinchi, mehri-qahri bor murakkabliklari bilan tasvirlangan yozma asarlar madaniyatshunoslikni ham hayotiy, ilmiy-nazariy boyitadi.

T.Karneyl: «Kitob insoniyat ijodiyotidan chinakam hayratlanarli va e'tiborga loyiq ko'rinishi hisoblanadi. Kitoblarning kechmish zamonlaridan aql-idroki yashaydi; xoki-tuproqlari tush singari allaqachonlar tuzib ketgan odamlarning ovozi burro va aniq yangrab turadi. Insoniyat yaratgan qayta-qayta o'ylab ko'rgan va u erishgan narsalarning sehri sandiqda kitoblar sahifasida saqlanib qolgan».

Adabiyot-hayot, davr ko'zgusi. Kishi, zamon, ijtimoiy hayot, davr bilan bog'liq ekan, u zamondoshlarning kimligini, ularning hayoti, orzu-niyatlarini bilish uchun ham «Ko'zgu»ga tez-tez nazar tashlab turishga majbur.

Madaniyatshunoslik va tarix

Madaniyat va madaniy jarayon umumtarixiy jarayonni tarkibiy qismi sifatida keladi. Ushbu tarkibiy-madaniy jarayonlarining madaniyatshunoslikning tarkibiy qismi bo'lmish madaniyat tarixi o'rganadi.

Madaniyatshunoslik fani o'ziga ham tarixiy yondashish, ya'ni madaniyatning ibtidoiy ko'rinishlarining yuzaga kelishidan tortib uning hozirgacha bosqichma-bosqich rivojlanishini ko'rsatish an'anasiga xosdir.

Madaniyat tarixi – har bir madaniyatni noyob va asl hodisa sifatida o'rganadi; shuningdek, turli madaniyatlarni o'zaro taqqoslaydi, ularni o'zaro munosabati va o'zaro ta'siri, zamon va makondagi ularning farqlarini madaniy taraqqiyotidagi o'ziga xos va umumiy tomonlarni tadqiq etadi.

Madaniyatning tuzilish shakli (morfologiyasi) – insonga bog'liq bo'lmagan

va jamiyatda mustaqil mavjud bo'lgan madaniyatning o'ziga xos shakli uning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Madaniyat rivoji jamiyatning ichki qonuniyatlariga o'zaro bog'liqdir, deb hisoblovchi madaniyat morfologiyasi taqqoslash, tahlil va boshqa uslublar asosida madaniyat rivojlanishining manbai va omillarini ochishga urinadi. Uning mavjudlik davri u yoki bu madaniyatning paydo bo'lishidan to inqirozigachadir.

Madaniyatshunoslik va pedagogika

Madaniyatshunoslikning pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, pedagogika — keng ma'noda tarbiya haqidagi fandır. Tarbiya ham, madaniyat ham insoniyatning mavjudlik, barhayotlik, sharti sifatida jamiyatning ongli va madaniyatli qatlamlari tomonidan yaratiladi hamda yoshlarga singdiriladi.

Odamlardagi birinchi ijtimoiy ehtiyoj tarbiyaga yoki tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojdir. Bu ehtiyojni hamma ham, ayniqsa, go'dakligi va bolaligida zarur narsa sifatida qabul qilavermaydi, shuningdek madaniyatni ham.

Tarbiya ob'ektida ijobiy fazilatlarni va ijodiy xislatlarni shakllantirish – pedagogikani ham, madaniyatshunoslikning ham vazifasi.

Madaniyatshunoslikning amaliyot bilan bog'liq yo'nalishi —«prikladnaya kul'turologiya» xuddi shu joyda u pedagogika bilan hamkorlik qiladi, uning boy tarbiyaviy ta'sir usullaridan foydalanadi.

Madaniyatshunoslikning bosh vazifasi o'ziga xos vositalar orqali yon-atrofnı insoniylashtirish, ya'ni inson kamolotini oliy maqsad qilib qo'ygan muhitni shakllantirishdir.

Madaniyatshunoslik o'z tadqiqot ob'ektlarini shunchaki o'rganib qolmaydi, uni inson va taraqqiyot manfaatları nuqtai nazardan o'zgartirishi, insoniylashtirish yo'llarini ham ochib beradi.

Madaniyat ekologiyasi – zamonaviy inson hayot faoliyatining barcha sohalarini: insonning individual hayotini, jamiyat hayoti, tabiat bilan o'zaro munosabatlarini qamrab oladi. Bu madaniyatshunoslik tadqiqotdagi eng yangi faol rivojlanayotgan sohalardan biri.

Madaniyatshunoslik va estetika

Estetika go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik kabi tushunchalar bilan birga kishilarga his-tuyg'ularini o'stirish, ularni ranglar, ohang va tovush rang-barangligini ilg'ashga o'rgatadi. Bu muammolar madaniyatshunoslikni ham qiziqtiradi.

Estetika ham madaniyatshunoslikni ham yon-atrofdagi voqealarni kishilardagi bor ziddiyatlari bilan tadqiq etadi. Mavjud ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni, ularning ichki qonuniyatlarini hisobga olgandagina madaniyatning davr talablarini, hayot ehtiyojlarini, shaxs istaklarini to'g'ri ilg'ab oladi. O'zini ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan fan sohasi ekanligini isbotlaydi.

TALABANING BAZIS BILIMINI BAHOLASH UCHUN SAVOLLAR

“Madaniyatshunoslik” fanining maqsadi. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida.

“Madaniyatshunoslik” fanining predmeti, uning mohiyati va rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari hamda ijtimoiy vazifalari.

“Madaniyatshunoslik” fanining asosiy tarkibiy tuzilishi.

Madaniyatning turlari-moddiy va ma'naviy madaniyat, ularning o'zaro bog'liqligi. Axborot jamiyati madaniyati va uning turli ko'rinishlari. Madaniyatning asosiy vazifalari .

2-mavzu: *Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-80 gasha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-axborotli ma'ruza. |
| <p>Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o'zgarib borishi.</p> <p>Madaniy meros – insoniyatning o'tmish bilan chambarchas bog'liqligi natijasi. Madaniy merosning mexanizmi.</p> <p>Ma'naviy merosning uzviyligi. O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning mazmunan o'zgarishi.</p> | <p>Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o'zgarib borishi. “Buyuk ipak yo'li” madaniyati- O'rta Osiyo madaniyatining uzviy bir qismi. Bu madaniyat Eron, Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o'zgartirishga sabab bo'lgani. Me'morchilikka oid o'tmishdagi va bugungi inshootlar, ularning tarixi, farqlari, o'z davri uchun noyob hodisa ekani – madaniy taraqqiyotning muhim belgisi. Madaniy meros – insoniyatning o'tmish bilan chambarchas bog'liqligi natijasi. Madaniy merosning mexanizmi. Ma'naviy merosning uzviyligi. O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning mazmunan o'zgarishi.</p> <p>Milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyat munosabatlari. Sovet tuzumi davrida O'zbekistonda xalq an'alariga tazyiqlar va buning salbiy oqibatlari. Jamiyatning moddiy va ma'naviy rivoji – har tomonlama rivojlanish uchun omil. Milliy axloq va yagona millat, yagona Vatan tuyg'usi. Mustaqil O'zbekiston sharoitida milliy madaniyat rivojlanishi uchun omillar va milliy madaniyatning bugungi jahon madaniyati qatoridan o'rin olayotgani hamda dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotgani.</p> |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: | <p>Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o'zgarib borishi. “Buyuk ipak yo'li” madaniyati- O'rta Osiyo madaniyatining uzviy bir qismi. Bu madaniyat Eron, Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o'zgartirishga sabab bo'lgani. Me'morchilikka oid o'tmishdagi va bugungi inshootlar, ularning tarixi, farqlari, o'z davri uchun noyob hodisa ekani – madaniy taraqqiyotning muhim belgisi. Madaniy meros – insoniyatning o'tmish bilan chambarchas bog'liqligi haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.</p> |
| Ta'lim berish usullari | Kurgazmali, ma'ruza, suhbat |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |

| | |
|--------------------------|---|
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat:savol-javob. |

Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari

ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|----------------------------------|---|--|
| Tayyorgarlik bosqishi (5 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi ushuni taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 1. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yisha savollar beradi. | Tinglaydilar Talabalar byerilgan savollarga javob beradilar |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar Tinglaydilar |
| 2- Yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Mavzu bayoni :

REJA:

- 1.Madaniy rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.**
- 2.Madaniy va ma'naviy meros.**
- 3.Moddiy va ma'naviy madaniyatda o`ziga xoslik va davomiylik.**
- 4.Hozirgi davr madaniyati turli darajalarining o`zaro nisbati: kasb, xalq, yuksak san'at va ommaviy madaniyat.**

Moddiy va ma'naviy madaniyat madaniyatning asosiy ikki sohasi bo`lib, bir-biri bilan o`zaro aloqada, o`zaro ta'sirda va bir-birini taqozo qilgan holda rivojlanadi. Madaniy jarayonni o`ziga xosligi shundaki, madaniyat hodisasi har doim shakl va mazmun, borliq va munosabat, narsaning mavjudligi va uning ramziy mazmuni uyg'unligiga ega bo`ladi. Tabiat stixiyali qonuniyatlar asosida rivojlanib borsa, insonning ichki dunyosi, ichki «tabiati»ni shakllantirish maqsadli, yo`naltirilgan asosda tashkil etishi mumkin, bunda madaniyat insoniyatga shunday imkoniyatni yaratuvchi muhim vositalarda biri bo`ladi.

Moddiy madaniyat har doim ma'lum bir ma'naviy madaniyatning timsoli hisoblanadi. O`z navbatida ma'naviy madaniyat ham qaysidir narsa, tasvir, ramzlarda, moddiy uyg'unlikda mujassam bo`ladi

Moddiy madaniyatning ma'naviydan tarixan ayriligi faqat insoniyat taraqqiyotining boshlang`ich davrlarigagina xosdir. Jamiyatda ma'naviy faoliyat

maxsus sohaga aylangach axloqiy mezonlar, din, san'at, huquq, siyosat, fan shakllanib ma'lum doiradagi kishilar bu soha bilan shug'ullana boshlaydi. Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda, faqat ma'naviy madaniyat nazarda tutilardi. Negaki borliqni haqiqat, yaxshilik, go'zallik belgilaydi, deb hisoblashgan. Shuning uchun birinchi o'rinda ilmiy tadqiqotlarning asosi fan, axloq, nafosat bo'lib keldi. Natijada jamiyatning moddiy hayotini, uning iqtisodiyotini o'rganishga e'tibor berilmadi. Moddiy madaniyat tadqiqot uchun qiziqarsiz hisoblanib kelindi.

Moddiy madaniyatning birinchi katta sohasi bu mehnat qurollari, ishlab chiqarishining barcha vositalari, turar joylar, aloqa vositalari, texnika qurilmalaridir. Xullas, sun'iy sharoitda yaratilgan narsalarning barchasi, shuningdek moddiy madaniyatning bu qismi ishlab chiqarish texnika madaniyati yoki jamiyat hayotining moddiy texnika asosi deb ataladi. Ishlab chiqaruvchi texnika madaniyatining maxsus qismini ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat faoliyatida ishtirok etuvchilarning ijodiy ko'lami, ularning texnik bilimi, ishlab chiqarish madaniyati, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari tashkil qiladi.

Moddiy madaniyatning ikkinchi sohasi ijtimoiy hayot va uning barcha tarmoqlarining me'yoriy harakatini ta'minlovchi ko'plab ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar faoliyati bilan bog'liq. Bu turli hokimiyat tuzilmalari va unga munosib boshqaruv shakllari, ijtimoiy tashkilotlar, ta'lim, yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish, sog'liqni saqlash va dam olish, bo'sh vaqt va ko'ngil ochish muassasalari tizimi kabi barcha ijtimoiy institutlar amalda jamiyat madaniyatini saqlaydi, o'zgartiradi va qayta shakllantiradi.

Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi (ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi) insonning o'zi hisoblanadi. Moddiy madaniyatning bu sohasi nafaqat insoniyatni shunchaki biomavjudotlik muammolarini tadqiq qilmasdan, balki avlodlarning o'zaro munosabatlari, muammolarini ham tahlil qiladi. Umuman, moddiy madaniyatga mehnat madaniyati, ishlab chiqarish madaniyati, turmush madaniyati, ekologik madaniyatlar kiradi.

Ishlab chiqarish vositalari moddiy madaniyatning muhim qismidir. Zamonaviy texnika yutuqlari jamiyat moddiy madaniyatining asosini belgilovchi jihatdir. Maishiy turmushdagi iste'mol buyumlari ham har bir xalqning moddiy hayot darajasini belgilaydi. Shu o'rinda moddiy madaniyat ishlab chiqarish va iste'mol buyumlarining oddiy majmuidangina iborat bo'lmay, ularni ijodiy o'zgartirish, yangidan yaratish, ulardan mukammal foydalanish usullari hamdir. Bunda ijodiy salohiyat, malaka va g'oya yangidan moddiylashib, shaxs, jamiyat, millat, xalq, davlat umuminsoniy mazmun ham kasb etadi. Moddiy madaniyat muayyan tarixiy davrda jamiyatda mavjud bo'lgan buyumlarni moddiy ishlab chiqarish faoliyatining barcha sohalarini va natijalarini o'z ichiga oladi. Madaniyat va shaxs nafaqat mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan, balki ichki va tashqi tomonlari jihatidan o'zaro mos keluvchi tushunchalardir. Shaxs muayyan madaniy muhitda yashaydi va faoliyat ko'rsatadi.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy «Baxt saodatga erishuv haqida» risolasida, inson kamolotida jamoaning roli katta ekanligini ta'kidlab, inson o'z-o'zidan baxtli ham bo'lolmaydi, kamolotga ham erisholmaydi. «Bu narsa uning harakatlariga, mehnatiga, kasb-hunar egallashiga, bilimiga va fozil jamiyatda yashashiga bog'liq»,

deydi. «Davlatning vazifasi insonlarni baxt saodatga olib borishdir, bu esa ilm va axloq yordamida qoʻlga kiritiladi». Forobiy davlatni etuk shaxs (Monarxiya), etuk xislatlarga ega boʻlgan bir necha shaxslar (Aristokratiya) va saylangan shaxslar (Demokratiya) yordamida boshqarish shakllarini qayd etadi. Forobiy jamiyat oʻz rivojida etuklikka tomon intilishi, shuning uchun kurash olib borishi va nihoyat fozil jamiyat, fozil shahar darajasiga koʻtarilishi haqida fikr yuritadi.

Individ ijtimoiy turmush va madaniyatga qay tarzda jalb qilinganligiga, uning tabiiy imkoniyatlari, harakati, hissiyoti tafakkuri sotsiol ahamiyatli mazmun bilan toʻldirilganligiga va madaniy shakl kasb etganligiga qarab shaxs sifatida qaror topadi. Madaniyat individual va ijtimoiy hayot bilan uzluksiz birlikni tashkil topgan vaqtgacha mavjud boʻladi. Madaniyat kishilarga tana a'zolari, instinktlari yoki tugʻma iste'dodi kabi tabiatdan berilmaydi, har bir individ oʻzining shaxsiy tajribasi asosida, mustaqil ravishda bevosita tevarak atrofidagi kishilarning, jamiyatning va oʻtgan avlodlarning toʻplagan tajribalarini oʻzlashtiradi.

Individium ijtimoiy amaliyot mahsuli boʻlgan madaniyatni oʻzlashtirish bilan birga unga aks ta'sir etadi. Shaxsni shakllanish jarayoni madaniyatning moddiy dunyosini ham boyitadi. Shuningdek inson madaniyat normalariga amal qilgan holda nafaqat tabiatni va jamiyatni, balki shaxsiy «tabiati»ni ham oʻzgartiradi. Madaniyat shaxsning ichki dunyosi va mazmuniga «ikkinchi tabiati»ga aylanadi.

Individ bilan madaniyat oʻrtasidagi munosabat murakkab jarayon hisoblanadi. Individni ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishiga imkon beruvchi psixosotsial va madaniy dunyoqarashi ijobiy va salbiy qarashlarning yigʻindisidan tashkil topadi. Insonga ishchanlik, fidoyilik, matonat, oʻtkir zehn bilan birga kalta fahmlik yalqovlik shafqatsizlik, oʻz manfaatlarini toʻgʻri tushuna olmaslik, haqiqiy qadriyatlarni soxtasidan ajrata bilmaslik ham xosdir. Shuning uchun madaniyatni nafaqat qadrlash va saqlash, balki tanqidiy oʻrganish ham talab etiladi.

Shaxs madaniyat bilan birga quyidagi sohalarda munosabatda boʻladi: birinchidan, madaniyat ta'sir etish ob'ekti sifatida uni oʻzlashtiradi; ikkinchidan, madaniy qadriyatlarni tutashtiruvchi va ifodalovchi sifatida konkret madaniy muhitda faoliyat koʻrsatadi; uchinchidan, madaniy ijodiyot sub'ekti sifatida madaniyatni rivojlantiradi.

Madaniyat - jamiyatning mahsuli, ijtimoiy hayotning eng muhim jabhalaridan biridir. Madaniyatsiz jamiyat boʻlmaganidek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida mavjud boʻlmaydi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida madaniyatning oʻziga xos xususiyati shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini oʻziga singdirib oladi, saqlaydi va doimiy boyitib boradi. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisligi, qadriyatlarini toʻplash va ularni kelgusi avlodlarga etkazib berish bilan bogʻliq boʻlgan sohalarni ifodalaydi. Madaniyat tabiatdan farq qiladi, an'analar, ramzlar, til, bevosita taqlid qilish va amaliy oʻrganish orqali avloddan-avlodga singdiriladi.

Biz hozirgi davrdagi mavjud muammolarga oʻxshash boʻlgan toʻsiqlarni oʻtmishda odamlar qanday qilib engib oʻtganlarini oʻrgana borib oʻtmishga savollar bilan murojaat qilamiz, oʻtmish bizga javob qaytaradi va shu bilan oʻtmish, hozirgi zamon va kelajak oʻrtasida doimiy muloqotda boʻlib turiladi.

Ijtimoiy jarayon, kishilarni hatti-harakati, ya'ni sotsial faoliyati madaniy ideallarni, qadriyatlarni, normalarni qaror toptirilishi yoki barham berilishida vosita vazifasini, shuningdek kishilarning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining shaxslararo va guruhlararo aloqalari, shakli, vazifasini ham bajaradi. Jamiyatda vujudga kelgan madaniyat qanchalik murakkablashib boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta'siri mukammalashib va nisbiy mustaqilligi kuchayib boradi. Masalan, Antik jamiyat allaqachon o'tmish, tarixga aylangan bo'lsa-da, uning madaniyatini o'sha vaqtdagiga nisbatan ko'proq bilamiz.

Madaniyatning quyidagi funktsiyalari mavjud:

Olamni o'zgartirish va qayta o'zgartirish; bunda u mavjud narsalarning jismoniy talablarini, shuningdek ijoddagi hayotiy talablarni qondirish zarurati bilan bog'liq.

Himoya-moslashuv vazifasi: jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi muvofiqlikni saqlash. Ushbu funktsiya uzoq vaqt qiyin tabiiy sharoitlarda barcha yangi himoya vositalarini ishlab chiqishda va ko'niktirishda (olov, turar joy, kiyim, dehqonchilik va h.z.) odamning omon qolishini ta'minlaydi. Keyingi vaqtlarda o'ta jiddiy bo'lib turgan muammo tabiatni himoya qiluvchi vositalarni yaratish, bunda ekologik mezon, ekologik tafakkurning keng ko'lamda yoyilishini amalga oshirish zarur.

Signifikativ funktsiya (belgilash, ro'yxatga olish mazmunida): - mazmun, ma'no, nom, belgilar ko'lamini ishlab chiqish vositasida dunyoning qiyofasida, voqelikni belgi tizimining yaratilishi. Bu vazifa ma'lumotlarni o'zida saqlamasdan nazariy modellar va axborotlar bilimini to'plashni vujudga keltirish uchun faqat material bo'lib xizmat qiluvchi mazmun bajaradi.

Axborotlarni o'zlashtirish va yig'ish funktsiyasi xabarlarini yig'ish va saqlash vositasi tabiiy xotira yoki xabarlarini narsalarga yozish (qo'lyozmalar, kartinalar, plastinkalar, kitoblar, kinotasmalar, ohangrabo yoki raqamli yozuvlar) bo'lishi mumkin. Har qanday holatda axborotlarni tashkish qilish, uning qadri va mazmuni bo'yicha tartibga solishning ma'lum usuli va belgilar tizimi zarur. Hozirgi davrda til belgilar tizimining keng ko'lami va o'ta ahamiyatlisi bo'lib qolmoqda.

Kommunikativ funktsiya (aloqa almashuv) – mohiyatni aniqlashda bilimlar, fikrlar, ma'naviy kuchlarni almashlash. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda energiya, faqat turli tiplarning munosabati jamiyatning tuzum sifatida mavjudligini va uning keyingi taraqqiyotini ta'minlashga qodir.

Normativlik funktsiya (mezon-me'yoriy) – kishilar xulqini tartibga solish, ularning kuchini bir me'yorda va jamiyatni bir butunlikda saqlash maqsadida muvofiqlashtirish. Me'yor-qoida qandaydir harakat yoki qandaydir predmetlar, narsalarni yaratish sohasida aniq ko'rsatmadir. Ongli ravishda o'rnatilgan yoki ko'p asrlik an'analarga tayanuvchi majburiy ta'qiqlovchi me'yorlar mavjud (huquqiy, axloqiy me'yorlar), biroq ularni mazmuni bor jamiyatni barbod qilmaslik uchun kishilar faoliyatini tartibga solish, aniq chegaralar bilan belgilash.

Ruhiy yoki "loyihaviy" mo'tadillik funktsiya - bayramlar, diniy marosimlar, o'yin, tomosha jarayonlarida ruhiy zo'riqlashlarni bartaraf qilish. qoniqarsiz istaklar, ro'yobga chiqmaydigan niyatlar, amalda ta'qiqlanuvchi janjallar mavjudligi ruhiy zo'riqlashlar paydo bo'lishiga olib kelib, nafaqat ma'lum bir shaxs salomatligiga zarar etkazadi, balki, ommaviylik kasb etib, jamiyat harakatini izdan chiqarishi mumkin.

Shuning uchun madaniyatda keraksiz hissiyotdan xolos bo'lish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Madaniyatning quyidagi funksiyalari bevosita shaxs bilan bog'liq:

-“Gominizatsiya”- urug'doshlik xususiyatlarini o'rganish. Madaniyat “aqli odam” uchun xos bo'lgan nutq, narsalarni ramziy ifodalash, xususiyatlarini har doim odam o'rganishga imkon yaratadi.

-Sotsializatsiya –(umumlashtirish) –jamiyat hayoti uchun uning haqiqiy a'zosi sifatida zarur xisoblangan ma'lum miqdordagi shartlarni o'zlashtirish. Bu funktsiya idrok, tafakkur, nutq, so'zlarni qo'llanilishi, ohangi, imo-ishora va shama, tipik hodisalarga munosabat tarzi, shuningdek, talab va qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirish kabi andozaviy usullarning mustahkamlanishi bilan bog'liq.

-Inkulturatsiya - avvalo o'z xalqining, keyin esa umuminsoniy madaniy merosga munosabatda bo'lish.

-Individualizatsiya – madaniyat ma'lum shaxslar qobiliyati, iqtidori, xususiyatini o'ta rivojlantirishga mo'ljallangan. Shaxs madaniyati qolgan barcha madaniyatlar doirasida – (jamiyat insoniyat) eng asosiy bo'g'in bo'lib bu har bir aniq shaxs madaniyatning barkamollik darajasiga jamiyat yoki butun insoniyat madaniyatga bog'liq bo'lishini bildiradi.

Tarixiy davrlarda madaniyatning keng ko'lamli rivoji sivilizatsiya tushunchasida ham ifodalanadi. Sivilizatsiya—madaniy rivojlanish jarayonining ma'lum bir tarixiy bosqichidan yuzaga kelgan ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos ko'rinishidir. Sivilizatsiya ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyoti bosqichini bildirib, moddiy madaniyatning turdosh nomidir. Hozirgi davrda sivilizatsiya insoniyatga begona bo'lgan ob'ektlarni qayta o'zgartirishni bildiradi, Madaniyat esa insonning fazilat va holati, tashqi dunyoga bog'liqligi yoki erkinligining mezonidir. Nemis olimi O.Shpengler sivilizatsiya tafakkurni bir qolipga solib qo'yadi, umum qabul qilgan haqiqatlarni mutloqlashtiradi deb, hisoblaydi.

Bundan tashqari, sivilizatsiyani urbanizatsiyaga hatto olamni noinsonlashtirishga olib keladi, sivilizatsiya va fan o'zligicha ma'naviy taraqqiyotni ta'minlay olmaydi, bu erda aqliy, axloqiy va estetik yutuqlarni majassam qilgan ma'naviy tuzilma zarur degan fikrlar ham mavjud. Barcha sivilizatsiyali jamiyatlarda shaxsning erkini bug'ib qo'yish, uning huquqlariga yo'l bermaslik, unga xiyonat qilish yoki uning jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatini bajarmasligi qonun yo'li bilan ta'qiqlanadi.

Barcha madaniyatli jamiyatning xususiyatini, uning mezon va mazmunini ziyolilar belgilaydi. Ziyolilik bu nafaqat keng bilimga ega bo'lishni, balki tashabbuskorlikni, javobgarlikni, axloqiy-estetik jur'atni va tug'ma iste'dodni bildiradi. Ziyolilar-aqliy mehnatning xilma-xil murakkab turlari bilan shug'ullanuvchi qatlamdir (fan va madaniyat xodimlari, o'qituvchilar, muhandislar, texniklar, shifokorlar).

Madaniyatlilik deganda kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, sahovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, saxiylik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish, axloqiy qoidalarga to'la amal qilish, o'z millati hamda boshqa xalqlarni ham hurmat qilish hislatlari anglashiladi.

Ziyolilik aqliy kamolot egasi bo'lish, nazariy masalalarni anglashga, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishdir. «Ziyolilik» yuksak darajada kamol topgan

intelligentni, keng, bilimli, yuksak madaniyatlilikni anglatadi, «ziyoli» kishilarning tabaqalari orasidagi ijtimoiy qatlamni anglatadiki, bu qatlam yuqori malakali aqliy mehnat bilan mashg'uldir. Etarli bilimga ega bo'lmagan holda dunyodagi barcha narsalar to'g'risida fikr bildiruvchi kishi dilentantdir. Dilentantlik madaniyat kamligining belgisi bo'lib, chinakam madaniyat va ziyolilikka aloqasi yo'q.

Ziyolining estetik didi baland bo'ladi, ya'ni san'at asarlarining go'zalligi to'g'risidagina emas, balki kishilarning, tabiatning va jamiyatning go'zalligi haqida fikr yuritishga qo'pollik va adolatsizlikka qarshilik ko'rsatib uni bartaraf qilishga qodir bo'ladi. Hamma narsada me'yor va uyg'unlik tuyg'usi ziyolilikning yuksak xususiyatidir. Ziyolilik bilim, ilm va tarbiya bilan kamol topadi. Ziyolilik tushunchasiga umumiy madaniyatdan tashqari qalb nozikligi, umuman, hayotga munosabatda yuksak ong, ijtimoiy faollik ham kiradi. Demak, «ziyolilik» tushunchasi faqat aqliy mehnat kishisiga taalluqli emas. Ziyoli deb chuqur intellektga, intuitiv oliyanoblikka ega bo'lgan, ma'naviy ehtiyojlari keng har bir kishini atash mumkin. Madaniyatshunoslikni o'rganishdan maqsad ziyolilikni tarbiyalashdir. Ziyoli – intellektual shaxs. Uning madaniyatli kishidan farqi, jamiyat va millat taqdiriga ma'naviy javobgar bo'lgan shaxsligidadir. Intellektual shaxs o'ziga qarshi boruvchi, o'zini-o'zi inkor qiluvchi ichki xususiyatlarga ega bo'lgan ziyolidir. Ziyolining shu xususiyatlarida komillik belgilari namoyon bo'ladi.

Shahar madaniyati, fuqaroviy jamiyat uning asosini tashkil etadi. Ilm-fan, texnika, ta'lim tizimi, davlatni boshqarish usullari, ma'rifat – barchasi sivilizatsiya mahsulidir. Madaniyatshunoslik bu hodisalarni ijtimoiy-madaniy taraqqiyot yutuqlari sifatida tadqiq etadi, ularning ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanish qonunlarini ochib beradi.

Sharq va G'arb madaniyati atamasi madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlarda keng tarqalgan. Bu atama negizida ba'zi tadqiqotchilar xududiy, boshqa birlari – diniy, yana birlari esa milliy-etnik farqlarni ko'radi.

Madaniyatshunoslik fanida Sharq va G'arb madaniyatlaridagi farqlarni izlashdan ko'ra, ular o'rtasidagi mushtaraklikni, xalqlar va millatlarni bir-birlariga yaqinlashtirish omillarini izlash ustun turadi. G'arbda davlat bilan shaxs o'rtasidagi qarama-qarshilik, hatto ochiqdan-ochiq to'qnashuvlar oddiy hol hisoblanadi. Istagan shaxs o'z oila a'zosidan tortib, to davlat rahbarini ham tanqid qilishi, hatto ularning shaxsiy hayotiga oid sirlarni fosh etishi, ba'zan esa g'arazli niyatlar bilan shov-shuv ko'tarishi mumkin. Sharqda madaniyat axloqiy va milliy etika doirasidagina namoyon bo'lish xususiyatiga ega. Bu xususiyatga ko'ra shaxs bilan davlat, hukumat o'rtasida munosabatlar bir-birini hurmat qilish, ijtimoiy barqarorlikni, tinchlikni kishilar va oila osoyishtaligini ko'zlash printsiplariga asoslaniladi.

Gegelning fikriga ko'ra, ilm-fanga asoslangan va tinmay bilimga intiluvchi Evropa madaniyati boshqa xalqlar uchun namuna, o'rnak oladigan andoza bo'lmog'i kerak. Bu o'rinda biz Gegelning fikri Evropatsentrizm oqimining rivojlanishiga ta'sir qilganini payqashimiz mumkin. Keyinroq bu oqimga qarshi Vostokotsentrizm oqimi yuzaga keldi va natijada Evropa misolida G'arb madaniyati bilan Sharq madaniyatini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish shakllandi. To'g'ri, ayrim tadqiqotchilar Evropa bilan Sharq o'rtasidagi farqlarni emas, balki mushtarak tomonlarini ko'proq o'rganishga

da'vat etadilar. Biroq hozirgi paytda xuddi shuningdek, madaniyatshunoslikda ham, G`arb va Sharq madaniyatlarini bir-birlaridan farq qiluvchi hodisa sifatida qarash keng tarqalgan. Biz buni o`tkinchi hol deb qaraymiz.

G`arbda «har kim o`zi uchun!» degan shior oddiy haqiqat. Har kim o`zicha mustaqil shaxs. Birov bilan birovning ishi yo`q. Bu G`arb individualizmining yaqqol ko`rinishi. Bizda o`zi nochorgina ro`zg`or tebratib turgan oila ham qo`shnining betob bolasiga so`nggi chaqmoq qandini ilinadi. Nima bu? Shunchaki yovvoyi «instinkt»mi?

Buyuk bobomiz Abu Rayxon Beruniy ming yil avval yaratgan «Hindiston» asarida yozgan: «Biron xalqning bir yoki bir necha udumlariga baho berishda bunisi menga yoqadi, unisi yoqmaydi, deyishga hech kimning haqqi yo`q, negaki, har bir xalq udumlari, an'analari ming yillar davomida shakllangan va o`sha millatning hayot tarziga aylangan». Shu mantiqdan kelib chiqadigan bo`lsak, o`z qadriyatlarimizni ulug`lab, boshqalarnikini kamsitish to`g`ri bo`lmaydi. Har bir millatning o`ziga xos go`zal udumlari bor. Biroq Sharq bilan G`arb dunyoqarashi orasida anchagina jiddiy tafovutlar borligini inkor qilib ham bo`lmaydi. Sharqona odob doirasida yaratilgan, insonning murakkab qismatini tasvirlovchi filmlar, masalan «Qish sanatasi», «Kuz ertagi» kabilar bizning tomoshabinni larzaga soladi, qalbidan joy oladi. sababi oddiy. Tomoshabin ularda o`z ma'naviyatiga yaqin holatlarni ko`radi.

Dunyo sivilizatsiyasi turfa xalqlarning o`ziga xos an'analari, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari bilan go`zal va boy hisoblanadi. Ularning har biri yashash va ravnaq topishga haqli. Hozir globallashuv asosini G`arb andozalari tashkil etayapti, qaysidir davlat yoki davlatlar, qaysidir xalq yoki xalqlar globallashuvini o`z mentalitetidan kelib chiqib o`zgalarga tiqishtirishi adolatdan emas. U holda bu jarayon bir tomondan foyda qilsa, ikkinchi tarafdan, jiddiy zarar keltirishi, asriy qadriyatlarimizga shikast etishi, xalq o`z ildizidan ayrilgan «omma»ga, millat o`z qiyofasini yo`qotgan «manqurt»ga aylanib qolishi extimoldan uzoq emas. Bunday xatolarga yo`l qo`ymaslikning chorasi bitta: - o`zgalar qadriyatini kamsitmagan holda o`z qadriyatlarimizni mahkam tutib, himoya qilishimiz, lozim bo`lsa, jumlai jahonga ko`rsatishimiz kerak.

Madaniy meros - oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba axloqiy, ilmiy-tafakkuriy, diniy, siyosiy qarash, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy va ma'naviy boyliklar majmuidir. Madaniy meros - bu o`tmishdan qolgan qadriyatlar, g`oyalar, tajriba, bilimlar ularni o`zlashtirish yo`llari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish hamda uning natijalardir. O`zlashtirish yoki aniqrog`i, madaniy meros jarayoni o`ta muhim bo`lib, madaniyatning harakatdagi asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi.

Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib jamiyat o`z maqsadlarini amalga oshirishni qisqa yo`llarini tanlaydi. Bundan tashqari ma'naviy me'ros kishilarning saviyasini behat kengaytiradi, ular hayotini aqliy va hissiy jihatdan boyitadi, bilimning tuganmas manbai bo`lib xizmat qiladi .

O`tmish bilan batamom uzilish mumkin emas. Meros ko`p qirralidir. Har bir yangi avlodning vorislik mexanizmi o`tmishdoshlarning tajribasidan madaniyatining turli sohalarida farqlanadi: San'atdagi fandagidan boshqacha: Tabiiy fanlar gumanitar

fanlardan farqli. Vorislik (meros) har qanday sohaga insonning haqiqiy o`zlashtirishida namoyon bo`ladi, va ayni paytda mahalliy yoki dunyo miqyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin. Vorislikning mahalliy (cheklangan), kasbiy (professional), milliy, etnik va boshqa ko`rinishlarga ega. Bu faoliyat madaniy bosqichlarda bir me'yorda, tekis yo`nalish shakllarida bo`lmay, uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sakrab o`tishi notekis bo`ronlar xususiyatiga ega. Insoniyatning ma'naviy yutuqlaridan meros qilib qoldirishdan vorislik keng miqyosida (umumiy) shaklda jarayonlar mufassal yo`nalishda amalga oshadi. Masalan, Qadimgi Misr zakovati «Injil», «1001kecha ertaklari» kabi madaniyat yodgorliklariga ijobiy ta'sir qildi. Yana, er yuzidagi barcha xalqlarning zamonaviy bilim sohalari zamin bo`lgan Bobil astranomiya, hind matematikasi, antik falsafa, Rim huquqi haqida ham shunday gapirish mumkin.

Agar madaniyat va ma'naviyat sohalari tarkibida til, udumlar, an'analari va boshqalar bo`lsa, ma'lum xalqning madaniyat tarixi, doirasida meros qoldirish jarayoni yaxshiroq kechadi. Boshqa sohalarda esa texnika, fan, san'at kabi sohalardagi bir xalqqa tegishli meros boshqa xalqlarga ham tegishli mulkka aylanadi, meros qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Buni namoyish qilish, og`zaki uzatish, folklor, san'at, kino tasviri, oxangrabo yozuvi, kompyuter xotirasi.

Sovet jamiyatida kommunistik hukmronlik davrida xalqlar, xususan O`zbekistonda ham o`zining haqiqiy tarixiy, milliy va ma'naviy merosidan mahrum etilgan edi. Umuman, madaniy merosdan mutlaqo mahrum bo`lgan yoki foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar tarixda bo`lishi mumkin emas.

Madaniy merosning mexanizmi quyidagi xususiyatlarga ega:

1.Ma'naviy merosning uzviyligi. Ajdodlar yaratgan jamiki boylikka yangi avlod merosxo`r bo`ladi, tarixiy axamiyatni yo`qotgan madaniyat o`rnida yangi madaniyat vujudga keladi, avvalgilardan ko`p narsalar o`zlashtiriladi. O`tmish tajribasi bugun va kelajak uchun as qotishi mumkin, shuningdek, bugun unutilgan narsalar butunlay yo`qolib ketmaydi. Masalan, V. Shekspir 100 yilda unutilib, keyingi avlodlar uchun jaxon adabiyoti dramaturgiyasining klassigi sifatida tanildi.

2.O`tmishdan kelajakka o`tish jarayonida merosning o`zgarishi. Madaniy merosning o`tish davrida xususiyati o`zgarishi mumkin. Ya'ni, milliy g`oya mavjud nuqtai nazar va bilimlar talabiga mos keluvchi yangi talqindagi mazmun kasb etadi. Mana shunday ko`rinishda u kelajakka meros bo`lib o`tadi. Bizning kunimizgacha Suqrot va Demokrit asarlarining asl nusxasi saqlanib qolmagan, biroq har bir avlod ularning g`oyasini talqin qiluvchi kitoblar yaratgan.

3.O`tmishdan qolgan barcha narsalar butunlay o`zlashtirilmaydi. Talabiga, ruhiga javob beruvchi, zarur narsalarnigina oladi.

Yangi hayot qadim donishmandchiligidan g`oya oladi. Har bir etnos, xalq o`zining mustaqil, betakror, barhayot noyob madaniyatiga ega. Xalqlar hayotining mintaqaviy, tarixiy o`ziga xosligi har bir xalq madaniyatining rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi, u yoki bu etnos hayotining saqlanib qolishi va barhayotligiga imkon tug`diradi. Shu tarzda millatlar olami – umumiy koinot shakllanadi, unda inson va tarixan o`rab turuvchi, tabiat uyg`unlashib, etnoslarning ijtimoiy ruhiyatiga ta'sir ko`rsatadi, milliy xususiyat shakllanadi va uning amaliy yo`nalishini aniqlaydi.

O`zbek xalqining madaniy merosi ming yillar davomida yaratilgan. Unda turli davrlarda O`zbekiston hududida e'tiqod qilingan Zardushtiylik, buddizm, islom va boshqa dinlar yaratgan ma'naviy axloqiy qadriyatlar mujassamlashgan; unda butun dunyoga mashhur Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, NAQShbandiy, Yassaviy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug`bek, Alisher Navoiy kabi ko`plab buyuk mutafakkirlarning bilimi va salohiyati gavdalangan, bu merosda Amir Temur, va Boburlarning davlatchilik va siyosiy qurilish tajribalari; buyuk me'morchilik yodgorliklari, tasviriy san'at, muzika, amaliy san'at asarlari: xalq urf-odatlari va an'analari milliy sport turlari uyg`unlashgan.

Madaniy meros – keng qamrovli tushuncha. U arxeologik yodgorliklardan boshlanadi. Arxeologiya yodgorliklariga qazilmalar jarayonida topilgan san'at asarlari (masalan, haykallar, xalq amaliy san'ati va zargarlik buyumlari, Afrosiyob va Panjikent freskalari kabilar), ayrim ro`zg`or buyumlari va mehnat qurollari kiradi. Har bir avlod va davr o`ziga xos meros qoldiradi. Kelgusi avlodlar ana shu merosga qarab ular haqida fikr yuritadi, hukm chiqaradi. Madaniy meros - mehnat va ijod mahsuli.

Madaniyatshunoslik madaniy merosdan ijtimoiy taraqqiyot, shaxs kamoloti yo`lida oqilona foydalanish qonuniyatlarini o`rganadi. Madaniy merosda davr talabiga mos kelmaydigan tomonlar ham bo`lishi mumkin. Masalan: diniy ekstremizm, fundamentalizm. Madaniy merosga baho berilganda u yaratilgan davrdagi ehtiyojlarni ham hisobga olish lozim. Madaniyatning yuzuga kelishini, rivojlanish bosqichlarini, hozirdagi davrdagi o`rni va kelajigini aniqlash unga tarixiy yondashishni talab qiladi. Bu o`rinda biz tarixiylik (tarixiy yondashish) va vorisiylik, madaniyat sub'ektlari haqidagi tushunchalarimizni aniqlab olishimizga to`g`ri keladi.

Madaniyat – inson faoliyatining natijasi va mahsuli. Inson esa, o`z faoliyati uchun zarur narsalarni jamiyatda tayyor holda topadi. Agar har bir avlod va har bir kishi yashashi va faoliyat ko`rsatishi uchun zarur bo`lgan qurollarni mutlaqo qaytadan kashf qilishga majbur bo`lganda edi, taraqqiyot haqida hech qanday gap ham bo`lmas edi. “Tarix esa odamzod nasli tarixidan emas, ayrim shaxslar tarixidan iborat bo`lar edi”(I.Gerder).

Kishilar o`zidan oldingi jamiyat va avlodlar yaratgan boyliklarga tayanib yashaydilar, ana shu boyliklar yordamida yana boyliklar yaratadilar. Eynshteyndan – siz nisbiylik nazariyasidek buyuk kashfiyotga qanday erishdingiz deb so`ralganda u, «Men buyuklar elkasida o`tirgandim» deb javob bergan.

Madaniyat quruq erga paydo bo`lmagani, uning tarix bilan bog`liq bo`lgani to`g`risida fikr yuritganda madaniyatda vorisiylik va avlodlarning madaniy merosga munosabati masalasi haqida to`xtalib o`tish zarur bo`ladi.

Qadimgi Sharqda shakllangan turmush tarzi diniy, falsafiy va axloqiy qarashlar, san'at va adabiyot kelgusi madaniyat taraqqiyotining asosiga aylandi. Har bir keyingi davr ularni qayta va qayta kashf etishi an'anaga aylandi. Masalan, hind madaniyati hanuzgacha Vedalar: “Ramayana” “Mahobxorata”, “Bxagavatgita”, buddizm va jaynizmning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlariga tayanib keladi. Hind ijtimoiy-falsafiy hayotida birorta mutafakkir yoki ilmiy oqim yo`qki, yuqoridagi asarlar hamda ta'limotlarga tayanmagan bo`lsa.

-Insondan yuqori narsa yo`q! -Kim barcha narsada yagona ruhni va yagona ruhda barcha narsani ko`ra oladi. Yaratilgan hech bir narsaga u nafrat bilan qaramaydi (Upanishatlar). -O`zingga yoqmagan narsani boshqaga ham ravo ko`rma. -Ipak qurtini boylikka o`chligi o`ldiradi.(Mahobhorat). -Jang maydonida mingta yov ustidan g`olib chiqish mumkin, ammo haqiqiy g`olib o`zini o`ziga itoat ettira olgan odamdir. -Bu dunyoda hech qachon nafratni nafrat bilan engib bo`lmaydi, nafratni faqat muhabbat mavh eta oladi (Budda). - O odam! Do`st - o`zingga o`zing. Do`stni avvalo o`z ichingdan izla! (Jaynizm).

Hatto jaynizm tarafdorlari yon-atrof, havo va tuproq ko`zga ko`rinmas jonvorlarga to`la, degan fikrga tayanib, ularga zarar etkazmaslik uchun og`izlariga doka tutib, oldilarini supirib yurishgan. Bu fikrlar nafaqat Hindiston, shu bilan birga butun Sharq, hatto G`arb falsafasining shakllanishiga ta'sir ko`rsatdi. Mashhur sharqshunos Maks Myuller yozgandi: «Eng zamonaviy va eng qadimiy hind sivilizatsiyasi o`rtasida o`zluksiz vorisiylik mavjud». Vorisiylik negizida esa hayotiylik yotadi. Shuning uchun ham yuqoridagi fikrlar bundan 25-30 asrlar oldin aytilgan bo`lsa-da, davrimiz va zamondoshlarimiz ularni qayta-qayta takrorlamoqda.

“Agar vorisiylik negizida hayotiylik bo`lmaganida edi,- deb yozadi Javoharlar Neru, - biz uchun o`tmish befoyda, o`lik va qiziqarsiz bo`lib qolaverardi”. Madaniyatning yuzaga kelishini, rivojlanish bosqichlarini, hozirgi davrdagi o`rni va kelajigini aniqlash unga tarixiy yondashishni talab qiladi. Bu o`rinda biz tarixiylik (tarixiy yondashish)ning madaniyat sub'ektlari haqidagi tushunchalarimizni aniqlab olishimizga to`g`ri keladi.

F.Nitsshe «Biz tarixga zanjirbandmiz; biz qaerga chopmaylik tarix zanjiri biz bilan birga chopadi», deb ta'kidlaganidek, faoliyatimiz mahsuli bo`lgan madaniyat ham tarixga «zanjirband» bo`lib, tarix bilan chambarchas bog`liq. Bu o`rinda biz tarixiylik (tarixiy yondashish) va vorisiylik, madaniyat sub'ektlari haqidagi tushunchalarimizni aniqlab olishimizga to`g`ri keladi.

Tarixiylik u yoki bu ob'ektning yuzaga kelish va rivojlanish yo`llarini ilmiy tadqiq etish usulidir. Tarixiylik nafaqat ob'ekt o`tmishini, shu bilan birga, uning hoziri va kelajagini anglatish usulidir.

Ob'ekt ilk bor qanday qaysi holatda edi? Uning boshqa ob'ektlar bilan aloqalari, umumiy rivojlanish bosqichlarida tutgan o`rni qanday bo`lgan? Ijtimoiy vazifalari qaysi manfaatlarni, ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan? Uni yaratuvchi kuchlar kimlar bo`lgan? Har qanday mavzuni o`rganishda talab etiladigan ushbu savollarga tarixiy yondashish usuli orqali javob berish mumkin.

Tarixiylik usuli madaniyatshunoslik uchun o`tmishda sodir bo`lgan madaniy hodisalarni tiklash va ularni to`g`ri baholash uchun zarur. U bizga har bir ijtimoiy-tarixiy bosqichga xos bo`lgan madaniyat turlarini aniqlashga yordam beradi. Tarixiylik orqali biz insoniyat tarixini, madaniyat tarixini, madaniyat orqali esa, davr, bosqichning qanday qadriyatlarga tayangan, birinchi davrning ikkinchi davrga, bir avlodning ikkinchi avlodga munosabatini kuzatamiz. Tarixiylik aslida hozirgi davr mohiyatini anglashga qaratilgan. Biroq tarixiy yondashish nafaqat hozirgi davrni shu bilan birga, uning kurtaklari mavjud bo`lgan o`tmishni anglashga hamda kurtaklari mavjud kelajakni aniqlashga ham yordam beradi. Demak, tarixiylik orqali nafaqat

ob'ekt o'tmishini, shu bilan birga, uning hoziri va kelajagini ham anglash usulidir. Tarixiylik madaniyatni ijtimoiy-tarixiy davr bilan birga uni jamiyat hayotidan ayricha kechadigan hodisa yoki ayrim shaxs va guruhlar faoliyatining, xayolatining mahsuli sifatida emas, balki jamiyat, tuzum, davlat va umuminsoniy taraqqiyot bilan bog'liq tarzda kechadigan hodisa sifatida qarash imkonini beradi.

Aynan tarixiylik orqali madaniyat va ijoddagi umumiy va xususiy, baynalminal va milliy, ilg'or va qoloq, betakror va asl nusxa kabi belgilar aniqlanadi. Aynan tarixiylik orqali biz insoniyat tarixi – madaniyat tarixi ekanini, madaniyat orqali esa davr, bosqichning qanday qadriyatlarga tayanganini, bir davrning ikkinchi davrga, bir avlodning ikkinchi avlodga munosabatlarini kuzatamiz. Aynan tarixiylik orqali biz madaniyat ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida har bir kishiningmi yoki ayrim shaxslarning, keng xalq ommasiningmi yoki tor guruxlarning manfaatlarga xizmat qilganini; shaxs kamoloti, uning orzu umidlari, jamiyatdagi tutgan o'rnini va o'z ijodiy kuchlarini namoyon qilishi qay darajada hayotda o'z o'rnini topganini bilamiz.

Xullas, tarixiylik o'tmish mohiyatini anglash, mana shu asosida esa kelajak rejalarini ishlab chiqish uchun zarur.

Inson nima qilmasin, nimaga o'z munosabatlarini bildirmasin, eng avvalo, hayotiy tajribasi (tarixiylik usuli) va hayotiy ehtiyojlari (hozirgi va kelajakdagi) nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Madaniy boyliklarni ham shu nuqtai nazardan baholaydi va qadrlaydi. Shuning uchun Olmon faylasufi G.Rikkert: «Madaniyatning barcha ko'rinishlarida biz, doimo odam ma'qul topgan qadriyatlarni uchratamiz», - deb ta'kidlaydi.

F.Nitsshe ta'kidlaganidek, «Odamda nafaqat o'tmish hikmatlari, shu bilan birga, o'tmish illatlari ham ko'rinib turadi». Nachora odam bequsur farishta ham emas, serxiyla iblis ham emas. Unda ijtimoiy hayot va turmushning hikmatona va illatona tomonlari yashiringan.

Madaniyatshunoslikning vazifasi esa odamdagi hikmatona tomonlarini ko'prok o'rganish, shu tariqa undagi yashirin ijobiy kuchlarni uyg'otishdir. Bu bilan biz madaniyatshunoslik o'tmishdagi hodisalarga bir tomonlama, ya'ni maqtash nuqtai nazaridan yondashish zarur demoqchi emasmiz.

Madaniy merosga xolisona baho berish madaniyatshunoslik fanining ham vazifasidir. Mashhur etnograf E.Taylor va M. Mid ta'kidlaganidek: «Har bir davr o'ziga xos va o'z davri uchun qadrlil madaniyat yaratadi, madaniyat «yaxshi» ham, «yomon» ham bo'lmaydi, u har xil bo'lishi mumkin». Haqiqatdan ham, baholash usuli ma'lum bir boyliklarni, davrlarni, hatto xalqlarni kamsitishga yo'l ochib berishi mumkin. Masalan: Janubiy Amerika o'rmonzorlarida taraqqiyotdan chetda yashab kelayotgan qabilalarni «madaniyatsiz» deb baholash hamon, nafaqat kundalik muloqotda, hatto ilm-fanda ham uchrab turadi. Vaholanki, har bir xalq, elat va davr o'zining betakror xislatlari hamda madaniy hayotiga egaki, ularni baholaganda nafaqat umumjahon shu bilan birga, ularning ichki xususiy taraqqiyoti ham hisobga olinishi lozim.

Madaniyatda rang-baranglik, har xillik tarafdorlari, insoniyat uchun bir xil bo'lgan va bir bosqichdan ikkinchi bosqichga tadrijiy rivojlanib boruvchi madaniyat yo'q, degan xulosaga kelishadi. Shuning uchun ular madaniyatshunoslikning vazifasi

madaniyatning tadrijiy rivojlanish chizmasini yaratish emas, balki turli xalqlar madaniy hayotining rang-barang ko`rinishlarini yoritish, tasnif etish va turlashdan iborat, deb ko`rsatadi.

B.Malinovskiy fikriga ko`ra, «Madaniyatni boshqa madaniyatga qiyoslash ham, hatto unga umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida qarash ham mumkin emas, balki u o`zaro bir-biriga funktsional bog`liq ichki qismlari va xususiyatlariga ega bir butun sistemadir».

Xalq madaniyati—har bir xalqning madaniy merosini va xalq hayoti, ongi va intilishlariga har doim qadriyat sifatida namoyon bo`layotgan boyliklar majmuini o`z ichiga oladi.

U birinchidan madaniy merosda, ikkinchidan kishilarning tafakkuri, ongi, turmush tarzi, ijtimoiy faoliyatida aks etadi. Shubhasiz, madaniy meros har bir xalq madaniyatining nafaqat negizi shu bilan birga uning asosiy belgisidir. Biroq xalq madaniyatini anglash uchun madaniy merosga nazar tashlash bilan cheklanish etarli emas. Xalqning, kishilarning davr muammolarini hal qilishdagi ishtiroki, ularning qanday maqsadlarga intilayotgani, umuminsoniy taraqqiyotga qo`shayotgan ulushlari ham muhimdir.

Tarixiy-madaniy boyliklarni o`rganish va asrash kishida o`tmishga, o`tgan avlodlar qoldirgan madaniy merosga hurmat bilan qarashni o`rgatadi.

Bunday fazilatlardan uzoq kishi nigilizmga, o`tmish boyliklariga eskilik qoldig`i sifatida qarashga moyil bo`ladi. Bo`lar-bo`lmasga o`tmishga tosh otish, o`tmishdan faqat nuqsonlar izlash – zaiflik belgisi. Madaniyatni bir yoqlama yoki tayyor andozalar nuqtai nazaridan baholab bo`lmaydi. U to`g`ri anglashni, mavjud qarama-qarshiliklar bilan qabul qilishni, keng qamrovli o`lchovdan kelib chiqib, baholashni taqozo etadi. Bu fazilatlar o`zidan-o`zi shakllanmaydi. Ularni kishiga madaniyat o`rgatadi.

Tarixiy-madaniy boyliklarni o`rganish va asrash o`tmish uchun emas, eng avvalo kelajak uchun, yosh avlodlarni vatanparvar, elparvar qilib tarbiyalash uchun zarur. Hozir chiroyli yashash uchun rivojlangan G`arb mamlakatlariga ketish hollari paydo bo`lyapti. Ko`pgina yoshlarni ana shunday davlatlarda yashashga intilayotgani ham sir emas. Albatta, kimning qaerda yashashi uning umuminsoniy huquqi. Biroq hech bir mamlakatda va hech qachon “chiroyli hayot” o`z-o`zidan yaralgan emas. U jamiyat a'zolarining fidokorona va oqilona mehnatining natijasidir. Demak, mehnat, el-yurt manfaati uchun mehnat qilish, madaniy boyliklar yaratish chiroyli yashashni ta'minlashi mumkin. Tarixiy-madaniy boyliklarga to`g`ri munosabatni uyg`otish esa kishida nafaqat tarixiy obidalarni asrash, madaniy merosni sevish, uni avaylab-asrash, o`tmishni bilish, kelajak yoshlarini tarbiyalash, shu bilan birga ota-bobolar orzu qilgan jamiyatni bunyod etishga da'vat etadi.

Mustaqillik yillarida xalqqa uning ma'naviy va madaniy boyliklarini qaytarishga ko`plab ishlar qilinmoqda, «O`zbek tili haqida»gi qonunning qabul qilinishi. Buxoro va Xiva shaharlardagi me'morchilik yodgorliklarining ta'minlash borasida faol ishlar olib borilib, yodgorliklar shu davrda jahon ahamiyatidagi maqomga ega bo`ldi. Bu shaharlarning 2500 yilligi, Toshkentning 2000 yilligi sanalar katta tantana bilan nishonlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga qaramasdan milliy madaniyatni

asrovchi yangi muzeylar barpo etildi: Temuriylar tarixi muzeyi. Olimpiya shon-sharafi muzeyi va O`zbekiston tarixi muzeyi yangi mazmunda boyitildi.

Maqomchilar muzeyi va boshqalar dunyoga mashhur bo`ldi. Xalqqa o`z tarixi va xotirasi qaytarilmoqda. Navoiy, Bobur, Qodiriy, Behzod, Al-Farg`oniy yubileylari nishonlandi. Ulug`bekning 600 yilligi, Amir Temurning 660 yilligi, Imom Buxoriyning 1225 yilligi o`tkazildi. Jaloliddin Manguberdi tavalluddining 800 yilligi va Alpomish eposining 1000 yilligi keng nishonlandi.

Milliy an'analarni tiklash bo`yicha ham ko`plab ishlar qilindi. Navro`z, hayit kabi qadimgi xalq va diniy bayramlar rasman hayotga qaytdi. Xalqaro kino, teatr va sharq taronalari kabi musiqali festivallar o`tkazish yaxshi an'anaga aylandi. Xalq baxshichilik san'ati kuchayib, respublika konkursiga o`tkazildi. Shuningdek milliy kurashimiz xalqaro maqomga ega bo`lib, birinchi jahon chempionati o`tkazildi. Madaniy qadriyatlardagi vorislik jarayoni nafaqat milliy madaniyatlar rivojidadagi vorislik bo`limi, balki boshqa xalqlar yutuqlarini umumlashtirishdan ham iboratdir. Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning madaniyati qadim zamonlarda ham G`arb va Sharq mamlakatlarida ham yaqin madaniy aloqalar asosida rivojlangan. Madaniy hamkorlikning keng ko`lami, etnik va diniy mazmundagi cheklanmaganlik Vatanimiz madaniyati asosiy xususiyatidir. Hozirgi davr va milliy madaniyatni tiklashga asosiy e'tiborni qaratgan holda O`zbekiston xalqi jahon madaniyati va sivilizatsiyasining zamonaviy yutuqlarini egallashga harakat qilib, jahon madaniyati rivojiga hissa qo`shmoqda. Xalqaro konkurslar, festivallar o`tkazildi. Chet mamlakatlarga madaniyat kunlari va san'at asarlari va ko`rgazmasi namoyish qilindi, Hind madaniyat markazi, Frantsuz madaniyati singari doimiy faoliyat yurituvchi madaniyat markazlari ochildi. O`z o`rnida O`zbekiston madaniyatining o`ziga xos xususiyatlarini nazariy asoslash va uning jahon madaniyatidagi o`rnini munosib baholash ishtiyoqi ham kuchli. Buning dalili sifatida «Mirzo Ulug`bek va uning sivilizatsiyaga qo`shgan hissasi» (1984). «O`zbekistonning jahonda tutgan o`rni va roli». «Buxoro va jahon madaniyati» (1995), «O`rta Osiyo va jahon sivilizatsiyasi» (1998) kabi mavzularda o`tkazilgan xalqaro konferentsiya va seminarlarni ko`rsatish mumkin.

O`zbekiston o`zining boy madaniy an'analari va jahon madaniyati jarayonlardagi faol ishtiroki tufayli uning xalqaro miqyosidagi mavqei tobora oshmoqda. Buning yaqqol misoli 1997 yilda YuNESKO ijroiyy Kengashi a'zoligiga O`zbekistonning saylanishi va 1998 yil 6 noyabrda Toshkentda YuNESKO ijroiyya Kengashining 155-sessiyasining o`tkazilishidir. Unda O`zbekistonning taklifi bilan «Jahon madaniyat va YuNESKOning a'zo davlatlaridagi faoliyati» degan hujjat qabul qilindi. Jahon madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan milliy-madaniy merosni asrash va o`rganish rejasi bo`yicha O`zbekiston YuNESKO bilan o`zaro munosabatlarni yanada kengaytirishi va respublika zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishi mo`ljallangan.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

Madaniyat qanday sohalarga bo`linadi?

Moddiy va ma'naviy madaniyatning belgilarini sanang?
 Madaniyatning jamiyat hayotidagi funksiyasini izohlang
 Madaniy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
 Madaniyat rivojida ziyoli shaxsning roli?
 Madaniy meros nima?
 Madaniyat taraqqiyotining asosiy qonunini izohlang?

Amaliy mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi

2-mavzu : *Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|---|--|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-25 gacha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-ahborotli ma'ruza. |
| Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o'zgarib borishi. Madaniy meros – insoniyatning o'tmish bilan chambarchas bog'liqligi natijasi. Madaniy merosning mexanizmi. Ma'naviy merosning uzviyligi. O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning mazmunan o'zgarishi. vazifalari . | Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o'zgarib borishi. “Buyuk ipak yo'li” madaniyati- O'rta Osiyo madaniyatining uzviy bir qismi. Bu madaniyat Eron, Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o'zgartirishga sabab bo'lgani. Me'morchilikka oid o'tmishdagi va bugungi inshootlar, ularning tarixi, farqlari, o'z davri uchun noyob hodisa ekani – madaniy taraqqiyotning muhim belgisi. Madaniy meros – insoniyatning o'tmish bilan chambarchas bog'liqligi natijasi. Madaniy merosning mexanizmi. Ma'naviy merosning uzviyligi. O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning mazmunan o'zgarishi. |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: | Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o'zgarib borishi. “Buyuk ipak yo'li” madaniyati- O'rta Osiyo madaniyatining uzviy bir qismi. Bu madaniyat Eron, Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o'zgartirishga sabab bo'lgani.haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Ko'rgazmali,ma'ruza,suhbat, Zaif xalka |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy,jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Myetodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat:savol-javob. |

***Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros
 Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari
 amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.***

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|--|--|--|
| Tayyorlov bosqishi (5 daqiqa) | 4. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 5. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tyekshiradi 6. Davomatni nazorat qiladi | |
| 1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqishi (10 daqiqa) | 1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Talabalarni kishik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yisha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timedralardan foydalanadi 4. 5. Mavzular asosida byerilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va hulosalaydi, faol ishtirokshi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kishik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 4 yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi hulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Madaniyatshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi (integrasiyasi)

Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros. Milliy madaniyatlar rivojlanishining nazariy masalalari mavzusi O'zbekiston tarixi, falsafa, sotsiologiya, etnografiya fanlari mavzulari bilan bog'liq.

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo'lgan xususiyat – insonning madaniy hayoti hodisasini tartibli tizimga solib yondashish hisoblanadi. SHuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o'zida mujassam qilgan holda namoyon bo'lishi bilan birga bilishning o'ta murakkab ob'ekti hamdir.

TALABANING BAZIS BILIMINI BAHOLASH UCHUN SAVOLLAR

Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o'zgarib borishi.

Madaniy meros – insoniyatning o'tmish bilan chambarchas bog'liqligi natijasi. Madaniy merosning mexanizmi.

Ma'naviy merosning uzviyligi. O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning mazmunan o'zgarishi. vazifalari .

3-mavzu *Jahon madaniyati bosqichlari. Ibtidoiy madaniyat*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-80 gasha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-axborotli ma'ruza. |
| Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o'z ichiga qamrab olgani. Madaniyat universalligi tushunchasi. Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlar. Antik madaniyat va qadimiy madaniyat, ular o'rtasidagi farqlar. Arxaik davrdagi insonning fikrlash tarzi. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko'rinishlari | Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o'z ichiga qamrab olgani. Madaniyat universalligi tushunchasi. Madaniyatning universalligi, geografik o'rnidan qat'iy nazar, hamma madaniyatga mansub qadriyatlar, qoida, an'ana va xususiyatlar, mezonlar, ijtimoiy qurilishiga xos hodisa. Madaniyatning tarixiy bosqichlari. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko'rinishlari: animizm, fetishizm va h.k. Ilk badiiy tafakkur namunalari: shumerlar va ularning mifologiyasi, xalq og'zaki ijodi. Yozuv madaniyati. Yozuv bosqichlari va turlari. Kitob va kitobatchilik – madaniyatning oliy ko'rinishlaridan biri. Sharqda kitob namunalari: loy taxtachalar, mum surtilgan taxtachalar, papirus, teri, qog'oz. Ossuriya shohi Ashshurbannipalning kutubxonasi. Bobilliklarning kitobat san'ati. Xetlarning sopol taxtachalari. |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: | Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o'z ichiga qamrab olgani. Madaniyatning tarixiy bosqichlari. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko'rinishlari: animizm, fetishizm va h.k. Ilk badiiy tafakkur namunalari: shumerlar va ularning mifologiyasi Bobilliklarning kitobat san'ati. Xetlarning sopol taxtachalari.haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Kurgazmali,ma'ruza,suhbat |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy,jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat:savol-javob. |

Jahon madaniyati bosqichlari. Ibtidoiy madaniyat ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim beruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|---------------------------|--|-------------------|
| Tayyorgarlik bosqishi | 1.Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot slaydalarini | |

| | | |
|-----------------------------------|---|--|
| (5 daqiqa) | tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 1. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yisha savollar beradi. | Tinglaydilar Talabalar savollarga javob beradilar |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar Tinglaydilar |
| 3- Yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Mavzu bayoni :

REJA:

- 1.Madaniyatning vujudga kelishi. Madaniy davrlar tushunchasi.**
- 2.Qadimgi Sharq madaniyatining tarixiy va davriy chegaralari.**
- 3.Qadimgi Yunon sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichlari**

Arxaik (ibtidoiy) madaniyat – kishilik jamiyatining ilk bosqichiga xos bo'lgan hodisa. Madaniyatshunoslik, ayniqsa uning tarkibiy qismi – madaniyat tarixi, ijtimoiy madaniy jarayonlarning barchasi ibtidoiy madaniyat bilan bog'liqligini va undan ozuqa olganligini kuzatadi. Shuning uchun “ibtidoiy madaniyat”ga madaniyatshunoslikning asosiy atamasi sifatida qaraladi hamda uning ijtimoiy madaniy taraqqiyotidagi o'rni alohida o'rganiladi.

Madaniyat va tarixdagi umumiy jihatlar ularning yaratuvchisi sub'ekti inson va jamiyat ekanligi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, madaniyat nafaqat tarixiy rivojlanish ko'rsatkichi, shu bilan birga, rivojlanishning yo'nalishini, ko'lamini belgilab beruvchi omil hamdir.

Kishilar ma'lum bir tarixiy bosqichda, davrda yashaydilar va ana shu vaqt doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Davrni kishilar yaratadilar. Ular yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarga, amal qilgan axloqiy qarashlarga tayangan ilmiy-nazariy, tafakkuriy fikrlar, ilm-fan, texnika yutuqlariga qarab, tarixiy-madaniy bosqichlar haqida xulosa chiqariladi.

Ijtimoiy fanlarda, shu bilan birga, madaniyatshunoslikda ham, madaniyat va tarixning rivojlanish bosqichlari haqida turli fikrlar mavjud. Keyingi yillarda bu bosqichlarni:

qadimgi davr, qadimgi dunyo (antik davr), o'rta asrlar, yangi davrlarga bo'lib o'rganish shakllanmoqda. XX asr madaniyati esa alohida bir mavzu sifatida o'rganiladi.

Madaniyat qachon paydo bo'lganini aniq aytish mushkul, ammo uning paydo bo'lishi insonning hayvonot olamidani ajralib chiqishi bilan bog'liq. Tarixchilarning fikricha: ilk kishilik jamoalarning paydo bo'lishi tosh asriga borib taqaladi.

Tosh asri esa:

1. Quyi paleolit (3 mln-100 ming yil avv).
2. O`rta paleolit (100-30 ming yil avv.)
3. Yuqori paleolit (30-8 ming yil avv.)larga bo`linadi.

Arxeologik qazilmalar ko`rsatadiki, quyi paleolitdagi ilk odamlarni pitikantrop, sinantrop va boshqalar deb atashgan. Ular yaratgan mehnat qurollari o`ta sodda, yo`nilgan toshlardan iborat bo`lgan. Kishilar kichik jamoa bo`lib yashaganlar, tayyor ne'matlarni terib kun ko`rishgan. Nutq, so`zlashuv shakllanmagan, ammo kishilar o`rtasida ishora bilan bir-birlariga o`z fikrini, istagini etkazish usullari mavjud bo`lgan.

O`rta paleolitda ham nutq rivojlanmagan bo`lsada, bu davrda mehnat qurollarida ma'lum o`zgarishlar bo`lgani qayd etiladi. Bu davrda nayza uchiga o`rnatilgan moslamalar, teri shiluvchi pichoqlar, toshni o`yadigan qurollar yaratilgan. Kiyim kechakka ehtiyoj paydo bo`lgan. Toshga, suyakka o`yilgan ilk tasviriy san'at asarlari yaratilgan. O`lganlarni ma'lum tartibda ko`mish odati yuzaga kelgan. Bu esa, neandertal odamlarda ilk diniy tasavvurlar shakllana boshlaganidan darak beradi.

Tarixchilarning fikriga ko`ra, "Haqiqiy odam" – o`rta paleolit bilan yuqori paleolit davrlarida shakllangan. Odam mehnat qurollari yasash va ulardan keng foydalanishni, so`zlash va fikrlashni, yaxshi va yomonni ajratishni o`rgangan. Oila, urug`, qabila bo`lib yashashni turmush tarziga aylantirgan.

Ekzogomiya—ya'ni bir ota—onadan tug`ilgan farzandlar, ota—onalar bilan farzandlar o`rtasidagi nikoh ta'qiqlangan. Shu tariqa odam tabiiy evalyutsion rivojlanishdan tarixiy-madaniy rivojlanishga o`tgan.

Insoniyat hayotining boshlang`ich davri keyingi barcha o`zgarishlarga zamin tug`diradigani sababli bu davrni o`rganish insoniyat evolyutsiyasi asoslarini, uning madaniyati negizini tushunish va sharhlashga yordam beradi.

«Moziyga qaytib ish ko`rish xayrlikdir» - degan edi A.Qodiriy. «Dunyoda turmoq uchun, - deb yozadi M.Behbudiy, - dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebaho millat boshqalarga poymol bo`lur».

Olimlar to`plagan ma'lumotlar 2 xil bo`lib:

I. Antropologik va arxeologik topilmalar-ibtidoiy odamning jismoniy va madaniy rivojlanishini, ovchilik jamoasining turmush tarzini yorug` olamga chiqardi. Bu ma'lumotlar o`ziga xos belgilari bilan emperik (tajriba) tahlilni yuzaga chiqardi va ibtidoiy bosqichni umum qabul tasnifiga asos soldi:

1. Paleolit - qadimgi tosh asri,
2. Neolit-yangi tosh asri.

Paleolit bosqichining o`zi ham ilk (quyi) va so`nggi (yuqori) davrlarga bo`linadi. Shuningdek, paleolit va neolit bosqichining o`rtasi mezolit - o`rta tosh asri davriga bo`linadi.

II. Etnografik ma'lumotlar – zamonaviy xalqlar va hozirgi vaqtda ham ovchilik va termachilik bilan kun ko`ruvchilarning hayoti haqida. Bu ma'lumotlar saqlanib qolgan arxaik madaniyat ko`rinishini etnik, ijtimoiy va ruhiy o`xshashliklar bo`yicha qayta tiklashga yordam beradi.

Detsentrizm farazi insoniyat paydo bo`lishini ikki o`choq Afrika va Osiyo bilan bog`laydi, zero hozirgi vaqtda eng qadimgi odam qoldig`i ham Afrika mintaqasidan topilgan Markaziy Osiyo, xususan, O`zbekiston hududida qazib topilgan gominidlar

ham ilk paleolit davriga oiddir. Arxeolog U.Ismoilov Selung'ir g'oridan topilgan «fergantrop» qoldig'ining yoshi 700 ming yilga teng.

Muste davrida madaniy ijodkorlik jarayonining o'sishi seziladi, ya'ni bu davrda neandertallar paydo bo'lgan. Neandertallar keng hududlarga tarqalib murakkab va turli xil qurollar tayyorlagan, eng muhimi ulardan ma'lum marosim va madaniyatni rivojlantirish boshlangan. Neandertallar yashagan g'orlardan ayiqning bosh suyagi topilgan, maxsus o'rnatilgan tosh supa olovdan qoraygan, unda ma'lum marosim o'tkazilgan. Neandertallar qabri ko'pincha Sharq-G'arb yo'nalishi bo'yicha joylashib, murda «yonbosh uxlayotgan holatda, tizzalari engagiga qayirilgan yoniga tosh qurollar qo'yilgan». Bu marosim udumi o'limdan keyingi hayot mavjudligi haqidagi tasavvurning madaniyatdagi eng qadimgi, barqaror paydo bo'lganligidan dalolatdir. Neandertal qabri O'zbekistonning Teshiktosh g'oridan (Surxandaryo viloyatidan) ham topilgan, shuningdek, o'sha davrga oid ko'plab manzilgohlar ochib o'rganilgan (Omonqo'ton, Zirabuloq, Obirahmat, Qo'lbuloq, Uchtut va bosh.)

Dastlab, ibtidoiy odamlar oziq-ovqat qidirib o'zi yashayotgan muhitni yaxshiroq o'rgana boshladilar. Bu esa ularning geografik bilimini oshirgan. Tabiatdagi mavjud iste'mol qilishga yaroqli o'simlik va mevalarni qidirib topishi va kuzatishi natijasida botanika bilimlari to'plangan. Yovvoyi hayvonlar ovlash jarayonida hayvonlarning fe'li, turi, yashash joylarini kuzatish tufayli ibtidoiy odamlarda zoologiya bilimi shakllana boshlagan. Bu jarayonlarni o'rganish ibtidoiy odamlar uchun zaruriy, hayot uchun kurash, tirikchilik manbai edi.

Kasallikni davolash uchun o'sha zamonning o'ziga xos sodda tabobati bo'lib, davolashda o'simliklar, mevalar, hayvonlar, mineral jismlardan foydalanganlar. Shuningdek, silash, uqalash usuli bilan ba'zi kasalliklarni davolaganlar va folbinlik, sehrgarlik va jodugarlik usullaridan ham foydalanganlar. Ibtidoiy odamlar tabiatni, iqlimni sharoitdan kelib chiqib kuzatish asosida ularda ob-havoni oldindan aytib berish qobiliyati paydo bo'lgan. Tarbiya ham mehnat va turmush bilan chambarchas bog'liq bo'lib, odat va udumlar asosiy ahamiyat kasb etgan.

Ibtidoiy madaniyat xilma-xil bo'lib, bir necha turlarga bo'lingan:

1.Suyak, tosh parchasi, shox, kulolchilik buyumlariga chizilgan belgilar, odam, hayvon va har xil narsalarning tasvirlari.

2.G'or devorlariga har xil ranglar bilan ishlangan hayvon, odam va buyumlar tasviri. Ularda ov, mehnat, jang va boshqa manzaralar tasvirlangan. Bunday tasvirlar Turon, Sahroi Kabir, Markaziy Osiyo, G'arbiy Evropa ko'plab uchraydi.

3.Qoya toshlarga o'yib, chizib, ishqalash usuli bilan ishlangan tasvirlarda hayvon, buyum, qurollar va ibtidoiy kishilarning kundalik mehnati bilan bog'liq manzaralar o'rin olgan. Qoya tasvirlari Osiyo, Afrika va Evropada ko'p uchraydi.

4.Arxaik san'at turlaridan yana biri haykaltaroshlik ham urug'chilik jamoasining rivojlangan davrida paydo bo'lib, asosan ayollar, qisman erkaklar, shuningdek, hayvonlar haykallari ishlangan. Bunday haykalchalar, suyak, tosh va boshqa narsalardan tayyorlangan. Haykal tasvirlarda ibtidoiy mehnat va e'tiqod ramzlari namoyon bo'lgan.

5.Ishlab chiqaruvchi xo'jalik (neolit) faoliyati bilan bog'liq sopol buyumlarga chizilgan rasmlarda oddiy chiziqlar, hayvon va o'simlik tasvirlari uchraydi.

6. Ibtidoiy san'at turlaridan biri – niqoblar qadimgi odamlarning ovchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, niqob tutib hayvon qiyofasiga kirgan, hayvonlarni qo'rqitib o'zlari himoya qilgan. Niqoblardan marosim va udumlarda foydalangan.

7. Musiqa, qo'shiq, o'yin ibtidoiy san'at turlari hisoblanib, ibtidoiy odamlar urib, chertib, puflab chaladigan asboblarni kashf qilishgan. 8. Xalq og'zaki ijodi-asotir, rivoyat va afsonalar ham ibtidoiy davr mahsuloti bo'lib, ibtidoiy odamning turmushi, o'y-fikri va kayfiyatini ifodalagan, diniy tasavvurlarining shakllanishiga asos bo'lgan.

Diniy tasavvur va e'tiqod jamoa tuzumining keyingi yillarida shakllanib, ayrim unsurlari o'rta paleolit davrlarida vujudga kelgan. Ibtidoiy odamlar atrofidagi hodisalarning sabablarini tushuna olmagan. Tabiatdagi turli hodisalarning sir-asrorlari ularga ma'lum bo'lmagan. Bu hodisalar negizida sirli, g'ayritabiiy kuchlar yashiringan deb tushunib, shu g'ayritabiiy kuchlarga e'tiqod qilingan. Uning totemizm, animizm, sehrgarlik, feteshizm kabi turlar ibtidoiy jamoa tuzumi davrida keng tarqalgan.

Gominidning uch million yillik evolyutsiyasi nihoyasidagi kuchli evrilish natijasida anglash, nutq, din, san'at vujudga keladi. Arxaik madaniyatning xususiyati haqidagi uni haqli ravishda «gomo sapiens» yaratganligiga etnografik va arxeologik ma'lumotlarga asoslanib tasavvur qilish imkoniyatlariga egamiz.

Ibtidoiy odamning fikrlashi aniqlik, ta'sirchanlik, butunlikda farqlanadi. O.Freydenbergning fikricha, unda kuzatish ta'siroti ustun bo'lgan. Ibtidoiy odamning ta'sirchan, aniq tasavvuri hali hodisalarni umumlashtirish qobiliyatidan yiroq bo'lgan. Ibtidoiy tafakkur uchun sababiy bog'lanishlar o'ta shartli bo'lib, qandaydir hodisaning sababi tez-tez qaytarilib turilishi natijasida vaqt o'tishi bilan idrok qilingan. Shuning uchun ibtidoiy madaniyatda marosimga o'xshash shakllar ustunlik qiladi. A.Ramonov aytganidek, marosim- aniq va maqsadli faoliyat bo'lib, uni amalga oshishi ijtimoiy guruhlar nuqtai nazarida ishlab chiqarish faoliyati kabi hayotini saqlash uchun ham o'ta muhim hisoblangan. Unda ishlab chiqarish faoliyati ham, bilim ham, sehr-jodu ham, san'at ham aralash holda bir butunlikda namoyon bo'ladi.

So'nggi paleolit davrida animistik e'tiqodlar va sehr-jodu ma'naviy madaniyatning negizi sifatida qat'iy rasmiylashdi. Dunyoda yashayotgan aholini ko'plab ruh va jonlar bilan munosabatda bo'lish vositasi sifatida sehrgarlikni keltirib chiqardi. Sehrgarlikning eng qadimgi turlaridan biri ovchilik sehrgarligi bo'lib, o'lja yaqinlashishi bilan uni tutish mashqini o'rganadi. Sehrgarlikka o'xshash hayot nafaqat paydo bo'layotgan tushunchalarni o'zida jamladi, balki madaniyatning eng qadimgi shakl bo'lib qoldi. Undan hozirgi vaqtgacha olamni o'zida aks etgan din, san'at, fan sohalari paydo bo'ldi. Barchasi suyakka chizish bo'yoqli hoshiyalar chizish, g'or devorlariga betartib chiziq shakllar solishdan boshlandi. G'or tasvirlari tabiiy, aniqrog'i hayotiy aks ettirilgan. Otlar, yovvoyi qoramol, mamontlar o'ta yorqin tasvirlangan. Mashhur san'atshunos A.Arxeymning ta'kidlashicha paleolit davrida san'at hayotiy zarur vazifani bajargan. U kishiga mislsiz kuch baxsh etib, tirik mavjudod va narsalardagi ma'nisizlikka «sehr baxsh» etish imkonini yaratgan. Ibtidoiy odam chizilgan tasvirga jonivorlarning joni o'tadi, shu tufayli ularga ta'sir qilish mumkin deb o'ylagan. Arxaik madaniyat insonni hayvonlar ruhiyati bilan qiziqishida alohida vosita bo'lib, unda haqqoniyat va marosim uyg'unlashib ketadi.

O`zbekiston hududidagi ibtidoiy tasviriy san'at namunalarini eng qadimgisi mezolit-neolit davrlariga oid bo`lib, ular jahon tasviriy san'at tarixida bir qator alohida ko`rinish, o`ziga xoslik va farqlik jihatlariga ega bo`lib quyidagi bosqichlardan iborat:

1.G`orlar, qadimgi toshlar va turli qoyalarda saqlanib qolgan ibtidoiy tasvirlar yaratilgan davr.

2.Loy, ganch, tosh va yog`ochdan ishlangan qadimgi haykallar namunalari va turli hunarmandchilik buyumlaridagi tasvirlar yaratilgan davrlar.

O`zbekistondagi qoyatosh tasvirlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Beronsoy, Ko`ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabi yuzdan ziyodi topilgan bu qoyatosh tasvirlarda O`zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami turlarini kuzatish mumkin. Bular ibtidoiy sher va yo`lbarslar, qoplon, tulki va bo`rilar, bug`u va jayronlardir. Ibtidoiy odamlar bir-birlariga fikrlari, munosabatlarini istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, sodda tasvirlar orqali etkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o`sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar.

Tasviriy san'atning ibtidoiy davrga mansub namunalaridan biri Jizzax viloyatidagi Taqatosh nomli toshdagi tasviriy yozuvlardir. Bu tasvirlarda fikr, sezgi amaliy ehtiyoj kabi tuyg`ular aks ettirilgan. Qadimiy tasvirlardan yana biri Zarafshon etaklaridagi «Sarmishsoy» tasvirlarida esa ibtidoiy rassomlar ijodi o`z aksini topgan. Bu ibtidoiy tasviriy san'at asarlari Sarmishsoy darasining ikki yuzida qad ko`targan qoyatoshlarning silliq yuzasiga solingan. Sarmishsoy qoyalarida yovvoyi buqalar, shoxdor bug`i va qulonlar, elib borayotgan tog` taqasi, ohu, to`ng`iz, bo`ri, qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi va honaki hayvonlar, shuningdek ovchilar va ov manzaralari ham tasvirlangan. Ajdodlarimiz hayotida, turmush tarzida tasviriy faoliyat alohida o`rin tutgan.

D.M.Genkinning fikricha, «marosim va bayramlarning chuqur ildizi insoniyatning «go`daklik» davriga borib taqaladi». M.M.Baxtining ta'kidlashicha, «Bayram insoniyat madaniyatining boshlang`ich shaklidir». Bu jarayon ibtidoiy odamlar ovchilik bilan kun kechirgan davrlarda yaqqol sodir bo`la boshlagan. Ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik marosim - udumlari muhim o`rin tutgan. Ovchilik marosimlari ovdan oldin ham ovdan keyin ham o`tkazilgan. Zarautsoy va Saymalitosh rasmlarida nafaqat totemlarga sig`inish, balki ov marosim-bayramlari ham aks etganligini ko`ramiz. O`rta Osiyoda ilon, buqa, qo`y, ot, tuya, sher totemlari keng tarqalgan.

Mif va mifologiya eng avvalo antropomorfizm-tabiatdagi narsalarga ham odamga ham xos deb qarashni va xudolarni odam qiyofasida tasavvur qilishni ifodalaydi. Mif va marosim arxaik madaniyatning go`yoki ikki tomoni, ya'ni, so`zdagi va harakatdagi, nazariy va amaliy. Mifologik bilim ilmiy haqiqatga ma'lum miqdorda dahldordir.

Mifologik bilimning ikkita asosiy ijtimoiy vazifasi bor:

1.Ushbu umumiylikning asosiy vazifalarini, ularning odatiy mavjudligini kishilar ongiga kirgizish va mustahkamlash, xususan, shakllangan qoidalarni tasdiqlash,

qonuniylashtirish va hatto jamoani tiklash va barqarorlikni ta'minlash uchun ularni an'anaga aylantirish;

2. Jamoani qo`rqo`vdan xalos qilish maqsadida va ruhiy halovatni kafolatlashda atrof-muhit bilan, butun tashqi olam bilan mustahkam aloqa o`rnatish va ta'minlash.

Mif-dastlabki dunyoqarashining zaruriy, muqarrar shaklidir. Bilimlarni saqlash va kuzatishning yana bir vositasi jamoaning alohida a'zolari, boshqa kundalik ishlardan ozod qilinib, faqat ma'lumotlarni yig`ish, saqlash va uzatish bilan shug`ullangan. Bunday kishilar shamanlarga (sehrgarlarga) aylangan. Shamanlarni ko`pi yoshi ulug`, hayotiy bilim va tajribaga ega, tabiatni kuzatib o`zlashtirgan, marosim va udumlarni biluvchi kishilar bo`lgan. Mil. avv. IV-III ming yillikda Xorazm hududida neolit davrida oid Kaltaminor madaniyati shakllandi.

Neolit inqilobi mohiyatiga ko`ra arxaik madaniyatning oxiri hisoblanadi. Agar arxaik madaniyatda jamoat fikri etakchilik qilib, urug` a'zosi, urug` manfaatlari doirasida faoliyat ko`rsatgan bo`lsa, endi individual ong va qiziqish kuchaya boshladi. Neolit davrining oxiri jez asrida arxaik madaniyat barham topdi. Bu davrda jamoat mulki o`rniga xususiy mulk vujudga kelib, hunarmandchilik ajralib chiqadi va mahsulot ayrboshlash shakllanadi. Ijtimoiy tuzum shakli murakkablashdi.

Bilimning oshishi natijasida murakkab buyumlar yaratila boshlandi. Qayiq va elkanli kemalar, taqvim, hisob va o`lchov tizimi vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning paydo bo`lishi huquqning shakllanishiga olib keldi. Ayrimlari hozirgacha saqlanib kelayotgan an'analar va qadimgi folklor namunalari vujudga keladi (miflar, dostonlar, hikoyalar, marosim qo`shiqlari) yozuvning ilk tizimi shakllanadi; piktografik (rasm-yozuv), belgi yoki hindularning tugunli yozuvlari. Monumental me'morchilik ham vujudga keldi. Ilk monumental inshootlar katta tosh bo`lak va tosh plitalardan qurilgan megalitlar hisoblanadi. O`zbekiston hududida jez davri mil. avv. II ming yillik boshlarini o`z ichiga oladi. Xuddi shu davrda ikki turdagi mustaqil madaniyat shakllanib aniq ajraladi: o`troq dehqonchilik sohalaridagi madaniyat; ko`chmanchi dashtliklar madaniyati o`troq dehqonchilik madaniyati dastlab Surxondaryo vohasidagi Sopollitepa, Jarqo`ton madaniyatlari, Farg`ona vodiysidagi Chust madaniyati, ikkinchisi – Zamonbobo, Tozabog`yob, Suyargan va Amirobod kabi joylarda vujudga keldi.

O`zbekiston janubi-Surxondaryo viloyatida hozirda ham mashhur bo`lgan ustalar, zargarlar va san'atkor - quruvchilar yaratgan madaniyat eng qadimgi madaniyatdir. Mil. avv. XVIII- X ming yillikka oid Sopollitepa va Jarqo`rg`on manzilgohlarida qadimgi sharq turidagi ilk shaharnoma sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni kuzatiladi.

Bronza davrida shakllangan «ko`chmanchi chorvadorlar» madaniyati mil. avv. III ming yillik oxiri – II ming yillik boshlariga oid bo`lgan Buxoro vohasidagi Zamonbobo manzilgohida o`rganilgan. Zamonbobo aholisi katta erto`lalarda yashab, bronza va tosh qurollar ishlatishgan. Kulolchilik dastgohisiz qo`lda ishlangan tagi yumaloq, yassi sopol idishlardan foydalangan. Jez madaniyat yodgorliklari Amudaryo va Zarafshonning quyi oqimidan, Toshkent vohasiga Farg`ona vodiysi va Samarqand viloyatidan topilgan. Ular chorvada qabilalar madaniyatining vujudga kelishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Arxaik madaniyat o`rnida qadimgi sivilizatsiya madaniyati o`rnatildi: Ular murakkab-ijtimoiy tizimga ega bo`lgan dastlabki davrlar, diniy va qonunchilikning shakllanishi, shahar va yozuvlar. Biroq arxaik madaniyat izsiz yo`qolmadi. Uning ayrim qirralari jahon xalqlari miqlarida, folklorida, inson ruhiyatining chuqur «arxetiplari»da saqlangan. K.Yungning nazariyasiga ko`ra arxetiplar – «ongsiz jamoaning» ruhiy tuzumidir.

1.Qadimgi dunyo (antik davr) tarixi va madaniyatining rivojlanishida Messopatamiya, Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy, qadimgi Gretsiyaning o`rni benihoya katta. Shuning uchun ham S.N.Kramer: «Tarix Mesopatamiyadan boshlanadi» deb ko`rsatgan edi. Mesopotamiya o`z yozuviga ega bo`lgan, jamoa bo`lib yashash, shaharlarni boshqarish, xo`jalik yuritish usullariga ega bo`lgan. Aholi asosan shahar-davlatlarda yashagan. Etlar maxsus qurilgan to`g`on ariqlar orqali keladigan suvlar bilan sug`orilgan. Dehkonlar asosan bug`doy, no`xat, kunjut, xurmo, uzum, qovoq etishtirish bilan shug`ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik va savdo–sotiq bilan shug`ullanish keng tarqalgan.

Ulkan ibodatxonalar, hukmdorlarning qarorgoh xonalari, ma'muriy binolar va ustaxonalar qurilgan. Ibodatxonalar mis va oltindan ishlangan haykallar bilan bezatilgan. Shahar-davlatni o`z boshqarish tizimlari: podsho, vazirlar, amaldorlar, qo`shinlar, qo`riqchilari bo`lgan. Barcha «Xammurapi» qonunlariga bo`ysungan. Bu qonunlar 247 moddadan iborat bo`lib, unda podsholar “xudolar qo`yilgan rahbar” deb ulug`langan. Savdo-sotiq va oilaviy munosabatlarni yo`lga qo`yish, ijtimoiy bo`lib yashash haqida turli ko`rsatmalar berilgan. Demak, qadimgi Mesopatamiya—ijtimoiy-madaniy hayoti insoniyat yangi bir taraqqiy rivojlanish bosqichiga o`tganidan dalolat beradi.

Qadimgi dunyo (arxaik davr) madaniyatida Misr katta o`rin tutadi. Mutaxassislarining fikriga ko`ra kunning 24 soatga bo`linishi, doira yuzini aniqlash, o`nlik sanash, quyosh kalendari va boshqalar Misrda kashf qilingan.

Misrliklar geometriya, matematika, astronomiya, tarix, tibbiyot, adabiyot ilmlaridan yaxshi xabardor bo`lgan. Bu fanlar maktablarda maxsus o`qitilgan. Hatto Misrda amaldorlar tayyorlaydigan oliy o`quv yurti ham bo`lgan. Ilk yozuv ham Misrda kashf etilgan. Qadimgi Misrda adabiyot, san'at, hunarmandchilik va me'morchilik yuqori darajada rivojlangan. «Osiris va Izida xakida» afsona, «Ikki og`a-ini haqida» ertak, «O`g`ri va to`g`ri» haqida ertaklar to`hanuzgacha tildan-tilga, xalqdan-xalqqa o`tib keladi.

Misrliklar Fir'avn va amaldorlar uchun zeb-ziynat buyumlarini yasashgan, ajoyib saroylar qurishgan. Sakkaradagi—Joser, Gizzadagi—Xeops makbaralari o`z salobati va yuksak darajada kurilgani bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Masalan: Xeops maqbarasi 5290 kv. metrli erni egallagan, uning balandligi 150 metr, qo`yilgan har bir toshning og`irligi 2-5 tonnagacha. Maqbara ana shunday 2 mln 300 ming toshdan qurilgan. Toshlar orasidan hatto qil ham o`tmasligi o`sha davrdagi qurilish madaniyati qanchalik yuqori saviyada ekanligini ko`rsatadi.

Qadimgi Misrda paletsizm keng tarqalgan. Har bir joyning sig`inadigan totemlari, narsalari, xudolari bo`lib, xudolar soni 1000 tagacha bo`lgan. Keng tarqalgan quyosh xudosi-Ra bo`lgan.

Misr madaniyati insoniyat tarixida o`chmas iz qoldirgan. U Sharq madaniyatining shakllanishiga ta'sir ko`rsatdi. G`arb madaniyatining beshigi bo`lgan Yunoniston va Rim ham Misr madaniyati tarixidan chetda qolmadi.

Hindiston madaniyati eramizdan avvalgi V-IV ming yilliklarda shakllangan. Bu davrda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan. A.Toynbining fikriga ko`ra, hind sivilizatsiyasi boshqa o`lkalar madaniyati va sivilizatsiyasi bilan bog`liq holda rivojlanmagan. Hududiy cheklanganlik bu sivilizatsiyalarning asosiy belgisidir.

Mutaxassislarning fikriga ko`ra, hind madaniyatining eramizdan avvalgi 4 ming yillik oxirlari va 2 ming yillik o`rtalarida tarkib topgan. Hind daryosi atrofidagi aholi zich yashagan Moxinjo—Daro, Harappa yirik shaharlari paydo bo`lgan. Ularda 2-3 qavatli binolar, suv quvurlari, havzalar, ibodatxonalar, podsho saroylari qurilgan. Topilgan zargarlik, to`qimachilik, qulolchilik, qulolsozlik buyumlari qadimgi Hindiston madaniy hayotining serqirra va rang-barang bo`lganidan dalolat beradi. Osiyoda Hindiston paxtaning vatani hisoblanadi. Qadimgi hindlar paxta etishtirib undan ip, yog`, turli kiyimlar tikish, gazlamalar to`kishni yaxshi bilganlar.

Qadimgi Hindistonda matematika, tibbiyot juda qadrlangan. O`lkaning juda issiqligi turli kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bulgan. Natijada tibbiy bilimlariga katta extiyoj uyg`ongan. Shaxmat aql o`yini sifatida Qadimgi Hindistonda yaratilgan. Qadimgi Hindistonda qurilgan ibodatxona va saroylarning haybati va serhashamatligi to hanuzgacha kishilarni hayratga solib keladi. Qadimgi Hindistonda falsafa, din, diniy mistik qarashlar rang-barangligi bilan ajralib turgan. Ular ichida buddizm, braxmanizm chorvaka ta'limotlari rigveda, mahobhorat, ramayana, xand chantra va boshqa asarlar juda mashhurdir.

Qadimgi Xitoy madaniyatining boshlanishi er.av. 5-4 ming yillikka borib taqaladi. Shuni e'tirof etish kerakki, ma'lum bir tarixiy, etnik va jo`g`rofiy shart-sharoitlar ta'sirida xitoy madaniyati to 17 asrgacha o`ziga xos, boshqa sivilizatsiyalardan jiddiy farq qiluvchi hodisa sifatida yashab keldi. Arxeologik topilmalar er. av. 5-3 ming yillikda Xuanxe daryosining atrofida aholi yashab, dehqonchilik, qulolchilik, chorvachilikdan xabardor bo`lgan. Er. av. 18-12 asrlardagi In' podsholigi davrida Xitoyda oy taqvimi, matematika, kimyo, astronomiyaga oid bilimlar paydo bo`lgan. Kishilar yilni 360 kunga, oyni 30-31 kunga yulduzlarga qarab ob-havoni hosirdorlikni qanday bo`lishini oldindan aytib berishgan. Kompas birinchi bor kashf qilingan. Bundan 4-3-5 ming yillar ilgari Xitoyda yozuv paydo bo`lgan. U Ieroglif ya'ni bir belgi orqali butun bir so`zni ifodalovchi yozuv paydo bo`lgan. Xatlarni dastlab yog`och va bambuk ishlangan taxtachalarga, shoyi matolarga yozish odatga aylangan. Eramizdan avvalgi I asr oxirida qog`oz kashf qilingan. Bu kashfiyot nafaqat Xitoyda shu bilan birga butun jahonda fan, maorif va madaniyatning rivojlanishiga ulkan ta'sir ko`rsatgan.

Qadimgi Xitoyliklar odam tanasining tuzilishi va uni davolash usullarini yaxshi bilishgan. Masalan: uqalash, igna bilan sanchib davolash, musiqa bilan davolashdan keng xabardor bo`lganlar. Ular mingdan ortiq dori-darmonlarni tayyorlash va qo`llash yullarini bilishgan. Qadimgi Xitoy hukmdorlari yirik davlat tuzishga va uni boshqarishga juda katta e'tibor berishgan. Har bir xudud markazga bo`ysungan va

soliq to'lashgan. Boshqarishda oilaviy hayotda an'analarga rasm-rusumlarga itoat etish muhim hisoblangan. Bu tartib Xitoy madaniyatining o'ziga xos tarzda shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi Yunoniston madaniyatining o'ziga xosligi shundaki, u shahar (polis) ijtimoiy va ma'naviy hayoti asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. Krit oroli, Pilos, Afina, Tirinf va Fessaliya – polis shaharlari yunon madaniyatining beshiklaridir. Arxeolog qazilmalar Kritda madaniyat gullab-yashaganidan darak beradi. Ayniqsa me'morchilik, tasviriy san'at, hunarmandlik, kemasozlik va savdo-sotik rivojlangan. Krit o'zining yozuviga ham ega bulgan. Miken madaniyatining o'ziga xosligi ijtimoiy-siyosiy hayot saroy atrofida kechganligidir. Shahar akrapol-katta harsang toshlarining qurilgan kal'a devorlari bilan o'ralgan. Unda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik keng rivojlangan.

Qadimgi Yunoniston madaniyatida klassik davr (er.av 5- asrdan to asrimiz boshigacha) alohida o'rin tutadi. Ayni mana shu davrda qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy hayot, adabiyot, san'at, musiqa, falsafa, arxitektura, ilm-ma'rifat kelgusi davrlar uchun taqlid qiladigan namuna andoza darajasiga ko'tariladiki, insoniyat tarixida biror-bir davr yo'qki, unga o'zini qiyoslamagan, undan o'zi ilhom olmagan bo'lsin. Butun Evropa, G'arb madaniyati va sivilizatsiyasi honuzgacha ana shu antik davr madaniyati ta'sirida rivojlanib keldi.

Qadimgi Sharq hududida mil. avv. X- VII ming yillikda inson sivilizatsiyasi va madaniyati rivojlanishining ibtidosi bilan bog'liq bo'lgan eng muhim jarayonlar ro'y berdi. Bu davrda Sharqda madaniy hayotining turli shakllari va sohalari vujudga keladi. Yozuv, adabiyot, san'at, fan birinchi jahon dini-buddizm paydo bo'ladi. Bu boshlang'ich jarayonsiz insoniyat madaniyatining keyingi barcha taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Qadimgi Sharq tushunchasi Sharq haqidagi tasavvurlarga mos kelmaydi. Negaki, qadimgi Sharq er sharining Misrgacha to hozirgacha bo'lgan keng mintaqasining o'z ichiga olib bu erda mil. avv. VII ming yillikdan boshlab insoniyat tarixida dastlabki sivilizatsiya vujudga kela boshladi. Madaniyatning shakllanishi eng yirik daryolar – Nil, Dajla, va Frot, Hind va Gang, Xuanxe va Yantszi vodiysida, ya'ni dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo'lgan joylarda ro'y berdi. Xuddi shu joylarda dastlabki davlatchilik tuzilmasi siyosiy, diniy va savdo markazi sifatida shaharlar, yozuv vujudga kelgan. Bu erda dastlab ma'naviy madaniyat ishlab chiqaruvchi mehnat faoliyatidan bevosita ajralib mustaqil faoliyatga aylanadi. Jamiyat hayotida alohida kishilar qatlami boshqaruv, ta'lim, ma'lumotlarni to'plovchi va uzatuvchi sohalarda shug'ullanuvchilarga ajraladi va ko'payib boradi.

Misr, Messopotamiya, Hind va Xitoy sivilizatsiyalari eng ko'hna va yirik madaniyatlar edi. Bu madaniyatlar ta'sirida Urartu, Finikiya, Xett, Ellen sivilizatsiyalar shakllandi.

Qadimgi Sharq madaniyatida an'analarga asoslanish ustun turadi. Ajdodlar an'anasi, tajribasi, mutloq haqiqat kabi baholangan. Mutloq haqiqat hukmronligi bilan D.S.Lixachev ta'kidlashicha, «odoblilik»ka bog'liq bo'lgan. Qadimgi Sharq kishisining axloqi harakat va faoliyatda muqaddas an'analarni qayta tiklashga qaratilgan «ilohiy o'rnatilgan» me'yor va qoidalarga borib taqaladi. A.Ya Gurevich shunday deydi, «kishilar harakatining ko'kdagi ilohiy timsolga talpinishi ularni iloh

bilan bog`lab axloqda voqelikka aylandi». Kishilarning barcha faoliyati muqaddas marosimlarda qanchalik ishtirok etishi bilan mazmun kasb etadi.

Shohning asosiy majburiyatlari fuqarolarga bog`liq ishlar bo`lgan: mamlakatda tartib va osoyishtalik, moddiy farovonlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash. Qadimgi Misrdagi «Gerakliopol shohining o`z o`g`li Merikarga nasihatlarida»da aytilishicha: «haqiqat o`rnat va erda uzoq yashaysan, shunday qilki, yig`layotganni ovut, bevaga jabr qilma, insonni otasining mol mulkidan benasib qilma». Yana hukmdor tomonidan zaminda tartib intizom bo`yicha yuksak missiya bajarilib, gohida behat katta hajmdagi qurilish xo`jalik faoliyatini amalga oshirilgan. Ulug` va bahaybat Misr ehromlari, buyuk Xitoy devori Persopol saroyi qurilishlari xudolar oldidagi hukmdorlarning «ijobiy» xususiyatlaridan dalolat beradi.

Diniy aqidalar hukmronligi kishilar hayotini belgilaydi. Insonlar osmonni xudolar dunyosi va erni odamlar dunyosi deb bilgan. Ular doimo o`zaro munosabatdan bir butunlikdan olam daraxtining tanasi va shoxlari kabi vuqor bilan yashaydi deb himoblagan. Xudolar insonlar hayotining barcha sahalariga faol aralashgan, uning tug`ilishi, o`limini va o`limidan keyingi taqdirini belgilagan. O`sha davrlarda diniy ta'limotdan tashqari hech qanday boshqa dunyoqarash bo`lmagan. Inson xudolardan hatto arziyas narsalar haqida maslahat so`ragan va unga xatlar yozib ibodatxonaga olib bergan. Misol uchun, qadimgi Bobil aholisining maktubidan birida shunday so`zlar bitilgan: «Mening otam, xudo ayt! Sening quling Apil-adad shunday deydi: nimaga sen menga e'tibor qilmaysan, sendan boshqa kim ham bor? Seni sevuvchi xudo Mardukka yoz: mening gunohimdan o`tsin».

Papirus yozuvlari Misrliklarining matematika va geometriya, astronomiya, tibbiyot, kimyo, sohalaridagi keng tushunchalari haqida dalolat beradi.

Messopotamiyaliklar matematika va astronomiyaga oid kashfiyotlar qilib ilm sohasiga oy, quyosh tizimigi oid jarayonlar, yulduz va sayyoralar ro`yxati, ko`plab harakat holatlarini aniqlash bo`yicha yangiliklar kiritdi. Ikki daryo oralig`i astrologiyaning ham vatanidir.

Qadimgi Hind va Xitoy fani ham ko`plab yutuqlarni qo`lga kiritdi. Hindistonda noldan foydalanib o`nlik sanoq tizimi yaratilishi bilan algebra rivojlana boshladi. O`lim sababini aniqlash maqsadida murda tanasini anatomik tadqiq qilish tajribalari anatomiya va fiziologiyani rivojlantirib tibbiyotda katta yutuqlarga erishildi. Hindistonda tibbiyot taraqqiyoti haqida tibbiyotga oid asarlardan birida jarrohlikning 300 turi bo`lganligi 120 ta jarrohlik asbobi mavjudligini eslatadi. Barchaga ma'lumki, Xitoy ipak, chinni va qog`ozning vatani hisoblanib, mil.avv. II asrda kashf qilingan. Shuningdek Xitoyda Porox, kompos, er qimirlashini aniqlovchi asbob (seysmograf ham ixtiro qilingan). Mil. avv. 613 yilga tegishli Xitoy qo`lyozmalari topilgan. Bunda Galey kometasi haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar uchraydi. Mil.avv. II asrda Xitoyda osmon yoritqichlarining harakati tasvirlangan. Birinchi osmon globusi, 2500 yoritqichning o`rni ko`rsatilgan, yulduzlar katologi yaratilgan. Yangi taqvim joriy qilinib, unga ko`ra bir yil 365 kunga teng bo`lgan. Mil. avv. 28 yilda Xan imperiyasining astronomlari Quyoshda dog`lar mavjudligini kuzatganlar. Xitoy matematiklari tarixda birinchi bo`lib hisobda manfiy sonini qo`llaganlar. Tibbiyotda igna ukoli, nuqtali davolash kabi ajoyib usul ishlab chiqilgan.

Bu davrda Hindistonda upanishadalar paydo bo`ldi. Buddha yashadi. Xitoyda mashhur falsafa maktablari rivojlandi. Eronda Zardushtiylikni qabul qilib qonunlashtirildi. Falastindan payg`ambarlar chiqdi. Yunonistonda bu vaqtda Gomer, Geraklit, Platon va boshqalar faoliyat ko`rsatdi.

Misrda turli o`ta chalkash topinishlar tizimi mavjud bo`lgan: Xudolarga sig`ingan, jonivor, o`simlik, tuproq, suv, Nil muqaddaslashtirilgan. Quyoshga, tirik xudo fir'avnga sig`inish qonun tusiga kirgan. Misrliklar madaniyatida dafn marosimi alohida o`rin tutgan. Ular o`limni insonning ikkinchi hayot boshlanishi deb bilgan. Mangu hayot tushunchasi Osiris va Izida haqidagi mifdan paydo bo`lgan. Qadimgi Yunon muallifi «Misrliklar hayoti o`linga tayyorgarlik ko`rishdan iborat» deb bekorga yozmagan.

Misrliklardan farqli qadimgi Messopotamiya aholisi erdagi hayotga e'tibor qilishgan. O`limda hammasi tugaydi deb o`ylashsada, narigi dunyoga ishonishmagan. Misrliklardan farqli ravishda narigi dunyoni inson ruhi mangu suv va ovqatga zoriqib yashaydigan qo`rqinchli dunyo deb tasavvur qilishgan. Hind madaniyatining o`ziga xos xususiyati dunyoda sodir bo`luvchi benihoya uzluksiz harakat g`oyasi hisoblanadi, ya'ni dunyoning aylanishi va ibtido, na nihoya, na aniq maqsadga ega. Dunyoning doimiy aylanishida qayta yangilanish va dunyoviy ilohiy ruh nishonasi individual ruh bo`ladi. Ular doimo yangi moddiy ko`rinishda vujudga keladi. Buning uchun inson tani bo`lishi shart emas. Ya'ni ruh jonivorlar o`simliklar tanasiga joylashishi mumkin. Hindular shu tariqa o`z dunyoqarashidan narigi dunyo haqidagi g`oyani istisno qilganlar. Hech kim, shuningdek xudo ham inson karmasini o`zgartirishga qodir emas. Karma insonning oldingi hayotidan meros bo`lib o`tadi va hozirgi hayotining mazmuni bo`lib, faoliyatida namoyon bo`ladi. U bo`lg`usi moddiy timsolning sifatini belgilaydi.

Xitoy madaniyati va sivilizatsiyasining ming yillar davomida asosiy ruhiy, axloqiy va g`oyaviy manbai mil.avv. 551-479 yillarda. yashagan buyuk mutafakkir Konfutsiy ta'limoti hisoblanadi. Barcha eng muhim narsalar har qanday sivilizatsiyaning qiyofasini belgilaydi. Hayot tamoyillarini umum qabul qilgan axloqiy me'yorlar va qadriyatlarining barchasi Xitoyda Konfutsiylik shaklida tasvirlangan. «Osmon vakolati» yo`nalishi Konfutsiy tomonidan yangicha fikrda rivojlantirilib, unda ijtimoiy axloq asosiy o`rin tutadi va siyosiy madaniyat belgilanadi.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi G`arbgga nisbatan ertaroq boshladi. Yunonlar madaniyati Qadimgi Sharq madaniyati ta'sirida juda yuksaldi. Qadimgi Sharq bizga barhayot boyliklarni qoldirdi. Bular «Gilgamesh», «Mahobhorat» dostonlari. Yunonistonda mil.avv. IX-XI asrlarda antik jamiyatning tashkil topishidan boshlanib, mil.avv. V- IV asrda antik madaniyat takomili bilan to`la mohiyat mazmunga ega bo`ldi. Barcha qadimgi madaniyatlar kabi Yunon klassik madaniyatining muhim tarkibiy qismi din bo`lgan. Din me'morchilikning, tasviriy san'atning adabiyotning ajoyib namunalarida o`z aksini topdi.

Yunonlarning tasavvuricha, olam avvalida Xaosdan iborat bo`lgan, er –geya va er osti olami Tar-tar ham bo`lgan. Geyadan o`g`li Uran osmon xudosi kelib chiqqan Uran bilan Geyadan Titan Kronos tug`ilgan. O`z otasi Uranni ag`darib tashlagan. Bular Titanlar – Katta xudolar ekan. Kronosdan Ait, Poseydon, Gestiya Dimitriya,

Gera va Zevs kabi kichik xudolar kelib chiqqan, Zevs boshchiligida kichik xudolar Titanlarni ag`darib tashlab olamni idora qila boshlaganlar. Zevs bosh xudo, xudolar ajdodi, chaqmoq sochar hisoblangan. Uning xotini Gera – osmon ma'budasi va nikoh homiysi bo`lgan. Paseydon dengiz xudosi, Demetriya – hosildorlik ma'budasi, Gestetiya – uy ro`zg`or ma'budasi, Aid – er osti olami xudosi hisoblangan.

Zevsning boshidan donishmandlik va urush ma'budasi Afina paydo bo`lgan. Apollon ro`shnolik va san'at xudosi. Artimida oy va ov ma'budasi, Gefes temirchilik xudosi, Afratida go`zallik va sevgi ma'budasi, Diones – uzum va musallas xudosi sifatida e'zozlangan.

Yunonlar dinida totemizm qoldiqlari bo`lgan. Ya'ni ma'budlarni biron hayvon yoki qush deb atagan. Shuningdek yunonlar ikkinchi darajali ma'budlarga – Nimfa va Kentavrlarga ham talpinganlar. Ma'budlarning oddiy ayollar bilan aloqasidan tug`ilgan yarim xudo qahramonlar ham e'zozlangan. Ayniqsa 12 marta jasorat ko`rsatgan Gerakl yovuzlikni enguvchi obraz bo`lgan. Yunonistonda xudolar sharafiga o`tkazilgan maxsus bayramlar faqat diniy mazmunga ega bo`lmagan, chunki jismoniy musobaqalar, musiqa, qo`shiq kabilar mazkur bayramlarning eng muhim ishlari hisoblangan. Argostda Gera, Afina sharafiga bayramlar o`tkazilgan. Olimpiya shahrida Zevs sharafiga olimp musobaqalari bo`lgan.

Yunon olimlari qadimgi Misr Mesopotamiya va kichik Osiyo xalqlarining bilimlaridan bahramand bo`lganlar. Qadimgi Sharq fani Yunon dunyosida ilm fanning rivojlanishiga ta'sir etgan. Mil. avv. VII-VI asrlarda Yunonistonda madaniyat va fan rivojlanib Gerodot, Demokrit, Pratorgor, Gippokrat, Suqrot, Aflotun, Arastu kabi olimlar ijod qilgan. «Tarixning otasi deb nom olgan Gerodot (mil.avv. V asr) Misr Bobil Suriya, kichik Osiyo va Qora dengiz sohillaridagi mamlakatlarga sayohat qilib, o`zining «Tarix» kitobida turli xalqlar ma'lumotlarini yozib qoldirgan. Yunoniston Afsona va rivoyatlar yurti bo`lib, Qadimdan adabiyot rivojlangan. «Prometey», «Gerakl», «Argonaftlar», «Didal va Ikar», «Odissey», «Iliada» kabi afsona va dostonlarda yunonlarning turmush tarzi va tarixi bayon qilingan.

Qadimgi Yunon teatri mil. avv. VI asrlarda qishloq xo`jaligi homiysi xudo Dionis sharafiga o`tkazilgan bayramlar vaqtida ijro etilgan qo`shiqlar va o`yinlar asosida vujudga kelgan. Yunonlar teatrni «katta yoshdagilar maktabi» deyishgan. Teatr yunonchada «tomoshalar joyi» degan ma'noni anglatadi. Teatr san'atining rivoji mashhur Yunon adiblari ijodi bilan mashhur bo`lgan. Adiblar afsona asosida tragediyalar yaratganlar. Tragediya yunonchada “echkilar qo`shig`i” degan ma'noni anglatadi.

Qadimgi yunonlar me'morchilikda ustunli binolar qurishlikni misrliklardan o`rgangan bo`lsada, bu usulni qayta ishlab 3 ta uslub yaratganlar: doriy, ioniy, korinf uslubidagi binolar. Ular ibodatxona, teatr, saroy va majlis binolariga alohida e'tibor berganlar. Dastlab bunday binolar doriy uslubida - ustunlar tagkursiga emas, erga o`rnatilgan. Keyinchalik marmar toshdan kuchli erkak kishining gavdasiga o`xshash ustundan, ba'zi ustunlar nozik, yuqori qismi gajak qayrilma naqshli uslubdagi binolar qurilib, ayol gavdasiga qiyoslangan. Ibadatxonalarning baland poydevori bo`lib, ichi va tashqarisi haykallar bilan bezatilgan.

Afina akropolidagi Parfenon, Erehteyon ibodatxonalarini yunon me'morchiligining nodir asarlaridan bo'lib, hozirgacha saqlanib qolgan. Parfenon ustunlari doriy uslubida bo'lsada, tarz-tarovati ioniycha uslubdadir. Uning qarshisidagi erehteyon ibodatxonasi sof ioniycha uslubda, qiz haykallar ustun vazifasini bajarib nafis ishlangan.

Yunon haykaltaroshligi ham mil. avv. V-IV asrda yuksak darajada rivojlantirildi. Haykaltaroshlar bu davrda odam gavdasining harakat qilib turgan holatini tasvirlashni bilib olganlar.

Ellinizm davrida (mil. avv. III-II asrlar) madaniyat xilma-xil bo'lib, asosan, ilmfan taraqqiy etdi. Aleksandr Makedonskiy istilo qilgan hududlarda yunon madaniyati kirib borishi bilan birga Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari madaniyatiga uyg'unlashib, madaniyat sintezi yuz berdi. Mamlakatlarning o'zaro aloqalari kengaydi.

Iskandariyadagi va Sharqiy O'rta dengiz bo'yidagi boshqa shahar kutubxonalarida Yunoniston va Sharq mamlakatlaridan olib kelingan ilmiy asarlar to'plangan. Iskandariyada teatr saroy, gimnaziyalar va mashhur muzey bo'lgan. Muzeyda rasadxona va ulkan kutubxonada 700 mingga yaqin qo'lyozma saqlangan. Shahar oldidagi orolga 140 metr balandlikdagi mayoq qurilgan. Bu mayoq kemalarning gavanga kirish yo'lini ko'rsatib turardi.

Ellinizm davrida fanlar tizimiga asos solindi. Strabon xizmati bilan fizika fani paydo bo'ldi. Evklid va Arximed matematikani rivojlantirdi. Arestrax astronomiya sohasiga ulkan hissa qo'shdi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Arxaik madaniyat va u ning asosiy bosqichlari.
2. O'zbekiston hududida topilgan arxaik madaniyatning asosiy namunalari.
3. Arxaik madaniyat davrida odamlarning olam va inson haqidagi tasavvurlari.
4. Arxaik davridagi an'analar, udumlar, bayramlarning xilma-xillik sabablari?
5. Arxaik davr madaniyatida tasviriy san'at va badiiy hunarmandchilikning ko'rinishlari.
6. O'zbekiston hududidagi qanday qadimiy dinlarni va ularning marosimlarini bilasiz?

Amaliy mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi

3-mavzu : *Jahon madaniyati bosqichlari. Ibtidoiy madaniyat*

1.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|--|---|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-25 gacha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-ahborotli ma'ruza. |
| Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o'z ichiga qamrab olgani. Madaniyat universalligi tushunchasi. Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlar. Arxaik davrdagi insonning fikrlash tarzi. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko'rinishlari. | Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o'z ichiga qamrab olgani. Madaniyatning tarixiy bosqichlari. Madaniyatning universalligi, geografik o'rnidan qat'iy nazar, hamma madaniyatga mansub qadriyatlar, qoida, an'ana va xususiyatlar, mezonlar, ijtimoiy qurilishiga xos hodisa. Madaniyatning tarixiy bosqichlari. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko'rinishlari: animizm, fetishizm va h.k. Ilk badiiy tafakkur namunalari: shumerlar va ularning mifologiyasi Bobilliklarning kitobat san'ati. Xetlarning sopol taxtachalari |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: | Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o'z ichiga qamrab olgani. Madaniyatning tarixiy bosqichlari. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko'rinishlari: animizm, fetishizm va h.k. Ilk badiiy tafakkur namunalari: shumerlar va ularning mifologiyasi Bobilliklarning kitobat san'ati. Xetlarning sopol taxtachalari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Ko'rgazmali,ma'ruza, Stol ustida ruchka |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy,jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat:savol-javob. |

Jahon madaniyati bosqichlari Ibtidoiy madaniyat amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|-------------------------------|--|-------------------|
| Tayyorlov bosqishi (5 daqiqa) | 7. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 8. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 9. Davomatni nazorat qiladi | |
| 1. O'quv mashg'ulotiga | 1.Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot silaydalarini | |

| | | |
|-----------------------------------|--|---|
| kirish bosqishi (10 daqiqa) | tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Talabalarni kishik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yisha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timyedialardan foydalanadi 4. 5. Mavzular asosida byerilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va hulosalaydi, faol ishtirokshi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kishik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 5 yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi hulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

MADANIYATSHUNOSLIK FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI (INTEGRASIYASI)

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo'lgan xususiyat – insonning madaniy hayoti hodisasini tartibli tizimga solib yondashish hisoblanadi. SHuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o'zida mujassam qilgan holda namoyon bo'lishi bilan birga bilishning o'ta murakkab ob'ekti hamdir.

Jahon madaniyati bosqichlari Ibtidoiy madaniyat mavzusi O'zbekiston tarixi, falsafa, sotsiologiya, etnografiya fanlari mavzulari bilan bog'liq.

TALABANING BAZIS BILIMINI BAHOLASH UCHUN SAVOLLAR

Madaniy bosqichlar ma'lum darajada regional – mintaqaviy xususiyatni o'z ichiga qamrab olgani. Madaniyat universalligi tushunchasi.

Antik madaniyat va qadimiy madaniyat, ular o`rtasidagi farqlar.

Arxaik davrdagi insonning fikrlash tarzi.

Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko`rinishlari

4-mavzu *Qadimgi davr madaniyati. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|--|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-80 gasha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-axborotli ma'ruza. |
| Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida. Misrda ilk hayot izlari. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davri. Qadimiy yozma manbalarda O'rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to'g'risidagi ma'lumotlar. Buddaviylik madaniyati. Buddaviylikning Baqtriya davlatiga kirib kelishi. | Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida. Misrda ilk hayot izlari. Misrliklar-ilk kalendar ijodkorlari. Misrning “qizil” va “qora” mamlakatga bo'linishi va buning sabablari. Misr piramidalari – dunyoning etti mo'jizasidan biri. Qadimgi Misrda falsafiy maktablarning shakllanishi. Misr sivilizatsiyasi – eng uzoq davom etgan sivilizatsiyadir. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davr Xitoy — sivilizatsiya ilk bor paydo bo'lgan to'rt mamlakatning biri. Xitoyliklar qog'oz, choy, chinni, porox, soyabon, muzqaymoq, ipak va gugurtning ixtirochilari. O'rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to'g'risidagi ma'lumotlar. Milodiy I asrga oid Xan yilnomasida “Avesto” davri madaniyati. Zardushtiylik ta'limoti. Xitoy sayyohining hozirgi O'zbekiston to'g'risidagi ma'lumotlari. Buddaviylik madaniyati. Buddaviylikning Baqtriya davlatiga kirib kelishi. |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: | Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida. Misrda ilk hayot izlari. Misrliklar-ilk kalendar ijodkorlari. Misrning “qizil” va “qora” mamlakatga bo'linishi va buning sabablari. Misr piramidalari – dunyoning etti mo'jizasidan biri. Qadimgi Misrda falsafiy maktablarning shakllanishi. Misr sivilizatsiyasi – eng uzoq davom etgan sivilizatsiyadir. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davr Xitoy — sivilizatsiya ilk bor paydo bo'lgan to'rt mamlakatning biri. Qadimiy yozma manbalarda O'rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to'g'risidagi ma'lumotlar haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Kurgazmali, ma'ruza, suhbat |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

Qadimgi davr madaniyati. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati
ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|----------------------------------|---|--|
| Tayyorgarlik bosqishi (5 daqiqa) | 1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushuncha taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 1. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yisha savollar beradi. | Tinglaydilar Talabalar savollarga javob beradilar |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar Tinglaydilar |
| 4- Yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Mavzu: Qadimgi davr madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati

REJA:

Qadimgi dunyo (antik davr) tarixi va madaniyatining rivojlanishida Messopatamiya, Babil, Misr, Hindiston, Xitoy, qadimgi Gretsiyaning o'rnini benihoya katta. Shuning uchun ham S.N.Kramer: «Tarix Mesopotamiyadan boshlanadi» deb ko'rsatgan edi. Mesopotamiya o'z yozuviga ega bo'lgan, jamoa bo'lib yashash, shaharlarni boshqarish, xo'jalik yuritish usullariga ega bo'lgan. Aholi asosan shahar-davlatlarda yashagan. Erklar maxsus qurilgan to'g'on ariqlar orqali keladigan suvlar bilan sug'orilgan. Dehkonlar asosan bug'doy, no'xat, kunjut, xurmo, uzum, qovoq etishtirish bilan shug'ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik va savdo–sotiq bilan shug'ullanish keng tarqalgan.

Ulkan ibodatxonalar, hukmdorlarning qarorgoh xonalari, ma'muriy binolar va ustaxonalar qurilgan. Ibodatxonalar mis va oltindan ishlangan haykallar bilan bezatilgan. Shahar-davlatni o'z boshqarish tizimlari: podsho, vazirlar, amaldorlar, qo'shinlar, qo'riqchilari bo'lgan. Barcha «Xammurapi» qonunlariga bo'ysungan. Bu qonunlar 247 moddadan iborat bo'lib, unda podsholar “xudolar qo'yilgan rahbar” deb ulug'langan. Savdo-sotiq va oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, ijtimoiy bo'lib yashash haqida turli ko'rsatmalar berilgan. Demak, qadimgi Mesopotamiya—ijtimoiy-madaniy hayoti insoniyat yangi bir taraqqiy rivojlanish bosqichiga o'tganidan dalolat beradi.

Qadimgi dunyo (arxaik davr) madaniyatida Misr katta o'rin tutadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra kunning 24 soatiga bo'linishi, doira yuzini aniqlash, o'nlik sanash, quyosh kalendari va boshqalar Misrda kashf qilingan.

Misrliklar geometriya, matematika, astronomiya, tarix, tibbiyot, adabiyot ilmlaridan yaxshi xabardor bo`lgan. Bu fanlar maktablarda maxsus o`qitilgan. Hatto Misrda amaldorlar tayyorlaydigan oliy o`quv yurti ham bo`lgan. Ilk yozuv ham Misrda kashf etilgan. Qadimgi Misrda adabiyot, san'at, hunarmandchilik va me'morchilik yuqori darajada rivojlangan. «Osiris va Izida xakida» afsona, «Ikki og`a- ini haqida» ertak, «O`g`ri va to`g`ri» haqida ertaklar to hanzgacha tildan-tilga, xalqdan-xalqga o`tib keladi.

Misrliklar Fir'avn va amaldorlar uchun zeb-ziynat buyumlarini yasashgan, ajoyib saroylar qurishgan. Sakkaradagi—Joser, Gizzadagi—Xeops makbaralari o`z salobati va yuksak darajada kurilgani bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Masalan: Xeops maqbarasi 5290 kv. metrli erni egallagan, uning balandligi 150 metr, qo`yilgan har bir toshning og`irligi 2-5 tonnagacha. Maqbara ana shunday 2 mln 300 ming toshdan qurilgan. Toshlar orasidan hatto qil ham o`tmasligi o`sha davrdagi qurilish madaniyati qanchalik yuqori saviyada ekanligini ko`rsatadi.

Qadimgi Misrda paletsizm keng tarqalgan. Har bir joyning sig`inadigan totemlari, narsalari, xudolari bo`lib, xudolar soni 1000 tagacha bo`lgan. Keng tarqalgan quyosh xudosi-Ra bo`lgan.

Misr madaniyati insoniyat tarixida o`chmas iz qoldirgan. U Sharq madaniyatining shakllanishiga ta'sir ko`rsatdi. G`arb madaniyatining beshigi bo`lgan Yunoniston va Rim ham Misr madaniyati tarixidan chetda qolmadi.

Hindiston madaniyati eramizdan avvalgi V-IV ming yilliklarda shakllangan. Bu davrda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan. A.Toynbining fikriga ko`ra, hind sivilizatsiyasi boshqa o`lkalar madaniyati va sivilizatsiyasi bilan bog`liq holda rivojlanmagan. Hududiy cheklanganlik bu sivilizatsiyalarning asosiy belgisidir.

Mutaxassislarning fikriga ko`ra, hind madaniyatining eramizdan avvalgi 4 ming yillik oxirlari va 2 ming yillik o`rtalarida tarkib topgan. Hind daryosi atrofidagi aholi zich yashagan Moxinjo—Daro, Harappa yirik shaharlari paydo bo`lgan. Ularda 2-3 qavatli binolar, suv quvurlari, havzalar, ibodatxonalar, podsho saroylari qurilgan. Topilgan zargarlik, to`qimachilik, qulolchilik, qulolsozlik buyumlari qadimgi Hindiston madaniy hayotining serqirra va rang-barang bo`lganidan dalolat beradi. Osiyoda Hindiston paxtaning vatani hisoblanadi. Qadimgi hindlar paxta etishtirib undan ip, yog`, turli kiyimlar tikish, gazlamalar to`kishni yaxshi bilganlar.

Qadimgi Hindistonda matematika, tibbiyot juda qadrlangan. O`lkaning juda issiqligi turli kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bulgan. Natijada tibbiy bilimlariga katta extiyoj uyg`ongan. Shaxmat aql o`yini sifatida Qadimgi Hindistonda yaratilgan. Qadimgi Hindistonda qurilgan ibodatxona va saroylarning haybati va serhashamatligi to hanzgacha kishilarni hayratga solib keladi. Qadimgi Hindistonda falsafa, din, diniy mistik qarashlar rang-barangligi bilan ajralib turgan. Ular ichida buddizm, braxmanizm chorvaka ta'limotlari rigveda, mahobhorat, ramayana, xand chantra va boshqa asarlar juda mashhurdir.

Qadimgi Xitoy madaniyatining boshlanishi er.av. 5-4 ming yillikka borib taqaladi. Shuni e'tirof etish kerakki, ma'lum bir tarixiy, etnik va jo`g`rofiy shart-sharoitlar ta'sirida xitoy madaniyati to 17 asrgacha o`ziga xos, boshqa

sivilizatsiyalardan jiddiy farq qiluvchi hodisa sifatida yashab keldi. Arxeologik topilmalar er. av. 5-3 ming yillikda Xuanxe daryosining atrofida aholi yashab, dehqonchilik, qulolchilik, chorvachilikdan xabardor bo`lgan. Er. av. 18-12 asrlardagi In' podsholigi davrida Xitoyda oy taqvim, matematika, kimyo, astronomiyaga oid bilimlar paydo bo`lgan. Kishilar yilni 360 kunga, oyni 30-31 kunga yulduzlarga qarab ob-havoni hosirdorlikni qanday bo`lishini oldindan aytib berishgan. Kompas birinchi bor kashf qilingan. Bundan 4-3-5 ming yillar ilgari Xitoyda yozuv paydo bo`lgan. U Ieroglif ya'ni bir belgi orqali butun bir so`zni ifodalovchi yozuv paydo bo`lgan. Xatlarni dastlab yog`och va bambuk ishlangan taxtachalarga, shoyi matolarga yozish odatga aylangan. Eramizdan avvalgi I asr oxirida qog`oz kashf qilingan. Bu kashfiyot nafaqat Xitoyda shu bilan birga butun jahonda fan, maorif va madaniyatning rivojlanishiga ulkan ta'sir ko`rsatgan.

Qadimgi Xitoyliklar odam tanasining tuzilishi va uni davolash usullarini yaxshi bilishgan. Masalan: uqalash, igna bilan sanchib davolash, musiqa bilan davolashdan keng xabardor bo`lganlar. Ular mingdan ortiq dori-darmonlarni tayyorlash va qo`llash yullarini bilishgan. Qadimgi Xitoy hukmdorlari yirik davlat tuzishga va uni boshqarishga juda katta e'tibor berishgan. Har bir xudud markazga bo`ysungan va soliq to`lashgan. Boshqarishda oilaviy hayotda an'analarga rasm-rusumlarga itoat etish muhim hisoblangan. Bu tartib Xitoy madaniyatining o`ziga xos tarzda shakllanishiga katta ta'sir ko`rsatdi.

Qadimgi Yunoniston madaniyatining o`ziga xosligi shundaki, u shahar (polis) ijtimoiy va ma'naviy hayoti asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. Krit oroli, Pilos, Afina, Tirinf va Fessaliya – polis shaharlari yunon madaniyatining beshiklaridir. Arxeolog qazilmalar Kritda madaniyat gullab-yashaganidan darak beradi. Ayniqsa me'morchilik, tasviriy san'at, hunarmandlik, kemasozlik va savdo-sotik rivojlangan. Krit o`zining yozuviga ham ega bulgan. Miken madaniyatining o`ziga xosligi ijtimoiy-siyosiy hayot saroy atrofida kechganligidir. Shahar akrapol-katta harsang toshlarining qurilgan kal'a devorlari bilan o`ralgan. Unda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik keng rivojlangan.

Qadimgi Yunoniston madaniyatida klassik davr (er.av 5- asrdan to asrimiz boshigacha) alohida o`rin tutadi. Ayni mana shu davrda qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy hayot, adabiyot, san'at, musiqa, falsafa, arxitektura, ilm-ma'rifat kelgusi davrlar uchun taqlid qiladigan namuna andoza darajasiga ko`tariladiki, insoniyat tarixida biror-bir davr yo`qki, unga o`zini qiyoslamagan, undan o`zi ilhom olmagan bo`lsin. Butun Evropa, G`arb madaniyati va sivilizatsiyasi honuzgacha ana shu antik davr madaniyati ta'sirida rivojlanib keldi.

Qadimgi Sharq hududida mil. avv. X- VII ming yillikda inson sivilizatsiyasi va madaniyati rivojlanishining ibtidosi bilan bog`liq bo`lgan eng muhim jarayonlar ro`y berdi. Bu davrda Sharqda madaniy hayotining turli shakllari va sohalari vujudga keladi. Yozuv, adabiyot, san'at, fan birinchi jahon dini-buddizm paydo bo`ladi. Bu boshlang`ich jarayonsiz insoniyat madaniyatining keyingi barcha taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Qadimgi Sharq tushunchasi Sharq haqidagi tasavvurlarga mos kelmaydi. Negaki, qadimgi Sharq er sharining Misrgacha to hozirgacha bo`lgan keng mintaqasining o`z ichiga olib bu erda mil. avv. VII ming yillikdan boshlab insoniyat

tarixida dastlabki sivilizatsiya vujudga kela boshladi. Madaniyatning shakllanishi eng yirik daryolar – Nil, Dajla, va Frot, Hind va Gang, Xuanxe va Yantszi vodiysida, ya'ni dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo'lgan joylarda ro'y berdi. Xuddi shu joylarda dastlabki davlatchilik tuzilmasi siyosiy, diniy va savdo markazi sifatida shaharlar, yozuv vujudga kelgan. Bu erda dastlab ma'naviy madaniyat ishlab chiqaruvchi mehnat faoliyatidan bevosita ajralib mustaqil faoliyatga aylanadi. Jamiyat hayotida alohida kishilar qatlami boshqaruv, ta'lim, ma'lumotlarni to'plovchi va uzatuvchi sohalarda shug'ullanuvchilarga ajraladi va ko'payib boradi.

Misr, Messopotamiya, Hind va Xitoy sivilizatsiyalari eng ko'hna va yirik madaniyatlar edi. Bu madaniyatlar ta'sirida Urartu, Finikiya, Xett, Ellen sivilizatsiyalar shakllandi.

Qadimgi Sharq madaniyatida an'analarga asoslanish ustun turadi. Ajdodlar an'anasi, tajribasi, mutloq haqiqat kabi baholangan. Mutloq haqiqat hukmronligi bilan D.S.Lixachev ta'kidlashicha, «odoblilik»ka bog'liq bo'lgan. Qadimgi Sharq kishisining axloqi harakat va faoliyatda muqaddas an'analarni qayta tiklashga qaratilgan «ilohiy o'rnatilgan» me'yor va qoidalarga borib taqaladi. A.Ya Gurevich shunday deydi, «kishilar harakatining ko'kdagi ilohiy timsolga talpinishi ularni iloh bilan bog'lab axloqda voqelikka aylandi». Kishilarning barcha faoliyati muqaddas marosimlarda qanchalik ishtirok etishi bilan mazmun kasb etadi.

Shohning asosiy majburiyatlari fuqarolarga bog'liq ishlar bo'lgan: mamlakatda tartib va osoyishtalik, moddiy farovonlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash. Qadimgi Misrdagi «Gerakliopol shohining o'z o'g'li Merikarga nasihatlarida»da aytilishicha: «haqiqat o'rnat va erda uzoq yashaysan, shunday qilki, yig'layotganni ovut, bevaga jabr qilma, insonni otasining mol mulkidan benasib qilma». Yana hukmdor tomonidan zaminda tartib intizom bo'yicha yuksak missiya bajarilib, gohida behat katta hajmdagi qurilish xo'jalik faoliyatini amalga oshirilgan. Ulug' va bahaybat Misr ehromlari, buyuk Xitoy devori Persopol saroyi qurilishlari xudolar oldidagi hukmdorlarning «ijobiy» xususiyatlaridan dalolat beradi.

Diniy aqidalar hukmronligi kishilar hayotini belgilaydi. Insonlar osmonni xudolar dunyosi va erni odamlar dunyosi deb bilgan. Ular doimo o'zaro munosabatdan bir butunlikdan olam daraxtining tanasi va shoxlari kabi vuqor bilan yashaydi deb himoblagan. Xudolar insonlar hayotining barcha sahalariga faol aralashgan, uning tug'ilishi, o'limini va o'limidan keyingi taqdirini belgilagan. O'sha davrlarda diniy ta'limotdan tashqari hech qanday boshqa dunyoqarash bo'lmagan. Inson xudolardan hatto arziyas narsalar haqida maslahat so'ragan va unga xatlar yozib ibodatxonaga olib bergan. Misol uchun, qadimgi Bobil aholisining maktubidan birida shunday so'zlar bitilgan: «Mening otam, xudo ayt! Sening quling Apil-adad shunday deydi: nimaga sen menga e'tibor qilmaysan, sendan boshqa kim ham bor? Seni sevuvchi xudo Mardukka yoz: mening gunohimdan o'tsin».

Papirus yozuvlari Misrliklarining matematika va geometriya, astronomiya, tibbiyot, kimyo, sohalaridagi keng tushunchalari haqida dalolat beradi.

Messopotamiyaliklar matematika va astronomiyaga oid kashfiyotlar qilib ilm sohasiga oy, quyosh tizimigi oid jarayonlar, yulduz va sayyoralar ro'yxati, ko'plab

harakat holatlarini aniqlash bo'yicha yangiliklar kiritdi. Ikki daryo oralig'i astrologiyaning ham vatanidir.

Qadimgi Hind va Xitoy fani ham ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. Hindistonda noldan foydalanib o'nlik sanoq tizimi yaratilishi bilan algebra rivojlana boshladi. O'lim sababini aniqlash maqsadida murda tanasini anatomik tadqiq qilish tajribalari anatomiya va fiziologiyani rivojlantirib tibbiyotda katta yutuqlarga erishildi. Hindistonda tibbiyot taraqqiyoti haqida tibbiyotga oid asarlardan birida jarrohlikning 300 turi bo'lganligi 120 ta jarrohlik asbobi mavjudligini eslatadi. Barchaga ma'lumki, Xitoy ipak, chinni va qog'ozning vatani hisoblanib, mil.avv. II asrda kashf qilingan. Shuningdek Xitoyda Porox, kompos, er qimirlashini aniqlovchi asbob (seysmograf ham ixtiro qilingan). Mil. avv. 613 yilga tegishli Xitoy qo'lyozmalari topilgan. Bunda Galey kometasi haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar uchraydi. Mil.avv. II asrda Xitoyda osmon yoritqichlarining harakati tasvirlangan. Birinchi osmon globusi, 2500 yoritqichning o'rni ko'rsatilgan, yulduzlar katologi yaratilgan. Yangi taqvim joriy qilinib, unga ko'ra bir yil 365 kunga teng bo'lgan. Mil. avv. 28 yilda Xan imperiyasining astronomlari Quyoshda dog'lar mavjudligini kuzatganlar. Xitoy matematiklari tarixda birinchi bo'lib hisobda manfiy sonini qo'llaganlar. Tibbiyotda igna ukoli, nuqtali davolash kabi ajoyib usul ishlab chiqilgan.

Bu davrda Hindistonda upanishadalar paydo bo'ldi. Buddha yashadi. Xitoyda mashhur falsafa maktablari rivojlandi. Eronda Zardushtiylikni qabul qilib qonunlashtirildi. Falastindan payg'ambarlar chiqdi. Yunonistonda bu vaqtda Gomer, Geraklit, Platon va boshqalar faoliyat ko'rsatdi.

Misrda turli o'ta chalkash topinishlar tizimi mavjud bo'lgan: Xudolarga sig'ingan, jonivor, o'simlik, tuproq, suv, Nil muqaddaslashtirilgan. Quyoshga, tirik xudo fir'avnga sig'inish qonun tusiga kirgan. Misrliklar madaniyatida dafn marosimi alohida o'rin tutgan. Ular o'limni insonning ikkinchi hayot boshlanishi deb bilgan. Mangu hayot tushunchasi Osiris va Izida haqidagi mifdan paydo bo'lgan. Qadimgi Yunon muallifi «Misrliklar hayoti o'limga tayyorgarlik ko'rishdan iborat» deb bekorga yozmagan.

Misrliklardan farqli qadimgi Messopotamiya aholisi erdagi hayotga e'tibor qilishgan. O'limda hammasi tugaydi deb o'ylashsada, narigi dunyoga ishonishmagan. Misrliklardan farqli ravishda narigi dunyoni inson ruhi mangu suv va ovqatga zoriqib yashaydigan qo'rqinchli dunyo deb tasavvur qilishgan. Hind madaniyatining o'ziga xos xususiyati dunyoda sodir bo'luvchi benihoya uzluksiz harakat g'oyasi hisoblanadi, ya'ni dunyoning aylanishi va ibtido, na nihoya, na aniq maqsadga ega. Dunyoning doimiy aylanishida qayta yangilanish va dunyoviy ilohiy ruh nishonasi individual ruh bo'ladi. Ular doimo yangi moddiy ko'rinishda vujudga keladi. Buning uchun inson tani bo'lishi shart emas. Ya'ni ruh jonivorlar o'simliklar tanasiga joylashishi mumkin. Hindular shu tariqa o'z dunyoqarashidan narigi dunyo haqidagi g'oyani istisno qilganlar. Hech kim, shuningdek xudo ham inson karmasini o'zgartirishga qodir emas. Karma insonning oldingi hayotidan meros bo'lib o'tadi va hozirgi hayotining mazmuni bo'lib, faoliyatida namoyon bo'ladi. U bo'lg'usi moddiy timsolning sifatini belgilaydi.

Xitoy madaniyati va sivilizatsiyasining ming yillar davomida asosiy ruhiy, axloqiy va g'oyaviy manbai mil.avv. 551-479 yillarda. yashagan buyuk mutafakkir Konfutsiy ta'limoti hisoblanadi. Barcha eng muhim narsalar har qanday sivilizatsiyaning qiyofasini belgilaydi. Hayot tamoyillarini umum qabul qilgan axloqiy me'yorlar va qadriyatlarning barchasi Xitoyda Konfutsiylik shaklida tasvirlangan. «Osmon vakolati» yo`nalishi Konfutsiy tomonidan yangicha fikrda rivojlantirilib, unda ijtimoiy axloq asosiy o`rin tutadi va siyosiy madaniyat belgilanadi.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi G`arbgga nisbatan ertaroq boshladi. Yunonlar madaniyati Qadimgi Sharq madaniyati ta'sirida juda yuksaldi. Qadimgi Sharq bizga barhayot boyliklarni qoldirdi. Bular «Gilgamesh», «Mahobhorat» dostonlari. Yunonistonda mil.avv. IX-XI asrlarda antik jamiyatning tashkil topishidan boshlanib, mil.avv. V- IV asrda antik madaniyat takomili bilan to`la mohiyat mazmunga ega bo`ldi. Barcha qadimgi madaniyatlar kabi Yunon klassik madaniyatining muhim tarkibiy qismi din bo`lgan. Din me'morchilikning, tasviriy san'atning adabiyotning ajoyib namunalarida o`z aksini topdi.

Yunonlarning tasavvuricha, olam avvalida Xaosdan iborat bo`lgan, er –geya va er osti olami Tar-tar ham bo`lgan. Geyadan o`g`li Uran osmon xudosi kelib chiqqan Uran bilan Geyadan Titan Kronos tug`ilgan. O`z otasi Uranni ag`darib tashlagan. Bular Titanlar – Katta xudolar ekan. Kronosdan Ait, Poseydon, Gestiya Dimitriya, Gera va Zevs kabi kichik xudolar kelib chiqqan, Zevs boshchiligida kichik xudolar Titanlarni ag`darib tashlab olamni idora qila boshlaganlar. Zevs bosh xudo, xudolar ajdodi, chaqmoq sochar hisoblangan. Uning xotini Gera – osmon ma'budasi va nikoh homiysi bo`lgan. Paseydon dengiz xudosi, Demitriya – hosildorlik ma'budasi, Gestetiya – uy ro`zg`or ma'budasi, Aid – er osti olami xudosi hisoblangan.

Zevsning boshidan donishmandlik va urush ma'budasi Afina paydo bo`lgan. Apollon ro`shnolik va san'at xudosi. Artimida oy va ov ma'budasi, Gefes temirchilik xudosi, Afratida go`zallik va sevgi ma'budasi, Diones – uzum va musallas xudosi sifatida e'zozlangan.

Yunonlar dinida totemizm qoldiqlari bo`lgan. Ya'ni ma'budlarni biron hayvon yoki qush deb atagan. Shuningdek yunonlar ikkinchi darajali ma'budlarga – Nimfa va Kentavrlarga ham talpinganlar. Ma'budlarning oddiy ayollar bilan aloqasidan tug`ilgan yarim xudo qahramonlar ham e'zozlangan. Ayniqsa 12 marta jasorat ko`rsatgan Gerakl yovuzlikni enguvchi obraz bo`lgan. Yunonistonda xudolar sharafiga o`tkazilgan maxsus bayramlar faqat diniy mazmunga ega bo`lmagan, chunki jismoniy musobaqalar, musiqa, qo`shiq kabilar mazkur bayramlarning eng muhim ishlari hisoblangan. Argostda Gera, Afina sharafiga bayramlar o`tkazilgan. Olimpiya shahrida Zevs sharafiga olimp musobaqalari bo`lgan.

Yunon olimlari qadimgi Misr Mesopotamiya va kichik Osiyo xalqlarining bilimlaridan bahramand bo`lganlar. Qadimgi Sharq fani Yunon dunyosida ilm fanning rivojlanishiga ta'sir etgan. Mil. avv. VII-VI asrlarda Yunonistonda madaniyat va fan rivojlanib Gerodot, Demokrit, Pratorgor, Gippokrat, Suqrot, Aflotun, Arastu kabi olimlar ijod qilgan. «Tarixning otasi deb nom olgan Gerodot (mil.avv. V asr) Misr Bobil Suriya, kichik Osiyo va Qora dengiz sohillaridagi mamlakatlarga sayohat qilib, o`zining «Tarix» kitobida turli xalqlar ma'lumotlarini yozib qoldirgan.

Yunoniston Afsona va rivoyatlar yurti bo`lib, Qadimdan adabiyot rivojlangan. «Prometey», «Gerakl», «Argonaftlar», «Didal va Ikar», «Odissey», «Iliada» kabi afsona va dostonlarda yunonlarning turmush tarzi va tarixi bayon qilingan.

Qadimgi Yunon teatri mil. avv. VI asrlarda qishloq xo`jaligi homiysi xudo Dionis sharafiga o`tkazilgan bayramlar vaqtida ijro etilgan qo`shiqlar va o`yinlar asosida vujudga kelgan. Yunonlar teatrni «katta yoshdagilar maktabi» deyishgan. Teatr yunonchada «tomoshalar joyi» degan ma'noni anglatadi. Teatr san'atining rivoji mashhur Yunon adiblari ijodi bilan mashhur bo`lgan. Adiblar afsona asosida tragediyalar yaratganlar. Tragediya yunonchada “echkilar qo`shig`i” degan ma'noni anglatadi.

Qadimgi yunonlar me'morchilikda ustunli binolar qurishlikni misrliklardan o`rgangan bo`lsada, bu usulni qayta ishlab 3 ta uslub yaratganlar: doriy, ioniy, korinf uslubidagi binolar. Ular ibodatxona, teatr, saroy va majlis binolariga alohida e'tibor berganlar. Dastlab bunday binolar doriy uslubida - ustunlar tagkursiga emas, erga o`rnatilgan. Keyinchalik marmar toshdan kuchli erkak kishining gavdasiga o`xshash ustundan, ba'zi ustunlar nozik, yuqori qismi gajak qayrilma naqshli uslubdagi binolar qurilib, ayol gavdasiga qiyoslangan. Ibodatxonalarning baland poydevori bo`lib, ichi va tashqarisi haykallar bilan bezatilgan.

Afina akropolidagi Parfenon, Erexteyon ibodatxonalari yunon me'morchiligining nodir asarlaridan bo`lib, hozirgacha saqlanib qolgan. Profenon ustunlari doriy uslubida bo`lsada, tarz-tarovati ioniycha uslubdadir. Uning qarshisidagi erexteyon ibodatxonasi sof ioniycha uslubda, qiz haykallar ustun vazifasini bajarib nafis ishlangan.

Yunon haykaltaroshligi ham mil. avv. V-IV asrda yuksak darajada rivojlantirildi. Haykaltaroshlar bu davrda odam gavdasining harakat qilib turgan holatini tasvirlashni bilib olganlar.

Ellinizm davrida (mil. avv. III-II asrlar) madaniyat xilma-xil bo`lib, asosan, ilmfan taraqqiy etdi. Aleksandr Makedonskiy istilo qilgan hududlarda yunon madaniyati kirib borishi bilan birga Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlari madaniyatiga uyg`unlashib, madaniyat sintezi yuz berdi. Mamlakatlarning o`zaro aloqalari kengaydi.

Iskandariyadagi va Sharqiy O`rta dengiz bo`yidagi boshqa shahar kutubxonalarida Yunoniston va Sharq mamlakatlaridan olib kelingan ilmiy asarlar to`plangan. Iskandariyada teatr saroy, gimnaziya va mashhur muzey bo`lgan. Muzeyda rasadxona va ulkan kutubxonada 700 mingga yaqin qo`lyozma saqlangan. Shahar oldidagi orolga 140 metr balandlikdagi mayoq qurilgan. Bu mayoq kemalarning gavanga kirish yo`lini ko`rsatib turardi.

Ellinizm davrida fanlar tizimiga asos solindi. Strabon xizmati bilan fizika fani paydo bo`ldi. Evklid va Arximed matematikani rivojlantirdi. Arestrax astronomiya sohasiga ulkan hissa qo`shdi.

O`zbekiston xalqlari tarixi umumjahon tarixining tarkibiy qismidir. Xuddi shuning uchun ham, O`zbekiston xalqlari madaniyati umumjahon tarixiy-madaniy rivojlanishning o`ziga xos bir ko`rinishi va tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

O'zbekiston xalqlari madaniyatining tarixiy rivojlanish bosqichlari quyidagilardan iborat: - eng qadimgi davr; - qadimgi dunyo; - o'rta asrlar; - yangi davr; - XX asr.

Arxeologik qazilmalar ko'rsatadiki, Eng kadimgi davrga oid 400 ga oid makonlar O'rta Osiyo xududidan ham topilgan. O'lkamizda arxantropolar bundan 700-800 ming yil ilgari yashagan ekanlar.

Ibtidoiy jamoa tuzumini olimlar:

Tosh davri; Mis-tosh davri; Bronza davri; Temir davriga bo'lib o'rganadilar. Bu davrlarda kishilar nafaqat o'zlar yashagan davrlarga mos mehnat qurollari shu bilan birga ma'naviy boyliklar ham yaratganlar

Ilk paleolit davrida kishilar asosan temirchilik va ovchilik bilan kun kechirgan.

O'rta paleolit davrida mehnat qurollari takomillashadi, odamda nutq va fikrlash o'sadi, olov chiqarishni o'rganadi, o'ng'ir va g'orlik boshpana topadi, urug' bo'lib yashashadi.

So'nggi paleolit davrida odamlar uy-joy o'urishni o'rganadilar, ibtidoiy to'da bo'lib yashashdan urug'-jamoalar bo'lib yashashga (matriarxat) o'tadilar. Mehnat qurollari rang-baranglashadi, ilk diniy tasavvurlar paydo bo'ladi.

O'rta tosh (mezolit) davrida kamon va o'q-yoy kashf etiladi, ilk san'at paydo bo'ladi.

Neolit davri yodgorliklari qadimgi ajdodlarimizning to'qimachilik, qulolchilik, yog'och va qamishdan yog'och yasashni o'rganganlaridan, devor va qoyalarga rasm chizishni bilganlaridan dalolat beradi. Bunday qoyatosh rasmlar respublikamizning Zarautsoy, Ko'ksaroy va Teraklisoy hududlaridan topilgan.

Tosh va bronza davrida kishilar misdan, keyinchalik esa bronzadan foydalanishni o'rganishgan, natijada temirdan yasalgan mehnat qurollari keng tarqalgan. Bronza davrida ishlab chiqarish jamoalari paydo bo'ladi. Oila bo'lib yashash shakllanadi. Erkaklar o'rni ortib boradi va mulkiy tabaqalanish yuzaga keladi. Ibtidoiy o'z-o'zini boshqarish, mehnat jamoalarini boshqarish va ilk davlat tizimlari yuzaga kelgan.

Arxeologik qazilmalar respublikamiz hududida yashagan jamoalar Eron, Afg'oniston, Turkmaniston, Tojikiston xalqlari bilan keng iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatganidan darak beradi. Bronza davriga oid tarixiy-madaniy izlar Xorazm (Tozabogyop va Amirobod madaniyati), Zarafshon (Zamobobo madaniyati), Qashqadaryo, Surxandaryo (Sopollitepa madaniyati) va Farg'ona vohalaridan topilgan. Ularni o'rganish olimlari, bu davrda ikki xil madaniyat mavjud bo'lgan degan xulosaga olib keladi. Birinchisi, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabila madaniyati. Qadimgi qabilalar dehqonchilik qilish uchun qulay joylashib olib, yuksak dehqonchilik madaniyatini yaratganlar. Ikkinchisi, xuddi birinchi madaniyat sohiblari darajasida, ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo'lgan, qurg'okchilik erlarning tog' oldi yaylovlarida chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Bu tarixiy jarayon—kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsmoti edi.

Er. avv. 1- ming yilliklarining boshlarida O'rta Osiyoda ilk davlatlar paydo bo'ladiki, ular madaniy rivojlanish va ijtimoiy-tarixiy jarayonni yangi bir bosqichga o'tganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Xorazm. («Katta Xorazm»), Kadimgi Baktriya, So'g'diyona va Marg'iyona kabi davlatlar davrida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik

rivojlangan. Davlatlararo savdo-sotiq keng yo`lga qo`yilgan. Shaharlar paydo bo`lib, ular ijtimoiy-madaniy hayotning markaziga aylangan. O`sha davrlarda Zardushtiylar O`rta Osiyo va Eron xalqlarining diniy, axloqiy, falsafiy, koinot olamiga oid qarashlarini aks ettiruvchi ta`limot sifatida shakllangan.

O`zbekiston xalqlari haqidagi dastlabki yozma manba «Avesto» hisoblanadi. «Avesto» so`zi «asos» yoki «asosiy matn» degan ma`noni anglatadi, ya`ni u zardushtiylarning diniy va falsafiy qarashlari bitilgan asosiy manbadir. «Avesto»da yorug`lik, yaxshilik xudosi Axuramazda bilan zulmat, yovuzlik xudosi Axriman o`rtasidagi kurash haqida hikoya qilinadi. Bu qarama-qarshi kuchlar o`rtasidagi kurash tabiatda, koinotda va erda davom etadi.

Makedoniyalik Iskandarning O`rta Osiyoga bostirib kirishi (er.avv. 329-y.) nafaqat o`lkamiz xalqlari o`rtasida ozodlik harakatlarini kuchaytirdi, shu bilan birga, ularga Yunon-Makedon madaniyati bilan tanishish imkoniyatini yaratdi. Iskandar vafotidan keyin Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari yuzaga keladi. Keyingi yillarda o`tkazilgan arxeologik qazilmalar er.avv. III-II asrlarda Amudaryoning o`ng va so`l qirg`oqlari ham Yunon-Baqtriya davlatiga kirganidan shu tariqa butun hududda ellinizm madaniyati yoyilganidan, shuningdek, O`rta Osiyoning qadimgi aholisi ellinizm ta`siri ostida bo`lgan davlatlar bilan o`zaro munosabatda bo`lganligidan dalolat beradi. Natijada Yunon madaniyati mahalliy aholi madaniyati bilan qo`shilib ularning har ikkalasi ham yangi bosqichga ko`tarildi.

Er.avv. I asrga kelib Xitoy va Qadimgi Rim davlatlaridan qolishmaydigan Kushon davlati yuzaga keladi. Kanishka davrida uning chegaralari kengayadi, Afg`oniston, Pokiston, Hindiston, O`rta Osiyo erlarini birlashtirgan yirik davlatga aylangan. Kushon xalqlari turli qabilalar va etnik uyushmalardan iborat bo`lgan. Shu bois Kushon madaniyati rang-barang edi. «Ipak yo`li» esa Kushonlarning Xitoy va Ovrupa davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarining kengayishiga, Sharq va G`arb madaniyatlarining bir-birlariga ta`sir etib rivojlanishiga yordam beradi. Bu davrga kelib insoniyat tarixida rivojlanishning shunday bir bosqichi boshlandiki, endi xalqlar o`zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar tufayligina taraqqiyot cho`qqilariga erishish mumkinligini anglay boshladilar. Ayniqsa, odamning dunyoni anglashi, ma`naviy va aqliy izlanishlari, hatto mustaqil tashqi aloqalarsiz (lokal) sivilizatsiyalarda ham bir-biriga yaqinlik, umumiylik mavjudligini ko`rsatadi. Shuningdek, bu yaqinlik va aloqalar madaniyatlardagi o`ziga xosliklarni ham ko`rsatdi, keyingi bosqichlarda bu o`ziga xosliklarga ergashish, ularni saqlab qolishga intilish kuchaydi. Bu tabiiy edi, chunki xalqlar ilgarigidek qandaydir uyushma, qabila emas, balki o`z tarixi, madaniyati va turmush tarziga ega millat, etnik borlik ekanini tobora chuqurroq anglay boshladilar.

Sharqning klassik madaniyati orasida Markaziy Osiyo Qadimgi madaniyati ajralib, o`ziga xos ko`rinishda shakllanadi. Dastlab, bu madaniyatda ikki xil madaniyat aralashib ketadi: ko`chmanchilik va ibtidoiylik olami hamda sivilizatsiya olami. Markaziy Osiyoning o`troq dehqonchilik va ko`chmanchi xalqlarida ancha-muncha farqlar bo`lishiga qaramasdan ilgaridan yaqin munosabatlar o`rnatilgan. Diniy e`tiqodlar, urf-odatlar, folklor, axloqiy me`yorlardagi umumiylikning shakllanishiga olib kelgan. Shuning uchun, bundan keyin Markaziy Osiyoning yaxlit madaniyatini

tashkil qiluvchi turli submadaniyatlar mavjudligi haqida to'xtalish joizdir: Qadimgi davlatlar submadaniyati (Baqtriya, Sug'd, Xorazm, Farg'ona, Marg'iyona), dasht ko'chmanchilari-sak, massaget, da-kochchilar submadaniyati, Pamir va tangri tog' qabilalarining submadaniyati.

Markaziy Osiyo madaniyatining o'ziga xosligining 2 chi jihati mintaqaning o'ta qulay jo'g'rofiy o'rnashganligi bilan bog'liq. Mintaqa Messopotamiya, Hindiston va Xitoy kabi 3 ta buyuk Sharq sivilizatsiyasi bilan bevosita chegaradosh bo'lib G'arb sivilizatsiyasiga xos Gretsiya va Rim bilan aloqada rivojlangan. Bunday aloqalarning muqarrarligi tufayl Markaziy Osiyo madaniyati Sharq va G'arb o'rtasida vositachilik missiyasini bajarishga sabab bo'ldi, ya'ni iqtisodiy sohalarga eng avvalo xalqaro savdoda va madaniy sohalarda ham Markaziy Osiyo G'arb va Sharq o'rtasida bog'lovchi ko'prik vazifasini bajardi. Xususan, Markaziy Osiyo hududi orqali buddizm butun dunyoga yoyildi, Hindiston va Xitoyga ellinistik madaniyat ko'rinishida o'tdi, Sharqdan G'arbg va G'arbdan Sharqqa madaniy boyliklar (bilim, diniy g'oya, kashfiyot, badiiy asarlarning) almashib turishida Markaziy Osiyo muhim vositachi bo'lib xizmat qiladi. Ko'pgina urushlar Markaziy Osiyo madaniyatining qadimgi taraqqiyot davrlarining behisob dalillarini yo'q qildi.

Arxeolog qazilma ma'lumotlar va yozma manbalar mil. avv. I –ming yillik boshlarida vujudga kelgan Markaziy Osiyoning ilk davlatlari Baqtriya, Sug'd va Xorazm madaniyati haqida bir oz ma'lumotlar beradi. Mil. avv VIII-VI asrlarga oid Afrosiyob (Samarqand), Surxondaryo vohasidagi Qiziltepa, Qashqadaryo vohasidagi Uzunqir, Xorazmdagi Ko'ziliqir kabi qadimgi shaharlarda o'tkazilgan tadqiqotlar murakkab ijtimoiy tuzilma va madaniyatning yuqori rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu shaharlar mudofaa devorlari va suv ta'minotidan iborat kuchli istehkom tizimiga ega bo'lib, ichida hunarmandlar mavzei joylashgan. Ayrim shaharlarda Saroy qoldiqlari qal'alar topilgan. Ko'chmanchi massagetlarning udumi va turmush tarzi haqida mashhur qadimgi Yunon tarixchisi Gerodot (mil.avv.V asr) yozib qoldirgan. U massagetlarning harbiy qurollari (kamon-yoy, nayzasi, oyboltasi)da oltindan bezak sifatida, misdan qurol va sovut uchun keng foydalanishini ta'kidlaydi. Gerodotning yozishicha, massagetlar yagona ma'bud quyoshga topinib, otni qurbonlik qilganlar.

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati haqida bilimlarning bebaho manbasi hisoblangan. Ko'pchilik olimlar Zardusht yuksak axloqiy idealdagi va ishontiruvchi fikrlari bilan birinchi haq payg'ambar ekanligini ta'kidlaydi. Axuramazda 6 ta ruhni – yordamchilarni yaratdi (ameno spenta): ezgu aql, yaxshi tartib, layoqatli qudrat, oliyjanob mo'minlik, sog'lomlik va boqiylik. Unga axuramanning zulmat qo'shini-devlar, urushlar timsoli, ochlik, kasallik, adovat va boshqa yovuz kuchlar qarama-qarshi turadi. Olam va barcha insoniyat hayotining asosida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash yotadi. Yovuzlik bilan kurashda har bir kishining asosiy qurolli mehnat bo'lgan. Zardushtiylik axloqi kishidan kamtarin va halol mehnatkash dehqonning barcha majburiyatlarini bajarishni talab qilgan (kim g'alla eksa, u haqiqat tarqatadi). Fikr, so'z va ishda taqvodorlik, ishchanlik, halollik, xolislik yuksak axloqning asosiy talablari sifatida ko'tariladi. «Qasam ezgu fikrni, ezgu so'zni, ezgu faoliyat majburiyatlarini bajarish talab qilnadi».

Ahmoniyalar hukmronligida davrida Sharq mamlakatlarida Gerodot, Demokrit va boshqalar sayohat qilgan. Ahmoniyalar imperiyasidagi yirik shaharlar – Suza, Persepol, Memfis, Nippur, Bobilda turli joylardan xususan, Xorazm, Baqtriya, Sug`ddan chiqqan kishilar, saklarning harbiy aholisi yashagan. Ahmoniyalar imperiyasi madaniyati ham ko`pgina mamlakat xalqlari yaratgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqodlar san'at yutuqlarini sintezi hisoblanadi. Bu madaniyatga Markaziy Osiyo xalqlari ham o`zining hissasini qo`shgan. Zardushtiylik Ahmoniylarning davlat dini sifatida qabul qilinishi bilan birga G`arbga ham keng yoyila boshladi. Saroylar qurilishiga Baqtriya oltin, So`g`ddan lojuvard va qimmatli toshlar, Xorazmdan feruza olib borilgan. 1877 yilda Tojikistonning Janubidan topilgan Amudaryo xazinasi bu madaniy sintezning yorqin misolidir. Xazinada Eron va Baqtriya tayyorlangan jihozlar-bejirim oltin aravacha, qanotli ikkita qirg`iy shakli tushirilgan bilakuzuk hamda dashtliklarga xos «hayvon shakli» bitilgan jihozlar mavjud.

Ahmoniyalar imperiyasi va Markaziy Osiyo erlari Yunon makedonlar tomonidan bosib olingan Markaziy Osiyo madaniyatiga ellinizm elementlari kirib keldi. Ahmoniyalar saltanatini emirib tashlagan Yunon-Baqtriya bosqini Markaziy Osiyo mintaqasini, xususan sug`d madaniyatiga aylantirdi. O`z saltanati hududida turli xalqlarning qorishib ketishi hamda yagona madaniyat va til birligini qaror toptirishga urindi. Shu maqsadda Makedonskiy o`z saroyida sharq udumlari va liboslarini joriy etdi. Turli etnik guruh vakillarining nikohlarini keng yo`lga qo`ydi, o`z armiyasiga baqtriyalik va so`g`dlik qismlarni kiritdi. 30 mingdan ortiq o`g`il-bolalarga yunoncha tarbiya berishga hukm etdi. Shunday qilib Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyo madaniyatini ellinlashtirishni boshlab berdi. Ellinistik jarayon salavkiylar davlatidan mustaqil bo`lgan Parfiya va Yunon Baqtriya o`zining yuqori rivoji bilan ajralib turardi. Yunon-Baqtriya davlatida yunonlar va mahalliy madaniyatlarning sintezi qisqa vaqtda o`zining ijobiy natijalarini berdi, shaharlar soni tez suratda o`sdi, dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa hunarmandchilik rivojlandi. Markaziy Osiyo mintaqasi Buyuk ipak yo`li bo`ylab o`tgan xalqaro savdning markazi sifatida o`ta muhim o`rin tutadi.

Diodotdan Galpokigacha bo`lgan yunonlar Baqtriya podsholari davrida yuksak badiiy saviyada oltin, kumush va misdan tayyorlangan turli qiymatdagi tangalar (draxma, obol, dixalka, xalqa) zarb etdi. Tovar pul munosabatlarini o`shida baqtriya shohlarining o`z pullarni zarb qilish xalqaro savdning rivojiga ijobiy ta'sir qilish bilan birga, yuksak badiiy darajasi bilan ham ajralib turadi. Yunon-Baqtriya shaharlarida inshootlar tosh, xom va pishiq-g`ishtdan tiklangan. Ustunlar Korinf usulida ishlangan. Saroy va ibodat majmualari, gimnaziya, teatr binolari ochib tekshirilganda ustunlar qattiq bazaltlar, vakant yaproqlari, palmetallar, cheti naqshlangan cherepetsa antifimkslar singari unsurlardan foydanlangani ma'lum bo`ldi. Mahalliy zodagonlarning ellinistik didi monumental va ixcham haykaltaroshlikni rivojlanishiga turtki bergan. Terak haykalchala va turli muhrlardagi obrazlarda hosildorlik xudosi Anaxita, yunonlarning bosh mahalliy xudolari, fantastik va real hayvonlarning timsollari ifodalangan. Haykaltaroshlik san'ati namunalari kam saqlanib qolganligiga qaramay, zarb etilgan Yunon-Baqtriya tangalarining orqa tomonida mashhur Yunon

san'atkorlarining rasmi tushirilganligi bu erda Yunon haykaltaroshligida ilm va san'atning ta'siri kuchli bo'lganligini bildiradi.

Yunon-Baqtriya podshohligida teatr san'ati va musiqani rivojlanganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Baqtriya saroylarida yunonistonlik aktyorlar, musiqachi va raqqoslarning guruhlari saqlangan. Ayniqsa, Yunon xalq teatrining «maskars», «mim» singari turlari keng yoyilgan. «Masharaboz» milliy teatrning-namunasida hamon ellinistik belgilar saqlanib qolgan.

Eramizdan avvalgi III-II asrlarda oromiy, Yunon–Baqtriya yozuvlari keng ishlatilgan, keyinchalik Yunon alfaviti asosida unga bitta harf qo'shilib (jami 25 ta harf) Baqtriya yozuvi vujudga kelgan. Zardushtiylik hukmron din sifatida saqlansada, aholini Yunon xudolari timsollariga sig'inish alomatlari paydo bo'lgan. Mahalliy aholi nazarida Olimp xudolarining obrazlari bilan zardushtiylik xudolarining timsollari – Zevs va Axuramazda, Appolon, Mitra, Afrodita va Apaxita obrazlari uyg'unlashib ketdi. Agar erli aholi o'rtasida Afina, Gerakl, Nika, Dionis timsollariga sig'inish qanchalik tarqalsa, Yunonistonda Mitra, Oksa (Oksho-Amudaryo), Buyuk onaga sig'inish shuncha tarqaldi. Buni Oyxonim, Taxti Sangin manzilgohlaridan topilgan tasvir mazmunida, yunoncha va mahalliy an'analar ifodalangan san'at yodgorliklarida ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston hududidagi qadimgi (er. avv. VII-VI asrlarda) davlat asoslangan. Xorazm (er. avv. VI asrlarda) Aleksandr Makedonskiy bosqiniga qadar Ahmoniylar istilosida ozod bo'lgan davlat sifatida, Hindiston, Xitoy, Yaqin, Sharq va Evropa Sharqi bilan qizg'in savdo aloqalarni olib borgan va o'zlarining hunarmandchilik buyumlari bilan dong taratganlar. Tarixiy solnomalarda xorazmliklarni tadbirkorlikka ishtiyoqmandligi qayd etilib, ularni «ilm sohiblari» deb ataganlar.

Xorazmliklar er. I asridan VIII asrigacha o'zlari foydalangan mahsus taqvim tizimini yaratgan. Beruniyning ma'lumotiga ko'ra, xorazmliklar mustaqil astronomik kuzatishlar olib borganlar, osmonning yulduzlar haritasini yaxshi bilganlar. Binobarin, Quyqirilgan qal'adagi observatoriyaning qadimiyligi (er.avv. III-II asrlar) shubhasizdir. Doira shaklidagi, dastlabki diametri 42 metrli bu bino keyinchalik 8 ta mustahkam minoraga ega bo'lgan devorlar bilan o'ralib, diametri 80 metrni tashkil etgan. Ikki qavatli markaziy bino devorining qalinligi 7 metr bo'lgan. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra Quyqirilgan qal'ada astronomik kuzatish, izlanishlar olib borilgan ilm qarorgohi bo'lgan. Binoni noyob qurilish tizimi xonalarni maqsadga muvofiq joylanishiga ko'ra uni «Xorazm Stounxenji» deb atash mumkin. Xorazm madaniyatining o'ziga xos rivojlanishi keyingi davrlarda ham davom etdi. 2000 yillar muqaddam Markaziy Osiyo – Shimoliy Hindiston, Pokiston va Sharqiy Eron yagona davlat hududini tashkil etgan. Qudratli Kushonlar imperiyasi Orol dengizi bo'ylaridan Hind okeanigacha yastanib, o'sha davrning boshqa uch buyuk davlati-Rim, Parfiya va Xanlar Xitoyi bilan bir qatorda turdi. Kushonlar imperiyasi davri Sharq va Jahon madaniyati rivojida Yangi davrni tashkil etdi.

Kushon saltanatining dastlabki manzil markazini Baqtriya tashkil etdi. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning jadal rivojlanishi shaharlarini gurkirab rivojlanishiga, g'ishtlardan bino etilgan qal'a va saroylarni qurilishiga olib keldi. Bu paytda G'arb mamalkatlari, xususan Rim imperiyasining sharqiy viloyatlari bilan

savdo aloqalari birinchi o`ringa chiqdi. Kushon podsholarining tangalari Kiev yaqinida, Efiopiya, Skandinaviya va Rim imperiyasi shaharlaridan topilgan. Savdo ko`priklidagi yo`llar va Hindistonning G`arbidagi port dengiz orqali olib borilgan. Bu yo`llardan xilma-xil buyumlar, jumladan, Rimga qandolat, qimmatbaho toshlar, fil suyagi, guruch, zebu-ziynat va jihozlar olib barilgan. Xitoydan buyumlar, Rimdan to`qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, oyna, qimmatbaho metallar, turli vinolar shu yo`l orqali olib o`tilgan. Rimning ko`p miqdordagi oltin va kumush tangalari aloqaga kiritilgan. O`sha davridayoq savdo-sotiqning ushbu yirik xalqaro arteriyasi «buyuk ipak yo`li» deb nom oldi.

Kanishka va Xuvishka tomonidan diniy aqidalarga nisbatan sabr-qanoat va ishonch-muruvvat bilan yondoshishga imkoniyat yaratildi. Konishka zarb ettirgan tangalarda indus, zardusht, ellin xudolarining nomi va tasvirlari tushirilgan. Adolatgo`y Mitra va hosildorlik xudosi Ordoxshi qudratli Vretragna bilan induslarni Shiva, Buddasini, Geppos, Selena, Sfapislarni ko`rish mumkin. Buddizm davlat dini maqomiga ega bo`lishiga qaramay, kushon imperiyasi hududida zardushtlik, jaynizm, shovinizm, manixeylik, Olimp xudolariga sig`inish keng tarqalgan edi.

Kushonlar davrida yozuvning turli tizimlari amal qilgan. Oramiy yozuvi asosida Kushon-Baqtriya alfaviti, Sug`d va Xorazm yozuvi rivojlangan. Surh Kotalda (Afg`oniston) Yunon alfavitidagi Kushon yozuvi topilgan. Termizdagi Qoratepa, Fayoztepadan Hindlarning Brahma, Kxoratxa yozuvlaridagi bitiklar topildi. Kampirtepadan esa (Surxandaryo) Markaziy Osiyodagi eng qadimiy, noyob qo`lyozma (er.avv. II asrning I yarmi) papirusdagi bitik topildi.

Xalchayon (er.avv. I-eramizning I asrlari) Kushon saltanatining ilk yodgorliklaridan biri bo`lib, undan topilgan asarlarda ko`proq hukmdor va a'yonlar tasvirlangan. Haykal obrazlari ifodali bo`lib, unda tasvirlanayotgan obrazlarning individual belgilari ko`zga tashlanib turadi. Unda tantanavor ruhdagi qabul marosimi va jang lavhalari aks ettirilgan. Markazda podsho xonadoni va uning ilohiy homiylari-Afina, Gerakl, Niki obrazlari gavdalangan. Dalvarzintepadan topilgan mashhur «shahzodaning boshi» hamda tuproq qal'a haykallarida ellinistik an'analarning kuchli ta'siri seziladi. Podsholar zalida esa erkak va ayollarning monumental figuralari qo`yilgan. Podsho nayza tutgan jangchilar davrasida, ziyofat va bug`ilar ovi ko`rinishida tasvirlangan.

Dalvarzintepadagi ikki ibodatxonadan topilgan tasviriy san'at namunalarida qadim ibodat timsoli buyuk ona xudo obrazi ifodalangan. Ko`hna Termizdagi Qoratepa, Fayoztepadagi ehromlarni Buddaga daxldor yodgorliklar bezab turibdi. Shunday qilib Qadimgi Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyoti mobaynida o`ziga xos an'ana va yutuqlarni saqlabgina qolmasdan, ulkan mintaqada umumiy qadriyatlarni vujudga kelishi, Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqa munosabatlarining rivojlantirishga imkoniyat yaratib, madaniy yuksalishni yangi sifat bosqichiga ko`tardi. Qadimgi Markaziy Osiyo madaniyatining rivoj nuqtasi bo`lgan Kushonlar madaniyati hududiy va mazmun jihatidan alahida olingan madaniyat emas edi. U o`zida Sharq, Markaziy Osiyo, Antik dunyo va Hind madaniyatlari yutuqlarini o`zida mujassam etib, Sharq va Jahon xalqlari madaniyatini yana ravnaq topishiga asos bo`ldi.

Markaziy Osiyo antik badiiy madaniyatning muhim uslubiy xususiyatini san'atlar sintezi tashkil etgan: haykaltaroshlik, tasviriy san'at, naqsh bunda umumiy me'morchilik bilan yaxlitda namoyon bo'ladi. Bu sintez Kushonlar davrida ham mahalliy madaniyatda o'z ta'sirini saqlab qoldi. Kushonlar davri Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyatining chatishishi natijasida bu erda o'ziga xos yangi madaniyat shakllandi, shu bilan birga keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qildi. Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Ellin madaniyatining an'analari Kushonlar davrida ijodiy jihatdan qayta shakllandi va yangicha talqin qilina boshlandi.

Termiz yaqinidagi Ayritomdan topilgan ibodatxona tashqi devori peshtoqlariga Sarg'ishroq toshlardan haykallar o'rnatilgan. Bino ichida g'ishtdan ishlangan «Budda» haykalining qoldiqlari topilgan. Haykallarning ishlanish uslubi, kiyimi, musiqa asboblari Hindiston, O'rta Osiyo, Yunoniston madaniyatlarining o'zaro ta'sirida rivojlanganligidan dalolat beradi. Buni Xorazm, Farg'ona, Sug'd, Parfiya timsolida ham ko'rish mumkin. Kushonlar davrida shaharlar qurilishi keng rivojlangan. Shaharlar qalin devorlar bilan o'ralib, ichida ark va arkning atrofida har xil binolar qad ko'targan Sopol idishlar nihoyatda nafis va jarangdorligi hamda xilmaxilligi bilan ajralib turgan. Amaliy san'at keng taraqqiy etgan. Zeb-ziynat buyumlari mehnat va jang qurollari yasash, mato to'qish rivojlangan. Umuman, kushonlar davri madaniyati Markaziy Osiyoning eng cho'qqisi hisoblanib, ma'lum hudud va zamon bilan chegaralanmaydi. Bu madaniyat Old Osiyo, Markaziy Osiyo, Antik va Hind madaniyatlari yutuqlarini o'zida jamlab, qo'llab Sharq xalqlarining o'rta asrdagi madaniyati rivoji uchun asos bo'ldi va jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Eramizning I ming yilliklar o'lkamiz hayotida eng muhim bo'lgan 2 yirik hodisa Turk hoqonligining paydo bo'lishi va islom dinining tarqalishi sodir bo'ldi. Ularning birinchisi, turk xalqlarining madaniyati va sivilizatsiyasiga asos solgan bo'lsa, ikkinchisi, turk xalqlarining butun musulmon xalqlari bilan e'tiqodiy birlashishiga, ular o'rtasida madaniy aloqalarning mustaxkamlanishiga yo'l ochib berdi. Turk madaniyati quruq erda paydo bo'lmadi, albatta. O'rta Osiyo xalqlari o'z yozuvlari, diniy-e'tiqodiy qarashlari va xo'jalik yuritish madaniyatiga ega ediki, turk xoqonlari ularni xisobga olishga majbur bo'ldilar. Natijada o'lkadagi 15 ta davlatda boshqarish tizimlari saqlanib qoldi.

Eng muhimi shundaki, «Qadimgi turklar xunlar davrida hali rivoj topmagan, ammo III-V asrlarda unitilayotgan dasht madaniyati negizlarini hayotga juda keng tarzda tadbiq etdilar. Ammo ular O'rta Er dengizi madaniyati bilan Uzoq Sharq madaniyati o'rtasida aloqalar o'rnatilishiga vositalik qiladilar». (L.N.Gumilev Drevnie tyurki. M.1993 y.) Xuddi shuningdek. L.N.Gumilevning yozishicha, ular, bu madaniyatni Xitoy, Eron, Vizantiya va Xindiston madaniyatiga qarshi qo'yish mumkin deb hisoblaganlar.

O'rta Osiyo Turk xoqonligiga qaram bo'lishsalar-da, undagi davlatlar o'rtasidagi tinmay nizolar davom etdi. Aynan mana shu vaziyat VIII asrda O'rta Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishiga yordam beradi. O'tmish ajdodlarimizning bizgacha etib kelgan madaniy merosi namunalari ularning o'z zamonasida to'laqonli madaniy hayot

kechirganliklaridan, jahon sivilizatsiyasi xazinasidan munosib ulush qo'sha olganliklaridan dalolat beradi.

G'oyat boy ilmiy madaniy qimmatga molik bo'lgan ko'hna Urxun Enisey yozuvi bilan mashhur bo'lgan va necha ming yillar davomida o'troq hayot kechirib, xilma-xil ixtirolar, kashfiyotlarni yaratgan, ipak yo'li orqali tutashib, dunyoning etti iqlimiga o'z zebu ziynat matolariyu qimmatbaxo madanlari bilan tanilgan O'rta Osiyo xalqi feodal o'rta asrchiligi sharoitida ham madaniy jihatdan ancha yuksalish bosqichiga ko'tarilgan edi. VI-VII asrlarda Samarqand, Buxoro, Xorazm (Fil-qiyot) kabi shaharlar obodonlashdi. Yangi sun'iy sug'orish inshootlari, kanal va ariqlar o'tqazilib, sug'orish ishlari avj oldirib yuborildi. Savdo aloqalari rivojlandi. Savdo karvonlari qo'nadigan ko'plab karvonsaroylar, rabotlar savdo-sotiq rastalari paydo bo'ldi. Shahar va qishloqlarda hunarmandchilik ishlari rivoj topdi. Paxta va ipak tolalaridan turli xil matolar to'qish, oltin va kumushlardan nafis zeb-ziynat mollari ishlab chiqarish, harbiy qurol-aslahalar yasash keng yo'lga qo'yildi. Me'morchilik ancha rivojlandi. Buni Buxoroda 40 chaqirim narida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan Varaxsha shahri harobalari timsolida ko'rish mumkin. Topilgan bir necha katta va kichik zallardan iborat qasr devorlari va shiftlariga naqshli suratlar, dekorativ tasvirlar yuksak mahorat bilan ishlanganligining guvoxi bo'lamiz. Ularda oq fillar ustida turgan chavandozlarning o'zaro olishuvi, chopayotgan yirtqich hayvonlar ajabtovur parrandalar hamda tulpor otlarda qurollangan holda olg'a ildamlayotgan suvoriylar tasviri g'oyatda jonli tarzda ifodalangan.

Samarqanddan uncha uzoq bo'lmagan Panjikent (Tojikiston)dan topilgan devorlarga ishlangan rassomchilik namunalari ham o'sha davr madaniy taraqqiyotining yuqori darajada bo'lganligiga guvohlik beradi.

O'zbek arxeologlari ochgan yana bir noyob tarixiy topilma—bu Samarqand atrofidagi Afrosiyob bo'lib, undagi shahar topilmalari, ko'rgazmalari ajoyibligi bilan kishi e'tiborini tortadi. Podshoning katta hashamdor saroyi xonalari, ularning devorlariga o'yib solingan bezaklar, lavhalar, bitilgan so'g'd yozuvlari feodal O'rta Osiyoning o'sha davrdagi yuksak madaniy taraqqiyoti bosqichidan dalolatdir.

1957 yilda Farg'ona vodiysidagi Quva shahrida budda ibodatxonasining qoldiqlari topildi, arxitektura va haykaltaroshlikka oid ajoyib namunalar ham qazib olindi. Ibodatxona hujjatlari shundan dalolat beradiki, O'rta Osiyoning boshqa hududlarida 7 asrlarda zardushtiylik dini hukm surgan bir kezda Farg'ona tuprog'ida budda dini ko'proq o'rin egallagan ekan.

1955 yilda Surxondaryoning Bolaliktepa degan joyidan topilgan qadimgi budda ibodatxonasi qoldiqlari hamda tasviriy san'atning nodir namunalari, devorlarga o'yib ishlangan o'ymakorlik namunalari feodal madaniyatining O'rta Osiyoda yuksak darajada rivoj topganligidan dalolat beradi. Eftalitlar davridan so'ng buddizm va u bilan bog'liq bo'lgan diniy urf-odatlar ham yo'qola boradi. Arablar iste'losiga qadar So'g'd, Xorazm, Farg'ona va Ettisuv hududlarida birmuncha o'zgargan shaklda zardushtiylik, ya'ni otashparastlik dini ko'proq tarqalgan edi. Buxoro Samarqand singari shaharlarda hatto «olov uylari» mavjud bo'lib, ularda doimo mangu muqaddas olov saqlangan. Odamlar istiqomat qilgan xonadonlarda inson qiyofasiga taqlid qilingan sig'inadigan katta-katta haykalchalar bo'lgan. Odamlar bu narsa ularga baxt-

saodat keltirib, ayni choqda ularni har xil ins-jinslardan, balo-qazolardan asraydi, deb tasavvur yuritganlar. Buxoroda masalan, har yili bir marotaba maxsus bozor tashkil qililib, unda odamlar sig`inadigan muqaddas haykalchalar harid qilingan.

Aholi o`rtasida har xil baxtsizliklardan, musibatlardan va yomon ko`zlardan saqlaydigan «chiltonlar»ga e'tiqod qilish ham keng odat bo`lgan. Xorazmda suv xudosi «Xubbi» ga sig`inganlar. Farg`ona vodiysida esa bu hol «er xubbi» nomi bilan ma'lum bo`lgan. Hozirda ham bu vodiya shu ko`hna tushunchaga e'tiqod ayrim keksa avlod kishilari o`rtasida uchraydi Muhammad Narshaxiy, Abu Rayxon Beruniy ma'lumotlariga ko`ra, arablar iste'losiga qadar O`rta Osiyo xalqlari ijtimoiy va madaniy hayotning turli sohalari bo`yicha g`oyat katta yutuq va muvaffaqiyatlarga ega bo`lganlarki, bosqinchi saxroyi arablar ham bunga havas bilan qaraganlar.

O`rta Osiyoda sug`orish ishlarini, ekish texnologiyasini, kanallar sug`orish inshootlari qurilishi texnikasini yaxshi biladigan va ularni ilmiy negizda tashkil eta oladigan ma'lumotli, bilimdon kishilar etarli darajada bo`lgan. Bu erda qadimdan qishloq xo`jaligi jadvalini bilganlar. Manbalarga ko`ra O`rta Osiyoda bolani besh yoshga kirishi bilan yozuv va hisobni bilishga o`rgatganlar, balog`at yoshiga etganda esa uni savdo–sotiq qilish sirlarini o`rgatish maqsadida olis mamlakatlarga yuborganlar.

Samarqand yaqinidagi Mug`tepa hamda Xorazmdagi Tuproqqal'a degan joylardan topilgan hujjatlar va shuningdek So`g`d va Xorazm yozuvlari bitilgan tangalardan ana shu narsaga to`la ishonch hosil qilish mumkinki, So`g`d Xorazm va Baqtriya davlatlarida mahalliy yozuvlar arablar iste'losiga qadar ham mavjud bo`lgan.

O`zbek olimlari M.Isoqov, N.Rahmonov, Q.Sodiqovlarning tekshiruv ishlari shunga guvohlik beradiki, xususan sug`d tangalari zarbi qariyb 800 yilni o`z ichiga oladi (milodiy I–VIII asrlar). Masalan, qadimgi jamoachi otliq surati tushirilgan mayda kumush tangachalar, buxorxudotlar tangalari, V-VIII asrda sug`d podsholari va mahalliy hokimlar tangalari, Choch, Farg`ona vodiylarining so`g`d yozuvi bilan zarb etilgan tangalari (V-VIII asrlar), sharqiy o`lkalarda, jumladan, Turk hoqonligi, turgashlar sulolasi tangalari (VII-VIII asrlar) va boshqalar tanga sathidagi yozuvlarning tadrijiy takomilini ham yaqqol aks ettirgan.

Bu yozuvlarni sinchiklab paleografik tahlil qilish yozuv taraqqiyotinigina emas, balki ijtimoiy tarixni ham chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Qozoq olimi Z.Axmedov feodal davri madaniyati va yozma adabiyoti xususida aniq ma'lumotlarga tayanib shunday yozadi. "Shubhasiz, O`rta Osiyo va Qozog`iston territoriyasida yashagan qabilalar va xalqlar VI-VII asrlarda yozuvga ega edi, xalq og`zaki ijodi rivojlangan, epik an'ana mavjud edi, shuningdek badiiyat nuqtai nazaridan etarli shakllangan turkiy til va lahjalari, boy poetik uslub, nutqning ritmik va tovush ifodaliligi haqida ham gapirish o`rinli. Yuqoridagi ma'lumotlariga asoslangan holda O`rta Osiyoda ilk feodalizm tuzimi qaror topib, mustahkamlanib borgan, madaniy hayot ham o`sib, ravnaq topgan degan xulosa chiqarishimiz mumkin.

Bu o`lkada yashagan turk, massaget, xorazmlik singari xalqlar, elatlar o`ziga xos iste'dod, qobiliyat va g`ayrat-shijoat bilan faoliyat ko`rsatib dastlabki feodal munosabatlari shakllanib borayotgan sinfiy tabaqalanish va ziddiyatli jarayon kuchayib borayotgan kezlarda ham ijtimoiy madaniy hayotning yuksalishiga salmoqli

hissa qo`shishga muvaffaq bo`lganlar. Bu borada o`tmish ajdodlarimiz yaratgan va qoldirib ketgan boy tarixiy merosni yanada o`rganib va ularni hali bizga ma'lum bo`lmagan namunalarini ham topish hozirgi avlodlarning moddiy-ma'naviy mulkiga aylantirish har birimizning zimmamizdagi sharafli vazifalardan biridir.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

- 1.O`zbekiston hududidagi qanday qadimiy dinlarni va ularning marosimlarini bilasiz?
- 2.Qadimgi Sharq madaniyati vujudga kelishining shart-sharoitlari?
- 3.Qadimgi Sharq va G`arb madaniyatlari rivojlanishidagi o`ziga xoslik.
- 4.Qadimgi sharqliklarning dunyoqarashi va tafakkuridagi farqli jihatlari?
- 5.Qadimgi Sharq va antik davrda din va davlatning o`zaro munosabati?
- 6.Qadimgi Sharqning asosiy manzilgohi Misr madaniyatini tavsiflang?
- 7.Qadimgi Mesopatamiyani asosiy madaniy yodgorliklarini ayting?
- 8.Qadimgi Xitoy madaniyatining qanday namunalarini bilasiz?
- 9.An'anaviy madaniyatda udumlar, mifologiya va ilmning o`rni.
- 10.Antik dunyo madaniyatining jahon madaniyati tarixida tutgan o`rni.
- 1.Markaziy Osiyo madaniyatining tarixan o`ziga xosligi nimada?
- 2.Markaziy Osiyo madaniyatining karakterli belgilarini sanang?
- 3.Qadimgi Baqtriya, Xorazm, Sug`d davlatlari madaniyatini tavsiflang?
- 4.Markaziy Osiyo madaniyati rivojida Zardushtiylik va «Avesto»ning o`rni.
- 5.Markaziy Osiyo madaniyatlarining o`zaro bir-biriga ta'sir jarayonini izohlang?
- 6.O`zbekiston hududida qadimgi davrga oid qanday noyob yodgorliklar topilgan.
- 7.Qadimgi davrda yozuv ilm va fanni rivojlanganligini ko`rsatuvchi qanday ma'lumotlar mavjud?

Amaliy mashg`ulotlarining ta'lim texnologiyasi

4-mavzu : ***Qadimgi davr madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati***

1.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|--|--|
| Mashg`ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-25 gacha |
| Mashg`ulot shakli | Kirish-ahborotli ma`ruza. |
| Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida. Misrda ilk hayot izlari. Qadimgi Misrda falsafiy maktablarning shakllanishi. Misr sivilizatsiyasi – eng uzoq davom etgan sivilizatsiyadir. Qadimgi Yunoniston | Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida. Misrda ilk hayot izlari. Misrliklar-ilk kalendar ijodkorlari. Misrning “qizil” va “qora” mamlakatga bo`linishi va buning sabablari. Misr piramidalari – dunyoning etti mo`jizasidan biri. Qadimgi Misrda falsafiy maktablarning shakllanishi. Misr sivilizatsiyasi – eng uzoq davom etgan sivilizatsiyadir. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davr Xitoy — sivilizatsiya ilk bor paydo bo`lgan to`rt mamlakatning biri. |

| | |
|--|--|
| <p>madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davri. Vizantiya madaniyati. Vizantiya davlati hududida chorvachilik, qishloq xo'jaligi. O'zbekistonning azaliy o'troq aholisi ijodi – me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at. O'zbekistonning janubiy hududlarida qadimgi davr me'morchiligi va san'ati. Qadimiy yozma manbalarda O'rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to'g'risidagi ma'lumotlar. Milodiy I asrga oid Xan yilnomasida “Avesto” davri madaniyati. Zardushtiylik ta'limoti. Xitoy sayyohining hozirgi O'zbekiston to'g'risidagi ma'lumotlari. Buddaviylik madaniyati</p> | <p>O'rta Osiyo hududlarida ibtidoiy hayot tarzi. Farg'onaning tosh davriga oid madaniy yodgorliklari. Qovunchi madaniyati. O'zbekistonning azaliy o'troq aholisi ijodi –me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at. O'zbekistonning janubiy hududlarida qadimgi davr me'morchiligi va san'ati. Xorazm, Baqtriyadagi inshootlarda foydalanilgan kvadrat shakldagi g'ishtning qurilish materiallari takomillashuviga xizmat qilgani va me'morchilikning yangi bosqichga ko'tarilgani. Harbiy me'morchilik. Qo'yqirilgan qal'adagi inshoot (mil. av. III asr). Qo'yqirilgan qal'adagi dafn odatlari. Qadimiy yozma manbalarda O'rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to'g'risidagi ma'lumotlar. Milodiy I asrga oid Xan yilnomasida “Avesto” davri madaniyati. Zardushtiylik ta'limoti. Xitoy sayyohining hozirgi O'zbekiston to'g'risidagi ma'lumotlari. Buddaviylik madaniyati.</p> |
| <p>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</p> | <p>Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida. Qadimgi Misrda falsafiy maktablarning shakllanishi. Misr sivilizatsiyasi – eng uzoq davom etgan sivilizatsiyadir. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davr Xitoy — sivilizatsiya ilk bor paydo bo'lgan to'rt mamlakatning biri. haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. O'rta Osiyo hududlarida ibtidoiy hayot tarzi. Farg'onaning tosh davriga oid madaniy yodgorliklari. Qovunchi madaniyati. O'zbekistonning azaliy o'troq aholisi ijodi –me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at. O'zbekistonning janubiy hududlarida qadimgi davr me'morchiligi va san'ati. Xorazm, Baqtriyadagi inshootlarda foydalanilgan kvadrat shakldagi g'ishtning qurilish materiallari takomillashuviga xizmat qilgani va me'morchilikning yangi bosqichga ko'tarilgani. haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.</p> |
| <p>Ta'lim berish usullari</p> | <p>Ko'rgazmali, ma'ruza, suhbat “Ari uyasi” usuli</p> |

| | |
|--------------------------|---|
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Myetodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

***Qadimgi davr madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati
amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi***

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim beruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|--|---|--|
| Tayyorlov bosqishi (5 daqiqa) | 10. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 11. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 12. Davomatni nazorat qiladi | |
| 1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqishi (10 daqiqa) | 1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Talabalarni kishik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yisha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timyedialardan foydalanadi 4. 5. Mavzular asosida byerilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va hulosalaydi, faol ishtirokshi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kishik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 6 yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi hulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

**MADANIYATSHUNOSLIK FANINING BOSHQA FANLAR BILAN
ALQADORLIGI (INTEGRASIYASI)**

Qadimgi davr madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati mavzusi O'zbekiston tarixi, falsafa, sotsiologiya, etnografiya fanlari mavzulari bilan bog'liq.

TALABANING BAZIS BILIMINI BAHOLASH UCHUN SAVOLLAR

Misr sivilizatsiyasi – Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning vatani sifatida. Misrda ilk hayot izlari.

Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyatining besh davri.

Qadimiy yozma manbalarda O`rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to`g`risidagi ma'lumotlar.

Buddaviylik madaniyati. Buddaviylikning Baqtriya davlatiga kirib kelishi.

O`zbekistonning azaliy o`troq aholisi ijodi –me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at.

O`zbekistonning janubiy hududlarida qadimgi davr me'morchiligi va san'ati.

Qadimiy yozma manbalarda O`rta Osiyoning turli hududlaridagi me'morchilik yodgorliklari to`g`risidagi ma'lumotlar.

Milodiy I asrga oid Xan yilnomasida “Avesto” davri madaniyati. Zardushtiylk ta'limoti.

Xitoy sayyohining hozirgi O`zbekiston to`g`risidagi ma'lumotlari.

Buddaviylik madaniyati

5-mavzu *XVI – XIX asr birinchi yarmida mintaqaxalqlari madaniyati*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|--|--|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-80 gasha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-axborotli ma'ruza. |
| Movarounnahrda <i>gi</i> ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. XVI asrda Movarounnahrda <i>gi</i> adabiy hayot. Tarixiy asarlar. Qo`qon xonligidagi adabiy hayot. Mashrab, Xuvaydo, Abdulkarim Fazliy Namangoniylar ijodi. Badiiy madaniyat. Uning har bir xonlikda o`ziga xos xususiyati. Buxoro shashmaqomi. | Movarounnahrda <i>gi</i> ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. Jo`ybor xonlari va ularning mamlakat ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi roli. Bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur. Tabiiy fanlar. Matematika, astronomiya, geografiyaning rivojlanishi. Tibbiyot. XVI asrda Movarounnahrda <i>gi</i> adabiy hayot. Tarixiy asarlar. She'riyat. Shayboniy hukumdorlarining she'riyatga munosabati. Xiva xonligida adabiy hayot. Abdulg`ozi Bahodirxon. Uning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlari, bu asarlarning taxlili va madaniyat tarixidagi o`rni. Dostonchilik. Munis va Ogohiyning tarixiy asarlari. Qo`qon xonligidagi adabiy hayot. XVII-XIX asr o`rtalarida Buxorodagi adabiy hayot. Badiiy madaniyat. Uning har bir xonlikda o`ziga xos xususiyati. Badiiy madaniyat markazlari. Me'morchilik. Amaliy bezak san'ati. Uning taraqqiyotidagi o`ziga xosliklar. Minatyura san'atining rivojlanishi. Tarixiy asarlarga ishlangan minatyuralar. Kitobat san'ati. Musiqa. O`tmish an'analariga sadoqat, vorisiylik. Raqs san'ati va uning hududiy xususiyatlari. Buxoro shashmaqomi. |
| O`quv mashg'ulotning maqsadi: | Movarounnahrda <i>gi</i> ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. Jo`ybor xonlari va ularning mamlakat ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi roli. Bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur. Tabiiy fanlar. XVI asrda Movarounnahrda <i>gi</i> adabiy hayot. Tarixiy asarlar. She'riyat. Shayboniy hukumdorlarining she'riyatga munosabati. Xiva xonligida adabiy hayot. Musiqa. O`tmish an'analariga sadoqat, vorisiylik. Darvesh Ali Changiy |

| | |
|--------------------------|--|
| | ijodi. Teatr. Masxarabozlar teatri, qiziqchilar teatri, qo`g`irchoq teatri va uning namoyandalari. Raqs san'ati va uning hududiy xususiyatlari. Buxoro shashmaqomi.haqida tasavvurga ega bo`lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Kurgazmali,ma'ruza,suhbat |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy,jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O`quv qo`llanma, darslik, ma'ruza matni, kom`pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og`zaki nazorat:savol-javob. |

XVI – XIX asr birinchi yarmida mintaqaxalqlari madaniyati
ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|----------------------------------|---|--|
| Tayyorgarlik bosqishi (5 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi ushunchi taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 1. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yisha savollar beradi. | Tinglaydilar Talabalar byerilgan savollarga javob beradilar |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar Tinglaydilar |
| 5- Yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Mavzu bayoni :

REJA:

- 1. Xonliklar va Rossiya istilosi davrida o`zbek xalqi madaniyati.**
- 2. Mustabid Shuro davlati davrida O`zbekiston madaniyati.**
- 3."Sovet madaniyati", "Shaklan milliy mazmunan sotsialistik, ruhan baynal minal madaniyat"larning asossizligi.**

Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri XVI-XVIII asrlarda mamlakat feodalizmining murakkab jarayonlarni boshidan kechirdi. XVI asrda hunarmandchilikning rivojlanishi tranzit va ichki savdoning kengayishiga yordam berdi. Bu davrda hunarmandchilikning 60 dan ortiq turi mavjud edi. Markaziy Osiyo, Hindiston, Eron, Rossiya, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqada bo`lgan.

XV-XVI asrlarda Movarounnahrda ilm-fan ancha rivojlandi. Adabiyot, tarix, me'morchilik va tasviriy san'at o'ziga xos rivojlanish bosqichini bosib o'tdi. Hasan Buxoriy Nisoriy (1566)ning "Muzakkir ul-Ahbob" va Mutribiy(1604)ning "Taskirattush-shuaro" nomli adabiyot antologiyasi buning yaqqol ifodasidir. Bu qomusiy antologiyada 100 dan ziyod adabiyot arboblarning ijodlari va tarjimai hollari o'rin olgan. Mamlakatda hunar va savdo ishlarining rivojlanishi ilm ahlining ijtimoiy doirasi kengayishiga ta'sir ko'rsatdi.

Shayboniyilar va Ashtarxoniyilar davrining o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar o'zbek tilida yozildi. Sharofiddin Ali Yazdiyning tarixiy asarlari xususan "Zafarnoma"si Ulug'bekka bag'ishlangan "Muntahabiy Jome va Tavorixi Shohiy" degan asarlari o'zbek tiliga o'girildi.

Shayboniyilar davrida fanning qator tarmoqlari rivoj topdi. 1693 yilda Amin Ahmad Roziy "Haft iqlim" – Etti iqlim degan jo'g'rofiy-biologiyaga oid lug'at tuzadi. Unga Mutribiyning dunyo haritasi ilova qilinadi. 1541 yilda Muhammad Xusayn as-Samarqandiy tibbiyot va farmakologiyaga oid asar yozadi. U ko'z tabibi shoh Ali ibn Sulaymon Navro'z Ahmadjon huzurida ishlab, kasalliklar haqida "Tabiblik dasturul amali" risolasini bitadi. Musiqa ilmiga oid Buxorolik Navkabiyning asari ham XVI asrda bu san'at rivojidan darak beradi. Bundan tashqari hattotlik san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Hirviy, Mahmud Ali Shiboqiy kabi husni xat ustalari ham ijod qilgan.

1586 yilda Darvesh Muhammad Buxoriy kollegrafiya san'ati nazariyasiga oid asar yozadi. Shuningdek ko'plab qo'lyozmalar miniatyuralar va suratlar bilan bezatildi. Tarixiy va adabiy asarlardan "Fatxnoma" "Tarixi Abulxayrxoniy", Navoiyning asarlari shular jumlasidandir. "Miniatyuralar"da Markaziy Osiyo moddiy madaniyati aks ettiriladi va rassomlar voqeilikni realistik tasvirlashga intiladi. Jaloliddin Yusuf, Keldi Muhammad va boshqalar rassomchilik san'atiga ulkan hissa qo'shadi.

Xonliklar davrida qurilish inshootlari turlari yanada takomillashadi, ko'plab jamoat binolari (karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, hammom, tip va boshqa savdo rastalari) quriladi. Monumental binolarning tarixi, qiyofasi o'zgardi, hunarmandlar uyushmalari vujudga keldi. Buxoro shahri balandligi 10 metrli devor bilan o'ralib, shahar darvozalari qurildi. Yirik binolar qurishda (Mir Arab madrasasi "Xo'ja Zayniddin Masjid-Xonaqosi") xalq me'morchiligi an'alaridan foydalanildi. Shahar tashqarisida ham monumental binolar (Chor Bakr) qurildi.

Buxoro va Toshkentdagi Ko'kaltosh madrasalari qurildi.

Tarixnavislik rivojlandi: Muhammad Yoqubning "Gulshan ul-mulk", Muhammad Mir Olimning "Tarixi Amir Nasrullo", Mullo Ibodullo va Mullo Muhammad Sharifning "Tarixi Amir Haydar", Muhammad Hakimjon To'raning "Muntahabut Tavorix" kabi asarlari diqqatga sazavordir.

Qo'qon adabiyoti muhiti ko'plab shoir va shoirlar ijodi bilan boyidi. Qo'qon xoni Umarxonning o'zi "Amiriy" taxallusi bilan o'zbek tilida g'azallar yozgan. Uning rafiqasi Mohlaroyim "Nodira" taxallusi bilan g'azallar yozgan. U "Maknuna", "Komila" taxalluslari bilan ham she'rlar yozgan. Eri Umarxon vafot etgach, Nodira davlat ishlariga ham aralashib, mamlakat xo'jaligini yaxshilash, madaniy hayotni

jonlantirish bo'yicha muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Qo'qonda madrasalar, karvonsaroylar, rastalar, yo'llar qurdirdi. Umarxonning topshirig'i bilan Fazliy va Mushrif tomonidan "Majmuat-ush-Shuaro" to'plami tuziladi.

Bu davrda Qo'qonda Xudoyorxonning saroy arki, Xivada turli obidalar qurildi.

XVII asrda Turdi Farog'iy yashab ijod qildi. XVIII asr oxirida Qo'qonda tug'ilgan shoir Maxmur(1844 vafot etgan) og'ir sharoitda yashab, saroyda askarlik qilgan. Uning she'rlari ichida "Hapalak" hajviy asari mushhurdir. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Farg'onada Muhammad Sharif – Gulxaniy taxallusi bilan tanilib, ajoyib lirik she'rlar, masallar yozdi. Uning "Zarbulmasal" asari qahramonlari qushlar bo'lib, shoir ular orqali saroy agentlarining kirdikorlarini fosh etadi. Yana bir qo'qonlik shoir G'oziy ham o'z asarlarida zodagonlar va ruhoniylarni fosh qiladi.

XIX asrning 30 yillarida Shahrisabzda shoir Xiromiy hind, fors adabiyotida mashhur bo'lgan "Chor darvesh" va "To'tinoma" hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Xalq dostonlari "Yusuf va Zulayxo", "Tohir va Zuxro", "Bo'z o'g'lon" va boshqa dostonlar vujudga keldi. Shahar maydonlarida qiziqchi va qo'g'irchoqbozlar, o'yinchi san'atkorlar xalq hayotidan hikoya qiluvchi lavhalarni o'ynab, tomosha ko'rsatar, boylar va saroy ahlini ochko'zligini fosh etib ustidan kular edi. Bu davrda Markaziy Osiyoda ikki turdagi maktab mavjud edi: quyisi – maktab va oliy madrasa. Boshlang'ich maktabda savod o'rgatilar va diniy matnlar yodlanar edi. Madrasada ilohiyot shuningdek arab tili grammatikasi, notiqlik san'ati, al-jabr va handasa asoslari o'rgatilgan. Bundan tashqari Xofiz, Bedil, Navoiy asarlari o'qitilgan. Bu davrdagi me'morchilik yodgorliklar hajmi va pardozining jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Samarqanddagi Registon maydoni shu davrda shakllandi. Sherdor madrasasining old peshtoqida rangin koshinlar bilan chekilgan bir juft sher tasvirlangan. Tilla Kori madrasasining nomi "Tilla bilan pardozlangan" degan ma'noni beradi. Devorlardagi ajoyib naqshu nigorlar va ichki devorlardagi to'kis tilla bezaklar juda nafis ishlangan.

XVIII asr oxirlaridan Xiva xonligida ta'mirlash va shaharsozlik ishlari avj oladi. Olloqulixon madrasasi, Rahmonquli Inoq saroyi hajm jihatidan ancha mahobatli qurildi.

XIX asr boshlarida xonliklarning o'zaro urushlari xo'jalik va madaniy hayotni izdan chiqardi. Bu hol Chor Rossiyasining xonliklarni bosib olishini osonlashtirdi. Rossiya Markaziy Osiyoni bosib olgach, mahalliy aholi rus va Rossiyaning boshqa xalqlari bilan aloqa o'rnatishga majbur bo'ldi. Sanoat va qishloq xo'jaligi texnikalari kirib kela boshladi. O'z o'rnida Rossiya va Evropa madaniyati elementlari kirib keldi. Rus-tuzem maktablari ochildi. Tipografiya va litografiyaning paydo bo'lishi madaniy hayotda katta voqea bo'ldi. Avval rus tilida, so'ngra mahalliy tillarda gazeta, jurnal va kitoblar chop etila boshladi.

XIX asrning 80-yillarida A.S. Pushkin va I.A. Krilov asarlari ilk bor o'zbekchaga tarjima qilindi. 1880 yilda Toshkentda jamoat kutubxonasi ochildi. 1870 yilda rasatxona va kimyogarlik tajribaxonasiga asos solindi. Ilmiy jamiyatlar tuzildi, tarixiy va arxeologiya muzeylari ochildi.

XIX asr Turkiston adabiyoti ikki yo'nalishda rivojlandi. Shoxlik va saroy muhitini kuylovchi adabiyot, hamda zo'ravonlikka qarshi norozilikni va qoloqlikni tugatishga qaratilgan taraqqiyparvar xalq adabiyoti Ismoil Gasparali jadidchilik

harakatining butun turk dunyosidagi “g`oyaviy otasi” ga aylandi. Ular dunyoviy fanlarni o`qitish masalasini ko`tardi. Ismoil Gasparalining g`oyalarini yoyishda «tarjimon» gazetasining xizmati juda katta bo`ldi. 1888 yilda uning “Rahbari muallimin” yoki “muallimlarga yo`ldosh” kitobining nashrdan chiqishi muhim voqea bo`ldi. U Buxoro, Turkistonga kelib, jadid maktablarini ochishga urinadi. 1898 yilda Qo`qonda Salohiddin domla 2-jadid maktabiga asos soldi. Shu yili To`qmoqda ham shu tipdagi maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903 yilda Turkiston o`lkasida 102 ta boshlang`ich va 2 ta o`rta jadid maktablari bor edi. Ularning boshida M.Behbudiy, A.Avloniy, S.Ayniy, A.Fitrat, Munavvar qori, Boboohun Salimov va boshqa ko`plab taraqqiyparvar insonlar turar edilar. Ular doimo quvg`in, qamoq, surgun kabi xavf-xatarlar boshida charx urib turgan holda ish olib bordilar. Toshkent jadidlarining otasi sifatida ziyolilar orasida katta obro`-e'tibor qozongan Munavvar qori Abdurashidxonovning xizmatlari juda katta bo`ldi.

XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg`ona vodiysi shaharlarida o`nlab «usuli jadid» maktablari ochildi. Jadidlar maktab va ma`rifatdan boshlangan faoliyatini siyosiy qiyofa kasb etgunga qadar davom qildirib, Turkistonda milliy mustaqil davlat barpo etishga urinish bilan eng yuqori pag`onaga ko`tarildilar.

Turkistonda ma`rifatparvarlik harakati ikki bosqichda kechdi. Birinchi davrda feodal tuzum va tartiblarini tanqid qilish, madaniy yangiliklarini egallash, Ovropaning turli tillarini o`rganishni targ`ib qilish, yangicha ilm-fanning ahamiyatini ko`tarish kabi masalalar olg`a surildi. Ahmad Donish, Avaz O`tar, Furqat, Muqumiy, Zavqiy singari ma`rifatparvarlar etishib chiqdilar.

Ikkinchi bosqichda ma`rifatchilikdan jadidizm o`sib chiqdiki, u endilikda yangicha ta`lim-tarbiya yangi usul maktablarini yo`lga qo`yish, dunyoviy ilmlarni har tomonlama egallash maorif madaniyatda yangi tartiblarni o`rganish, yangi ijtimoiy-siyosiy masalalarni qo`yish darajasiga ko`tarildi. Jadidchilik harakati turkiy millatlarning ma`naviy-madaniy ko`tarilishiga turtki bo`ldi. Turkistonda yangi usul maktablar ochilib, ma`rifatparvar, ilg`or pedagoglar bu maktablar uchun turli darsliklar, o`qish kitoblar, qo`llanmalar yarata boshladilar. Bu davrda ko`pgina jurnallar nashr etildi. “Taraqqiyot”, “Oyna”, “Tujjor”, “Sadoyi Turkiston”, “Samarqand” kabi jurnallar shular jumlasidan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda juda murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan birga uning madaniy hayotida ham tez va shiddatli o`zgarishlar yuz berdi.

XVI-XVIII asrlarda mamlakat feodalizmining murakkab jarayonlarini boshidan kechirdi.

-Feodal va siyosiy tarqoqlik kuchaydi. Shaharlar xuvullab qoldi. Soliqlar natijasida aholi xonavayron bo`ldi. Samarqandda Sherdor madrasasi “Tillaqoriy masjidi” qurildi. Buxoroda Abdulazizxon madrasasi qurildi; Minatyura madrasasi maktabi mavjud edi. O`zaro nizolar Buxoro amirligi Quqon va Xiva xonliklari davrida ham tinmadi. Lekin, Xivadagi Hozir Ichan qal`a deb nom olgan me`morial majmua qurildi.

Quqonda adabiy muhit o`zbek adabiyotining rivojlanishiga salmoqli hissa qo`shdi. Maxmur, Gulxaniy, Hoziklarning ijodi badiiy madaniyatning yangi yunalishlarini ochib berdi.

Tashqi savdo (ayniqsa Rossiya bilan) rivojlandi. Rossiyadan sanoat anjomlari keltirildi. "Uy sanoati" ilk toshbosmaxonalar yuzaga keldi. XX asr O`zbekiston madaniy hayotiga alohida bir bosqich hisoblanadi. Rossiya orqali G`arbiy Ovrupa madaniyati kirib keldi. Zamonaviy ishlab chiqarishga asoslangan sanoat ishga tushdi. O`z davrining muhim ahamiyati kasb etgan qishloq xo`jaligi shakllandi; Maorif, ilm-fan, jamoa xujaliklari, san'at, ma'rifiy muassasalarning keng tarmoqlari yuzaga keldiki, ularni inkor etish O`zbekiston xalqlarining mardonavor xizmatlarini mensimaslik bilan barobardir.

1917 yildagi butun Rossiyada yuz bergan fevral va oktyabr inqiloblari uning mustamlakasi bo`lmish Turkistonda ham to`ntarishga olib keldi. 30-yillarda madaniy-oqartuv masalalari tarmog`i kengayishida davom etib bordi. Yirik sanoat korxonalarida madaniyat saroylari bunyod etildi. Qishloq xo`jalik artellari qoshida kolxoz klublari ochildi, rayon madaniyat uylari barpo etildi, kutubxonalar tarmog`i kengayib, ularning kitob fondlari boyib bordi, kinoteatrlar, klub va madaniyat uylari qoshidagi kino qurilmalarning soni ko`paydi, stadion va sport maydonlari jixozlandi. Ko`p miqdorda kitob, gazeta va jurnallar nashr etildi. Radio eshittirishlari aholining kundalik turmushida rasm bo`lib qoldi. Biroq, 30-yillarda qaror topib borgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig`inish mafkurasi respublikaning ijodiy xodimlarini, uning butun ma'naviy hayotini qattiq iskanjaga oldi. 30-yillardagi qatag`onlar milliy madaniyat uchun daxshatli fojeaga aylandi. Iste'dodli adabiyot va san'at arbolari A.Qodiriy, Cho`lpon Fitrat, Shokir Sulaymon, Ziyo Said, Elbek, A.Ayub, U.Nosir, Qosim Sarokin, Muhammad Hasan, Abdusalom Niyoziy, Otajon Hoshimov va boshqalar milliy madaniyat quchog`idan uzib olinib xalq dushmanlari deb e'lon qilindi. Ularning asarlaridan foydalanish necha-necha yillar mobaynida taqiq bo`lib turdi.

Din va dindorlarni taqib qilish xalqning ma'naviy madaniyatiga nihoyat darajada katta zavol etkazdi. Din bilan ateizmning dunyoqarash jihatidan qarama-qarshiligi siyosiy qarama-qarshilik bilan almashtirildi. «Sotsializmga dinga o`rin yo`q, unga din begona» degan qoida ustun bo`lib qoldi. Shunday qilib unga nisbatan salbiy munosabat dinga qarshi zo`rlilik ko`rsatishga aylanib ketdi. Na masjidlar, na cherkovlar, na dindorlar shu qadar keng miqyosdagi ta'qiblarni boshidan kechirmagan edi. O`zbekiston ruhoniylarining asosiy qismi 30-yillarda qamoq lagerlariga jo`natildi. Masjid va madrasalarning deyarli hammasi o`tmishda garchi diniy marosimlarni o`tkazish o`choqlari bo`libgina qolmasdan, xalqning buyuk merosini saqlab, boyitib kelgan madaniyat, ilm, tarbiya, san'at markazlari ham bo`lganiga qaramay berkitib qo`yildi. Sobiq Sovet davrida Respublika madaniy hayotida progressiv va regressiv taraqqiyotning bir-biriga qarama-qarshi tendentsiyalar tobora kuchayib bordi. 70-yillarda 80-yillarning birinchi yarimida xuddi boshqa sohalarda bo`lganidek, O`zbekistonning ma'naviy hayotida ham inqirozga xos vaziyat vujudga keldi shu bilan birga ushbu yillar davomida respublika madaniyati umuman muayyan muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritdi. Madaniyat va maorif muassasalarning tarmog`i

sezilarli darajada kengaydi, bularni moddiy texnika bazasi mustahkamlandi, aholining umumiy bilim darajasi o'sib, ijodiy ziyolilar safi kengayib bordi. Talaygina ajoyib badiy asarlar, teatr va musiqa asarlari yaratildi. Madaniyat va san'atning rivojiga iste'dodli yoshlarning butun bir katta guruhi qo'shildi, milliy o'z-o'zini anglashning o'sish jarayonlari belgi bo'lib qoldi.

Ma'naviy badiiy hodisalarni baholashda sinfiylik, partiyaviylik singari, mafkuraning badiiyat ustidan hukmronligi singari pirintsiplardan foydalanish, adabiyot sotsialistik realizm usulining ustuvorligi madaniyat va san'atning rivojlanishiga to'g'anoq bo'ladigan mexanizmi vujudga keltirdi. Bu printsiplar partiyaning cheklanmagan totalitar hukmronligi tazyiqi ostida zo'rlik bilan amalga oshirib borildi. Ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarning sababi ham xuddi ana shunda. Ma'naviy sohada, bir tomondan, chindan ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berib borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, inqirozga xos vaziyat yuzaga kelib bordi.

Tub milliy manfaatlarini unutib qo'yish, zo'r berib baynalminallashtirish madaniy qurilishda salbiy rol o'ynadi. Partiyaning madaniyat sohasida baynalminal madaniyatni birinchi qo'yadigan milliy madaniyatni rivojlantirish rejasini, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ulardan ma'naviy rivojlanishda foydalanishni orqa o'ringa surib qo'ydi. Madaniyatni mafkuralashtirish axloq-odob, adabiyot, san'atning samarali milliy zamindan ajralib qolishiga sabab bo'ldi, tarixiy xotira, milliy an'analar va odatlarni unutib yuborishga olib bordi. Baynalminal madaniyatning ustivor tarzda rivojlanishi O'zbekiston tub xalqlari tillarining qo'llanish sohasini toraytirib qo'ydi.

Ma'naviy sohani boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mustahkamlanib borishi bilan birgalikda fikr-mulohazalar va baholarning obro'yiga ko'r-ko'rona itoat qilish, ijodiy faoliyatga qo'pol ravishda aralashish, ijodiyotni eng oddiy erlinliklardan ham mahrum qilish rasm bo'lib bordi. Ma'naviy hayotga buyruqbozlik yo'li bilan rahbarlik qilish, mafkuraviy cheklashlar, to'g'anoq mexanizmi, madaniy siyosatdagi ziddiyatlar, ma'naviy soha ehtiyojlarini inkor etish jamiyatning ma'naviy hayotida inqirozli holatlarni yuzaga kelishini belgiladi.

Uzoq va yaqin o'tmishni xayoldan o'tkazib, mohiyatini anglashda 1991 yil 31 avgust kuni – O'zbekiston Respublikasining Mustaqil deb e'lon qilinishi tarixiy voqea bo'ldi. U milliy o'zlikni anglash, tom ma'nodagi milliy yuksalish uchun sharoit yaratdi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

- 1.XVI-XVII asrlarda yaratilgan qanday san'at asarlari va me'morchilik yodgorliklarini bilasiz.
- 2.XVIII- XIX asrlarda adabiyot va san'atga oid qanday yirik asarlar yaratilgan.
- 3.XVIII- XIX asrlarda Xiva, Qo'qon va Buxoroda barpo etilgan me'morchilik majmualari.
- 4.Turkistonni zabt etilishini madaniy hayotga salbiy ta'siri.
- 5.Turkiston ma'naviy hayotida jadidchilik harakatining o'rni.
- 6.Jadidlarning Turkistonda milliy madaniyatni tiklashdagi faoliyat va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.

7. Milliy madaniy merosga ma'muriy buyruqbozlik tizimining ta'siri.

8. Madaniyatda sinfiylik, g'oyaviylik, partiyaviylik qanday oqibatlarga olib keldi?

Amaliy mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi

5-mavzu : *XVI-XIX asr birinchi yarmida mintaqaxalqlari madaniyati*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|---|---|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-25 gacha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-ahborotli ma'ruza. |
| Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. XVI asrda Movarounnahrda adabiy hayot. Tarixiy asarlar. Qo'qon xonligidagi adabiy hayot. Mashrab, Xuvaydo, Abdulkarim Fazliy Namangoniylar ijodi. Badiiy madaniyat. Uning har bir xonlikda o'ziga xos xususiyati. Buxoro shashmaqomi | Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. Jo'ybor xonlari va ularning mamlakat ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi roli. Bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur. Tabiiy fanlar. XVI asrda Movarounnahrda adabiy hayot. Tarixiy asarlar. She'riyat. Shayboniy hukumdorlarining she'riyatga munosabati. Xiva xonligida adabiy hayot. Musiqqa. O'tmish an'alariga sadoqat, vorisiylik. Darvesh Ali Changiy ijodi. Teatr. Masxarabozlar teatri, qiziqchilar teatri, qo'g'irchoq teatri va uning namoyandalari haqida. |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: | Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. Jo'ybor xonlari va ularning mamlakat ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi roli. Bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur. Tabiiy fanlar. XVI asrda Movarounnahrda adabiy hayot. Tarixiy asarlar. She'riyat. Shayboniy hukumdorlarining she'riyatga munosabati. Xiva xonligida adabiy hayot. Musiqqa. O'tmish an'alariga sadoqat, vorisiylik haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Ko'rgazmali, ma'ruza, suhbat Miya shturmi |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

XVI-XIX asr birinchi yarmida mintaqaxalqlari madaniyati

amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

| | | |
|---------------------------|--|-------------------|
| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
| Tayyorlov bosqishi | 13. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi | |

| | | |
|--|---|--|
| (65 daqiqa) | 14. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 15. Davomatni nazorat qiladi | |
| 1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqishi (10 daqiqa) | 1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Talabalarni kishik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yisha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timiedialardan foydalanadi 4. 5. Mavzular asosida byerilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va hulosalaydi, faol ishtirokshi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kishik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 7 yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi hulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

MADANIYATSHUNOSLIK FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI (INTEGRASIYASI)

XVI-XIX asr birinchi yarmida mintaqa xalqlari madaniyati mavzusi O'zbekiston tarixi, falsafa, sotsiologiya, etnografiya fanlari mavzulari bilan bog'liq.

TALABANING BAZIS BILIMINI BAHOLASH UCHUN SAVOLLAR

Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. XVI asrda Movarounnahrda adabiy hayot. Tarixiy asarlar.

Qo'qon xonligidagi adabiy hayot. Mashrab, Xuvaydo, Abdulkarim Fazliy Namangoniylar ijodi.

Badiiy madaniyat. Uning har bir xonlikda o'ziga xos xususiyati. Buxoro shashmaqomi.

6-mavzu: *Dunyoviy va diniy madaniyat*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|--|--|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-80 gasha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-axborotli ma'ruza. |
| O`rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy | O`rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o`zgarishlar. Iudaizm va Tavrot. Bibliyaning |

| | |
|--|---|
| <p>hayotdagi keskin o'zgarishlar. Iudaizm va Tavrot.</p> <p>Masihiylik ta'limoti Sharqning falsafiy tafakkuri mahsuli sifatida.</p> <p>Islomiy madaniyat. Islomda ilm o'rganish tashviqi va targ'iboti.</p> <p>Turkiy qavmlar yashaydigan o'lkalarda islomning yakdilikka chorlovchi g'oyalari.</p> <p>Islom va ilmiy bilimlar rivoji.</p> | <p>tarkibiga kiruvchi kitoblar. Eski Ahdda olamning ibtidosi to'g'risidagi chuqur mushohadalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, axloqiy mezonlar, ma'naviy qadriyatlar va boshqa ko'plab falsafiy g'oyalar, axloqiy o'gitlar. Iudaizm - mustaqil diniy tizim. Masihiylik ta'limoti Sharqning falsafiy tafakkuri mahsuli sifatida. Katolik jamoati va pravoslavlar jamoati. Islomiy madaniyat. Islomda ilm o'rganish tashviqi va targ'iboti. Turkiy qavmlar yashaydigan o'lkalarda islomning yakdilikka chorlovchi g'oyalari. Islom va ilmiy bilimlar rivoji. Al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi. Tasavvuf va madaniyat. Tavhid e'tiqodi. Muruvvat va Futuvvat muvofiqligi. Futuvvatning zohiriy va botiniy ruknlari. san'ati va uning hududiy xususiyatlari. Buxoro shashmaqomi.</p> |
| <p>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</p> | <p>O'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o'zgarishlar. Iudaizm va Tavrot. Bibliyaning tarkibiga kiruvchi kitoblar. Eski Ahdda olamning ibtidosi to'g'risidagi chuqur mushohadalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, axloqiy mezonlar, ma'naviy qadriyatlar va boshqa ko'plab falsafiy g'oyalar, axloqiy o'gitlar. Muruvvat va Futuvvat muvofiqligi. Futuvvatning zohiriy va botiniy ruknlari. haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.</p> |
| <p>Ta'lim berish usullari</p> | <p>Kurgazmali, ma'ruza, suhbat</p> |
| <p>Ta'lim berish shakllari</p> | <p>Ommaviy, jamoaviy</p> |
| <p>Ta'lim berish vositalari</p> | <p>O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter</p> |
| <p>Ta'lim berish sharoiti</p> | <p>Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.</p> |
| <p>Monitoring va baholash.</p> | <p>Og'zaki nazorat: savol-javob.</p> |

Dunyoviy va diniy madaniyat
ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim beruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|---------------------------------------|---|---|
| <p>Tayyorgarlik bosqishi (5daqqa)</p> | <p>1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish</p> | |
| <p>1. Mavzuga kirish (10 daqiqa)</p> | <p>1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yisha savollar beradi.</p> | <p>Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar</p> |
| <p>2 – asosiy</p> | <p>1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish</p> | <p>Tinglaydilar</p> |

| | | |
|--------------------------------------|---|---|
| bosqish (65 daqiqa) | qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar |
| 6- Yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Mavzu bayoni : ДУНЁВИЙ ВА ДИНИЙ МАДАНИЯТ

REJA:

O`rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o`zgarishlar. Iudaizm va Tavrot.

Masihiylik ta'limoti Sharqning falsafiy tafakkuri mahsuli sifatida.

Islomiy madaniyat. Islomda ilm o`rganish tashviqi va targ`iboti.

Turkiy qavmlar yashaydigan o`lkalarda islomning yakdilikka chorlovchi g`oyalari. Islom va ilmiy bilimlar rivoji.

Madaniyat va dinning umumiy taraqqiy ildizlari to`g`risida mushohada etar ekanmiz, quyidagi savollar paydo bo`ladi: -madaniyat oldin paydo bo`ldimi yoki din? Insoniyat tarixida madaniyat etakchi o`rin egallaydimi yoki din?

Ilmparastlik - kishi ma'naviy – ruhiy olamining o`ziga xos qonunlari mavjudligini hisobga olmaslikka, dinparastlik esa – kishilarni hayotiy muammolarni hal etishda faol ishtirok qilishdan chalg`itishga olib keladi. Shuning uchun ham har ikkala soxada ham me'yor qoidalariga amal qilib, xolisona mushohada yuritmoq taqazo qilinadi. Din keng ma'noda madaniyatning bir ko`rinishi. Madaniyat bilan diniy qarashlar o`rtasidagi aloqalar madaniyatning boshqa ijtimoiy sohalar bilan aloqalari ichida eng qadimiysidir. Din olam va odam, odamning bu dunyodagi o`rni, ezgulik, adolat va axloqiy kamolot haqida fikr yuritar ekan, insonni ruhiy olami hissiy qarama-qarshilikka ko`proq moyilligidan kelib chiqadi. So`z kudratini din juda yaxshi biladi. Din sergap bo`lmaslikka da'vat etadi. Afsuski, ilm-fan odam ruhiy olamining xususiyatlarini izlashdan uzoqda. Uni mavjud borliq qiziqtiradi. Faktga tayanmagan fikr unda tan olinmaydi. Fanda badiiy, erkin, ruhiy, xayoliy izlanishga o`rin yo`k. Dinda uzoq asrlar tajribasiga tayangan shunday axloqiy–falsafiy fikrlar, qarashlar borki, ularsiz inson ma'naviyatini, madaniyatini shakllantirish qiyin.

Ilm-fan tarixiga nazar tashlar ekanmiz eramizning I ming yilliklarida jahon madaniyatida ikki yirik voqea ruy bergan, ya'ni G`arbda nasroniylik, Sharqda esa islom dini qaror topdi. Ana shu davrdan beri G`arb madaniyatini nasroniylisiz, Sharq madaniyatini islom dinisiz tasavvur etib bo`lmaydi.

Bu dinlarning yoyilishi g`ayri hayotiy va g`ayri insoniy harakatlar bilan ham bog`liq bo`lganini, nasroniylik Ovrupada ilm, adolat ahliga qarshi kurashlar olib borganligini, islom bayrog`i ostida Sharqda bosqinchilik, talon-taroj, qirg`inlar uyushtirganlarini unuta olmaymiz. Har ikkala qit'ada ham milliy-madaniy hayotga diniy aqidaparastlik, mutaassiblik zo`rlab kiritildi. Ammo shuni ijobiy, tarixiy-madaniy hodisa sifatida ta'kidlash kerakki, bu ikki jahon dini ta'sirida ko`pgina xalqlar o`rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalar o`rnatildi, iqtisodiy munosabatlar kengaydi, madaniy jarayonlardagi mushtarakliklarni qo`llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish

imkoni paydo bo`ldi. Bu ikki din e'tiqod birligi asosida insoniyatni birlashtirishda yo`l ochgani uchun ham qimmatlidir.

O`rta asrlar (V-XVI asrlar) madaniyatida bir tomondan olam va odam, aql va xayol, yaratilgan va yaratuvchi haqidagi diniy qarashlar keng yoyilgan bo`lsa, ikkinchi tomondan ilm ma'rifat, san'at, adabiyot, arxitektura sohalarida yangilik izlash, insonning yaratuvchilik kuchini, oliyjanob his-tuyg`ulari va go`zalligini madh etish kuchaydi. To`g`ri, o`rta asrlarda diniy mutaassublik avj oldi. Ovrupa o`rta asrlari madaniyati diniy safsatalarga asoslangan vahiylikni takrorlashdan iborat bo`lib, u "inson tomonidan mustaqil yaratilgan madaniyat degan narsani bilmadi". Shunga qaramasdan, Uyg`onish davri mutafakkirlari J.Vazari, Dante, Petrarka, Bokkacho, Bottichelli, L.da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael, Roterdamskiy, Dyurir va boshqalar insonning aqliy tafakkuriy va ijodiy kuchlarini namoyon etuvchi shunday durdonalar yaratdilar, ular nafaqat antik davr madaniyatini tikladilar, shu bilan birga Uyg`onish davrini jahon xalqlari uchun namuna sifatida o`rganish davri darajasiga ko`tardilar.

XVI asr tarixga Ovrupada Reformatsiya davri sifatida kirgan. Martin Lyuter, Yan Gus, Savonarola, Jan Kalvin, Jon Nokslarning Rim Papasining cheksiz hukmronligiga qarshi kurashlari nafaqat diniy qarashlarning mukaddasligiga shubha uyg`otdi, shu bilan birga, milliy-madaniy taraqqiyotga yo`l ochib berdi. Cherkovni, dinni reformatsiya qilish ilm, fan, adabiyot, san'at va hurfikrlilikni rivojlantirdi. Antik davr madaniyatiga vorislik qilish, uni tiklash bu davr shiori edi. Shu bilan birga, yuqoridagi daho ijodkorlar o`z davrining farzandlari ham edi. Shuning uchun ham ular asarlarida diniy-mifologik mavzular etakchilik qilardi.

Islom madaniyati – umuminsoniy madaniy taraqqiyotning eng yirik ko`rinishlaridan biri. Unda nafaqat ilohiy, ruhiy shu bilan birga umuminsoniy, axloqiy, falsafiy, ilmiy, siyosiy qarashlar ham mujassamlashgan. Madaniyatning yuzaga kelishi va rivojlanishida din muhim o`rin tutganini eslasak, madaniyatshunoslik fanining madaniyat va din aloqadorligini o`rganish qanchalik zarurligini anglaymiz.

Islomgacha bo`lgan dinlarda ichki buzilishlar kuchaygan, ijtimoiy hayotda esa tubanlik, ichkilikbozlik, qimor, buzuqlik avj olgan. Insonlarning ruhlari ham, e'tiqodlari ham, hatti-harakatlari ham buzilgan edi. Odamlarda uyat tuyg`usi yo`qolgan edi. Arabistondagi katta savdo markazlari chetdan kelgan axloqiy tubanlik botqog`iga g`arq bo`lganlar bilan to`lib ketgan edi. Bir so`z bilan aytganda, Arabiston yarim oroli barcha din va masxablarning katta namoyish joyiga aylangan. Arablar uchun esa eng aziz narsa ayol va ichkilik bo`lib qolgan, fahishalik esa kasbga aylangan edi. Ayollarga hayvondek muomala qilinardi. qiz bolalarni tiriklayin ko`mib yuborish odati ham bor edi. Arablar qimorga shunchalik berilib ketgan ediki, ularning ayrimlari pullari tugagach, o`zlarining erkini ham sotib yuborishardi. Bunday axloqsizlikdan qutulishning najot yo`li kerak edi. Muhammad Payg`ambar o`zini ana shunday najot yo`liga bag`ishladi.

Islom dini uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shunday umuminsoniy madaniyatni yaratdiki, ulardan shaxs kamoloti, uning ma'naviy-ruhiy olamini boyitish va go`zallashtirish uchun foydalanish orqali jamiyatda osoyishtalikka, manfaatlar mushtarakligiga, madaniy taraqqiyotga erishish mumkin. Insoniyat tarixi zarvaraqlarini sahifalar ekanmiz, o`z-o`zini anglashning ilk davrlaridayoq madaniyat

va dinning uyg'un holatda vujudga kelganligini guvohi bo'lamiz. Masalan: totemizmda hayvonot olamini avaylab-asrash, ularni muqaddas deb bilish (Turkmanlar – echki-takani, Ozarbayjonlar- bo'rini, kiyikni, Kirg'izlar- itni, bug'ini, Turklar – bo'rini o'zlarining totemi deb bilganlar) an'ana bo'lgan. Bu o'z navbatida madaniyatni ham shakllanishiga yordam bergan. Dostaevskiyning «Og'a-ini Qaramazovlar» romanidagi nasroniy Zosimning qahramoniga murojaatida buning isbotini ko'rish mumkin: «Hayvonlarni seving! Xudo ularga fikr ibtidosini va osudalik farog'atini in'om etgan. Ularni qahrini keltirmang, qiynamang, quvonchlaridan judo qilmang, o'ylariga qarshilik qilmang!»

Animizmdagi ruhlarga ta'sir o'tkazish maqsadida qilingan turli-tuman hatti-harakat va marosimlar esa madaniyat va san'atning rasm, raqs va o'yin turlarining ilk ko'rinishlarini shakllantirishga olib kelgan.

Quyida biz madaniyatning shakllantirishga yordam beradigan diniy hikmatlardan namunalar keltiramiz:

Daotsizm dinidan:

- Odamlarni o'rganish, o'zingni o'rganish va boshqalarni itoat ettirish demakdir.
- Hayot bir-birlariga o'tib turuvchi qarama-qarshi hodisalarga to'la.
- Ozga intilib - zarurini topasan, ko'pga intilib - adashasan.
- Baxtsizlik - baxt tayanchi, baxtda - baxtsizlik yashiringan.
- Manmanlik – g'am-tashvish keltiradi.
- Osmon ostidagi barcha narsa o'tkinchi. Osmon ostidagi barcha buyuk ishlar mayda-chuydadan boshlanadi. Kim me'yorini bilsa, u muvoffaqiyatsizlikka duchor bo'lmaydi.
- Qahr-g'azabni ezgulik bilan engish mumkin.
- Agar odamlar senga ergashishini istasang, sen ularga ergash.
- Men qadrlanadigan uchta durdonaga egaman: bular: insonparvarlik; tejamkorlik; va men boshqalardan oldinga o'tib olishga intilmayman.

Konfutsiychilik dinidan:

- Jamiyatdagi betartiblik, zo'ravonlik va bir-biriga adovatni ota-bobolarimizning qadimgi urf-odatlariga itoat etish orqali bartaraf etish mumkin.
- Davlatni boshqaruvchi insonparvar va o'z burchini sidqidildan ijro etuvchi kishi bo'lishi kerak.
- Odob-andishaga rioya qilmagan joyda izzat so'nadi.
- Odobga rioya qilinmaganda dovyuraklik g'alamislikka aylanadi.
- Mabodo hukmdor qavm-qarindoshlarini hurmat-izzat etsa, jamiyat ham odamiy bo'ladi. Mabodo u eski do'stu birodarlarni unutmasa, xalq ham toshmehr bo'lmaydi.
- Odam o'zini tuta bilishi va odob tamoyillariga rioya etishi shart – bu chinakam odamiylikdir.
- Bir safar o'zingni tutishga jur'at etsang va axloq-odob qoidalariga mos harakat qilsang butun Osmon seni odamiy deb ataydi. Odamiy bo'lish faqat odamning o'ziga, uning chin dildan intilishlariga bog'liq. Shuning uchun:
Odobga zid narsalarga qaramang, Odobga zid narsalarni eshitmang
Odobga zid narsalarni aytmang, Odobga zid narsalarni qilmang.
- Ota-otabo'lsin, o'g'il-o'g'il, hukmdor-hukmdor, ijrochi-ijrochibo'lsin.

Hindistonda milliy dinlardan Braxmanizm, Hinduizm, Jaynizm, Sinkxizm va boshqalar, jahon dinlaridan Buddizm keng tarqalgan. Hinduizm milliy oqim bo`lib, u boshqa millatlarga, ayniqsa, musulmonlarga nisbatan siyosiy muholifiyatda harakat qiladi. Buddizm esa milliy masalalarga befarq, shu bois u jahon dini sifatida keng tarqalgan. Gegel ta'kidlaganidek, «Hind madaniyati ulug`vor va etarli rivojlangan, falsafasi uning diniga monand, dinini qiziqtirgan masalalar falsafasida ham mavjud. Muqaddas kitoblar singari Vedalar falsafasining ham asosini tashkil etadi».

Buddizm dinidan:

Buddaning fikricha, yashash – azob-uqubatlardan iborat. Tug`ilish – azob, o`shish – azob, kasallik – azob, qarish – azob, o`lish – azob.

Azobu uqubatlarga to`la bu dunyodan qutilish yo`llari mavjud:

U to`g`ri e'tiqod; U to`g`ri qaror; U to`g`ri so`z, niyat, xotira; U to`g`ri hayot, turmush; U to`g`ri o`z-o`zini anglashdir.

Hayotning yana bir tomoni aysh-ishrat, rohat-farog`at, past va badnafs niyatlardan iborat. Etuk shaxs azob-uqubatlarga to`la tomonga ham, aysh-ishratli tomonga ham og`ib ketmay ular o`rtasida yashaydi. Tana huzurga, ishtiyoqqa, kayfu-safoga o`ch. Tananing bu istaklarini yo`q qilmaguncha kishi kamolotga (nirvanaga) etolmaydi, natijada u azob uqubatli dunyoga qayta-qayta kelaveradi.

-Bu dunyoda qahrni qahr bilan engib bo`lmaydi.-Kishi o`z g`azabini bosiqlik bilan, yovuzlikni esa ezgulik bilan engishi zarur. -Jangda ming odamni engish mumkin, ammo o`z ustidan g`olib kelgangina buyuk hisoblanadi. -qaysi qavmdan tug`ilgani emas, balki qanday hatti-harakati kishining yo braxman, yo past tabaqaga oidligini ko`rsatadi.

Nasroniylik dinida Iso odamlarga qarata:

-Siz erning tuzisizlar, siz dunyoning nurisizlar. Dushmanlaringizni sevinglar, la'natlaganlarni duo qiling, nafratlanganlarga yaxshilik qiling. Boshqalar ustidan hukm chiqarmang, sizning ustingizdan hukm chiqaruvchilar topiladi, sizlar qanday qilsangiz, sizga ham shunday hukm o`tkaziladi.

-Odamlar sizga qanday muomala qilishlarini istasangiz, siz ham ularga shunday muomalada bo`ling.-Yomonga qarshi chiqmang, kim o`ng chakkanga urisa, unga ikkinchisiga ham urdir. -Kim sen bilan da'volashib ko`ylagingni olmoqchi bo`lsa, unga to`ningni ham echib ber. Sendan so`raganga ber, sendan qarz olmoqchi bo`lgandan yuz o`girma. -Osmondagi Otangiz barkamol bo`lgani kabi, siz ham barkamol bo`ling.

G`animlarni ham sevis, zo`ravonlikni itoat va mehr-muhabbat ko`rsatib engishga da'vat etish nasroniylikni jahon dinlaridan biriga aylantirdi.

Iso: Men dunyoni harob qilgani emas, xalos etgani kelganman.

-Odamning iymoni, e'tiqodi, axloqi, mehr–muhabbati shunday bir nurki, ular kishilar oldida porlab turadi, odamning yaxshi ishlaridan dalolat beradi.

-Kimki birodariga behuda g`azablansa, javobgarlikka tortiladi.

-Xayr–ehsonni birovlariga maqtanish uchun qilmang.

-Kishilarning ayb-gunohlarini kechirib yashang. Iso Payg`ambarning oldiga ko`chada bir erkak bilan uyat ish qilayotgan ayolni tutib keltirishadi. «Bunday ayollarni,- deyishadi Isoga,- ilgari toshbo`ron qilib o`ldirishardi. Xo`sh, sen bunga qanday jazo berasan?» Iso Payg`ambar o`ylab turib javob berdi: «Mayli, ichlaringda

kim umrida biror gunoh qilmagan bo'lsa, erdan tosh olib otsin». Ayolga yig'ilganlardan birortasi ham tosh otishga jur'at eta olmadi. Shuning uchun nasroniylilikda «odam xoliq ham emas, maxluq ham emas», degan qarash keng tarqalgan.

Nasroniylilikdagi bu axloqiy-falsafiy va diniy qarashlar Evropa, Amerika va Rossiya xalqlarining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy-ma'naviy, madaniy taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Diniy madaniyat ko'p mazmunlidir, negaki uning asosida turli xalqlarning madaniyat merosi mavjud: arab, turk, german, slavyan xalqlarining (ibtidoiy) madaniyati; antik meros va qadimgi sharq sivilizatsiyasi meroslarini tanlash ijodiy qayta ishlab o'zlashtirgan. Diniy madaniyatning ko'p qirraligi, uning tarkibida ko'plab submadaniyatlarning mavjudligidir: xalqona (qishloq madaniyati), shahar, dunyoviy, monastir va sufiylik madaniyatlari. Diniy aqidalar asosida o'sha davrning qiyofasi kishilar ongida shakllanib, madaniyatning o'ziga xos xususiyatini belgiladi. Koinot va osmon jismlarini dastlabki va boshlang'ich o'rnini Xudo (Olloh) belgilab, dunyo va insonni yaratuvchisi hamda barcha mavjudot Xudoning (Olloh irodasining) ijodiy yaratuvchanlik natijasidir. Insoniyat tarixi davrlarning izchillik bilan takrorlanib turishi kabi namoyon bo'ladi, natijada davrlarning o'rin almashishi payg'ambarlarning kelishi bilan sodir bo'ladi.

Payg'ambar jamiyatda buzg'unchilik va gunohlarni tuzatishda «ilohiy aralashuvchi»ning timsoli hisoblangan. Bu Xudoning elchilari. Xristianlikka ko'ra «elchilarning» so'nggisi «Xudoning o'g'li» Iisus Xristosning erga tushishi hisoblanib, uning chor mix qilinishi bilan Erda Xudoning hukmronligi boshlanadi. Islom dini bo'yicha Iisus faqat payg'ambarlardan biri xolos, oxirgi payg'ambar «payg'ambarlik tamg'asi» bo'lgan Muhammaddir. Kishilarga payg'ambarlar orqali oliy haqiqat ma'lum qilingan.

Din inson uchun namuna-mo'minlik, jafokashlik, ruhoniyyat, gunohlarni yuvish ishtiyoqi, qutulishdir. Har kim, har doim nazorat ostidaligiga, o'zining olamda zarradek ekanini his qilishi, bu ulkan olamning o'ziga xos markazida sezilarli kuch harakatda bo'lishi, idrok qilib Xudoning (Ollohning) e'tiborida ekaniga iqror bo'ladi.

Din madaniyatning siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, badiiy barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xristianlik Rim imperiyasida eramizning IV asrlarida uning g'arbiy qismi gullagan paytg'a kelib (er. avv. 476 yil) to'la shakllangan cherkov tizimi va qattiq intizomga asoslangan davlat dini tarzida qaror topdi.

Evropa bo'ylab tarqalgan german, slavyan, turk qabilalari antik sivilizatsiyasini harob etib, yangi hayot tarzini qabul qildilar.

Tobelik munosabatlariga qurilgan feodal tabaqachilik asosida cherkov ierarxiyasi yotadi (ruhoniylar-episkoplar-kardinallar-rim papasi), qirol Xudoning vassali, saroy a'yonlari-qirolning vassali, dehqon ayol erkakning, uy hayvoni ayolning, tosh o'simliklar uy hayvonining vassalilar va boshqalar. «toshdan xudogacha keng tarqalgan, umumiy vassal haqidagi g'oya ham cherkov qo'llab quvvatlagan. Musulmon sharqida islom ta'limoti paydo bo'lishi bilan barobar tiokratik boshqarish shakli qaror topgandi».

Muhammadning payg`ambarlik faoliyati yagona ma'naviy-mafkuraviy va sotsial birlikka intilish yo`lida qonuniy jarayon bo`ldi. Islomiy e'tiqod 5 ta asosiy talabga tayanadi. Yagona Allohni tan olish va uni Muhammadni uning payg`ambari deb bilish, namoz o`qish, ro`za tutish, beva bechoralar yo`liga zakot berish, haj ziyorati. Islomning ushbu 5 ahkomning 4 tasi axloqiy udum tabiatiga ega. Xususan payg`ambar shaxsi u haqdagi ma'lumotlar nufuzi islom diniga betakror o`ziga xoslik baxshida etdi va uni jahon tarixidagi muhim voqea, o`zida ilohiy va dunyoviy hokimiyatni mujas samlashtirgan musulmon davlatchilikning qaror topish tomirini belgiladi.

Din hayotda muqaddas shaklda tasvirlovchi g`oyalarni yaratdi: falsafada – teologiya, adabiyotda – ilohiy, didaktik janrlar, Evropa musiqasida cherkov gimnlari, liturgiya va messa, tasviriy san'atda xristianlik syujetda asosiy o`rin tutdi. Ilohiyot olam va inson haqidagi o`z «ilmiy» manzarasini yaratdi. Koinot xususidagi ilmda Er olamning, Ierusalim dunyoni markazi deb qarash hukmronlik qildi. Inson majoziy tarzda mikro kosmos – tana er, qon, suv, nafas, havo, harorat, olov, ya'ni u boshlang`ich ibtidodan iborat deb qaraldi.

Asosiy mavzu, xudoni kuylash, Injil asotirlari, avliyolar hayoti, ruhiy axloqiy poklanish, gunohdan, maxfirat bo`lish aqidalari edi. Musiqaviy madaniyat negizini cherkov qo`shiqlari (liturgiya), Musiqa, she'riyat va dramaturgiyani o`zida uyg`unlashtirgan cherkov tanatanalari tashkil etdi.

Islom madaniyatida nisbatan qat'iy bir yoqlama, diniy aqidalari timsolini ko`ramiz. Unda cherkov tizimining yo`qligi, har bir odamni Alloh bilan tanho muloqotining mumkinligi, aholi manzillari mahallalarda qurilishning ommaviy shakllari, masjidlarning bino etilishi bo`lib, uning dastlabki namunasi Muhammad Payg`ambar tomonidan Madina shahrida solingan masjiddir. Yuqori ma'lumotli musulmonlar orasida Evropa mamalakatlarini universitetlaridan ilgariroq, oliy ta'lim maktab madarasalari keng tarqalishini belgiladi.

Musulmon adabiyotida ustuvorlik qilgan she'riyatida sufiylik kata rol o`ynaydi. Sufiylar o`zlarining chuqur hissiy ruhiy holatlarida yaratuvchiga bo`lgan e'tiqodini tinglovchilarga etkazish, individual ta'sir etish mahoratini namoyish etadi. Sharqning Jomiy, Rumi, Sa'diy, Xofiz, Nizomiy, Navoiy singari ijodkorlari sufiylikka u yoki bu tarzda aloqador bo`lganlar. Islomda olamning mohiyati asl hayot haqiqatni naqshlarda muhrlangan belgilarda ifodalashga e'tibor qaratilgan. Mahobatli me'morchilik yodgorliklarini betakror go`zallik timsollarga aylantirgan, ixlosmandlarni nafaqat ko`zini balki, qalbini ham quvontiradigan, murakkab geometrik shakllar (girs), o`simliklar shakli ifodasi hisoblangan. Uchburchak Allohning nazari, to`rtburchak musulmonlarni muqaddas manzilgohi, beshburchak dinning besh asosiy arkoni, jimjimador o`simliksimon shakl va gullar jannat bog`u bo`ston timsolidir.

Musulmon sharqida ham islom e'tiqodidagilar va sufizm o`rtasida murosasiz to`qnashuvlar sodir bo`ldi. Haqiqatni bilishni inkor qiluvchilar va haqiqatga muroqaba yo`li bilan yaqinlashish mumkin deyuvchilar (al-Ash'ariy, G`azzoliy, Junaydiy, Bistoniy) hamda mashhur faylasuflar Forobiy, Ibn Sino, Beruniy) ta'limoti vujudga keldi. Evropa madaniyatida bu munozaralar natijasida idrok va e'tiqod

ajralishi sodir bo`ldi. Uilyam Okkam (XVI asr) e'tiqod va idrok falsafa va din o`rtasida hech qanday umumiylik yo`q, bo`lishi ham mumkin emas, demakki ular mutlaqo bir-biridan mustaqil tushunchalar ekan, bir-birini nazorat qilmasligi deb asosladi. Bu G`arbda oliy qudrat sifatida ayniqsa, «XVII asr ilmiy inqilobi» davrida tabiiy inson idrokini o`stirishning katta g`alabasi uchun turtki bo`ldi.

Musulmon sharqida boshqacharoq yo`nalish ustunlik qildi. Bunda ilm idrok har doim faqat ma'naviy yuksalish yo`lidagi bosqich sifatida qaralgan, idrok va ilm, boshqa maqsadga qaratilishi mumkin emas. Shuning uchun ham IX - XVI asrlardagi arab tiliga asoslangan tajriba fanlari va falsafa taraqqiyotidagi katta yutuqlarning barchasi dindan ajralmagan holda sodir bo`ldi.

O`rta asr Evropasida cherkovning ahamiyati alohida o`rin tutadi. Cherkov xudo va inson o`rtasidagi vositachi bo`lib, faqat u insonning ruhiy, ilohiy, «mo`jiza» yordamida xolos qilishi mumkin. (cho`qintirish tovba, nikoh udumlari), cherkov o`zining yozma an'alariga ega bo`lmagan Evropadagi qabilalar uchun bilimlarni to`plovchi va saqlovchi joy bo`lib, ta'lim tizimi shakllanishida, jamiyatning ijtimoiy tuzilishida huquqiy va axloqiy mezonlar muhim rol o`ynadi. Islomda hech qachon Xristianlikdagi diniy aqidalarni qonunlashtiruvchi Selensk sobori kabi institutlar bo`lmagan. Jamoatchilik fikrining shakllanishining xususiy shaxslar, diniy arboblardan ulamolar zimmasida bo`lib, ularning obro`yi diniy bilimlarga asoslangan. Din masalalari bo`yicha o`z fikrini bildirish huquqi har bir musulmon ega bo`lgan. Faqat u Qur'on va Hadisga zid bo`lmasligi lozim edi.

Islom siyosiy madaniyati maslahatli demokratiya shaklini yaratdi, xalifalik tamoyili qur'ondagi 3 ta qoidani yaratdi. Ulardan birinchisi, hukmdorni o`z fuqarolari bilan «maslahatlashishini» va umumning fikrini inobatga olib qaror qabul qilishni talab qiladi, boshqasi boshqarishni va munozaralarni adolatni hal qilishga chaqiradi. Uchinchisi qoida esa, «Allohning elchisiga» dindorning bo`ysunishga talab qiladi. Xalifa monarx ham, despot ham emas, uning boshqa musulmonlardan farqi, faqat e'tiqodni avaylash va shariat me'yorlarini bajarish uchun javobgarlikni o`z zimmasiga olgan shaxs. Xalifa hokimiyatni meros tarzda olishi va qoldirishi mumkin emas. Xalifalikka davogar va jamoat o`rtasida kelishuv asosida xalifa hokimiyatni olishi mumkin. U barcha musulmon jamoasidan yoki uning taniqli vakillari bo`lgan mujaxidlar tomonidan saylanadi. Har bir musulmon singari xalifa ham musulmon huquqi me'yorlariga to`la bo`ysunishi va har qanday nojo`ya harakati uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Islom tadqiqotchilari ta'kidlashicha, xalifa haqida sharnoma ko`p asrlar davomida «Jamiyat shartnomasi» (J.J.Russo) g`oyasini ifoda etib keldi. Evropada shaharlarning qayta tiklanishi, rivojlanishi cherkovning ta'lim va ilm sohalaridagi manopolosiyaga chek qo`ydi. X asrdan boshlab savdogar va hunarmandlar bolalari uchun dastlab dunyoviy maktablar keyin universitetlar paydo bo`ldi.

Musulmon sharqida bu jarayon biroz boshqacha kechdi. Har bir e'tiqodli mo`min musulmon arab tilini bilishi va Qur'onyi o`qiy olishi farz bo`lgan. VIII-IX asrlarda qadimgi Yunon olimlarining deyarli barcha asarlari, shuningdek, Hind, Shom va fors mualliflari asarlari ham arab tiliga tarjima qilingan. Falsafa, atronomiya, matematika, tibbiyotga oid ilmiy atamalar ishlab chiqiladi. Arab tili o`rta asrlardagi eng taraqqiy

etgan tillardan biri bo'lishi bilan birga, Hindistondan to Ispaniyagacha bo'lgan xalqlarni birlashtiruvchi xalqaro muomali madaniyati bo'lib hisoblangan. Musulmon madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ilm va kitobga muhabbatdir. Musulmon sharqida ma'lumotli kishi hokimiyatning eng yuqori pog'onasiga chiqqan olgan. U oq suyaklar bilan teng turgan. Ko'pincha sharq hukmdorlari saroyida shoirlar, faylasuflar, ilohiyotchilar, tarixchilar, qonunshunoslar, tabiblar, mirzolar, munajimlar, saroy xizmatchilari ma'lumotli kishilarga katta ehtiyoj bo'lgan. Ma'lumotli kishi grammatikani, ritorikani, geografiyani, tarixni yaxshi bilishi, kiyinishni farqlashi, she'r yozish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z joyida askiya, hikoya ayta bilishi, zarur bo'lgan. Turli xil ta'lim tizimi rivojlanadi.

Diniy madaniyat umuminsoniy madaniyat taraqqiyotiining eng muhim davri hisoblanadi. O'rta asrlarda hozir muomalada bo'lgan tillar shakllanib, ta'lim va fan tizimi yanada taraqqiy etadi. IX asrda musulmon Sharqida rasadxona quriladi; yulduzlarning aniq joyi belgilangan katalog tuzildi; geometriya, trigonometriya, optika, alximiya, mexanika, tibbiyot, jo'g'rofiya sohalari bo'yicha ko'plab asarlar yozildi. Ulug' alloma Al-Xorazmiy matematikaning yangi tarmog'i bo'lgan algebraga asos soldi. Buyuk Sharq olimlari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushdiy kabi ko'plab alloma asarlaridan Evropaning yangi avlod olimlari ta'lim oldi.

Xristian va Islom dinlari boy va kambag'alni, kuchli va o'jizni, turli e'tiqoddagilarni va turli ijtimoiy guruhlarni bir-biridan ajratmaydi. Barcha e'tiqod qiluvchilar uchun umumiy axloq mezonlari: mo'minlik, tavba, yaxshi va rahmshafqatli bo'lish, gunoh qilmaslik kabilar mavjud. O'rta asrlardda umumiy e'tirof qilgan axloqiy me'yorlarning mustahkamlanishi umuminsoniy xulq va axloq mezonlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ruhoniylar inson ruhiyati, ritsarlar davlati ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar.

O'rta asr Sharqi madaniyatida tabaqaviy sub madaniyatlar emas, ikki yirik madaniyat-shahar va ko'chmanchilar madaniyati ajralib turadi. Shahar sharoitida «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», singari dostonlar turli poetik shakl va janrdagi (qasida, masnaviy, g'azal, madxiya, ruboyi, maqom) adabiy asarlar, hikoya va ertaklari to'plami, (1001 kecha ertaklari, Kalila va Dimna) latifa va rivoyatlar yaratildi. Miniatyura bezagiga boy kitoblar, musiqa san'ati va raqsining xilma-xil janrlari xalq orasida keng tarqaldi.

Ko'chmanchilar orasida turli musiqa asboblari kuyga solib aytiladigan (baxshi va oqinlar tomonidan) xalq og'zaki ijodining yirik badiiy shakllari – epos, dostonlarni yaratilish ustuvorlik qildi. Shahar, ritsarlik, dunyoviy, monaxlik va sufiylik kabi submadaniyatlarning paydo bo'lishi madaniyatni sezilarli boyitdi, yanada rivojlanishida ko'plab yo'nalishlar yaratdi hamda Renessans (Uyg'onish) deb atalgan yuksak taraqqiyotga zamin tug'dirdi.

Uyg'onish davri tadqiqotchilar asarlarida turlicha baholanib, turlicha yondoshuvlarga sabab bo'ldi. Xususan, Uyg'onish yo'nalishi umumjahon jarayoni sifatida Xitoyda VII-VII asrlarda boshlanib, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqni qamrab oldi, XIV- XVI asrlarda Evropada takomiliga etdi. Shuningdek, tadqiqotchilar Uyg'onish davrining bosh maslakdoshi haqiqiy gumanizm

bo'lganligini bir ovozdan e'tirof qiladilar. Xitoyda «Insonparvarlik» so'zining sinonimi «jen», Sharqda «odamiyat» atamaları hisoblanadi.

Yangi davr (XVII-XIX) ijtimoiy-tarixiy va madaniy voqealarga to'la. Bu davrda Ovrupada burjua ishlab chiqarish qaror topib, u barcha ma'naviy, ijodiy va tafakkuriy kuchlarni o'z atrofiga birlashtirishga intildi. Shu bilan birga, har bir asr turli mamlakatlarda turlicha kechdi. Masalan, XVII asr Niderlandiya va Angliyada feodal tuzumni keskin tanqid qilish; Frantsiya diniy safsatabozlikni ratsiyalizm nuqtai nazardan fosh etish davri bo'ladi;

XVIII asr—ma'rifatchilik, Frantsiya va Amerika inqiloblari davri sifatida tarixga kirgan. XIX asr esa burjua madaniyatining gullab yashnagan, keyinchalik esa tanazzulga yuz tutish davri hisoblanadi. Kanday bo'lmasin ijtimoiy—madaniy taraqqiyot bir on ham to'xmadi, u yangi va rang-barang yo'nalishlarda, ko'rinishlarda rivojlanib, inson qudratini aks ettiruvchi voqeilik sifatida saqlanib keldi.

XX asr ilm, fan, texnika, kompyuter asri bo'ldi. Xuddi shuningdek XX asr jahon tarixida inqiloblar, ommaviy qirg'inlar, jahon urushlari asri sifatida ham iz qoldirdi. Natijada ijtimoiy—madaniy taraqqiyotga etish uchun katta to'siqlarni engib, taraqqiyot o'zagi bo'lish insonning yaratuvchilik kuchiga ishonchini saqlab qolishiga to'g'ri keldi. Xuddi shuning uchun gumanizm, antropotsentrizm, demokratiya, hurfiylik, teng huquqlilik, umuminsoniy, axloqiy qarashlarning qaror topishiga intilish hozirgi davrning o'ziga xos xususiyatiga aylandi. XX asr oxirlariga kelib, sovet totalitar tuzumining emirilishi, milliy madaniyatlarning rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi.

Shunday qilib, uzoq tarixiy rivojlanish hech qachon to'xtamaganini, madaniyat bir bosqichdan ikkinchisiga, ziddiyatlarga to'la holda bo'lsada, u rivojlanib kelganini; ikkinchidan har bir tarixiy bosqichning o'ziga xos madaniyati bo'lgani, davrlar o'tishi bilan xalqaro va qit'alararo madaniy aloqalar kengayganini; uchinchidan ushbu madaniy aloqalar o'z navbatida milliy etnik madaniyatlarning shakllanishiga, rang-barangligiga va qaror topishga ta'sir etganligini ko'rsatadi.

Zamonaviy madaniyatni texnikaviy, texnika hukmdorligi dunyoviy elektron yoki axborot madaniyati deb ataydilar. Bunday munosabat hozirgi madaniyatda fan va texnikaning o'rni muhimligini ko'rsatadi. «Zamonaviy» yoki «yangi» fan antik yoki o'rta arslardagi fandan tubdan farq qiladi. Agar ilgari fan dunyoni asl holda, uni daxlsiz o'rgangan bo'lsa, endi esa fan bilish, yaratish, ixtiro, loyiha tuzish kabi jarayonlarni mujassamlashtirib «inson idroki yordamida hal bo'ladigan muammolarga e'tiborni jalb qilmoqda».

Fan va madaniyatdagi yangi yo'nalish shakllanishning boshlanishi Uyg'onish davri bilan bog'liq. XIV -XVI asrlar bu davr mutlaqo yangi davr madaniyatini ochdi. Shaharlarning ko'payishi, Evropada ichki va tashqi savdning vujudga kelishi, hunarmandchilikning rivojlanishi Evropa madaniyatida yangi yo'nalishlarga olib keldi. Qisqa vaqt ichida O'rta asrlar jamiyatida moddiy madaniyat va texnologiyalar o'zgarib ko'plab muhim ilmiy kashfiyotlar qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar diniy «dunyo qiyofasini» o'zgartirdi, aqliy va iqtisodiy hududni kengaytirib jahon savdosini vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Antik davr merosini o'rganish yangi falsafiy yo'nalishlar paydo bo'lishiga turki bo'lib, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida mutlaqo o'zgacha andoza shakllandi.

Jamiyatdagi shaharliklar orasida «gumanizm» deb nomlangan, yangi g`oya shakllandi. Bu nom inson haqidagi yangi dunyoviy fandan (studia humanitatis) kelib chiqqan bo`lib, ilgarigi «ilohiyot haqida»gi fanni. (studio dvinus) asta-sekin siqib chiqardi.

Insonparvarlik quyidagi xususiyatlarga ega:

1.Tabiat qonunlarini – «tabiiy muvofiq» tamoyili asosini tushuntirishga asoslanish;

2.Insonni muammolar markazi qilib olish (antropotsenprizm) – insonga tabiatning toji sifatiga qarash;

3.Aqliy tafakkur (ratsionalizm) – inson idrok va zakovat orqali atrof-muhitni, o`z-o`zini biladi deb hisoblash;

Insonparlik g`oyalarining rivojlanishi dunyo va insonning diniy kontsepsiyasining buzilishi va XVIII asrda inson shaxsining o`zini qadrlash haqidagi ta'limotni paydo bo`lishiga olib keldi. Gumanistlar o`z ta'limotida ishonch mezoni deb empirik tajriba va ratsionallikni hisobladi. Bu xulosa cherkovni refermatsiya qilish (Mellyuter, J.Kalvin), utopik sotsiolizm (T. Mor, T.Kampanel) va ijtimoiy pragmatizm (N.Makiavelli) kabi g`oyalarni nazariy asoslashga olib keldi.

Uyg`onish davri dunyo va inson paydo bo`lishidagi g`oyalarni butunlay inkor qilmadi, balki olam doimiy va qat'iy qonunlarga muvofiq ravishda bunyodga kelishini tasdiqladi. Idrok insonga shuning uchun berilganki, inson idrok yordamida qonunlarni tushunib qonunlar yordamida o`z jamiyatlarini tuzishlari mumkin. Idrok erda baxtning qaror topishiga garov bo`lib, oxiratini obod qilishda ham yordam berishi mumkin. Inson tabiat qonunlariga mos ravishda rivojlanuvchi aqlli mavjudot hisoblanib, nafaqat moddiy dunyo markazida turadi, u shuningdek, badiiy tushunish va tasvirlash ob'ektining asosi hamdir.

Fanning shakllanishi va sekin-asta jamiyat hayotiga muhim asos bo`lib kirishi yangi davr kishining turmush tarzi, fikr yo`lini tafovutli qiyofasi sifatida ratsionalizmning paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Ratsionalizmning keng ko`lamiga namoyon bo`lishi XVIII asrdagi ma'rifatparvarlik harakati bilan bog`liq. Barcha baxtsizlik va nahaqlikdan insoniyatning aziyat chekishi bilimsizlikdan ekanligiga faqat ma'rifatparvarlar ishonganlar. Ma'rifatparvarlar vakili D.Didro va D.Alamber «fan, san'at va hunarmandchilik entsiklopediyasi»ni nashr qilishi madaniyatning katta yutug`i bo`ldi. «Entsiklopediya» nafaqat insoniyatning muhim. ilmiy yutuqlarini tartibga soldi, balki yangi madaniy qadriyatlar tizimini ham tasdiqladi.

Ma'rifatparvarlarning ratsionalistik yo`nalishi XVIII asrdagi ishlab chiqarishni tashkil qilish, davlatning ichki va tashqi siyosati huquq institutlari va siyosiy partiyalarning shakllanishi, san'at taraqqiyotida ko`plab tamoyillarni belgilab berdi. Ma'rifatparvarlar buyuk frantsuz inqilobining ideologlari hisoblanadi, Uyg`onish davri gumanistlari boshlab bergan madaniy qadriyatlarni ulug`lash jarayonini nihoyasiga etkazdi. XVIII asrda ilmiy bilim jamiyat ongini butunlay yangi sifat darajasiga ko`tardi. Fan insonning ma'naviy hayotiga chuqur kirib borib, uning madaniyatiga mazmun bag`ishladi. Kishilarning tabaqaviy, milliy irqiy yoki boshqa farqlaridan qat'iy nazar barcha uchun bir xil mohiyat kasb etdi.

Evropa va shimoliy Amerikaning ko'plab mamlakatlarida XIX asrning o'rtalarida industrillashtirish yoki sanoat burilishi nihoyasiga etdi. Ratsionalizm va utilitarizm (manfaatparastlik) madaniyatining belgilovchi o'rni fan va texnika taraqqiyotiga yangi turtki berdi. Oddiy to'quv dastgohi «Jeni»dan J.Uattning bug` mashinasi (1784 y) va R.Fultonning bug` kemasi, Stefensonning parvozidan (1814 y.) birinchi er osti temir yo`liga (1863y.) o`tilishi injinerlik fikrining o`shishini ko`rsatdi. Bug` va elektrlashtirish, telefon va telegraf davri, astronomiya va geologiya, biologiya va ximiya sohalaridagi ajoyib kashfiyotlargacha bo`lgan vaqt insoniyat madaniyatini yangi bosqichga ko`tardi. P.Sorokining xulosasi bilan aytganda «faqat birgina XIX asrdagi kashfiyot va yangiliklarning o`zi oldingi asrlardagi kashfiyotlarning hammasini jamlagandan ham ko`pdir».

Xususan bu asrda 24 8527 ta kashfiyot makon, zamon va materiya ustida texnika hukmronligining cheksiz o`sganligidan dalolatdir. Ispan faylasufi X.Ortegi Gasetning yozishicha: “Biz haqiqatdan ham XIX asrda ro`y bergan inson taqdiridagi radikal o`zgarishlar oldida turibmiz. Zamonoviy inson uchun ham jismonan, ham ijtimoiy jihatdan mutloqo yangi manzara, yangi faoliyat yaratildi. Bu yangi dunyoning qiyofasini uchta muhim jihat belgilaydi Bu demokratiya, ekspremental fan, industrializatsiya. Ikkinchi va uchinchi jihatlarni “texnika” nomi bilan umumlashtirish mumkin”.

Tsivilizatsiyaning o`shishi dastlab makon va zamonga xos kechdi: insonning ma'naviy dunyosi o`tmishning yangi xududi va yangi “qatlami”ni o`zlashtira boshladi. Bilishning maydoni chuqurlashdi va kengaydi. Biroq, shu bilan birga zamon va makonni enguvchi yangi usullar ham paydo bo`ldi: inson yangi texnika vositasida ulkan fazoviy vaqtni qisqa muddatda bosib o`tib, er yuzining xohlagan joyida bo`lishi mumkin. Dunyo o`ziga yangi qiyofa kasb etdi.

XIX asrda texnotsentrik dunyoqarash keng tarqalib, kishilar o`z hayotini ilmiy asosda ko`rishga urina boshlaydi. Injenerlik faoliyati tamoyillari tabiat va jamiyat hayotiga keng yoyiladi. Insonning turmush jarayonidagi bunyodkorlik, tirikchilik tashvishlari o`rnini bundan buyon ixtirochilik, texnika ijodkorligi extiyojlarini qondiruvchi texnika vositalari yaratish egalladi. Tabiat, inson, madaniyat kabi tushunchalar talqini sezilarli o`zgardi. Tabiat material va energiyaning bitmas-tuganmas manbai, universal omborxonaga aylanib qoldi.

Hatto, tabiat sirlarini o`ta chuqur anglash ham unga yaqinlashish degani emas, balki, aksincha qandaydir uzoq begonalikni, faqat texnik yondoshuvni bildiradi. Insonning o`z tabiati sirlarini anglashga urinishi shunchalik qarama–qarshi natijalarga olib keladi. XIX asr insonga “koinot sardori” “barcha narsalardan yuqori” yorlig`ini berdi. Inson ko`proq “mexanik agregat”, “fizik kimyoviy unsurlar majmui”, “maymunga turdosh maxluq”, “turli mehnat qurollari tayorlovchi Xomo faber” kabi sifatlar bilan atala boshladi. Insonning o`zi mexanizm bo`lgani kabi, dunyo ham unga o`xshash ulkan mashina ishlab chiqaruvchi fabrikadir.

Insonning o`zi–o`rtacha mehnat unumdorligi o`lchamidagi madaniyat ijodkori. Maqsadga muvofiqlik, risoladachilik, me'yorlik insonni butunlay hayotini belgilab, uni o`rtacha, baravar qilib tenglashtiradi: maqsadlar baravarlashdi, umumhayotiy andoza, turmush tarzi qonuniylashdi, barchaning huquqi tenglashdi, ko`p sonli o`rta sinf

shakllandi, misli ko`rilmagan muvoffaqiyatlar ila ozodlikka erishildi, munosabat, did, odatlar andozalashdi. Ommaviy madaniyat hissiz, shaxsiz madaniyatlar davriga olib keldi.

Texnika so`zining o`zi mahorat, san'atni anglatadi. Insonlar jamiyati paydo bo`lishi bilan amalda texnika paydo bo`ldi. Dastlab kishining mehnat faoliyatiga yordam beruvchi mehnat quroli, keyinchalik, har xil maqsadlarda ishlatiladigan texnikaning boshqa turlari vujudga keldi.

Texnikaning xususiyatlari shundaki:

1. Texnika sun'iy ravishda, kishilar tomonidan tabiatni o`zgartirishi natijasida yaratilib, oqibatda, oldindan yaralgan ideal andozalar moddiylikda mujassamlanadi;

2. Texnikaning ommaviy xususiyati - u avvalo, kishilarni amaliy ehtiyojlari bilan bog`liq bo`lib, shu ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi;

3. Texnikaning muhim parametrlaridan biri ratsionallik hisoblanadi, ma'lum jamiyat doirasida u yoki bu texnika qurilmasini ma'lum qadar tezroq ishlab chiqarishga mo`ljallanadi.

Texnika madaniyatning favqulodda hodisasi sifatida jamiyat va tabiat o`rtasidagi munosabatni ta'minlaydi, u ijtimoiy madaniyat jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Texnika taraqqiyoti insonning tabiat ustidan hukmronlik qilishida uning imkoniyatlarini kengaytirdi, madaniy va ijtimoiy o`zgarishlarni muqarrar amalga oshiradi.

Texnokratiya – jamiyatdagi shunday kuchki, u jamiyatning texnik texnologiya taraqqiyoti istiqboli xususidagi ilmiy bashoratida nufuzli ilmiy xulosalarga tayanadi. Insoniyat jamiyati bilan uni o`rab turgan tabiiy-iqlimiy, sotsiol-madaniy muhitning aloqadorligi muammolarini o`rganuvchi sotsial ekologiya shakllandi. Ekologiyaning tabiiy-sotsial muhiti inson, uning genofondi, odamni bugungi olamga moslashish jarayoni xususiyatlarini tadqiq etuvchi mustahkam tarmog`i «inson ekologiyasi» vujudga keldi.

XX asr o`rtalaridan fan va texnika taraqqiyoti kuchli axborotlar yig`imini paydo qildi. Ommaviy axborot vositalari matbuot, kino, radio, televideniya, kompter aloqasi zamonaviy sotsmadaniyat jarayonida salmoqli o`rinni egallay boshladi. Haqiqattan ham zamonaviy madaniyatning holisona tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, ma'naviy madaniyat ko`proq ommaviylik kasb etib bormoqda.

Ommaviy madaniyatning qiyofasi quyidagicha:

1. U millati, yoshi, joyi, iejtimoiy xususiyatlarga bog`liq bo`lmagan ommaviy iste'molchilarga ega bo`ladi;

2. Bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonining o`zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus ko`rinishini o`zida namoyon qiladi.

3. Ommaviy madaniyat kishilarni hayotni befarq kuzatuvchi tomoshabinga aylantiradi. O`zlari ham mavjud hayotni go`yo sarob kabi tasavvur qiladilar.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Diniy madaniyat va uning asosiy belgilari deganda, nimani tushunasiz?

2. Diniy madaniyat madaniy taraqqiyotning qaysi davrini ifodalaydi?

- 3..Diniy taraqqiyotda xristianlik va islomning tutgan o`rni.
- 4.Diniy madaniyat elementlarining ma'naviy hayotga ta'siri.
- 5.Diniy madaniyat bag`rida qanday submadaniyatlar amal qiladi?
- 6.O`rta asrning adabiyoti, san'ati va me'morchiligiga oid yodgorliklarni so`zlab bering?
- 7.Umuminsoniy madaniyatda diniy madaniyatning o`rni.
- 8.Texnika, va uning asosiy harakterli belgilari.
- 9.Texnogen va uning shakllanish jarayoni.
- 10.Texnogen madaniyat bilan ommaviy madaniyatning o`zaro bog`liqligi.
- 11.Ommaviy madaniyatning salbiy tomonlarini nimada ko`rasiz?
- 12.Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz, uning zarurligi?

Amaliy mashg`ulotlarining ta'lim tyehnologiyasi

6-mavzu : *Dunyoviy va diniy madaniyat* 1.1.Ta'lim berish tyehnologiyasining modeli.

| | |
|--|--|
| Mashg`ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-25 gacha |
| Mashg`ulot shakli | Kirish-ahborotli ma'ruza. |
| O`rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o`zgarishlar. Iudaizm va Tavrot. Masihiylik ta'limoti Sharqning falsafiy tafakkuri mahsuli sifatida. Islomiy madaniyat. Islomda ilm o`rganish tashviqi va targ`iboti. Turkiy qavmlar yashaydigan o`lkalarda islomning yakdilikka chorlovchi g`oyalari. Islom va ilmiy bilimlar rivoji. | O`rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o`zgarishlar. Iudaizm va Tavrot. Bibliyaning tarkibiga kiruvchi kitoblar. Eski Ahdda olamning ibtidosi to`g`risidagi chuqur mushohadalar, odamlar o`rtasidagi munosabatlar, axloqiy mezonlar, ma'naviy qadriyatlar va boshqa ko`plab falsafiy g`oyalar, axloqiy o`gitlar. Muruvvat va Futuvvat muvofiqligi. Futuvvatning zohiriy va botiniy ruknlari haqida. |
| O`quv mashg`ulotning maqsadi: | O`rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o`zgarishlar. Iudaizm va Tavrot. Bibliyaning tarkibiga kiruvchi kitoblar. Eski Ahdda olamning ibtidosi to`g`risidagi chuqur mushohadalar, odamlar o`rtasidagi munosabatlar, axloqiy mezonlar, ma'naviy qadriyatlar va boshqa ko`plab falsafiy g`oyalar, axloqiy o`gitlar. Musiqa. O`tmish an'analariga sadoqat, vorisiylik haqida tasavvurga ega bo`lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Ko`rgazmali,ma'ruza,suhbat, zaif halqa |

| | |
|--------------------------|---|
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Myetodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

Dunyoviy va diniy madaniyat amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim beruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|--|--|--|
| Tayyorlov bosqishi (5 daqiqa) | 16. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 17. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tyekshiradi 18. Davomatni nazorat qiladi | |
| 1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqishi (10 daqiqa) | 1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Talabalarni kishik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yisha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timedralardan foydalanadi 4. 5. Mavzular asosida byerilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va hulosalaydi, faol ishtirokshi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kishik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 8 yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi hulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

MADANIYATSHUNOSLIK FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI (INTEGRASIYASI)

Dunyoviy va diniy madaniyat mavzusi O'zbekiston tarixi, falsafa, sotsiologiya, etnografiya fanlari mavzulari bilan bog'liq.

TALABANING BAZIS BILIMINI BAHOLASH UCHUN SAVOLLAR

O`rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi keskin o`zgarishlar. Iudaizm va Tavrot.

Masihiylik ta'limoti Sharqning falsafiy tafakkuri mahsuli sifatida.

Islomiy madaniyat. Islomda ilm o`rganish tashviqi va targ`iboti.

Turkiy qavmlar yashaydigan o`lkalarda islomning yakdilikka chorlovchi g`oyalari. Islom va ilmiy bilimlar rivoji.

7-mavzu: *Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti*

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr)

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|--|--|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-80 gasha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-axborotli ma'ruza. |
| Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy manbalar: Markaziy Osiyo madaniyatining o`ziga xosligi. Alisher Navoiy va Uyg`onish davri. "Xamsa" dostoni – Uyg`onishning eng yorqin mahsuli sifatida. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. O`zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi. | Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy manbalar: O`rxun – Enasoy yodgorliklari, yunon muarrixlarining asarlari, qadimgi Xitoy yilnomalari. O`rta Osiyoda Uyg`onishning uch davri. Har bir bosqichda Uyg`onishning asosiy belgilari. Alisher Navoiy va Uyg`onish davri. "Xamsa" dostoni – Uyg`onishning eng yorqin mahsuli sifatida. Uyg`onish davrining ideali. Uyg`onish davri dostonlari qahramonlarining romantik qiyofada tasvirlanishi. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. Obodonchilik ishlari. Mirzo Ulug`bek davrida Samarqandda ilm-fan rivoji. "Ziji jadidi Ko`ragoniy" asari. Adabiyotning rivojlanishi. O`zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi. Hozirgi zamon fanida bu davr temuriylar davri Renessansi deb atalishi va uning ahamiyati. |
| O`quv mashg'ulotning maqsadi: | Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy manbalar: O`rxun – Enasoy yodgorliklari, yunon muarrixlarining asarlari, qadimgi Xitoy yilnomalari. O`rta Osiyoda Uyg`onishning uch davri. Har bir bosqichda Uyg`onishning asosiy belgilari. Alisher Navoiy va Uyg`onish davri. "Xamsa" dostoni – Uyg`onishning eng yorqin mahsuli sifatida. Uyg`onish davrining ideali. Uyg`onish davri dostonlari qahramonlarining romantik qiyofada tasvirlanishi. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. Obodonchilik ishlari. haqida tasavvurga ega bo`lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Kurgazmali, ma'ruza, suhbat |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O`quv qo`llanma, darslik, ma'ruza matni, kom`pyuter |

| | |
|-------------------------|--|
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat:savol-javob. |

**Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti
Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi –
XV asr)**

ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim beruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|----------------------------------|--|---|
| Tayyorgarlik bosqishi (5 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 1. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yisha savollar beradi. | Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar Tinglaydilar |
| 7- Yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Mavzu bayoni :

REJA:

- 1.Turk xoqonligi davri madaniyati. Yodgorliklar, bitiktoshlar va yozuv madaniyati.**
- 2.Arab istilosi davrida madaniy hayot**
- 3.Amir Temur barpo etgan markazlash gan davlatda madaniy maishiy hayotni rivojlantirish shart-sharoitlari.**
- 4.Temuriylar davrida ilm-fan ada biyot ahli. Tasaviriy san'at rivoji.**
- 5.Temur va temuriylar madaniyatining Markaziy Osiyo va jahondagi tutgan o`rni.**

Eramizning I ming yilliklar o`lkamiz hayotida eng muhim bo`lgan 2 yirik hodisa Turk hoqonligining paydo bo`lishi va islom dinining tarqalishi sodir bo`ldi. Ularning birinchisi, turk xalqlarining madaniyati va sivilizatsiyasiga asos solgan bo`lsa, ikkinchisi, turk xalqlarining butun musulmon xalqlari bilan e'tiqodiy birlashishiga, ular o`rtasida madaniy aloqalarning mustaxkamlanishiga yo`l ochib

berdi. Turk madaniyati quruq erda paydo bo`lmadi, albatta. O`rta Osiyo xalqlari o`z yozuvlari, diniy-e'tiqodiy qarashlari va xo`jalik yuritish madaniyatiga ega ediki, turk xoqonlari bularni xisobga olishga majbur bo`ldilar. Natijada o`lkadagi 15 ta davlatda boshqarish tizimlari saqlanib qoldi.

Eng muhimi shundaki, «Qadimgi turklar xunlar davrida hali rivoj topmagan, ammo III-V asrlarda unitilayotgan dasht madaniyati negizlarini hayotga juda keng tarzda tadbiq etdilar. Ammo ular O`rta Er dengizi madaniyati bilan Uzoq Sharq madaniyati o`rtasida aloqalar o`rnatilishiga vositalik qiladilar». (L.N.Gumilev Drevnie tyurki. M.1993 y.) Xuddi shuningdek. L.N.Gumilevning yozishicha, ular, bu madaniyatni Xitoy, Eron, Vizantiya va Xindiston madaniyatiga qarshi qo`yish mumkin deb hisoblaganlar.

O`rta Osiyo Turk xoqonligiga qaram bo`lishsalar-da, undagi davlatlar o`rtasidagi tinmay nizolar davom etdi. Aynan mana shu vaziyat VIII asrda O`rta Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishiga yordam beradi. O`tmish ajdodlarimizning bizgacha etib kelgan madaniy merosi namunalari ularning o`z zamonasida to`laqonli madaniy hayot kechirganliklaridan, jahon sivilizatsiyasi xazinasidan munosib ulush qo`sha olganliklaridan dalolat beradi.

G`oyat boy ilmiy madaniy qimmatga molik bo`lgan ko`hna Urxun Enisey yozuvi bilan mashhur bo`lgan va necha ming yillar davomida o`troq hayot kechirib, xilma-xil ixtirolar, kashfiyotlarni yaratgan, ipak yo`li orqali tutashib, dunyoning etti iqlimiga o`z zebu ziynat matolariyu qimmatbaxo madanlari bilan tanilgan O`rta Osiyo xalqi feodal o`rta asrchiligi sharoitida ham madaniy jihatdan ancha yuksalish bosqichiga ko`tarilgan edi. VI-VII asrlarda Samarqand, Buxoro, Xorazm (Fil-qiyot) kabi shaharlar obodonlashdi. Yangi sun'iy sug`orish inshootlari, kanal va ariqlar o`tqazilib, sug`orish ishlari avj oldirib yuborildi. Savdo aloqalari rivojlandi. Savdo karvonlari qo`nadigan ko`plab karvonsaroylar, rabotlar savdo-sotiq rastalari paydo bo`ldi. Shahar va qishloqlarda hunarmandchilik ishlari rivoj topdi. Paxta va ipak tolalaridan turli xil matolar to`qish, oltin va kumushlardan nafis zeb-ziynat mollari ishlab chiqarish, harbiy qurol-aslahalar yasash keng yo`lga qo`yildi. Me'morchilik ancha rivojlandi. Buni Buxoroda 40 chaqirim narida o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan Varaxsha shahri harobalari timsolida ko`rish mumkin. Topilgan bir necha katta va kichik zallardan iborat qasr devorlari va shiftlariga naqshli suratlar, dekorativ tasvirlar yuksak mahorat bilan ishlanganligining guvoxi bo`lamiz. Ularda oq fillar ustida turgan chavandozlarning o`zaro olishuvi, chopayotgan yirtqich hayvonlar ajabtovur parrandalar hamda tulpor otlarda qurollangan holda olg`a ildamlayotgan suvoriylar tasviri g`oyatda jonli tarzda ifodalangan.

Samarqanddan uncha uzoq bo`lmagan Panjikent (Tojikiston)dan topilgan devorlarga ishlangan rassomchilik namunalari ham o`sha davr madaniy taraqqiyotining yuqori darajada bo`lganligiga guvohlik beradi.

O`zbek arxeologlari ochgan yana bir noyob tarixiy topilma—bu Samarqand atrofidagi Afrosiyob bo`lib, undagi shahar topilmalari, ko`rgazmalari ajoyibligi bilan kishi e'tiborini tortadi. Podshoning katta hashamdor saroyi xonalari, ularning devorlariga o`yib solingan bezaklar, lavhalar, bitilgan so`g`d yozuvlari feodal O`rta Osiyoning o`sha davrdagi yuksak madaniy taraqqiyoti bosqichidan dalolatdir.

1957 yilda Farg`ona vodiysidagi Quva shahrida budda ibodatxonasining qoldiqlari topildi, arxitektura va haykaltaroshlikka oid ajoyib namunalari ham qazib olindi. Ibodatxona hujjatlari shundan dalolat beradiki, O`rta Osiyoning boshqa hududlarida 7 asrlarda zardushtiylik dini hukm surgan bir kezda Farg`ona tuprog`ida budda dini ko`proq o`rin egallagan ekan.

1955 yilda Surxondaryoning Bolaliktepa degan joyidan topilgan qadimgi budda ibodatxonasi qoldiqlari hamda tasviriy san'atning nodir namunalari, devorlarga o`yib ishlangan o`ymakorlik namunalari feodal madaniyatining O`rta Osiyoda yuksak darajada rivoj topganligidan dalolat beradi. Eftalitlar davridan so`ng buddizm va u bilan bog`liq bo`lgan diniy urf-odatlar ham yo`qola boradi. Arablar iste'losiga qadar So`g`d, Xorazm, Farg`ona va Ettisuv hududlarida birmuncha o`zgargan shaklda zardushtiylik, ya'ni otashparastlik dini ko`proq tarqalgan edi. Buxoro Samarqand singari shaharlarda hatto «olov uylari» mavjud bo`lib, ularda doimo mangu muqaddas olov saqlangan. Odamlar istiqomat qilgan xonadonlarda inson qiyofasiga taqlid qilingan sig`inadigan katta-katta haykalchalar bo`lgan. Odamlar bu narsa ularga baxt-saodat keltirib, ayni choqda ularni har xil ins-jinslardan, balo-qazolardan asraydi, deb tasavvur yuritganlar. Buxoroda masalan, har yili bir marotaba maxsus bozor tashkil qilinib, unda odamlar sig`inadigan muqaddas haykalchalar harid qilingan.

Aholi o`rtasida har xil baxtsizliklardan, musibatlardan va yomon ko`zlardan saqlaydigan «chiltonlar»ga e'tiqod qilish ham keng odat bo`lgan. Xorazmda suv xudosi «Xubbi» ga sig`inganlar. Farg`ona vodiysida esa bu hol «er xubbi» nomi bilan ma'lum bo`lgan. Hozirda ham bu vodiya shu ko`hna tushunchaga e'tiqod ayrim kekxa avlod kishilari o`rtasida uchraydi Muhammad Narshaxiy, Abu Rayxon Beruniy ma'lumotlariga ko`ra, arablar iste'losiga qadar O`rta Osiyo xalqlari ijtimoiy va madaniy hayotning turli sohalari bo`yicha g`oyat katta yutuq va muvaffaqiyatlarga ega bo`lganlarki, bosqinchi saxroyi arablar ham bunga havas bilan qaraganlar.

O`rta Osiyoda sug`orish ishlarini, ekish texnologiyasini, kanallar sug`orish inshootlari qurilishi texnikasini yaxshi biladigan va ularni ilmiy negizda tashkil eta oladigan ma'lumotli, bilimdon kishilar etarli darajada bo`lgan. Bu erda qadimdan qishloq xo`jaligi jadvalini bilganlar. Manbalarga ko`ra O`rta Osiyoda bolani besh yoshga kirishi bilan yozuv va hisobni bilishga o`rgatganlar, balog`at yoshiga etganda esa uni savdo–sotiq qilish sirlarini o`rgatish maqsadida olis mamlakatlarga yuborganlar.

Samarqand yaqinidagi Mug`tepa hamda Xorazmdagi Tuproqqal'a degan joylardan topilgan hujjatlar va shuningdek So`g`d va Xorazm yozuvlari bitilgan tangalardan ana shu narsaga to`la ishonch hosil qilish mumkinki, So`g`d Xorazm va Baqtriya davlatlarida mahalliy yozuvlar arablar iste'losiga qadar ham mavjud bo`lgan.

O`zbek olimlari M.Isoqov, N.Rahmonov, Q.Sodiqovlarning tekshiruv ishlari shunga guvohlik beradiki, xususan sug`d tangalari zarbi qariyb 800 yilni o`z ichiga oladi (milodiy I–VIII asrlar). Masalan, qadimgi jamoachi otliq surati tushirilgan mayda kumush tangachalar, buxorxudotlar tangalari, V-VIII asrda sug`d podsholari va mahalliy hokimlar tangalari, Choch, Farg`ona vodiylarining so`g`d yozuvi bilan zarb etilgan tangalari (V-VIII asrlar), sharqiy o`lkalarda, jumladan, Turk hoqonligi,

turgashlar sulolasi tangalari (VII-VIII asrlar) va boshqalar tanga sathidagi yozuvlarning tadrijiy takomilini ham yaqqol aks ettirgan.

Bu yozuvlarni sinchiklab paleografik tahlil qilish yozuv taraqqiyotinigina emas, balki ijtimoiy tarixni ham chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Qozoq olimi Z.Axmedov feodal davri madaniyati va yozma adabiyoti xususida aniq ma'lumotlarga tayanib shunday yozadi. "Shubhasiz, O`rta Osiyo va Qozog`iston territoriyasida yashagan qabilalar va xalqlar VI-VII asrlarda yozuvga ega edi, xalq og`zaki ijodi rivojlangan, epik an'ana mavjud edi, shuningdek badiiyat nuqtai nazaridan etarli shakllangan turkiy til va lahjalari, boy poetik uslub, nutqning ritmik va tovush ifodaliligi haqida ham gapirish o`rinli. Yuqoridagi ma'lumotlariga asoslangan holda O`rta Osiyoda ilk feodalizm tuzimi qaror topib, mustahkamlanib borgan, madaniy hayot ham o`sib, ravnaq topgan degan xulosa chiqarishimiz mumkin.

Bu o`lkada yashagan turk, massaget, xorazmlik singari xalqlar, elatlar o`ziga xos iste'dod, qobiliyat va g`ayrat-shijoat bilan faoliyat ko`rsatib dastlabki feodal munosabatlari shakllanib borayotgan sinfiy tabaqalanish va ziddiyatli jarayon kuchayib borayotgan kezlarda ham ijtimoiy madaniy hayotning yuksalishiga salmoqli hissa qo`shishga muvaffaq bo`lganlar. Bu borada o`tmish ajdodlarimiz yaratgan va qoldirib ketgan boy tarixiy merosni yanada o`rganib va ularni hali bizga ma'lum bo`lmagan namunalarini ham topish hozirgi avlodlarning moddiy-ma'naviy mulkiga aylantirish har birimizning zimmamizdagi sharaflari vazifalardan biridir.

Islom madaniyati. O`rta Osiyo xalqlari azaldan odam ruhiy olami sirlaridan kengroq voqif bo`lishga, olam va odam munosabatlaridagi jumboqlar tagiga etishga intilib, barcha kishilarni birlashtirib, turadigan kandaydir bir kuch bor degan fikrga ishonib keladilar.

Islom dinining tarqalishiga sabablar:

- 1.O`rta Osiyoning zabt etilishi;
- 2.Islomning kishilar ma'naviy – ruhiy izlanishlarga mos qilish;
- 3.Islomni kerakli kishilarga imtiyozli lavozimlarga tayinlanishi.
- 4.Davlatlar va hoqonlar o`rtasidagi nizolar, o`zaro talon –tarojlarining nihoyasi ko`rinmasligi va o`lkada ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og`irligi.
- 5.Islom madaniyatining mahalliy an'analar, xalq qadriyatlariga moslanganligi.

Ilk islomda badiiy ijod san'atga munosabat ijobiy bo`lmagan. Masalan, yakkaxudolik targ`iboti ostida yog`och tosh va boshqa narsalardan yasalgan haykallar rad qilingan. Jonli narsalarning, odamning suratini chizish taqiqlangan. Hatto hadislarda «ko`p kulmang kulgi dilni o`ldiradi» deyiladi. Biroq og`zaki ijoddan, musiqadan, ifodali o`qish san'atidan foydalanmasdan turib kishilar qalbini zabt etish mumkin emasligini islom yaxshi tushungan. «Qur'oni Karim»da badiiy-estetik ifoda, miflar etarlicha topiladi. Ifodali o`qish esa islom targ`ibotida keng qo`llaniladi. O`rta asrlardayoq Qur'onni musulmonlar, badiiy mahorat durdonasi deb bilishgan.

Islom Ollohni, Muhammadni ulug`lovchi asarlarni, ayniqsa, poetikani keng qo`llab quvvatlagan. Biroq poetika diniy mistik g`oyalarga o`ralib qolishi mumkin emasdi. Sharq mutafakkirlari badiiy ijodida Olloh va Muhammad payg`ambarni sharaflovchi asarlar ko`plab uchrasada ular odam, uning his-tuyg`ulari, el yurt oldidagi burchi, yaqin kishilarga sadoqati, xullas insoniy xislatlarini unutganlari yo`q.

Hatto diniy-mistik qarashlar ijodida ustun turadigan Yassaviyning asarlarida odam va olam, insonning ichki ruhiy kamoloti, mehr-muhabbati, burchlari va jamiyatga munosabatlari o'z o'rnini topgan. G'azzoliy esa falsafiy muammolarni inson va olam muammolari bilan badiiy so'z vositasida shunday bog'laganki, uning asarlari ba'zan his-tuyg'ularga to'la badiiy asarni eslatadi. Eron badiiy adabiy tili esa, ayniqsa, poetik ijodiyotda, arablar va islom ta'sirida shakllanadi. Andalusiya (Ispaniya) arab tili madaniyatining tarqalishi IX asrdan boshlab shakllangan andalus madaniyati ham islom ta'siridabo'lgan.

O'rta Osiyo xalqlari badiiy madaniyatida islom ta'siri mavjud bo'lsada u o'zining islomgacha bo'lgan tarixiy madaniy ildizlaridan butunlay ajralgan emas edi. Masalan, IX-XIII asrlardagi O'rta Osiyo xalqlari san'ati «arabcha» ham, «musulmoncha» ham emas, balki savdo hunarmandchilikka asoslangan feodal shaharlarining o'ziga xos rang-barang ko'rinishlaridagi san'at edi. Uning asosini madaniy taraqqiyotning bosh omili- xalqchilik tashkil etadi. Shu bilan birga islom tarqalgan barcha o'lkalarda bo'lganidek, O'rta Osiyo xalqlari badiiy madaniyati shakllanishida ham islomiy qarashlarning o'rni benihoya katta. Hattotlik, me'morchilik, hunarmandchilik poetika, musiqa, naqqoshlik san'atlarida ular yaqqol o'z ifodasini topgan. «Hattotlik san'ati, ajoyib me'morchilik shakli va ziynati mujassamlashgan masjidning an'anaviy qiyofasi diniy nuqtai nazardan ma'noli va tabarruk hisoblangan. Hattotlik o'z mohiyatiga ko'ra ilohiy so'zning yozma shakli deb hisoblangan, shu boisdan masjidlar binosida, albatta Qur'ondan olingan yozuvlar bo'lgan. O'z navbatida masjidlar Oллоhning so'zlari o'qitiladigan ibodat joyi hisoblangan». (Islom spravochnik. T.,1989. 151 bet)

Enisey bitiklari. Mashhur rus haritograf olimi S.U. Remezov tarafidan 17 asr oxirida Enisey havzasida topilgan. Undan keyin bu haqda shvetsiyalik harbiy asir F. Stralenbrng (Tabbert) ma'lumot beradi. U Enisey havzasidagi qablardan toshga o'yib yozilgan notanish xatlarni topgan. Bu yozuv haqidagi ma'lumotlar birinchi marta o'tgan asrning birinchi choragida «Sibirskiy vestnik» oynomasida e'lon qilindi. 1889 yili fan olimlari Eniseydan topilgan yozma yodgorliklar haritasini tuzdilar.

Mo'g'ilistondan topilgan bitiklar. Bular orasida To'nyuquq, Kultegin, Bilga hoqon va Ongin bitiklari muhim o'rin tutadi.

To'nyuquq bitigi. Ulan-Batordan 66 km sharqi-janubda, Bain Sokto manzilida joylashgan ikkinchi Turk hoqonligining asoschisi Ilderish hoqonligining asoschisi Ilderish hoqonning maslahatchisi sarkarda To'nyuquqqa bag'ishlangan. 712-716 yillar orasida yozilgan. 1897 yili rus olimi D. K. Klementslar tarafidan ochilgan; V. V. Radlov, (1899), V, Tomsen(1922), X. Sheder (1924y), D. Ross (1933y) tarafidan yaxshi o'rganilgan va matni nemischa, daniyacha, inglizcha va ruscha tarjimalari bilan chop etilgan. G'.A.Abdurahmonov hamda A.Rustamov tomonidan o'zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan(1982).

Kultegin bitigi Bilga hoqonning (716-734) inisi Kultegin sharafiga yozilgan. Mo'g'ilistonning Kosho Saydan vodiysida Ko'kshin Urg'un daryosi bo'yida rus arxeolog va enograf olimi N. M. Yadretsev (1842) – 1894 yil tomonidan 1889 yili topilgan. Bitik V.V.Radlov (1891)yil, A.Xeykel (1892) yil, V.Tomsen (1896), P.M.Melioranskiy (1897)lar tomonidan nemischa, frantsuzcha, ruscha, tarjimalarda

chop etilgan. G`A.Abdurahmonov va A.Rustamov tarafidan qilingan qisqacha o`zbekcha tarjimasi (1982 yil) ham bor.

Bilga hoqon bitigi. Yuqorida zikr etilgan Kultegin bitigidan bir km. janubiy-g`arbdan Ko`kshin O`rxun daryosi havzasidan topilgan. Yodgorlik 735 yili bitilgan. Bu yodgorlik V.V.Radlov, S.E.Malov, P.M.Melioranskiy va V.Tomsen tomonidan o`rganilgan va chop qilingan .

ISLOM DINIDAN:

- Harom narsalardan saqlaning – odamlar ichida ibodatliroq bo`lasiz.
- Ollohning taqsim qilgan rizqiga rozi bo`ling–odamlarning bayrog`i bo`lasiz
- Qo`shningizga yaxshilik qiling - tinch bo`lasiz.
- O`zingiz sevgan narsani odamlarga ham ravo ko`ring–salomat yurasiz.
- Odamlarning yuziga urushdan saqlaning.
- Aroqdan saqlaninglar, chunki u barcha yomonliklarning kalitidir -Tangri nazdida eng yaxshi gap – rost gapdir.
- Tangri nazdida eng ma'qul jihat – zolim podshoga aytilgan haq so`zdir.
- Inson xatosini ko`proq o`z tili bilan sodir qiladi.
- Amirning sovg`a olishi harom, qozining pora olishi dindan chiqishidir.
- Rostgo`ylik ezgulikka chorlaydi, ezgulik esa jannatga.
- Yolg`onchilik yovuzlikka chorlaydi, yovuzlik jahannamga.
- Dinda haddan tashqari g`ururlanib (berilib) ketmanglar, chunki sizlardan ilgari o`tgan qavmlar dinda haddan tashqari g`ururlari sababli halok bo`lganlar.
- Tonggi uyqu rizq qirqar.

Al-Buxoriy hadislaridan birida hikoya qilishlaricha, Mahammad a.v.s. ko`pincha: “Ey rabbim! Men sendan tan sog`lig`ini, nafsning yomon yo`llarga boshlashdan saqlanishni, o`zingga va xalqlaringga ishonchli bo`lishni, yaxshi axloqda bo`lish va taqdirga rozi bo`lishga muyassar qilishingni so`rayman”, - deb duo qilarkanlar.

«Vidolashuv haji» paytidagi Vido xutbasida Muhammad payg`ambar o`zining axloqiy qarashlarini quyidagi so`zlarida ifoda etadi:

“Ey insonlar! Xotinlarning haqlariga rioya etingiz. Ular bilan shafqat, mehr ila muomalada bo`lingiz. Hech kimning boshqalardan ustunligi yo`qdur. Sharaf va ustunlik faqat fazilat xilidir. Har bir musulmon musulmonning birodaridir. Haqsizlik qilmang! Haqsizlikka bo`yin egmang! Odamlarning haqlarini emang. Bir-biringiz bilan bug`ishmang... Har bir jinoyatchi o`z aybiga faqat o`zi javobgardir. Hech bir jinoyatchining gunohi uchun avlodi jazo tortmaydi.

Temur va temuriylar davri O`rta Osiyo madaniyatida alohida davrni tashkil qiladi. Bu davr madaniyati Temur asos solgan kuchli davlatchilik tamoyillari asosida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog`liqdir. Amir Temur davrida O`rta Osiyoning mustaqil bir davlat qilib birlashtirilishi mamlakatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko`rsatdi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va me'morchilik ravnaq topdi. Mamlakat va poytaxt Samarqandning obodonchiligi yo`lida mahalliy va chet mamlakatlardan ko`plab fan va san'at ahllarini, hunarmand me'morlarni va musavvirlarini to`pladi.

Qishloq xo`jaligida sun'iy sug`orishga alohida e'tibor berildi. Angor kanali qazildi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari oqar suv bilan ta'minlandi, lalmikor erlarda ariqlar qazildi. Donli ekinlar, paxta, zig`ir ekildi. Pillachilik rivojlantirildi. Uzum, limon etishtirildi.

Ulug`bek davrida qo`ychilik va yilqichilikka alohida e'tibor berilgan. Tog`-kon ishlari yo`lga qo`yilgan. Turli ma'danlar qazib olinishi tufayli temirchilik, hunarmandchilik rivojlangan.

Hunarmandlar shaharning madaniyatli tabaqasiga mansub bo`lgan. To`qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik sohalari rivojlandi. Samarqand, Buxoro, Termiz, Shahrisabz, Qarshi shaharlarida yangi hunarmandchilik mahallalari qurilib, savdo markaziga aylandi. Ip. jun, kanop tolasidan gazmollar to`qilgan. Ipakdan shoyi gazlamalar atlas, kimxob, banoras, duxoba, xoro, debo kabi gazmollar to`qilgan.

XU1 asrda metall buyumlar uy-ro`zg`or buyumlari, asbob-uskunalar, qurol-yarog`lar ko`plab ishlab chiqarilgan. Amir Temur farmoni bilan usta Izoddin Isfaxoniy yasagan jez qozon va shamdon hozirgacha saqlanib qolgan. Misgar va chalangarlar metallni toblash, qo`yish, sirtiga naqsh solish, oltin va kumush suvi yuritish kabi murakkab ishlarni bajarganlar.

Bibixonim masjidi eshiklari etti xil ma'dan qotishmadan tayyorlangan. Zargarlar oltin, kumush va jez qotishmalaridan nafis zeb-ziynat buyumlari yasaganlar. Oltin va kumush gardishli qimmatbaho toshlar qadaladigan idishlar sirtiga naqsh va yozuvlar ishlangan.

Samarqandda shishasozlik rivojlanib, turli idish va buyumlar yasalgan. Qurilishda rangli oynalardan foydalanilgan.

Yog`och o`ymakorligida naqshin binolar qurilgan va buyum jihozlar yasalgan.

Samarqand qog`ozi hatto chet o`lkalarida mashhur bo`lgan.

Temuriylar davlati Xitoy, Hindiston, Eron, Rusiya, Volga bo`yi, Sibir bilan savdo-sotiq aloqalari olib borgan. Savdo rastalari, bozorlar va yo`llar qurilgan, karvon saroylar ko`paytirilgan. Samarqand va Buxoro savdo maydonlarining kengligi va ixtisoslashtirilgan bozorlarga egaligi bilan ajralib kelgan. Bozorlarda adabiyot, she'riyat, ilm-fan haqida suhbatlar uyushtirilgan. Farmonlar e'lon qilingan va aybdorlar jazolangan. Turli tomoshalar shu joyda ko`rsatilgan. Masjid, madrasa, hammom bozorga yaqin joyga qurilgan. Ariza yoki maktub yozuvchi mirzolar ham bozorlarda o`tirgan.

Temuriylar davrida karvon yo`llarida elchilar, choparlar va savdo karvonlari uchun dam olish, otlar almashtirish joylari qurilgan.

Temuriylar davrida me'morchilik.

Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namoyon bo`ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan “qudratimizni ko`rmoq istasang – binolarimizga boq!” degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temuriylar davrida Mavoraunnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko`chalar, ma'muriy majmualar keng ko`lam kasb etdi.

Temuriylar davrida Kesh shahri qurilishi yakunlandi. Oqsaroy atrofida rabotlar, bog`-rog`lar qurildi. Samarqand Afrosiyob janubida mug`ullar davridagi ichki va

tashqi shahar o'rnida qurila boshladi, hamda bu maydon qal'a devori va handak bilan o'ralib (1371y.) Hisor deb ataldi. U 500 gektardan iborat bo'lib, shaharga 6ta darvoza qurilgan. Shaharda me'moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug'i bo'ldi. Me'morchilik taraqqiyotining yangi boqichiga ko'tarildi. Bu jarayon muxandislar, me'morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo'ydi. Temuriylar davrida gumbazlar tuzilishiga qirralar oralig'i kengaydi. Bezak va naqsh me'morchiligida ko'p ranglilik, xilma-xillik kuzatiladi. Hattotlik san'atini mukammal egallagan ustalar ma'morchilikda olti xil yozuvda ishlagan.

Oqsaroy peshtoqlarida sher va quyoshning juft tasviri uchraydiki, u ramziy ma'noga ega. Temur va Ulug'bek davrida bino ichining bezagi ham xilma-xil bo'lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatlangan. Temuriylar davrida qurilgan binolarda ko'k va zarhal ranglar ustun bo'lib, dabdabali naqshlar ishlangan. Ulug'bek davrida Xitoy chinnisiga o'xshash oq fondagi ko'k naqshlar ko'p uchraydi.

Temuriylar davrida qurilgan me'morchilik obidalari:

- Temuriylar davrida Samarqanddagi Jome masjidi (1399y.), Bibixonim madrasasi va maqbarasi, Shayx Burxonidin Sag'orjiy xilxonasi; Ruhobod maqbarasi va Tumuriylar xilxonasi; Go'ri Amir, Shoxizinda majmuasida peshtoqli maqbaralar guruhi quriladi.

-Toshkentda Zangi ota maqbarasi va Shayxontohur majmuasi, Qaldirg'ochbiy maqbarasi quriladi. (XU asr).

-Ulug'bek Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasalar bunyod ettirdi (XU asr).

-Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi barpo qilindi. U musulmon Sharqining me'moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir. -Buxoroda Chashmai Ayub (1380y.) yodgorligi kurdirildi.

-Shaxrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun "hazira" – "Dor us-Siyozat" (1389-1400y) xilxonasi qurildi. O'g'li Jahongir vafot etgach Shaxrisabzda maqbara (Hazrati Imom) qurildi.

-Temur Samarqand shahri tashqarisida 12 ta bog` va saroylar bunyod ettirgan.

-Ulug'bek davrida Samarqandning Registon maydoni shakllandi. "Masjidi Muqatta", 210 gumbazli Ko'kaldosh jome masjidi, Shoxizindada ayrim maqbaralar, Shaxrisabzda Ko'kgumbaz masjidi, "Chilustun", "Chinnixona" saroylari qurildi.

-XU asrning 2 yarmida Samarqanda Xo'ja Ahror madrasasi, Ishratxona, Oqsaroy maqbaralari bunyod qilindi. -Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi me'moriy san'atning noyob yodgorligidir. Rasadxona diametri 48 metrli aylana shaklda bo'lib, uch qavatdan iborat.

Temuriylar davrida tasviriy san'at:

Islomda jonli narsalar tasviriga sig'inmaslik tasviriy san'atda naqshning ravnaqiga sabab bo'ldi. Hattotlik – qo'lyozma adabiyotning ajralmas bir qismi hisoblangan. Miniatyura – tasviriy san'atiga ham dastlab naqsh sifatida qaralgan.

-Temuriylar davrida Samarqandda miniatyura rassomchilik maktabi tashkil topdi. Hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko'chirma-xomaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo'lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, kichik kompozitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg'unligi, harakatlar aniqligi,

qiyofalarning o'z o'rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi. Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Temuriylarning saroy – qarorgohlarida qabul marosimlari, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tushirilgan devoriy suratlar yaratilgan. Temur, o'g'illari, nabiralari ayollari va kanizaklari tasviri bu devoriy suratlarda aks ettirilgan.

Ulug`bek davrida ham devoriy suratlar mavzu jihatidan rang- barang bo`lib, uslubiy jihatdan miniatyura janriga yaqin bo`lgan. Samarqand rasadxonasida 9 falak ko`rinishi, etti yulduz-yoritqich daraja, vaqt bo`limlar, Er yuzining etti iqlimi tasvirlangan.

Miniatyuralar rassomchiligining taraqqiyoti adabiyotning rivoji bilan bog`liq bo`lgan. Musavvirlar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so`ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlagan. XIV asrda “Jome' ut-tavorix”, “Tarixi Rashidiy” kabi tarixiy asarlarga ham miniatyuralar ishlangan. Bu an'ana Temuriylar davrida ham davom ettirilib, “Zafarnoma” va “Temurnoma” asarlarida jang lavhalari tasvirlanadi. Badiiy asarlarning ba'zilarida Muhammad payg`ambarning (yuzi niqopda) odamlar orasida turgan holati va me'rojga chiqishlariga oid lavhalar uchraydi.

XV asr miniatyuralarining aksariyatida sharq shariyatining qaxramonlari - Layli va Majnun, Xusrav va Shirin, Rustam, jang lavhalari tasvirlanadi.

Samarqand miniatyura maktabiga xos bo`lgan 18 ta miniatyuralar Nizomiyning “Hamsa asariga va 49 ta miniatyura “Shoxnoma” asariga ishlangan bo`lib hozir Turkiya kutubxonasida saqlanadi.

Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy hunarmandchilikning turli shakllari namoyon bo`ldi. Badiiy hunarmandchilik asosan me'morchilik bilan bog`liq bo`lmay, koshinkorlik kulolchiligi, yog`och va tosh o`ymakorligi bilan ham bog`liq edi. Qabr toshlariga qisman o`simliksimon, asosan geometrik nazmlarida hattotlik namunalari bilan so`zlar bitilgan.

Yog`och o`ymakorligida Go`ri Amirda, Shoxi Zinda, Yassaviy maqbaralari, eshiklari, shuningdek XV asrga oid uy ustunlari naqshlari bilan ishlangan. Temur va Ulug`bek davrlarida metall o`ymakorligi taraqqiy etadi. Buyum va idishlar oltinsimon bronza, latun, qizil misdan ishlangan. Naqshlar o`yib bo`rtma usulda, qimmatbaho toshlar qadalib tayyorlangan. Yassaviy maqbarasi ulkan shamdonlar, ayniqsa ikki tonnalik qozon bronza quyish san'atining eng yuksak namunasidir.

Amaliy san'atning kulolchilik turi uchun yashil zangori tUSDagi yorqin sir ustiga sodda o`simlik nomi naqshlarini qora bo`yoqlar bilan tushirishga yoki o`yma gullar ishlanishi, bu davrda paydo bo`lgan oppoq idishlarga sir ustidan kobal't yordamida naqsh berilishi yangilik edi. Temur va Temuriylar davrining amaliy san'at turlaridan to`qimachilik, gilamdo`zlik, kashtachilik yuksak san'at darajasiga ko`tarildi.

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g`amxo`rlik qilishi tufayli Samarqand duyoning ma'rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar Samarqandga keldi. Masalan, Qozizoda Rumiy, tabib Xusomiddin Kermoniy, falakiyotshunos Mavlano Axmad Ulug`bek davridan kelgan 100 dan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko`rsatgan. Temur va temuriylar zamonida tabiiy va gumanitar fanlar sohasida buyuk olimlar etishib chiqdi va jahon faniga munosib hissa qo`shdi. Falakiyotshunoslik fanida

Ulug`bek, Qazizoda Rumi, G`iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlar qildi.

Tarix ilmida Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy, Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Atoulllo Husayniy, Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san'at asarlari bilan mashhur bo`ldi.

Mirzo Ulug`bek davrida Samarqandda birinchi Akademiyaga asos solindi, Er kurrasini o`lchash va falakiyotshunoslik jadvalarini tuzish ishlari amalga oshirildi. Mirzo Ulug`bek "Zij" asarida VIII-XI asrlarda boshlangan falakiyot ilmiga oid an'analarni davom ettirib, yuqori darajaga ko`taradi. Matematikaga doir "Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola", falakiyotshunoslikka oid "Risolai Ulug`bek" va musiqa haqida "Musiqqa ilmi haqida risola" kabi asarlar yozdi.

Temur va temuriylar davrida xalq og`zaki ijodi namunalari yaratildi. Etuk ijodkorlar Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solix va boshqalar yashab ijod qildi. Ayniqsa o`zbek yozma adabiyotining dunyoviy ko`lamini Alisher Navoiyning ijodi kamolot bosqichiga ko`tardi. Temur va uning avlodlari adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Temuriylardan 22 ta ijodkor-shoir bo`lib, ular o`zlari she'r yozish bilan birga ijodkorlarga homiylik ham qilgan. Halil Sulton, Husayn Boyqaro kabilar o`z she'rlaridan devon tuzganlar.

XIV-XV asrlarda ma'naviy-madaniy rivojlanish islom diniy qarashlarining mustahkamlanib borishi bilan uzviy bog`liq bo`lib, hukmron mafkura sifatida madrasayu masjidlarda keng o`qitilib, o`rganilib, qonun-qoida, odat, an'analar esa shariat asosida olib borilar edi.

"Temur tuzuklari"da din arboblari, shayx Sayyid, ulamolar faoliyatiga alohida o`rin ajratib, ularning davlat ishlaridagi ishtiroki maxsus va bir necha bor qayt etib o`tiladi. Bu davrda shu bilan birga xalq orasida, ayniqsa ziyolilar aqliy mehnat bilan shug`ullanuvchi ilm-fan, san'at, madaniyat xodimlari o`rtasida o`z davrida islom qoidalarini zamona talablari, ijtimoiy yuksalish zarurlari asosida talqin etishga intilish natijasida yuzaga kelgan tasavvuf ta'limoti keng tarqaladi. Bu davrda tibbiyot ilmi ham o`zining yirik namoyondalariga ega edi. Samarqandga kelib ijod qilgan tabobat ilmining yirik vakillaridan Burxoniddin Nafis ibn Evaz hakim al-Xirmoniy, Sulton Ali tabib Xurosoniy, tabib Xusayn Jarrox shular jumlasidandir.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan shug`ullangan yirik olimlar paydo bo`ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir Sa'diddin bin Umar Taftazoniy va Mir Siyyid Jurjoniy nomlari bilan bog`liqdir. Bu davrda axloq va ta'lim tarbiya muammolariga bag`ishlangan maxsus risolalar paydo bo`ldiki, ularning orasida Xusayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylarning merosi alohida o`rin egallaydi.

Temur va temuriy shohzodalar o`z davri tarixini yozib qoldirish Movarounnahr va Xurosonning mo`g`ullar zulmidan ozod etilish tarixini o`rganish va yoritishga katta e'tibor berdilar. Nizomiddin Shomiy, Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofiz Abru, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar temuriylar davri tarixini yozib qoldirdilar.

XIV-XV asrlar O`rta Osiyo xalqlarining musiqa san'ati taraqqiyotida ham yangi bosqich bo`ldi. IX-XII asrlarda shakllangan 12 maqom bu davrda takomillashdi.

Temur va temuriylar davri ma'naviy hayotida diniy falsafa katta o`rin tutadi. So`fiylik tariqatida Naqshbandiylik tariqati rivojlanib, barcha ijtimoiy-ma'naviy sohalarga o`z ta'sirini ko`rsatdi. XV asrda Naqshbandiya tariqatining davomchisi Hoja Ubaydullo Ahrordir. Samarqandga kelgan Hoja Ahror Valiyni temuriylar o`zlariga pir deb biladi.

Xulosa qilib aytganda, O`rta Osiyoda Temur va temuriylar davrida madaniyat rivojlandi va kamol topdi. XIV-XV asrlardagi Mavoraunnahr va Xurosondagi madaniy taraqqiyotning tamal toshini buyuk sohibqiron Amir Temur qo`ygan edi.

XVII-XX asrlarda Markaziy Osiyo madaniyati

Shayboniylar va ashtarxoniyalar davri (XVI-XVIII asrlar)da mamlakat feodalizmning murakkab jarayonlarini boshidan kechirdi. XVI asrda hunarmandchilikning rivojlanishi tranzit va ichki savdoning kengayishiga yordam berdi. Bu davrda hunarmandchilikning 60 dan ortiq turi mavjud edi. Markaziy Osiyo, Hindiston, Eron, Balx, Rossiya, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq diplomatik aloqada bo`lgan. XV -XVI asrlarda Movarounnahrda ilm fan ancha rivojlandi. Adabiyot tarix, me'morchilik va tasviriy san'at, o`ziga xos rivojlanish bosqichin bosib o`tdi.

Hasan Buxoriy Historiy (1566) ning "Muzakkar ul-ahbob" va Mutribiyning (1604) "Tazkiratushshuaro" nomli adabiyot antologiyasi buning yaqqol ifodasidir. Bu qomusiy antologiyada yuzdan ziyod adabiyot, arboblarning ijodlari va tarjimai hollari o`rin olgan. Mamlakatda hunar va savdo ishlarining rivojlanishi ilm ahlining ijtimoiy doirasi kengayishiga ta'sir ko`rsatdi.

Bu davrning o`ziga xos xususiyati shundaki ko`plab tarixiy va adabiy asarlar o`zbek tilida yozildi. Muhammad Solixning "Shayboniynoma" asari o`zbek tilida yozilgan. Bundan tashqari mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning tarixiy asarlari xususan "Zafarnomasi", Ulug`bekka bag`ishlangan "Muntaxabi jome va tavorixi shohiy" degan asarlari o`zbek tiliga o`girildi. Shayboniylar davrida fanning qator tarmoqlari rivoj topdi. 1693 yilda Amin Axmad Roziy "Haft iqlim" – etti iqlim degan jug`rofiy biologiyaga oid lug`at tuzadi. Unga Mutribiyning dunyo haritasi ilova qilinadi. 1541 yilda Muhammad Husayn-as Samarqandiy tibbiyot va farmakalogiyaga oid asar yozadi.

TAKRORLASH UChUN SAVOLLAR

- 1.Movaraunnaxrda XIV-XV asrlarda madaniyat ravnaqining omillari va shart-sharoitlari.
- 2.Temuriylar shajarasini jahon tarixida eng ma'rifatli shajara ekanligini misollar bilan tushuntiring.
- 3.XIV-XV asr Movaraunnaxrdagi madaniy yuksalishining asosiy belgilari.
- 4.Temur va Temuriylarning madaniy siyosatida me'morchilikning o`rni va ahamiyati.
- 5.O`zbek adabiyoti ravnaqida Navoiy, Boburlarning roli.
- 6.Kamolliddin Bexzod ijodining tasviriy san'at rivojidagi ahamiyati.

- 7.Ulug`bek ilmiy maktabining yutuqlari nimada?
- 8.Ulug`bek maktabining jahon fani uchun ahamiyati.
- 9.Temur va Temuriylar davri madaniyatining hozirgi sharoitidagi ahamiyati.
- 10.Temur va Temuriylar madaniy merosini tiklash yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlar.

Amaliy mashg`ulotlarining ta`lim tvehnologiyasi

7-mavzu : Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi -XV asr)

1.1.Ta`lim berish tvehnologiyasining modeli.

| | |
|--|--|
| Mashg`ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-25 gacha |
| Mashg`ulot shakli | Kirish-ahborotli ma`ruza. |
| Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy manbalar: Markaziy Osiyo madaniyatining o`ziga xosligi. Alisher Navoiy va Uyg`onish davri. “Xamsa” dostoni – Uyg`onishning eng yorqin mahsuli sifatida. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. O`zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi. | Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy manbalar: O`rxun – Enasoy yodgorliklari, yunon muarrixlarining asarlari, qadimgi Xitoy yilnomalari. O`rta Osiyoda Uyg`onishning uch davri. Har bir bosqichda Uyg`onishning asosiy belgilari. Alisher Navoiy va Uyg`onish davri. “Xamsa” dostoni – Uyg`onishning eng yorqin mahsuli sifatida. Uyg`onish davrining ideali. Uyg`onish davri dostonlari qahramonlarining romantik qiyofada tasvirlanishi. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. Obodonchilik ishlari. haqida. |
| O`quv mashg`ulotning maqsadi: | Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy manbalar: O`rxun – Enasoy yodgorliklari, yunon muarrixlarining asarlari, qadimgi Xitoy yilnomalari. O`rta Osiyoda Alisher Navoiy va Uyg`onish davri. “Xamsa” dostoni – Uyg`onishning eng yorqin mahsuli sifatida. Uyg`onish davrining ideali. Uyg`onish davri dostonlari qahramonlarining romantik qiyofada tasvirlanishi. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. Obodonchilik ishlari. haqida tasavvurga ega bo`lishi lozim. |

| | |
|--------------------------|---|
| Ta'lim berish usullari | Ko'rgazmali, ma'ruza, suhbat, aylanma stol usuli |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Myetodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi -XV asr) amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|--|---|--|
| Tayyorlov bosqishi (5 daqiqa) | 19. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 20. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tyekshiradi 21. Davomatni nazorat qiladi | |
| 1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqishi (10 daqiqa) | 1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Talabalarni kishik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yisha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timedialardan foydalanadi 4. 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va hulosalaydi, faol ishtirokshi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kishik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 9 yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi hulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

MADANIYATSHUNOSLIK FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI (INTEGRASIYASI)

Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi -XV asr) mavzusi O'zbekiston tarixi, falsafa, sotsiologiya, etnografiya fanlari mavzulari bilan bog'liq.

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo'lgan xususiyat – insonning madaniy hayoti hodisasini tartibli tizimga solib yondashish hisoblanadi.

SHuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o'zida mujassam qilgan holda namoyon bo'lishi bilan birga bilishning o'ta murakkab ob'ekti hamdir.

TALABANING BAZIS BILIMINI BAHOLASH UCHUN SAVOLLAR

Qadimgi O`rta Osiyoning ijtimoiy va madaniy tarixini o`rganishda asosiy manbalar:

Markaziy Osiyo madaniyatining o`ziga xosligi.

Alisher Navoiy va Uyg`onish davri.

“Xamsa” dostoni – Uyg`onishning eng yorqin mahsuli sifatida.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati.

O`zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi.

8-mavzu: *Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar)* *Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|--|---|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-80 gasha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-axborotli ma'ruza. |
| Madaniy hodisalar va jarayonlarning an'anaviy xususiyatga ega ekanligi. San'atda supermatizm oqimi. Modern madaniyati. Modern tushunchasining san'atga falsafa va fanga aloqadorligi. O`rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosati. Mustabid sovet davlati davrida O`zbekiston madaniyati. Sovet davlatining madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshuvi. | Madaniy hodisalar va jarayonlarning an'anaviy xususiyatga ega ekanligi. San'atda supermatizm oqimi. Modern madaniyati. Modern tushunchasining san'atga falsafa va fanga aloqadorligi. Simvolizm estetikasi. Postmodernizm - hozirgi falsafa, san'at va fanning asosiy yo`nalishi sifatida. Madaniy taraqqiyotda inson omili. Insonning industrial madaniyatga munosabati. Ommaviy madaniyat. Ommaviy madaniyatning salbiy va xatarli oqibatlari. O`rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosati. Hunarmandchilik. Teatr. Xivadagi kutubxona. Kitobat san'ati. Tasviriy san'at. Fan. Musiqa san'ati. Mustabid sovet davlati davrida O`zbekiston madaniyati. Sovet davlatining madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshuvi. Adabiyot. Teatr san'ati. Me'morchilik. Amaliy bezak san'ati. Musiqiy san'at. Kino san'ati. Radio. Televidenie. |
| O`quv mashg'ulotning maqsadi: | Madaniy hodisalar va jarayonlarning an'anaviy xususiyatga ega ekanligi. Modern madaniyati. Postmodernizm - hozirgi falsafa, san'at va fanning asosiy yo`nalishi sifatida. |

| | |
|--------------------------|---|
| | Ommaviy madaniyat. O`rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosati. Sovet davlatining madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshuvi. Adabiyot. Teatr san'ati. Me'morchilik. Amaliy bezak san'ati. Musiqiy san'at. Kino san'ati. Radio. Televidenie. haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Kurgazmali, ma'ruza, suhbat |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar)
Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat
ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|----------------------------------|---|--|
| Tayyorgarlik bosqishi (5 daqiqa) | 1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushuncha taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 1. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yisha savollar beradi. | Tinglaydilar Talabalar byerilgan savollarga javob beradilar |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar Tinglaydilar |
| 8- Yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Mavzu bayoni :

REJA:

- 1. O`rta asrlarda Evropa xalqlari madaniyatining shakllanishi.**
- 2. Uyg`onish davrida Yangi Evropa madaniyatining shakllanishi**
- 3. ITP va XX asr sivilizatsiyasining agrar industrial hamda zamonaviy axborot komp yuter bosqichlari**

Yangi davr (XVII-XIX) ijtimoiy-tarixiy va madaniy voqealarga to'la. Bu davrda Ovrupada burjua ishlab chiqarish qaror topib, u barcha ma'naviy, ijodiy va tafakkuriy kuchlarni o'z atrofiga birlashtirishga intildi. Shu bilan birga, har bir asr turli mamlakatlarda turlicha kechdi. Masalan, XVII asr Niderlandiya va Angliyada feodal tuzumni keskin tanqid qilish; Frantsiya diniy safsatabozlikni ratsiyalizm nuqtai nazardan fosh etish davri bo'ladi;

XVIII asr—ma'rifatchilik, Frantsiya va Amerika inqiloblari davri sifatida tarixga kirgan. XIX asr esa burjua madaniyatining gullab yashnagan, keyinchalik esa tanazzulga yuz tutish davri hisoblanadi. Kanday bo'lmasin ijtimoiy—madaniy taraqqiyot bir on ham to'xmadi, u yangi va rang-barang yo'nalishlarda, ko'rinishlarda rivojlanib, inson qudratini aks ettiruvchi voqeilik sifatida saqlanib keldi.

XX asr ilm, fan, texnika, kompyuter asri bo'ldi. Xuddi shuningdek XX asr jahon tarixida inqiloblar, ommaviy qirg'inlar, jahon urushlari asri sifatida ham iz qoldirdi. Natijada ijtimoiy—madaniy taraqqiyotga etish uchun katta to'siqlarni engib, taraqqiyot o'zagi bo'lish insonning yaratuvchilik kuchiga ishonchini saqlab qolishiga to'g'ri keldi. Xuddi shuning uchun gumanizm, antropotsentrizm, demokratiya, hurfikrlilik, teng huquqlilik, umuminsoniy, axloqiy qarashlarning qaror topishiga intilish hozirgi davrning o'ziga xos xususiyatiga aylandi. XX asr oxirlariga kelib, sovet totalitar tuzumining emirilishi, milliy madaniyatlarning rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi.

Shunday qilib, uzoq tarixiy rivojlanish hech qachon to'xtamaganini, madaniyat bir bosqichdan ikkinchisiga, ziddiyatlarga to'la holda bo'lsada, u rivojlanib kelganini; ikkinchidan har bir tarixiy bosqichning o'ziga xos madaniyati bo'lgani, davrlar o'tishi bilan xalqaro va qit'alararo madaniy aloqalar kengayganini; uchinchidan ushbu madaniy aloqalar o'z navbatida milliy etnik madaniyatlarning shakllanishiga, rang-barangligiga va qaror topishga ta'sir etganligini ko'rsatadi.

Zamonaviy madaniyatni texnikaviy, texnika hukmdorligi dunyoviy elektron yoki axborot madaniyati deb ataydilar. Bunday munosabat hozirgi madaniyatda fan va texnikaning o'rni muhimligini ko'rsatadi. «Zamonaviy» yoki «yangi» fan antik yoki o'rta arslardagi fandan tubdan farq qiladi. Agar ilgari fan dunyoni asl holda, uni daxlsiz o'rgangan bo'lsa, endi esa fan bilish, yaratish, ixtiro, loyiha tuzish kabi jarayonlarni mujassamlashtirib «inson idroki yordamida hal bo'ladigan muammolarga e'tiborni jalb qilmoqda».

Fan va madaniyatdagi yangi yo'nalish shakllanishning boshlanishi Uyg'onish davri bilan bog'liq. XIV -XVI asrlar bu davr mutlaqo yangi davr madaniyatini ochdi. Shaharlarning ko'payishi, Evropada ichki va tashqi savdning vujudga kelishi, hunarmandchilikning rivojlanishi Evropa madaniyatida yangi yo'nalishlarga olib keldi. Qisqa vaqt ichida O'rta asrlar jamiyatida moddiy madaniyat va texnologiyalar o'zgarib ko'plab muhim ilmiy kashfiyotlar qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar diniy «dunyo qiyofasini» o'zgartirdi, aqliy va iqtisodiy hududni kengaytirib jahon savdosini vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Antik davr merosini o'rganish yangi falsafiy yo'nalishlar paydo bo'lishiga turki bo'lib, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida mutlaqo o'zgacha andoza shakllandi.

Jamiyatdagi shaharliklar orasida «gumanizm» deb nomlangan, yangi g'oya shakllandi. Bu nom inson haqidagi yangi dunyoviy fandan (studia humanitatis) kelib

chiqqan bo`lib, ilgarigi «ilohiyot haqida»gi fanni. (studio dvinus) asta-sekin siqib chiqardi.

Insonparvarlik quyidagi xususiyatlarga ega:

1.Tabiat qonunlarini – «tabiiy muvofiq» tamoyili asosini tushuntirishga asoslanish;

2.Insonni muammolar markazi qilib olish (antropotsenprizm) – insonga tabiatning toji sifatiga qarash;

3.Aqliy tafakkur (ratsionalizm) – inson idrok va zakovat orqali atrof-muhitni, o`z-o`zini biladi deb hisoblash;

Insonparlik g`oyalarining rivojlanishi dunyo va insonning diniy kontseptsiyasining buzilishi va XVIII asrda inson shaxsining o`zini qadrlash haqidagi ta'limotni paydo bo`lishiga olib keldi. Gumanistlar o`z ta'limotida ishonch mezoni deb empirik tajriba va ratsionallikni hisobladi. Bu xulosa cherkovni refermatsiya qilish (Mellyuter, J.Kalvin), utopik sotsiolizm (T. Mor, T.Kampanel) va ijtimoiy pragmatizm (N.Makiavelli) kabi g`oyalarni nazariy asoslashga olib keldi.

Uyg`onish davri dunyo va inson paydo bo`lishidagi g`oyalarni butunlay inkor qilmadi, balki olam doimiy va qat'iy qonunlarga muvofiq ravishda bunyodga kelishini tasdiqladi. Idrok insonga shuning uchun berilganki, inson idrok yordamida qonunlarni tushunib qonunlar yordamida o`z jamiyatlarini tuzishlari mumkin. Idrok erda baxtning qaror topishiga garov bo`lib, oxiratini obod qilishda ham yordam berishi mumkin. Inson tabiat qonunlariga mos ravishda rivojlanuvchi aqlli mavjudot hisoblanib, nafaqat moddiy dunyo markazida turadi, u shuningdek, badiiy tushunish va tasvirlash ob'ektining asosi hamdir.

Fanning shakllanishi va sekin-asta jamiyat hayotiga muhim asos bo`lib kirishi yangi davr kishining turmush tarzi, fikr yo`lini tafovutli qiyofasi sifatida ratsionalizmning paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Ratsionalizmning keng ko`lamiga namoyon bo`lishi XVIII asrdagi ma'rifatparvarlik harakati bilan bog`liq. Barcha baxtsizlik va nahaqlikdan insoniyatning aziyat chekishi bilimsizlikdan ekanligiga faqat ma'rifatparvarlar ishonganlar. Ma'rifatparvarlar vakili D.Didro va D.Alamber «fan, san'at va hunarmandchilik entsiklopediyasi»ni nashr qilishi madaniyatning katta yutug`i bo`ldi. «Entsiklopediya» nafaqat insoniyatning muhim. ilmiy yutuqlarini tartibga soldi, balki yangi madaniy qadriyatlar tizimini ham tasdiqladi.

Ma'rifatparvarlarning ratsionalistik yo`nalishi XVIII asrdagi ishlab chiqarishni tashkil qilish, davlatning ichki va tashqi siyosati huquq institutlari va siyosiy partiyalarning shakllanishi, san'at taraqqiyotida ko`plab tamoyillarni belgilab berdi. Ma'rifatparvarlar buyuk frantsuz inqilobining ideologlari hisoblanadi, Uyg`onish davri gumanistlari boshlab bergan madaniy qadriyatlarni ulug`lash jarayonini nihoyasiga etkazdi. XVIII asrda ilmiy bilim jamiyat ongini butunlay yangi sifat darajasiga ko`tardi. Fan insonning ma'naviy hayotiga chuqur kirib borib, uning madaniyatiga mazmun bag`ishladi. Kishilarning tabaqaviy, milliy irqiy yoki boshqa farqlaridan qat'iy nazar barcha uchun bir xil mohiyat kasb etdi.

Evropa va shimoliy Amerikaning ko`plab mamlakatlarida XIX asrning o`rtalarida industrillashtirish yoki sanoat burilishi nihoyasiga etdi. Ratsionalizm va utilitarizm (manfaatparastlik) madaniyatining belgilovchi o`rni fan va texnika

taraqqiyotiga yangi turtki berdi. Oddiy to'quv dastgohi «Jeni»dan J.Uattning bug` mashinasi (1784 y) va R.Fultonning bug` kemasi, Stefensonning parvozidan (1814 y.) birinchi er osti temir yo`liga (1863y.) o`tilishi injinerlik fikrining o`shishini ko`rsatdi. Bug` va elektrlashtirish, telefon va telegraf davri, astronomiya va geologiya, biologiya va ximiya sohalaridagi ajoyib kashfiyotlargacha bo`lgan vaqt insoniyat madaniyatini yangi bosqichga ko`tardi. P.Sorokining xulosasi bilan aytganda «faqat birgina XIX asrdagi kashfiyot va yangiliklarning o`zi oldingi asrlardagi kashfiyotlarning hammasini jamlagandan ham ko`pdir».

Xususan bu asrda 24 8527 ta kashfiyot makon, zamon va materiya ustida texnika hukmronligining cheksiz o`sganligidan dalolatdir. Ispan faylasufi X.Ortegi Gasetning yozishicha: “Biz haqiqatdan ham XIX asrda ro`y bergan inson taqdiridagi radikal o`zgarishlar oldida turibmiz. Zamonoviy inson uchun ham jismonan, ham ijtimoiy jihatdan mutloqo yangi manzara, yangi faoliyat yaratildi. Bu yangi dunyoning qiyofasini uchta muhim jihat belgilaydi Bu demokratiya, ekspremental fan, industrializatsiya. Ikkinchi va uchinchi jihatlarni “texnika” nomi bilan umumlashtirish mumkin”.

Tsivilizatsiyaning o`shishi dastlab makon va zamonga xos kechdi: insonning ma'naviy dunyosi o`tmishning yangi xududi va yangi “qatlami”ni o`zlashtira boshladi. Bilishning maydoni chuqurlashdi va kengaydi. Biroq, shu bilan birga zamon va makonni enguvchi yangi usullar ham paydo bo`ldi: inson yangi texnika vositasida ulkan fazoviy vaqtni qisqa muddatda bosib o`tib, er yuzining xohlagan joyida bo`lishi mumkin. Dunyo o`ziga yangi qiyofa kasb etdi.

XIX asrda texnotsentrik dunyoqarash keng tarqalib, kishilar o`z hayotini ilmiy asosda ko`rishga urina boshlaydi. Injenerlik faoliyati tamoyillari tabiat va jamiyat hayotiga keng yoyiladi. Insonning turmush jarayonidagi bunyodkorlik, tirikchilik tashvishlari o`rnini bundan buyon ixtirochilik, texnika ijodkorligi extiyojlarini qondiruvchi texnika vositalari yaratish egalladi. Tabiat, inson, madaniyat kabi tushunchalar talqini sezilarli o`zgardi. Tabiat material va energiyaning bitmas-tuganmas manbai, universal omborxonaga aylanib qoldi.

Hatto, tabiat sirlarini o`ta chuqur anglash ham unga yaqinlashish degani emas, balki, aksincha qandaydir uzoq begonalikni, faqat texnik yondoshuvni bildiradi. Insonning o`z tabiati sirlarini anglashga urinishi shunchalik qarama–qarshi natijalarga olib keladi. XIX asr insonga “koinot sardori” “barcha narsalardan yuqori” yorlig`ini berdi. Inson ko`proq “mexanik agregat”, “fizik kimyoviy unsurlar majmui”, “maymunga turdosh maxluq”, “turli mehnat qurollari tayorlovchi Xomo faber” kabi sifatlar bilan atala boshladi. Insonning o`zi mexanizm bo`lgani kabi, dunyo ham unga o`xshash ulkan mashina ishlab chiqaruvchi fabrikadir.

Insonning o`zi–o`rtacha mehnat unumdorligi o`lchamidagi madaniyat ijodkori. Maqsadga muvofiqlik, risoladachilik, me'yorlik insonni butunlay hayotini belgilab, uni o`rtacha, baravar qilib tenglashtiradi: maqsadlar baravarlashdi, umumhayotiy andoza, turmush tarzi qonuniylashdi, barchaning huquqi tenglashdi, ko`p sonli o`rta sinf shakllandi, misli ko`rilmagan muvoffaqiyatlar ila ozodlikka erishildi, munosabat, did, odatlar andozalashdi. Ommaviy madaniyat hissiz, shaxsiz madaniyatlar davriga olib keldi.

Texnika soʻzining oʻzi mahorat, sanʼatni anglatadi. Insonlar jamiyati paydo boʻlishi bilan amalda texnika paydo boʻldi. Dastlab kishining mehnat faoliyatiga yordam beruvchi mehnat quroli, keyinchalik, har xil maqsadlarda ishlatiladigan texnikaning boshqa turlari vujudga keldi.

Texnikaning xususiyatlari shundaki:

1. Texnika sunʼiy ravishda, kishilar tomonidan tabiatni oʻzgartirishi natijasida yaratilib, oqibatda, oldindan yaralgan ideal andozalar moddiylikda mujassamlanadi;

2. Texnikaning ommaviy xususiyati - u avvalo, kishilarni amaliy ehtiyojlari bilan bogʻliq boʻlib, shu ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi;

3. Texnikaning muhim parametrlaridan biri ratsionallik hisoblanadi, maʼlum jamiyat doirasida u yoki bu texnika qurilmasini maʼlum qadar tezroq ishlab chiqarishga moʻljallanadi.

Texnika madaniyatning favqulodda hodisasi sifatida jamiyat va tabiat oʻrtasidagi munosabatni taʼminlaydi, u ijtimoiy madaniyat jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Texnika taraqqiyoti insonning tabiat ustidan hukmronlik qilishida uning imkoniyatlarini kengaytirdi, madaniy va ijtimoiy oʻzgarishlarni muqarrar amalga oshiradi.

Texnokratiya – jamiyatdagi shunday kuchki, u jamiyatning texnik texnologiya taraqqiyoti istiqboli xususidagi ilmiy bashoratida nufuzli ilmiy xulosalarga tayanadi. Insoniyat jamiyati bilan uni oʻrab turgan tabiiy-iqlimiy, sotsiol-madaniy muhitning aloqadorligi muammolarini oʻrganuvchi sotsial ekologiya shakllandi. Ekologiyaning tabiiy-sotsial muhiti inson, uning genofondi, odamni bugungi olamga moslashish jarayoni xususiyatlarini tadqiq etuvchi mustahkam tarmogʻi «inson ekologiyasi» vujudga keldi.

XX asr oʻrtalaridan fan va texnika taraqqiyoti kuchli axborotlar yigʻimini paydo qildi. Ommaviy axborot vositalari matbuot, kino, radio, televideniya, kompter aloqasi zamonaviy sotsmadaniyat jarayonida salmoqli oʻrinni egallay boshladi. Haqiqattan ham zamonaviy madaniyatning holisona tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, maʼnaviy madaniyat koʻproq ommaviylik kasb etib bormoqda.

Ommaviy madaniyatning qiyofasi quyidagicha:

1. U millati, yoshi, joyi, iejtimoiy xususiyatlarga bogʻliq boʻlmagan ommaviy isteʼmolchilarga ega boʻladi;

2. Bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonining oʻzi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus koʻrinishini oʻzida namoyon qiladi.

3. Ommaviy madaniyat kishilarni hayotni befarq kuzatuvchi tomoshabinga aylantiradi. Oʻzlari ham mavjud hayotni goʻyo sarob kabi tasavvur qiladilar.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

Texnika, va uning asosiy harakterli belgilari.

Texnogen va uning shakllanish jarayoni.

Texnogen madaniyat bilan ommaviy madaniyatning oʻzaro bogʻliqligi.

Ommaviy madaniyatning salbiy tomonlarini nimada koʻrasiz?

Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz, uning zarurligi?
Texnika va inson munosabati, bu jarayonning XXI asrdagi istiqboli.

Amaliy mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi

8-mavzu : *Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar)*

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|--|---|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-25 gacha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-ahborotli ma'ruza. |
| Madaniy hodisalar va jarayonlarning an'anaviy xususiyatga ega ekanligi. San'atda supermatizm oqimi. Modern madaniyati. Modern tushunchasining san'atga falsafa va fanga aloqadorligi. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosati. Mustabid sovet davlati davrida O'zbekiston madaniyati. Sovet davlatining madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshuvi. | Madaniy hodisalar va jarayonlarning an'anaviy xususiyatga ega ekanligi. Modern madaniyati. Postmodernizm - hozirgi falsafa, san'at va fanning asosiy yo'nalishi sifatida. Ommaviy madaniyat. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosati. Sovet davlatining madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshuvi. Adabiyot. Teatr san'ati. Me'morchilik. Amaliy bezak san'ati. Musiqiy san'at. Kino san'ati. Radio. Televideniehaqida. |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: | Madaniy hodisalar va jarayonlarning an'anaviy xususiyatga ega ekanligi. Modern madaniyati. Postmodernizm - hozirgi falsafa, san'at va fanning asosiy yo'nalishi sifatida. Ommaviy madaniyat. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosati. Sovet davlatining madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshuvi haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Ko'rgazmali, ma'ruza, suhbat, ari uyasi metodi |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Myetodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar)
amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim byeruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|--|---|--|
| Tayyorlov bosqishi (5 daqiqa) | 22. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 23. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tyekshiradi 24. Davomatni nazorat qiladi | |
| 1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqishi (10 daqiqa) | 1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushuncha taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Talabalarni kishik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yisha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timyedialardan foydalanadi 4. 5. Mavzular asosida byerilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va hulosalaydi, faol ishtirokshi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kishik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi hulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

MADANIYATSHUNOSLIK FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI (INTEGRASIYASI)

Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar) mavzusi O'zbekiston tarixi, falsafa, sotsiologiya, etnografiya fanlari mavzulari bilan bog'liq.

TALABANING BAZIS BILIMINI BAHOLASH UCHUN SAVOLLAR

Madaniy hodisalar va jarayonlarning an'anaviy xususiyatga ega ekanligi. San'atda supermatizm oqimi.

Modern madaniyati. Modern tushunchasining san'atga falsafa va fanga aloqadorligi. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi.

Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosati.

Mustabid sovet davlati davrida O'zbekiston madaniyati. Sovet davlatining madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshuvi.

9-mavzu: ***Mustaqillik va madaniy taraqqiyot Mustaqillik arafasida madaniyatimiz ahvoli.***

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|--|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 20-80 gasha |
| Mashg'ulot shakli | Kirish-axborotli ma'ruza. |
| O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi muassasalar va jamoat tuzilmalari. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi. Qo'qon adabiyot muzeyi. Muzey qo'riqxonalar. Buxoro muzey-shahar. «Baxouddin Naqshband tarixiy muzeyi». Toshkent –islom madaniyati poytaxti. Milliy-madaniy markazlar va ularning roli. | O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi muassasalar va jamoat tuzilmalari. Ularning huquqiy-ma'naviy asoslari shakllanishi. Ma'naviy madaniyat va uning muhim jabhasi – musiqa san'ati. Milliy qo'shiqchilik ko'rik-tanlovlari. Muzeylar. Ularning xalqimiz ma'naviy salohiyatini oshirishdagi ahamiyati. Tarixiy obidalarni tiklash. Toshkent –islom madaniyati poytaxti. Milliy-madaniy markazlar va ularning roli. Adabiyot. Me'morchilik. Monumental san'at. Amaliy bezak san'ati. Tasviriy san'at. An'anaviy musiqa sa'ati. Nomoddiy madaniyat va san'at durdonalari. Teatr. Teatrlashtirilgan maydon tomoshalari. Kino va televideniening bugungi taraqqiyoti. Sport. Madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro hamkorliklarning kengayib borishi. |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: | O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi muassasalar va jamoat tuzilmalari. Ularning huquqiy-ma'naviy asoslari shakllanishi. Ma'naviy madaniyat va uning muhim jabhasi – musiqa san'ati. Tarixiy obidalarni tiklash. Toshkent – islom madaniyati poytaxti. Milliy-madaniy markazlar va ularning roli. Sport. Madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro hamkorliklarning kengayib borishi. haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. |
| Ta'lim berish usullari | Kurgazmali, ma'ruza, suhbat |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, kom'pyuter |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

Mustaqillik va madaniy taraqqiyot Mustaqillik arafasida madaniyatimiz ahvoli.
ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

| Ish bosqishlari va vaqti. | Ta'lim beruvshi | Ta'lim oluvshilar |
|---------------------------|---|-------------------|
| Tayyorgarlik bosqishi | 1. Mavzu bo'yisha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi ushuncha taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar | |

| | | |
|--------------------------------|---|--|
| | ro'yhatini ishlab shiqish | |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa) | 1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yisha savollar beradi. | Tinglaydilar Talabalar byerilgan savollarga javob beradilar |
| 2 – asosiy bosqish (65 daqiqa) | 1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar Tinglaydilar |
| 9- Yakuniy bosqish (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |

Mavzu bayoni :

REJA:

- 1.O'zbekistonda madaniyat jabhasidagi islohotlar va unda davlatning tutgan o'рни.
- 2.Millatlararo madaniyatlar muloqotini rivojlantirishning komil insonni shakllantirishdagi roli.
- 3.Milliy madaniyat ravnaqida milliy, madaniy markazlar va xalqaro madaniy aloqalarning o'рни va ahamiyati.

XX asr O'zbekiston madaniy hayotiga alohida bir bosqich hisoblanadi. Rossiya orqali G'arbiy Ovrupa madaniyati kirib keldi. Zamonaviy ishlab chiqarishga asoslangan sanoat ishga tushdi. O'z davrining muhim ahamiyati kasb etgan qishloq xo'jaligi shakllandi; Maorif, ilm-fan, jamoa xujaliklari, san'at, ma'rifiy muassasalarning keng tarmoqlari yuzaga keldiki, ularni inkor etish O'zbekiston xalqlarining mardonavor xizmatlarini mensimaslik bilan barobardir.

1917 yildagi butun Rossiyada yuz bergan fevral va oktyabr inqiloblari uning mustamlakasi bo'lmish Turkistonda ham to'ntarishga olib keldi. 30-yillarda madaniy-oqartuv masalalari tarmog'i kengayishida davom etib bordi. Yirik sanoat korxonalarida madaniyat saroylari bunyod etildi. Qishloq xo'jalik artellari qoshida kolxoz klublari ochildi, rayon madaniyat uylari barpo etildi, kutubxonalar tarmog'i kengayib, ularning kitob fondlari boyib bordi, kinoteatrlar, klub va madaniyat uylari qoshidagi kino qurilmalarning soni ko'paydi, stadion va sport maydonlari jixozlandi. Ko'p miqdorda kitob, gazeta va jurnallar nashr etildi. Radio eshittirishlari aholining kundalik turmushida rasm bo'lib qoldi. Biroq, 30-yillarda qaror topib borgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig'inish mafkurasi respublikaning ijodiy xodimlarini, uning butun ma'naviy hayotini qattiq iskanjaga oldi. 30-yillardagi qatag'onlar milliy madaniyat uchun daxshatli fojeaga aylandi. Iste'dodli adabiyot va san'at arbolari A.Qodiriy, Cho'lpon Fitrat, Shokir Sulaymon, Ziyo Said, Elbek, A.Ayub, U.Nosir, Qosim Sarokin, Muhammad Hasan, Abdusalom Niyoziy, Otajon Hoshimov va boshqalar milliy madaniyat quchog'idan uzib olinib xalq dushmanlari deb e'lon qilindi. Ularning asarlaridan foydalanish necha-necha yillar mobaynida taqiq bo'lib turdi.

Din va dindorlarni taqib qilish xalqning ma'naviy madaniyatiga nihoyat darajada katta zavol etkazdi. Din bilan ateizmning dunyoqarash jihatidan qarama-qarshiligi siyosiy qarama-qarshilik bilan almashtirildi. «Sotsializmning dinga o`rin yo`q, unga din begona» degan qoida ustun bo`lib qoldi. Shunday qilib unga nisbatan salbiy munosabat dinga qarshi zo`rluk ko`rsatishga aylanib ketdi. Na masjidlar, na cherkovlar, na dindorlar shu qadar keng miqyosdagi ta'qiblarni boshidan kechirmagan edi. O`zbekiston ruhoniylarining asosiy qismi 30-yillarda qamoq lagerlariga jo`natildi. Masjid va madrasalarning deyarli hammasi o`tmishda garchi diniy marosimlarni o`tkazish o`choqlari bo`libgina qolmasdan, xalqning buyuk merosini saqlab, boyitib kelgan madaniyat, ilm, tarbiya, san'at markazlari ham bo`lganiga qaramay berkitib qo`yildi. Sobiq Sovet davrida Respublika madaniy hayotida progressiv va regressiv taraqqiyotning bir-biriga qarama-qarshi tendentsiyalar tobora kuchayib bordi. 70-yillarda 80-yillarning birinchi yarimida xuddi boshqa sohalarda bo`lganidek, O`zbekistonning ma'naviy hayotida ham inqirozga xos vaziyat vujudga keldi shu bilan birga ushbu yillar davomida respublika madaniyati umuman muayyan muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritdi. Madaniyat va maorif muassasalarning tarmog`i sezilarli darajada kengaydi, bularni moddiy texnika bazasi mustahkamlandi, aholining umumiy bilim darajasi o`sib, ijodiy ziyolilar safi kengayib bordi. Talaygina ajoyib badiiy asarlar, teatr va musiqa asarlari yaratildi. Madaniyat va san'atning rivojiga iste'dodli yoshlarning butun bir katta guruhi qo`shildi, milliy o`z-o`zini anglashning o`rish jarayonlari belgi bo`lib qoldi.

Ma'naviy badiiy hodisalarni baholashda sinfiylik, partiyaviylik singari, mafkuraning badiiyat ustidan hukmronligi singari printsiplardan foydalanish, adabiyot sotsialistik realizm usulining ustuvorligi madaniyat va san'atning rivojlanishiga to`g`anoq bo`ladigan mexanizmni vujudga keltirdi. Bu printsiplar partiyaning cheklanmagan totalitar hukmronligi tazyiqi ostida zo`rluk bilan amalga oshirib borildi. Ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarning sababi ham xuddi ana shunda. Ma'naviy sohada, bir tomondan, chindan ham sezilarli o`zgarishlar ro`y berib borgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, inqirozga xos vaziyat yuzaga kelib bordi.

Tub milliy manfaatlarini unutib qo`yish, zo`r berib baynalminallashtirish madaniy qurilishda salbiy rol o`ynadi. Partiyaning madaniyat sohasida baynalminal madaniyatni birinchi qo`yadigan milliy madaniyatni rivojlantirish rejasini, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ulardan ma'naviy rivojlanishda foydalanishni orqa o`ringa surib qo`ydi. Madaniyatni mafkuralashtirish axloq-odob, adabiyot, san'atning samarali milliy zamindan ajralib qolishiga sabab bo`ldi, tarixiy xotira, milliy an'analar va odatlarni unutib yuborishga olib bordi. Baynalminal madaniyatning ustivor tarzda rivojlanishi O`zbekiston tub xalqlari tillarining qo`llanish sohasini toraytirib qo`ydi.

Ma'naviy sohani boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mustahkamlanib borishi bilan birgalikda fikr-mulohazalar va baholarning obro`yiga ko`r-ko`rona itoat qilish, ijodiy faoliyatga qo`pol ravishda aralashish, ijodiyotni eng oddiy erlinliklardan ham mahrum qilish rasm bo`lib bordi. Ma'naviy hayotga buyruqbozlik yo`li bilan rahbarlik qilish, mafkuraviy cheklashlar, to`g`anoq mexanizmi, madaniy siyosatdagi ziddiyatlar, ma'naviy soha ehtiyojlarini inkor etish jamiyatning ma'naviy hayotida inqirozli holatlarni yuzaga kelishini belgiladi.

Uzoq va yaqin o`tmishni xayoldan o`tkazib, mohiyatini anglashda 1991 yil 31 avgust kuni – O`zbekiston Respublikasining Mustaqil deb e'lon qilinishi tarixiy voqea bo`ldi. U milliy o`zlikni anglash, tom ma'nodagi milliy yuksalish uchun sharoit yaratdi.

Jamiyat va millat tarixi, taqdirida yangi davr-Istiqlol davri boshlandi. “Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi,-degan edi I. A. Karimov,-Kelajagimizni o`z qo`limiz bilan yaratadigan bo`ldik. Hayotimiz va yashayotgan xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga umumbashariyat e'tirof etgan demokratik me'zonlarga monand qilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo`ldik”.

Istiqlolning dastlabki davrlaridayoq O`zbekistonda madaniy taraqqiyotning metodologiyasi o`zgardi. Agarda, sho`rolar mustabid davrida madaniyatning asosiy vazifasi jamiyat a'zolarining kommunistik mafkurasi va soxta g`oyaga e'tiqodini mustahkamlashga safarbar etish bo`lsa, istiqol davrida uning maqsadi tamomila o`zgardi.

Barcha javoblar to'g'ri
19-asrning yutuqlari :
Rasionalizm va utilitarizm (manfaatparaslik)
Bug' va elektrlashtirish

C) Telefon va telegraf davri
Barcha javoblar to'g'ri+
19-asrda nechta kashfiyot yuz berdi?

248527

250527

C)458527

To'g'ri javob yo'q

Texnika so'zining ma'nosi

Mahorat, san'at

Madaniyat, ma'rifat

C) Asbob-uskuna

To'g'ri javob yo'q

Texnikaning xususiyatlari

Kishilarning amaliy ehtiyojlar bilan bog'liqligi+

Rasionallik

C) Kishilar tomonidan tabiatni

o'zgartirilishi

To'g'ri javob yo'q

Qaysi davrdan buddizm va u bilan

bog'liq bo'lgan diniy urf-odatlar ham

yo'qola bordi ? Eftalitlar davridan

so'ng

Kushonlar davridan so'ng T

Efiopiya davridan so'ng

So'g'd davridan so'ng

Arablar iste'losiga qadar So'g'd,

Xorazm, Farg'ona va Ettisuv

hududlarida qaysi din ko'proq

tarqalgan edi?

Buddizm

Olovgasig'inish

Otashparastlik

Suvga sig'inish

Qaysi shaharlarda hatto «olov

uylari» mavjud bo'lib,

ular da doimo mangu muqaddas olov

saqlangan?

Samarqand, Toshkent

Buxoro, Samarqand

Toshkent, Buxoro

Andijon

Qaerda har yili bir marotaba maxsus

bozor tashkil

qilinib, unda odamlar sig'inadigan

muqaddas haykalchalar

savdosi tashkil qilingan?

Buxoro

Toshkent

Samarqand

Termiz

Mahalliy yozuvlar arablar iste'losiga

qadar qaysi

davlatlarda mavjud bo'lgan?

Bakteriya, Kushon

Kushon, So'g'd

Xorazm, Kushon

So'g'd, Xorazm va Baqtriya davlatlarida

0'zbek olimlari M Isoqov,

NRahmonov,

QSodiqovlarning tekshiruv ishlari

shunga guvohlik

beradiki

Sug'd tangalari zarbi qariyb 800 yilni

o'z ichiga oladi

(milodiy I—VIII asrlar)

So'g'd tangalari zarbi 1000 yilni I asrni

o'z ichiga

olishidan

O'rta Osiyoning zabt etilishi

To'g'ri javob yo'q

Islom dinining tarqalishiga sabablar:

O'rta Osiyoning zabt etilishi;

Islomning kishilar ma'naviy - ruhiy

izlanishlarga mos qelishi;

Kerakli kishilarni imtiyozli

lavozimlarga tayinlanishi

Barcha javoblar to'g'ri

Uyg'onish davrida qanday ishlar

madaniy hayotning muhim sohasiga

aylangan?'

Qo'lyozmalar ko'chirish

Qo'l yozmalarni tayyorlash

Qo'l yozmalarni to'plash

A,B,S javoblar to'g'ri

Kitob yozishning kuchayishi nimaga

olib kelgan?

Hattotlik san'atining rivojlanishi
Musavvirlik san'atining rivojlanishi
Bilimga bo'lgan muhabbatni oshirgan
A,B javoblar to'g'ri

Qaysi olimning fikricha kutubxona ko'p xonalik bo'lib, har bir xonada maxsus kitoblar jamlangan

Forobiy
To'g'ri javob yo'q
Ibn Sino
Ali Qushchi

Kaysi sulola SHeroz kutubxonasi bilan raqobat darajasida bo'lgan kutubxonaga asos soldilar?

Olimlar
Somoniyalar
Qoraxoniylar
To'g'ri javob yo'q

Samoniylarning milliy madaniy uyg'onishga qo'shgan xissasi nimalardan iborat?

Ulkan kutubxona barpo etgan madaniy qarashlarining mukammalligi
A,B javoblar to'g'ri
Savdo sotiqni rivojlantirgan

Somoniyalar qanday tilda yozgan mualliflarni qo'llab quvvatladilar

Oddiy xalq anglaydigan tilda
Fors tojik
Ular uchun buning ahamiyati bo'lmagan

To'g'ri javob yo'q

Somoniyalar badiiy ijodida arab tilini ta'qiqladilarmi?

ha
yo'q
to'g'ri javob yo'q
Ba'zida

"Ritmlar tartibi" haqidagi kitob kimning qalamiga mansub?

Forobiy
Beruniy
Axmad yassaviy
Ibn Sino

Tarix ilmidagi kimlar qimmatli asarlar yaratdi?

Ali YAzdiy, Hofizi Abru
Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir
Zayniddin Vosifiy, Mirxond
Barcha javoblar to'g'ri

Badiiy ijod va tilshunoslikda qaysi ijodkorlar yuksak san'at asarlari bilan mashg'ul bo'ldi?

Jomiy, Ulug'bek, Xondamir
Jomiy, Navoiy, Koshifiy
Hofizi Abru, Navoiy
Mirxond, Xondamir

Samarqandda birinchi akademiya kimning davrida asos solindi?

Amir Temur davrida
SHayboniyxon davrida
Ulug'bek davrida
SHoxrux davrida

Mirzo Ulug'bek yozgan asarlarni soni?

«Zij"
"Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola"
"To'rt ulus tarixi"
Barcha javoblar to'g'ri

Temur va Temuriylar davrida yana qanday etuk ijodkorlar yashab ijod qildi?

Sayfi Saroyi, Durbek, Amiriy, Atoiy
Nodira, Lutfiy, Bobur, Sakkokiy
Gulxaniy, Nodira, Lutfiy, Sakkokiy
Xiromiy, Gulxaniy, Durbek, Atoiy

Temuriylar davrida nechta ijodkor shoir bo'lgan?

23ta
30 ta
22 ta
33

Temur va temuriylar davrida Samarqandga kelib ijod qilgan tabobat ilmining yirik vakillari:

Xakim Al Xirmoniy, Tabib Husayn Jarroh

Durbek, Ibn Sino, Sulton Ali
Xurosoniy
Amiriy, Durbek, Al Xirmoniy
Nishopuriy, Husayin Jarrox
**Temur va temuriylar davrida axloq
va ta'lim-tarbiya sohasida
kimlarning merosi alohida o'rin
tutadi?**
Ali YAzdiy, Hofiz Abru
Mirxond, Xondamir
Xusayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin
Davoniy
Nishopuriy, Abdurazzoq Samarqandiy

**Qaysi tarixchilar temuriylar davri
tarixini yozib qoldirdilar:**
Nizomiddin SHomiy, Ali YAzdiy
Abdurazzoq Samarqandiy, Hofiz Abru
Mirxond, Xondamir
Barcha javoblar to'g'ri
**Kimni temuriylar o'zlariga pir deb
bilganlar?**
Baxovuddin Naqshband
Hoja Ubaydullo Ahror Valiy
Abdulxoliq G'ijduvoniy
Axmad YAssaviy

**XV.INNOVASION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: texnik vositalar bilan
ta'minlanganlik va electron ta'lim materiallari ro'yxati**

1. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.
2. Oq ajal talvasasi.
3. Barkamol avlod – kelajak poydevori.
4. Mustaqillik arafasida yoki sho'rolarning so'nngi talvasasi.

**XVI. OQUV-USLUBIY MAJMUA MUALLIFI TOMONIDAN YARATILGAN
USLUBIY QO'LLANMALAR:**

1. Axmedova Z.A. I.Karimov asarlarida ma'naviyatning falsafiy talqini. Buxoro, 2006 y.
2. Axmedova Z.A. Falsafadan mavzulashtirilgan savol-javoblar. Buxoro, 2007 y.
3. Axmedova Z.A. Ijtimoiy fanlarni o'qitishda Ahmad Donish va Shamsiddin Shohin asarlaridan foydalanish. Buxoro, 2007 y.
4. Axmedova Z.A. Axloqiy tamoyil va me'yorlar. Buxoro, 2007 y.
5. Axmedova Z.A. Shaxsning axloqiy fazilatlari. Buxoro, 2013 y.
6. Axmedova Z.A. Ma'naviyat-insonning ulg'yish va kuch-qudrat manbaidir. Buxoro, 2013 y.
7. Axmedova Z.A. San'at turlari va ularning o'zaro aloqadorligi. Badiiy ijod jarayoni. Buxoro, 2014 y.
7. Axmedova Z.A. San'at turlari va ularning o'zaro aloqadorligi. Badiiy ijod jarayoni. Buxoro, 2015 y.
8. Axmedova Z.A. Sog'lom turmush tarzi estetikasi. Estetikaning zamonaviy muammolari. Buxoro, 2016 y.
9. Axmedova Z.A. Dalillashning mantiqiy asoslari. Muammo, Faraz, Nazariya. Buxoro, 2016 y.
10. Axmedova Z.A. Madaniyatshunoslik fanidan modul. www.buxdti.uz
11. Axmedova Z.A. Madaniyatshunoslik fanidan ma'ruza matni.

XVII. TALABALAR MUSTAQIL ISHINING USLUBIY ISHLANMALAR
BILAN TA'MINLANGANLIGI

Buxoro Davlat tibbiyot instituti «Ijtimoiy fanlar» kafedrasidatalabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Y O' R I O N O M A

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan soxasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijobiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga etkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarni asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

SHuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish professor-o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otish, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. SHunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab, o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

- o'qitish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda

o'zgarib, oshib borishi lozim. YA'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mutaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

Ijtimoiy fanlar kafedrasida TMIning tashkil qilishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- test, slaydlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruzalar tayyorlash; uy vazifalarni bajarish va boshqalar.

Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon etilmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, taxlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali

vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu bo'yicha munozarali savollar, vaziyatli masalalar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo'yicha qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan vaziyatli masalalar va topshiriqlar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Muammoli vaziyatlar, savollar va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Mavzu bo'yicha testlar va slaydlar tuzish. Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligini tushuntiradi. Slaydlar tuzish tartibi, ularni tuzish qoidalari, bundan ko'zlanayotgan maqsad borasida yo'l-yo'riqlar beriladi.

Test va slaydlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va maqolalar tayyorlash. Talabaga biror bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash. Bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Talabaning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish:

- tizimli yondoshish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish.

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- maqsad (bilimni mustaxkamlash, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va h.k.) aniq asoslanishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish usullaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo‘lishi;
- maslahat va boshqa yordam turlarining to‘g‘ri belgilanishi (yo‘llanma va ko‘rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish va h.k.);
- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, konsultatsiya yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma‘ruza yoki referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, test, slayd, maqola, savollar, maqola, ko‘rgazmali jixozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

Auditoriyada amalga oshirilgan TMIlari. O‘tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustaxkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

Auditoriyadan tashqarida amalga oshirilgan TMIlari. O‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy ishlarga tayyorgarlik ko‘rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar va h.k.

Birinchi tur ishlari talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o‘zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg‘ulotlarga (amaliyot, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko‘rish va h.k. usullarda asosan darslarda nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida o‘tilgan materiallarni o‘zlashtirish va uyga berilgan vazifalarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o‘zlashtirish darajasi e‘tiborga olinadi.

Ikkinchi tur ishlar fanning ishchi o‘quv dasturida auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishi belgilangan mavzu bo‘yicha ma‘lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, taxlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o‘zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o‘zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini baxolash. TMI natijalari amaldagi **“Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi”** to‘g‘risidagi Nizomga asosan baholab boriladi.

**“Madaniyatshunoslik” fanidan davolash, TP va OXI fakulteti
talabalarining mustaqil ishi bajarilishining kalendar-tematik rejasi**

| № | Bo‘lim va mavzu nomlari | Mashg‘ulot turi | Ajratilgan vaqt | Talaba mustaqil ishi mavzusi | Hisobot shakli | Bajarilishi haqida ma’lumot | | O‘qituvchi imzosi |
|----|---|-------------------|-----------------|------------------------------|--|-----------------------------|---------|-------------------|
| | | | | | | soat | Oy, kun | |
| 1. | “Madaniyatshunoslik” fanining predmeti va vazifalari Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari | Maruz | 2 | 2 | Internetdan ma’lumotlar yig‘ib referat seminar, multimedia, doklad tayyorlash | soat | Oy, kun | |
| | | Amaliy mashg‘ulot | | | | | | |
| 2. | Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros Milliy madaniyatlarning rivojlanishining nazariy masalalari | Maruz | 2 | 2 | Madaniyat va sivilizatsiya. Madaniyatning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rni. | 4 | | |
| | | Amaliy mashg‘ulot | | | | | | |
| 3. | Jahon madaniyati bosqichlari Ibtidoiy madaniyat | Maruz | 2 | 2 | Sharq uyg‘onish davri madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari. | 4 | | |
| | | Amaliy mashg‘ulot | | | | | | |
| 4. | Qadimgi davr madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati | Maruz | 2 | 2 | O‘zbekistonda jamiyatning ma'naviy yangilanishi | 4 | | |
| | | Amaliy mashg‘ulot | | | | | | |

| | | | | | | | | |
|----|--|------------------------------|--------|--|---|---|--|--|
| | | | | hi jarayonida n madaniy merosga munosabat | | | | |
| 5. | XVI – XIX asr birinchi yarmida mintaqa xalqlari madaniyati | Maruz a Amaliy mashgʻulot | 2 2 | An'anaviy madaniyatning dunyo madaniyatida tutgan oʻrni. | Internetdan ma'lumotlar yig'ib referat seminar, multimedia, doklad tayyorlash | 4 | | |
| 6. | Dunyoviy va diniy madaniyat | Maruz a Amaliy mashgʻulot | 2 2 | Axloqiy, Ekologik, Huquqiy, muomala madaniyati. | Internetdan ma'lumotlar yig'ib referat seminar, multimedia, doklad tayyorlash | 4 | | |
| 7. | Markaziy Osiyo xalqlarining V-XIII asrlardagi ijtimoiy, madaniy hayoti Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr) | Maruz a Amaliy mashgʻulot | 2 2 | Madaniy va ma'naviy meros. | Internetdan ma'lumotlar yig'ib referat seminar, multimedia, doklad tayyorlash | 4 | | |
| 8. | Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar) Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat | Maruz a Amaliy mashgʻulot | 2 2 | Qadimgi Misr, Qadimgi Yunon, Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hindiston, | Internetdan ma'lumotlar yig'ib referat seminar, multimedia, doklad tayyorlash | 4 | | |

| | | | | | | | |
|----|---|---|------------|--|---|---|--|
| | | | | Qadimgi Mesopotamiya madaniyati. | | | |
| 9. | Mustaqillik va madaniy taraqqiyot Mustaqillik arafasida madaniyatimiz ahvoli. | Maruz a Amaliy y mashg'ulot | 2 2 | Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati | Internetdan ma'lumotlar yig'ib referat seminar, multimedia, doklad tayyorlash | 4 | |
| | Jami: | 68 | | | | | |
| | Jumladan: ma'ruza, | 18 | | | | | |
| | amaliy mashg'ulot, | 18 | | | | | |
| | mustaqil ishi | 32 | | | | | |

XVIII. FAN BO'YICHA ADABIYOTLAR

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston, 2011y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent.: O'zbekiston,1999 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent.: Sharq. 1999 y.
4. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. (Prezident Islom Karimovning Nezavisimaya gazeta muxbirining savollariga javoblari). –Toshkent.: O'zbekiston, 2005 y.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –Toshkent.: O'zbekiston, 2000 y. 11-jild.
6. Karimov I.A Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. –Toshkent.: O'zbekiston, 2003 y.
7. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. –T.: O'zbekiston, 2005 y.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch – Toshkent.: Ma'naviyat 2008 9.
9. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. Toshkent.:O'zbekiston, 2009 y.
10. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Toshkent.: O'zbekiston, 2010 y.
11. Karimov. I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi.Toshkent.: O'zbekiston, 2010 y.
12. Karimov. I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.Toshkent.:O'zbekiston, 2011 y .

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Akramov Sh. va boshqalar. O`zbekistonning madaniy obidalari. – Toshkent.:O`zbekiston, 1993 y.
2. Madaniyat va ma'naviyat muammolari.-Toshkent.: Meros, 1994 y.
3. Xayrullaev M. O`zbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixidan.-Toshkent.: O`zbekiston, 1995 y.
4. Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o`zgarishlari. Toshkent.: 2004 y.
5. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent.: “Farg`ona”, 1998 y.
6. Axmedova E, Gubaydullin R.. Kulturalogiya. Mirovaya kultura. Tashkent.: -2001 g. Akademiya xudojestv Uzbekistana.
7. Abdullaev M., Umarov E., Ochildiev A., Madaniyatshunoslik asoslari. -T.: Turon-iqbol, 2006 y.
8. Ochildiev A. Madaniyat falsafasi. -Toshkent.: Muxarrir, 2010y.
9. Bekmurodov M, Yusupova N. Madaniyat sotsiologiyasi. Toshkent.: Yangi asravlodi. -2010 y.
10. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik. Universitet, Toshkent.: - 2011y.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. –T.: Yozuvchi, 1996 y.
2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent.: O`zbekiston, 1998 y.
3. Boboiev X. va boshqalar. Madaniyatshunoslik asoslari. -Toshkent.: 2001 y.
4. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. – Toshkent.: 2002 y.
5. Quranboev Q., Abdurahmonov M, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch asarini o`qitish bo`yicha o`q.-usl.qo`ll. Universitet, T.: -2010y.
6. Rahmonov N., B.Matboboev. O`zbekistonning ko`hna turkiy–run yozuvlari. –T.: 2006 y.

Elektron ta'lim resurslari:

1. “Xalq so`zi” gazetasi –www info XS.Uz.
2. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor.uz.
3. “Ma'rifat” jurnali - www ma`rifat – inform.
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - www rzult academy freenet uz.
5. “Moziydan sado” jurnali - www moziy dostlink. Net
6. www.mfa.uz.
7. www.press-servise.uz.
8. www.literature.uz.
9. www. Ziyo net.uz.____

Institut ARM, oquv zali va kafedradagi adabiyotlar

1. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T., 1998 y.
2. Madaniyatshunoslik. Ma'ruza matni. T., 2000 y

XIX.TALABALAR BILIMINI REYTING TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH

Ushbu Nizom O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 07 avgust № 276-sonli “Talabalar bilimni nazorat qilish va

baxolashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizomni amaliyotga joriy etish haqida"gi buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida "Nizom" va tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlari Rayosati tomonidan tavsiya etilgan "Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida Nizom" va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333 – son buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirigida 2010 yil 26 avgustda 1981-1 son bilan Davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida Nizom"i va "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi (Davlat ro'yxati 1981-2-son, 13.12.2013 yil) hamda "Oliy ta'lim to'g'risidagi nizomga qo'shimcha kiritish haqida"gi (Davlat ro'yxati 1222-2 –son, 13.12.2013y) bo'yruqlari asosida ishlab chiqildi va Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda asosiy me'yoriy hujjat bo'lib hisoblanadi.

I. Umumiy qoidalar

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim **standartlariga** muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim **standartlariga** asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtda ma'lum qilish;

e) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

II. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

4. Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan fakultet o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

5. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

6. Talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish, interfaol shakllarda o'tkazilishi mumkin;

talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatdan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

oraliq nazorat – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qitiladigan fanlardan 1 ta oraliq baholash o'tkaziladi..

yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Ijtimoiy fanlar kafedrasida yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "YOzma ish" yoki test shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi yoki institut kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

"6¹. Nazorat turlarini o'tkazishda xolislikni ta'minlash maqsadida talabalar to'g'risidagi ma'lumotlar ularning nazorat ishlariga oliy ta'lim muassasasi tomonidan identifikatsiya kodi berish orqali shifrlanishi mumkin"

7. Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

8. Institut rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi yoki o'quv-uslubiy boshqarma rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

9. O'quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra talabalarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

III. Baholash tartibi va mezonlari

10. Talabalarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

11. Har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

joriy baholash - 45 ball;

oraliq baholash – 20 ball;

mustaqil ish - 5 ball;

yakuniy baholash – 30 ball;

Tibbiyot instituti talabalarini o'qitish uslublarini o'ziga xosligini inobatga olgan holda bilimni baholashda JB,TMI,OB va JBlarning qiymatini hisobga olish uchun quyidagicha koeffitsientlar qo'llaniladi:

| № | Baholash turi | Maksimal ball | Saralash bali | Koeffitsient |
|----|------------------|---------------|---------------|--------------|
| 1. | Joriy baholash | 45 | 24,75 | 0,45 |
| 2. | TMI | 5 | 2.75 | 0,05 |
| 3. | Oraliq baholash | 20 | 11,0 | 0,2 |
| 4. | YAkuniy baholash | 30 | 16,5 | 0,3 |
| | JAMI | 100 | 55,0 | 1 |

Sikl-blok tizimida o'qitiladigan fanlardan auditoriya soatlari 72 soatdan kam bo'lgan hollarda oraliq nazorat o'kazilmaydi va ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

joriy baholash - 45 ball;

mustaqil ish - 5 ball;

yakuniy baholash – 50 ball;

| № | Baholash turi | Maksimal ball | Saralash bali | Koeffitsient |
|----|------------------|---------------|---------------|--------------|
| 1. | Joriy baholash | 45 | 24,75 | 0,45 |
| 2. | TMI | 5 | 2.75 | 0,05 |
| 3. | YAkuniy baholash | 50 | 27,5 | 0, 5 |
| | JAMI | 100 | 55,0 | 1 |

12. Talabaning reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimiga alohida qayd qilinadigan malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi – 100 ballik tizimda baholanadi.

13. Talabaning Ijtimoiy fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

a) 86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qoʻllay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega boʻlish.

b) 71-85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qoʻllay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega boʻlish.

v) 55-70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega boʻlish.

v) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi 0-54 ball bilan baholanishi mumkin:

aniq tasavvurga ega boʻlmaslik;
bilmaslik.

14. Namunaviy mezonlar asosida Ijtimoiy fanlardan joriy va oraliq nazoratlar boʻyicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga eʼlon qilinadi.

15. Namunaviy mezonlarga muvofiq Ijtimoiy fanlar boʻyicha yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, institut oʻquv boʻlimi bilan kelishilgan holatda oʻquv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

16. Talabalarining oʻquv fani boʻyicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

17. Talabanning fan boʻyicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \cdot O'}{100}$$

bu erda:

V– semestrda fanga ajratilgan umumiy oʻquv yuklamasi (soatlarda);

O' –fan boʻyicha oʻzlashtirish darajasi (ballarda).

18. Fan boʻyicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 foizi saralash ball etib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 va undan yuqori foizidan ortiq ball toʻplagan barcha talabalar ushbu fan boʻyicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

19. Talabanning semestr davomida fan boʻyicha toʻplagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq toʻplagan ballari yigʻindisiga teng.

IV. Nazorat turlarini oʻtkazish muddati

20. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida oʻtkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida oʻtkaziladi.

21. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi yoki o'quv ishlari bo'yicha prorektorning ruxsatnomasi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

22. Semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yakuniy yoki TMI nazorat turlarini har biri bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin (bahorgi semestr natijalari bo'yicha esa, talabalarning yozgi ta'tili hamda professor-o'qituvchilarning mehnat ta'tilidan so'ng) qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. SHu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

23. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekani ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekani taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Institutda talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki yakuniy nazorat bo'yicha to'plagan bali ushbu nazorat turi umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor hisoblanadi

24. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

V. Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi

25. Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimining "O'quv rejasida ajratilgan soat" ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, "Fandan olingan baho" ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

26. Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnallari hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga etkaziladi.

27. YAkuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

28. Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi.

29. Talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimiga va reyting qaydnomasiga talabalarning fan bo'yicha reytingi qayd etiladi.

Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

30. Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belglashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

31. Talabalarning nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv – uslubiy bo'linmalarida kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

32. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va institut Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

VI. YAkuniy qoidalar

33. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

34. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

МУНДАРИЖА

I. ANNOTASIYA

2. NAMUNAVIY DASTUR

3. ISHCHI DASTUR

IV. MA'RUZALAR

V. SEMINAR MASHG'ULOTLAR

VI. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

VII. FAN BO'YICHA BILIMLAR, MALAKA VA KO'NIKMALARNING REYTING NAZORATI VA BAHOLASH MEZONLARI

VIII. ADABIYOTLAR

IX. MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARNING TARKIBIY QISMI VA ISHLANMALARI

X. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN USLUBIY KO'RSATMALAR

XI. NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

XII. TARQATMA MATERIALLAR

XIII. GLOSSARIY

XIV. FAN BO'YICHA NAZORAT MATERIALLARI

XV. INNOVASION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: TEXNIK VOSITALAR BILAN TA'MINLANGANLIK VA ELECTRON TA'LIM MATERIALLARI RO'YXATI

XVI. OQUV-USLUBIY MAJMUA MUALLIFI TOMONIDAN YARATILGAN USLUBIY QO'LLANMALAR:

XVII. TALABALAR MUSTAQIL ISHINING USLUBIY ISHLANMALAR BILAN TA'MINLANGANLIGI

XVIII. FAN BO'YICHA ADABIYOTLAR

XIX. TALABALAR BILIMINI REYTING TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH